


94
Ж-64

KOMILOVA N.K., OBLAQUOV H.A.

MADANIY GEOGRAFIYA



91
Ж-64

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIV VA O'RТА MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI

O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

Komilova N.K., Oblaqulov H.A.

MADANIY GEOGRAFIYA

O'quv qo'llamma

5A140602- *Geografiya (o'rGANISH ob'ekti bo'yicha)
mutaxassisligi uchun*

- 13713/14 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV VA O'RТА
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DANLAT
PЕДАГОГИКА УНИВЕРСИТЕТИ

AXBOROT RESURS MARKAZI

KIRISH

UO'K: 91(075.8)
KBK: 26.8ya73
K 64

Komilova N.Q., Oblaqulov H.A.
Madaniy geografiya [Matn]: o'quv qo'llanna / N.Q. Komilova,
H.A. Oblaqulov. - Toshkent: «ZEBO PRINT», 2021. - 184 b.

Keyingi yillarda mustaqil respublikamizda an'anaviy iqitisodiy geografiyaning sotsiallashuvi va uning keng ma'nodagi sotsial geografiyaga aylanib borish jarayoni sodir bo'lmoqda-ki, bu albatta ijobjiy holatdir. Imiy tadqiqotlarning bosh mavzusi sifatida ko'proq ilgarilar, samoat, qishloq xo'jaligi, transport va boshqa massalalari yo'lgan bo'lsa, bugungi kunga kelib, aholi va u bilan bevosita bog'liq bo'lgan jihatlarni o'rGANISHGA, ayniqsa, turmush tarzi, urf-odatlari, dini, xulq-atvori bilan bog'liq jihatlarni o'rGANISHGA qiziqish orribormoqda.

Mas'ul muhabbir:

N.I.Safarova g.f.n., dotsent

Taqrizechilar:

Kolonov B.H. g.f.n., dotsent

Qarshiboyeva L.K. g.f.n., dotsent

Egamberdiyeva U.T. dotsent

Mazkur o'quv qo'llanna madaniy geografiyaning mohiyati, asosiy jarayonlari, rivojlanish qonuniyatları ko'rib chiqilgan. O'quv qo'llanna O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlari 5A140602—Geografiya (o'rGANISH ob'yekti bo'yicha) mutaxassisligi uchun tayyorlashda Abu Nasr Farobi, Abu Rayxon Beruniy, Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Ali ibn Sino singari buyuk ajoddalarimiz ilmiy meroslariga keng murojaat etildi. Yuqoridaqilardan kelib chiqib shuni e'tirof etish munkinki, oliy o'quv yurtharinning madaniy geografiya o'quv dasturi asosida tayyorlangan ushbu o'quv qo'llannaning yaratilishi dolzarb ahamiyatga ega. Mazkur o'quv qo'llanna O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi", Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining ta'lim to'g'risidagi me'yoriy hujatlari, hamda yetakchi geograf olimlar tomonidan ilgari surilgan ilg'or tajribalar asosida yaratildi.

O'quv qo'llanna O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 31 maydagi 237-soni buyrug'iiga asosan 237-191ro'yxami bilan nashrga tavsiya etilgan.

I-MAVZU. MADANIY GEOGRAFIYANING OBYEKTI, PREDMETI VA TUZILISHI

Reja

1. Madaniyat va madaniyat geografiyasi haqida tushuncha.
2. Madaniy geografiyaning asosiy tarmoqlari.
3. Til geografiyasi.
4. Din geografiyasi.
5. Xulq-atvor geografiyasi.
6. Madaniyat-mintaqaning muhim belgisi sifatida

Maqsad: *talabalarga madaniy geografiyaning mustaqil san sjafatidagi ahamiyati, uning obyekti, predmeti va tuzilishi haqida tushuntirish.*

Tayanch so'z vaiboralar: *Madaniyat tushunchasi, etnogeografiya, til geografiyasi, din geografiyasi, iqitsodiy geografiya, jahon mamlakatlari, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy-geografik tadqiqotlar:*

Madaniyat tushunchasi fâqatgina san'at bilan bog'liq fâoliyatga xos tushuncha emas, garchi musiqiy va badiiy fâoliyatni ta'riffash uchun "madaniyat" termini qo'llanilsa-da, ushbu tushuncha biror-bir ijtimoiy gunruh, sinf yoki xalqning ma'lum davrida qo'liga kiringan yutuqlarini ifoda etadi. Madaniyat so'zi Madina shahri nomi bilan bog'liq holda kelib chiqqan. Fanda, odamlar o'rtaisdagi muloqotda madaniyat so'zi bilan bir qatorda kultura so'zi ham ishlataladi.

Kultura so'zi lotinchha "culture" so'zidan olingan bo'lib, "ishlov berish", "ekib o'stirish" ma'nosini bildiradi. Rus faylasuftari N.Berdyaev va V.Rozinovlar "kultura" so'zining "kult", ya'ni diniy ibodat, sig'inish so'zidan kelib chiqqanligini qayd etganlar. Fanda, odamlar o'rtaisdagi muloqotda madaniyat so'zi bilan bir qatorda kultura so'zi ham ishlataladi.

Qadimgi Rimda madaniyat deganda shaxsning tarbiyalanganligi, ma'rifatlilik darajasi tushunilgan. Keyinroq madaniyat deganda shaxsning qadr-qimmati, takomilligi tushunilgan. Nemis faylasufi F.Shiller kishilardagi insonyilik fazillarini, uning ichki dunyosi, ma'naviyilik darajasini madaniyat, deb tushuntirigan.

Estatish lozimki, madaniyat atamasini ilm-fanga amerikalik

madaniyatshunos olim Eduard Teylor kiritdi va bu borada dunyoning turli tillarida bir qator kitoblar va 250 dan ortiq maqolalarni nashr etgan.¹

Eduard Taylor - madaniy rivojlanishning evolyutsion nazariyasing asoschisi hisoblanadi(-rasm). Dinning kelib chiqishi haqidagi animistik nazariyaning asoschisi. U madaniyatni jamiyatdagi odamlar hayotini yaxshilash maqsadida ongli ravishda yaratilgan oqiloni vosita deb hisoblagan.

Har qanday jamiyatdagi odamlarning har bir keyingi avlodи avvalgisidan farqli, rivojlangan madaniy muhida yashaydi. Jamiyatda qancha bilmli, madaniyatli insonlar ko'p bo'lsa, jamiyat shunchalik rivojlangan bo'hadi, u deydi.

Madaniyat so'zining ma'no-nazmumini quyidagicha tushunish mumkin:

1. Madaniyat – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, asori-atiqalar yig'indisi.
2. Madaniyat – u yoki bu jamiyatga xos falsafiy qarashlar, ilm, fan, maorif, san'at, axloq, din, huquq, siyosat maishiy xizmat ko'rsatish darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy taraqqiyot darajasi.

**1-rasm. Eduard
Teylor
(1836-1917)**



¹ Eduard Bernet Teylor (1832 - 1917) - ingliz etnolog, madaniyatshunos, diniy marosim va marosimlar tadqiqotchisi. Etnologiya va antropologiyaning asoschilaridan biri. Teylor 1832 yilda Londoming Kambervell chekkasida dindor sanoatchi oиласида tug'ilgan. Uning rasmiy ta'limi Quaker maktabi bilan chektangan, shundan so'ng u otasiga yordam bera boshlagan. 1855 yilda shifokorlarning talabi bilan Teylor uzoq safarga oltanadi. 1856-yilda Kubaga qilgan safari chog'ida u boy filantrop G.Kristi bilan uchrashib, uning antik davri o'rganishiga qiziqishini uyg'otdi. Angliyaga qaytib, Teylor o'z-o'zini tarbijalash va etnografiya va antropologiya sohasida ilmiy tadqiqotlar bilan shug'ullanadi. U o'zining birinchi rasmiy lavozimini faqat 1883 yilda, Oksford universitetidagi Etnografiya muzeining kuratori bo'lib oldi. 1884 yilda u Oksfordda antropologiya bo'yicha o'qituvchi, 1886 yilda esa Aberdeen universitetida assistent lavozimiga tayinlangan. Taylor Angliya Qirolik jamiyatiga a'zosi bo'lgan va ikki marta Buyuk Britaniya va Irlandiya Antropologiya instituti prezidenti etib saylangan. E. Teylor 1917 yilda Oksfordda vafot etdi.

3. Madaniyat - insonlar hayotida, jamiyat rivojida shakllangan milliy, umuminsoniy qadriyatlar majmui.

4. Madaniyat - har bir kishining tarbiyalanganligi, insoniylik fazlatlari va ijodiy faoliyati ifodasidir.

Madaniyatni qo'llanilishiha qarab shaxsiy, oilaviy, kasbiy, tabaqaviy, milliy madaniyat, jamiyat madaniyi, umuminsoniy madaniyat kabi shakllarga bo'lib o'rganish ham mumkin. Kundalik hayotda "muomala madaniyati", "mehnat madaniyati", "nutq madaniyati", "ishlab chiqarish madaniyati", "xizmat ko'rsatish madaniyati", "dam olish madaniyati", "huquqiy madaniyat" kabi tushunchalar ham qo'llaniladi.

Madaniyat tushunchasi-eng avvalo quyidagicha izohlanadi:

1. Madaniyat geografiyasi kishilarining hayot tarzi, kashfiyotlari, hudud va ilohiy kuchlarga munosabatlarni o'rganish sifatida tushuniladi.
2. U qanday holatda va nima sababdan turli joylarda turli ko'rinishlarda ifodalananishini tadqiq qiladigan inson geografiyasi tarkibidagi mustaqil yo'nalişdir.
3. U madaniyatning moddiy komponentlari va nomoddiy komponentlarini o'rganishini taqozo etadi.
4. Madaniyatning moddiy komponentlari kiyim-kechak va arxitektura kabi aniq moddiy ko'rinishdagi buyumlarni qamrab oladi.
5. Madaniyatning nomoddiy komponentlari odamlarning o'yifklari va g'oyalari ularning dini va e'tiqodlarini qamrab oladi'. Madaniy geografiya tarkibiga - ba'zi asosiy madaniy hodisalarga til, din, turli iqtisodiy va davlat tuzilmalari, san'at, musiqa va bosqqa madaniy jihatlar kiradi.

Ayish lozimki, globallashuv, bu sohada tobora muhim ahamiyat kassb etmoqda, chunki, bu madaniyatning o'ziga xos jihatlarini butun dunyo bo'ylab osongina tarqalishiga imkon beradi.

MADANIYAT GEOGRAFIYASI



2-rasm. Madaniyat geografiyasi tuzilmasi

Madaniyat geografiyasi tarkibiga ko'ra ikki qismga bo'linadi. Ular tarmoq va majmuasi yo'nalişlari bo'lib, mantiqan bir-birini to'ldiradi (2-rasm)

Madaniyat inson hayotida muhim vazifalarni bajaradi. Ular orasida quyidagilarni alohida ta'kidlab ko'rsatish mumkin. Madaniyat, avvalo, ijtimoiy vazifalarni, ya'n shaxsni, odamni inson qilib shakllantirish va tarbiyalash vazifasini bajaradi. Madaniyat har bir shaxsning insoniyat yaratgan bilimlarni, ma'naviy qadriyatlarni, tarib-qoidalarni o'zlashtirib olish, tarbiyalash, jamiyatning to'fa huquqli a'zosi sifatida faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantirish vazifasini bajaradi. Insonning tabiat hukmonligidan ajralib chiqishi madaniyatga xos ayrim elementlarning shakllanishi bilan birga sodir bo'ladi. Aynan madaniyat orqali har bir shaxs jamiyatda to'plangan tajribalarni, an'analarni va urf-oddatlarni, turmush tarzini o'zlashtiradi, ular keyingi avlodlarga yetkaziladi.

Madaniyat axborotlarni o'zlashtirish, bilish, tushunish vazifasini bajaradi. Madaniyat inson uchun dunyonи bilish, dunyo to'g'risida turli ma'lumotlar, axborotlar olish, ularni avloddan avlodga o'tib

¹ Dr Christian Sawyer ap* Human geography crash course. Printed in the United States of America. Green Edition. -2012.. 67-P. 244

borishini ta'minlaydi.

Madaniyatni tili, dini, an'analari, qadriyatlari, iqtisodiyoti yaqinligini inobatga olib, milliy, mintaqaviy, davriy jihatdan bir necha turlarga bo'lish keng tarqalgan. Milliy madaniyatda diniy, axloqiy, badiiy, moddiy, geografik yaqinlik, umumiylik nazarda tutiladi.

Madaniyatni irqiy omlini nazarda tutgan holda bo'lish holatlari ham uchraydi. Fransuz faylasufi J.Gobino jamiyat, madaniyat, din, til to'laligicha irqiy jihatlar bilan bog'liq, madaniyat mayjud tabiiy sharoit bilan bog'liq deb tushuntiradi va Yevropa madaniyatini negroid madaniyatdan eng yuqori, ustun darajada deb hisoblaydi. Shaxsni barkamol qilib yetishtirishda jamiyat madaniyatining bir qator tizimlari alohida ahaniyatga ega. Siyosiy madaniyat – kishilarning siyosiy ongi, manfaatlari, maqsadlarini ifodalovchi siyosiy-huquqiy g'oyalar majmuidir. Huquqiy madaniyat qonunlarni bilish, ularga amal qilish, huquqiy ong, huquqiy saviya, huquqiy munosabatlar, huquqiy faollilik madaniyatidir.

Iqtisodiy madaniyat deganda, iqtisodiy bilim, iqtisodiy ong, iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy-iijtimoiy munosabatlar tushumiladi. Shaxs iqtisodiy madaniyati jamiyat iqtisodiy madaniyatining tarkibiy qismidir. Shaxs iqtisodiy madaniyatining kamol topishi uchun iqtisodiy qadriyatlarni, iqtisodiy bilimlarni puxta egallashi lozim, shundagina u erkin iqtisodiy faoliyat yurita oladi.

Axloqiy madaniyat tarkibiga axloqiy ong, axloqiy munosabat va axloqiy faoliyat kiradi. Jamiyat axloqiy madaniyat, axloqiy qadriyatlarni tizimini ifodalasa, shaxs axloqiy madaniyatida axloqiy qadriyatlarning individuallikda qanday darajada aks etishi ifodalananadi.

Barkamol insomni tarbiyalashda ekologik madaniyat, estetik maddaniyat, din, fan va boshqalar ham muhim ahaniyatga ega.

Ko'pgina hollarda "madaniyat" va "sivilizatsiya" so'zleri yonmaydon ishlataladi. Masalan, "Qadimgi Misr sivilizatsiyasi", "Qadimgi Misr madaniyat'i". Bu attamalar go'yo bir xil ma'noni anglatganday ko'rindi. Aslida esa, sivilizatsiya va madaniyat bir-birlaridan farq qiluvchi tushunchalardir. Faylasuflardan O.Shpengler va A.Berdyaev asarlarda sivilizatsiya – bu insoniyat borlig'ning moddiy-texnik tomoni, madaniyat esa uning ma'naviy tomonidir, deb tushuntiriladi.

Madaniy geografiyaning rivojlanishida amerikalik geograf Karl

Sauer'ning o'mi katta. Olim zamona viy madaniyat geografiyasining asoschisi hisoblanadi. U landshaftlarni geografik jihatdan o'rganishni muhim deb hisoblaydi va madaniy landshaft tufayli rivojlanib borayotganligini, shuningdek, landshaftni rivojlantirishga ham yordam berayotganini aytdi.

Olim tabiiy geografiya, antropologiya, tarix, arxeologiya va sotsiologiyaga qiziqqan (3-rasm). U yagona geografiya fanining taraf-dori bo'lgan. edi. Sauer insonlarning madaniyati tabiiy xilma-xillik bilan chambarchas bog'liq. Amerika hindulari qabilalarining madaniyatni va urf-o'datlari, turmush tarzi, iqtisodiy holatidagi hududiy farqlarni tahvil qildi. Karl Zauerning geografiya haqidagi qarashlari horologiyaga va fransuz inson geografiyasi maktabiga juda yaqin edi.

Madaniyat – insoniy munosabatlarda, ya'ni bir avlodning boshqqa avlodga yoki guruhga bo'lgan fikrlari va tasavvurlari yordamida hosil bo'ladı. Insoniy madaniyatarning komplekslik xususiyatlari mayjud bo'lib, bu esa ularni ihmiy o'rganishni biroz qiyinlashtiradi. Hattotki eng kichik va sodda madaniy guruhlarda ham (misol uchun Amazonkadagi kichik ovchilar qabilasida yoki mikroqishloq aholisida) katta miqdordagi madaniy bilimlar o'zlashtirilgan bo'lishi mumkin.

Madaniyat geografiyasi - iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir qismi bo'lib, madaniy farqlarning hududiy jihatlarini o'rganuvchi yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, u, eng avvalo, quyidagicha izohlanadi: Madaniyat geografiyasi kishilarning hayot tarzi, kashfiyotlari, hudud va ilohiy kuchlarga munosabatlarini o'rganish sifatida tushuniladi. Madaniyatning moddiy (kiyim-kechak, arxitektura va b.) va nomoddiy (tili, dini va e'tiqodi, xulq-avtori va h.k.) komponentlarning hududiy xususiyatlарини o'rganishni taqozo etadi.



3-rasm. Carl
Ortwin Sauer
(1889 – 1975).

¹ Carl Sauer on Culture and Landscape:Readings and Commentaries, edited by William M. Denevan and Kent Mathewson. Baton Rouge, LA:Louisiana State University Press, 2009 ISBN 978-0-8071-3394-1.

2-MAVZU. AHOLINING SOTSIAL RIVOJLANISHI VA TUZILISHI

Madaniyatning o'ziga xos geografik ko'rinishi – bu tildir. Til insoniyat madaniyatidagi mavjud aloqa vositasidir. U bir guruh a'zolarini bir-birlari bilan o'zaro cheksiz xabarlashish imkonini beradi. Biroq, u bir til guruhi a'zolarini boshqa til guruhi a'zolarini bilan xabarlasha olmasliklarga ham sabab bo'tadi. Bugungi kunda shevalarni hisobga olmaganda deyarli 3 mingta tilda gapiriladi.

Madaniyat geografiyasi aholi so'zlashuvida mavjud bo'lgan til oilalarini ham o'rganadi. Yer shari aholisi quyidagi til oilalariga mansub:

1. Ural tillari oilasi – Rossiyaning Yevropa qismlari va Sibir xalqlari.
2. Olttoy tillari oilasi – Turklar, mə'sg'ullar, O'rta Osiyoning Qirg'iziston, Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston kabi davlatlar xalqlari.
3. Xitoy-Tibet tillari oilasi – Sharqiy va Janubiy Osijo xalqlari.
4. Malayziya tillari oilasi – Hind va Tinch okeanidagi xalqlar.
5. Dravit tillari oilasi – Hindiston xalqlari.
6. Monxmer tillari oilasi – Hindxitoy mamlakatlari xalqlari.
7. Semit, hamit tillari oilasi – Janubi-g'arbiy Osijo va Afrika, Shimoliy arab xalqlari.
8. Bantu tillari oilasi – Afrikaning janubiy xalqlari.

Til madaniyatning muhim, ammo ilmiy qoidalarga mos kelmaydigan bir elementidir. U aholining ba'zi bir qismini bog'laydi, ammo boshqa qismlarini ajratadi. U joylardagi o'zgarishlar va rivojlanishlar tezligini, o'zgarmas madaniy ko'rinishlarini ko'rsatadi.

Madaniyat geografiyasining ikkinchi muhim tarmog'i bu dindar geografiyasidir. Ma'lumki, din jamiyat hayotida, kundalik turmushimizda juda muhim rol o'yaydi. Bunda davlatning iqtisodiy rivojlanganlik va aholining bilim darajasi katta ahamiyat kasb etadi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Madaniyat geografiyasi tuzilmasini izohlang?
2. Madaniyat geografiyasining ikkinchi muhim tarmog'ini izohlang?
3. Karl Sauerning fanga qo'shgan hissasini izohlang?
4. Til oilalarini sanab bering?

TUZILISHI

Reja:

1. Aholi - ijtimoiy geografik taddiqotlarning asosi ekanligi. Aholining ham ishlab chiqaruvchi, ham iste'molchilik roli.
2. Aholining geodemografik holati.
3. Aholi soni va uning o'sishi, joylashuvi.
4. Shahar va qishloq aholisi. Urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishi.
5. Aholi zichligi va uning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatları.
6. Aholi migratsiyasi va uning ijtimoiy oqibatları.
7. Aholini ijtimoiy tahlil qilishning ahamiyati.

Maqsad: talabalarda aholining sotsial rivojlanish xususiyatlari haqidagi tushunchalar hosil qilish

Tayanch so'z va iboralar: aholi geografiyasi, aholi zichligi, assimilatsiya, demografik o'tish, rivojlanayotgan mamlakatlari, N.N. Baranskiyning «sotsial geografiya» borasidagi qarashlari, ijtimoiy-geografik tadqiqotlar.

Aholi ko'pchilik fanlar uchun umumiy taddiqot obyektiidir. Bunda har bir fan o'zining o'rganish predmetiga ega. Jumladan, demografiya aholining takror barpo bo'tishi masalalari bilan shug'ullansa, sotsiologiya fani jamiyatdagi turli kishilar guruhlari o'rtasida paydo bo'lagan munosabatlar, jarayonlar qonuniyatlarini o'rganadi. Aholi iqtisodiy geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiyaning tarkibiy qismi bo'lib, aholi sonining tadrijiy o'zgarishlari, joylashuvi, tarkibi va aholi manzilgohlarini o'rganadi.

Iqtisodiy geografiyaning zamonaeviy iqtisodiy va sotsial (ijtimoiy) geografiyaga aylanishida aholi geografiyasi katta rol o'yaydi. Shu bilan birga, ko'pchilik olmlar aholi geografiyasini butunlay mustaqil fan sifatida iqtisodiy geografiya bilan yonna-yon qo'yadilar. Bunda, ular ushbu fanlarning tadqiqot predmetlarini bir-biridan uniq farqlanishini sabab qilib ko'rsatilar. Shuni alohida ta'kidlash joizki, bevosita aholi (jamiyat) va uni ijtimoiy rivojlanishining hududiymuammolarini o'rgamuvchi ijtimoiy geografiyaning vujudga

kelishida aholi geografiyasi nazarli metodologik asos vazifasini o'taydi.

Iqtisodiy va aholi geografiyasining o'zaro birlashuvidan iqtisodiy va sotsial geografiya vujudga keldi. Ushbu jarayonda aholining qanchalik muhim ahamiyatga ega bo'lismeni N.N.Baranskiy quyidagicha ifodalagan edi: «Iqtisodiy geograf shuni unutmashligi kerakki, aholi nafaqat ishlab chiqaruvchi, balki, iste'molchi hamdir va shunday qilib iqtisodiyot boshdan oyoq aholi bilan bog'langan».

Ijtimoiy xususiyatlarga ko'ra aholi:

- ishlab chiqarishning subyekti;
- moddiy va ma'naviy boyliklarning iste'molchisi;
- takror barpo bo'luvchi;

► tabiat va xo'jalik o'rtaisdagi aloqa va o'zaro ta'sirining bosh bo'g'ini, kabi sifatlarga ega.

Aholi geografiyasining rivojlanishi iqtisodiy geografiya bilan chambarchas bog'i qib bo'lib, XX asning 40-yillariga to'g'ri keladi. Bunda avvalo N.N.Baranskiy va R.M.Kabolarning xizmatlarini ta'kidlash kerak.

Hozirgi davrda aholi geografiyasi tadbiqotlarning ikki yo'nalishi aniq shakllangan. Bularga, birinchidan, aholini o'zini o'rganish va ikkinchidan, aholi manzilgohlarini tadqiq qilish kiritiladi. Bu ikki yo'nalish bo'yicha olib boriladigan tadbiqotlar dunyo miqyosida va uning ayrim mintaqalari, alohida davlatlar doirasida ham shuningdek, shahar aglomeratsiyalari, shaharlar, alohida olingan aholi manzilgohlaridan tortib siyosiy-ma'muriy va iqtisodiy biriklilar miqyosida ham amalga oshiriladi.

Aholi geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiya va boshqa turdosh fanlarning tadqiqot usullaridan keng foydalananadi. U mohiyatan aholishunoslik va demografiya bilan juda yaqin turadi.

Hozirgi davrda aholi geografiyasi tarkibida quyidagi asosiy yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- aholi sonining tadirij o'zgarishlari,
- joylashuv va uning shakllari;
- aholining takror barpo bo'lishi;
- abolining etnik, jins-yosh va ijtimoiy tarkibi;
- mehnat resurslari;
- aholi migratsiyasi;

* irqlar va dirlar geografiyasi.

Aholi bir vaqtning o'zida ham ishlab chiqaruvchi, hamda moddiy va ma'naviy ne'matlarning iste'mol-chisidi (3-rasm). Shu bilan birga, aholi barcha ijtimoiy jarayonlarning boshqaruvchisi ekanligini ham unutmaslik lozim. Aholining bunday jihatları o'z navbatida, uni nafaqat takror barpo bo'lishi, balki iqtisodiy jihaddan ham avvalroq tadqiq etilishiga asos bo'ladi. Umuman olganda, aholi geografiyasi iqtisodiy va sotsial geografiyaning yaxshi o'lashtirilgan tarmoqlaridan biridir.

Hozirgi davrda aholi geografiyasi oldida turgan vazifalarining nazarliy, amaliy, ta'limiylarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) *umumnazariy vazifalariga*: jamiyat rivojlanishining umumiyy qonunlari mohiyatini anglashga yordam beruvchi aholining joylashuvvi va uning tabiat bilan o'zaro ta'siri, takror barpo bo'lishi qonuniyatlari va jarayonlарни о'рганish;
- 2) *amaliy vazifalariga*: ko'pgina amaliy vazifalarini bajarish; aholi sonini hisobga olish; mehnat balanslarini tuzish; aholi migratsiyasini o'rganish va uning kelajak o'zgarishlarini bashhorat qilish;
- 3) *ta'limiylariga*: aholi geografiyasi bo'yicha bilimlarni ommalashtirish.

Sobiq Ittifoq davridan boshlab, geograf olimlarning ko'pchilik qismi aholi geografiyasini iqtisodiy va sotsial geografiyaning muhim tarmog'i deb hisoblaydilar. Shuningdek, uni mustaqil fan sifatida qarovchilar ham mavjud. Zamonaliv iqtisodiy va sotsial geografiya fanlari tizimida, aholi geografiyasi uning «iqtisodiy» hamda «sotsial» qanotlari orasidagi ko'priq vazifasini o'taydi. Demak, aholi geografiyasi xo'jaliklar va tabiiy resurslar geografiyasi bilan o'zaro chambarchas bog'i. Shuningdek, u tabiiy geografiya, mamlakatshunoslik va kartografiya fanlari bilan ham bog'langan.

Ijtimoiy fanlardan quyidagilar aholi geografiyasi bilan aloqador: ** demografiya*: (yunoncha, demos — «xalq») aholini takror barpo bo'lismeni o'rganadigan fan;

- *etnografiya*: (yunoncha, ethnos — «qabilal», «xalq») qabila, millat, etnoslarning kelib chiqishi hamda ularning madaniyati va hayot tarzini o'rganadigan fan;
- *antropologiya*: (yunoncha, antropos — «odom») insон jismi va uning kelib chiqishi, shuningdek, insoniyat irqlarini vujudga kelishi

va tarqalishi haqidagi fan;

• *sotsiologiyu*: (lotincha sotsialis — «kumumjamiyat») jamiyatning rivojlanish qonunlari, aholi guruhlari o'tasida hayot va mehnat faoliyati jarayonida vujudga keluvchi munosabatlardan haqidagi fan;

• *ekologiya*: (yunoncha oykos — “uy”, “yashash joyi”) insonnинг atrof — muhit bilan o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan;

• *rekreatsiya geografiyasi*: (lotincha rekreatsio-«tiplash») aholining dam olishini barcha turlarini o'rganadigan fan va h.k.

Yuqoridagilardan tashqari, aholi geografiyasi bilan *tibbiyot geografiyasi*, *mehnat iqtisodiyoti*, *sotsial gigiyena*, *shaharsozlik va rayon planirovksi* kabi fan tarmoqlari ham to'g'ridan — to'g'ri bog'langan.

Aholi geografiyasi ijtimoiy geografiyanı shakllanishida poydevor bo'ldi. Chunki, ijtimoiy geografiyani inson yoki aholisiz tassavvur etib bo'lmaydi. Ijtimoiy geografiyaning diqqat markazida doimo aholi va uning ijtimoiy ehtiyojlari, munosabatlari yotadi.

Aholini geografik o'rGANISHI. Qadim zamonalardan boshlab olimlar turli mamlakatlarning tabiatini va xo'jaligini o'rganib, tasvirlash bilan birga ularning aholisini tavsiflashga ham katta e'tibor beriganlar. Aholini o'rganish bo'yicha tabaqalanish, ya'mi demografiya hamda ethnografiyaning vujudga kelishi XVIII asming boshlariga kelib ro'y berdi. XIX asming oxirlarida esa antropogeografiya (Germaniyada, F.Rattsel) shakklandi. Uning negizida geografik determinizm, ya'mi kinson va xalqlarning ruhi va jismiga tabiyi muhitning hal qiluvchi ta'sir etish g'oyasi yotgan.

XIX asming oxirlari va XX asming bosqlariga kelib, Fransiyada inson geografiyasi shakklandi. Uning yirik namoyondalarini (Vidal de la-Blash, J.Bryun) asosiy e'tiborni tabiat va jamiyatning o'zaro ta'siri masalalariga qaratdilar. Mazkur yo'naliishing vakillari antropogeografiyadan farqli o'laroq, aholining geografik rivojlanishi xususiyatlarining sabablarni nafaqat tabiiy, balki, iqtisodiy, ijtimoiy, tarixiy va rubiy omillar bilan ham tushuntirildilar.

Aholining geodemografik holati. Aholi soni va tarkibi, uning bajaradigan vazifalari bilan bog'iqli holda baholanaadi. Aholi avvalombor o'zidan ko'payadigan, o'zimi takror barpo qiladigan biosotsial organizmdir. Aholi shu bilan birga jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi va iste'molchisidir. Ana shu niqtai nazardan

aholi soni tarkibi, o'sish sur'atlari, joylashishiiga xos xususiyatlarini tahlii qilish aholida ahamiyat kasb etadi.

Insoniyat tarixining katta davri davomida ya'ni neolit davridan mitodning XIX asrigacha aholi soni va tarkibi an'anaviy deb ataluvchi tip ta'sirida takror barpo etiladi. Ungajuda yuqoridagihar 1000 kishiga nisbatan tug'ilganlar soni 40-45 promille ni tashkil etadi tug'ulish hamda yuqori darajadagi o'sish (30-35 %) 8% past darajadagi tabiiy o'sishiga xos edi. Aholining takror barpo qilinishining ushbu tipi iqtisodiyot va unga xos ijtimoiy munosabatlardan bevosita aloqador edi.

Yer shari aholisi butun tarixi davomida seklinlik bilan o'sdi. Buning pasti, insonning tabiatga qaramligi, ishlab chiqarish darsino 'rsatdi.

XIX asrga kelib, dunyo aholisi sonida o'sish tezlashdi va, ayniqsa, kishini tashkil qilgan bo'lsa, 50-yillarda esa 80 mln kishiga yetdi. 1987-yilda yer shari aholisi soni 5 mlrd kishi, 2018-yilda esa 7,6 mlrd kishidan ortib ketdi. Birgina XX asming o'zida dunyo aholisi 3,5 barobarga ko'paydi. Aholi soni ayniqsa, 60-70-yillarda tez ko'paydi. Uning bunday tez ko'payishi ilmiy adabiyotlarda «demografik portlash» deb ataladi. Ushbu jarayon ko'proq Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasining rivojlanayotgan davlatlari uchun xosdir.

Bir necha ming yillar mobaynida o'lim juda katta va aholi o'sishining past bo'lishligi o'zining obyektiv sabablariga egadir. Dastavval, bu moddiy va sanitat gigienik shart-sharoitlarning qoniqarsiz uhvolda ekanligi qolaversa, vaqt-vaqt bilan takrorlanib turuvchi ocharchilik, o'lat, vabo va chechak epidemiyalari natijasida yuz minglab odamlarning qirilib ketishi. Yer sharda bunday ofatlar 200-400, 1600-1650-yillar ichida qayd etilgan bo'lib, o'sha davrlarda aholi soni umuman o'smadi, 1300-1400 yillar davomida qora o'lat epidemiyasining ta'sirida sayyora o'z aholisining 1/4 qismidan ajradi, uning soni keskin kamaydi. Urushlar XIX asrda 5,5 mln, XX asrda 90 mln kishining yostig'ini quritdi.

XX asrgacha bo'lgan davrda demografik jarayonlarda sezilarni miqdor va sifat o'zgarishlari bo'lib o'tmadı (1-jadval). Undan keyingi davrda aholining tabiiy harakati ko'rsatkichlarida demografik

o'tish jarayoni boshlandi. U oila bajaradigan vazifalarning keskin o'zgarishi, turmushning nisbatan yaxshilanishi, aholining yosh tarkibidagi siljishlar boshqa omillar bilan bog'langandir.

Demograf olimlar demografik o'tish jarayonini 4 ta ketma-ket keluvchi fazani o'z ichiga olishini ilmiy asoslab berganlar

Birinchи faza – tug'ilish bilan o'lim juda yuqori bo'lib, orasidagi tafovut, ya'nı aholi tabiiy ko'payishi minimal darajada saqlanadi. Bunday demografik vaziyat "an'anaviy turg'unlik" deb ataladi.

Ikkинчи faza – ijtimoiy-iqtisodiy va fan-teknika taraqqiyoti tufayli aholining turmush darajasini yuksalishi, yashash sharoiti yaxshilanishi va sog'iqlini saqlash tizimining rivojanishi, odamlarning o'rtacha umr davomiyligi o'sishi, o'lim darajasining pasayishi va tug'ilishning barqarorligi hisobiga aholining tezda ko'payib, "demografik portlash" sodir bo'ladi.

Uchinchi faza – o'llinning pasayish jarayoni o'z poyoniga yetib, turmush darajasining yuksalishi bilan tug'ilish darjasini kamaya boshlaydi.

To'rtinchi faza – tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlari ancha past bo'lib, tabiiy ko'payish minimal darajada kuzatiladi yabu "zamonaviy turg'unlik" deyiladi.

Aholi tabiiy o'sish sur'atlari aholining *yosh-jins tarkibiga* ta'sir ko'rsatadi. Aholi yosh tarkibiga ko'ra bolalar (0–14 yosh), mehnat yoshidagilar (15–64 yosh) hamda keksalar (65 yosh va undan yuqori) guruuhlarga ajratiladi. Yosh guruuhlari orasidagi nisbat o'tgan tarixiy davrlar davomida o'zgarib kelgan. Uzoq davrlar davomida jahon aholisi yosh tarkibida keksalar salmog'i juda past bo'lib, XX asrga kelib yildan yilga ushbu guruh vakillari ulusli orta boshladi. Bunga, birinchи navbatda, tibbiy xizmatning rivojanishi, aholi turmush darajasining o'sishi sabab bo'ldi. Hozirgi davrda jahon mintaqaları aholisining yosh tarkibi turlicha.

Tabiiy o'sish yuqori bo'lgan Afrika va Osyo aholisi yosh tarkibida bolalar salmog'i qariyatamikiga nisbatan ancha yuqoriligi ko'zga tashlansa, demografik inqiroz kuzatilayotgan Yevropa davlatlarida bu holatning teskarisiga guvoh bo'lish mumkin. Bolalar salmog'ining yuqoriligi bilan Niger (50 %), Mali (48 %), Uganda (48 %) kabi Afrika davlatlari ajralib turadi. Bu boradagi eng past ko'rsatkichlar esa Yaponiya (12 %), Germaniya (13 %), Italiya (13 %), Gretsiya (14

%) davlatlarida qayd qilingan.

- 13713 / 14 -
Aholining jinsiy tarkibiga e'tibor qaratsak, jahonda ayollar va erkaklar salmog'i deyarli teng, ammo ayollar hamda erkaklar salmog'i yuqoriroq bo'lgan davlatlar mavjud. Jalon aholisining jinsiy tarkibida erkaklar salmog'i 50,5 %, ayollarinki esa 49,5 % ga teng (2018-y). Afrika, Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniya qit'alarda jinslar salmog'i deyarli bir-biriga teng bo'lsa, Yevropa va Shimoliy Amerika davlatlarida ayollar salmog'i birmuncha ortiq. Osyo qit'asi davlatlarining ko'pchiligidagi, ayniqsa, Sharqiy, Janubiy va Jamubiylar salmog'i arbiy Osiyoda erkaklar salmog'i ayollarnikiga qaraganda yuqori. Bunga, asosan, ushbu mintaqalarda ayollar ijtimoiy mavqeymining pastligi sababdir. Fors qo'itig'i mintaqasidagi arab davlatlarida esa erkaklarning ustunligiga ischchi kuchining tashqi migratsiyasi ham ta'sir ko'rsatadi. Aholining yoshi va jinsiylarida ayollar salmog'i piramidasidan foydalaniadi. Unda ma'lum bir hudud aholisi soni yosh guruuhlari kesimida hamda jinsiylarida qanday salmoqdaligini ko'rish mumkin. Rivojlangan davlatlarda aholi orasida yildan yilga tabiiy o'sish darajasining pasayishi oqibatida bolalar salmog'i kamayib, o'rta va keksa yoshdagilar salmog'i ortib bormoqda. Rivojlanayotgan davlatlarning aksariyatida esa tabiiy o'sishning yuqoriligi yosh-jins piramidasi quyi qismining salmog'i yuqoriligicha qolmoqda. Bu davlatlarda erkaklar salmog'ining ortiqligi ham ko'zga tashlandi.

Tarixiy taraqqiyot davomida yer yuzining turli qismalaridagi turli shart-shareitlar ta'sirida aholi har xil darajada ko'paygan. 2000-2018 yillar oralg'i ida Afrika aholisi 56,6 foizga ko'payib, mutloq ustunlikka ega bo'lsa, bu borada Yevropa 2,1% bilan so'nggi o'rinni egallaydi. Shuningdek, dunyo aholisi juda notebris joylashgan. Shunday qilib, hozirgi davrda yer yuzi hududlari boy'lab aholi notebris joylashgan. Sayyoramizda aholijuda zinch (1 km^2 hududga 1000 kish) yashaydigan hududlar bilan bir qatorda aholi yashamaydigan hududlar ham uchraydi. Bu yerlarda havo harorati juda past, suv yo'q va boshqa sabablar mayjud. Bunday hududlar yer sharijadi quruqlikning 10 foizini tashkil etadi. Ularga qutbiy o'laklar, balandligi 5000 metr dan ziyyod tog'lar va sahrolar kiradi. Yer kuzasidagi qurʼanlikasida "QURʼAN FO'RQAH" va "ZABEDE-QURʼAN" nomlari qo'shilganda "QURʼAN FO'RQAH ZABEDE-QURʼAN" nomi tashkil etilgandi.

Ushbu hududlarga tundra, o'mon-tundra, shimoliy tayga, cho'1,

chala cho'1 va nam ekvatorial o'monlar kirdi. Quruqlikning 25 foizida aholi zichligi 1-10 kishini tashkil etib, bu yerlar aholi nisbatan siyrakroq joylashgan. Yer kurrasidagi quruqlikning qolgan 15 foizida esa aholi zichligi 10 kishidan oshadi.

Yer shariida aholi yashaydigan asosiy hududlar 78° shimoliy kenglik va 54° janubiy kenglik orasida joylashgandir. Yer yuzida aholi eng zich joylashgan hududlar juda qadimdan madaniyat markazlari bo'lib kelgan Janubiy, Janubiy-sharqiy va Sharqiy Osiyo, Shimoliy Afrikadagi daryo vodiylari hamda Yevropadagi sanoat markazlari bo'lib, ular yer sharidagisi quruqlikning bor-yo'g'i 7 foizini tashkil etadilar. Bu hududda dunyo aholisining, deyarli, 70 foizi joylashgandir. Yer shari aholisining 4/5 qismi tekisliklar va 500 metrgacha bo'lgan balandliklarda joylashganlar. Bunday hududlar yer yuzidagi quruqlikning 28 foizini tashkil etadi.

Yer yuzasida aholi juda notebris joylashgan. Aholining o'rtacha zichligi (1 kv km^2) ga to'g'ri kelgan aholi soni doimiy aholisi mayjud hududlar, ya'mi 130 mln km^2 hisoblanadi.

Dunyo mintaqalari hisobida aholi zichligi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkichga ega hudud – Osiyo hisoblanib, aholi zichligi 148 kishini tashkil etib, bu mintaqada jahon aholisining 59,6 foizi yashaydi. Eng kam ko'rsatkich Okeaniya mintaqasiga tegishli. Ushbu hududda aholi zichligi deyarli 5 kishini tashkil etadi, xolos (1-jadval). Aholi zichligi va yillik o'sish ko'rsatkichlari mazkur hududning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarini boshqarish uchun mintaqaviy siyosat olib borishni talab etadi.

Dunyo aholisi vertikal mintaqalar bo'yicha ham notebris taqsimlangan. Aholining yarmidan ortiq qismi (56 foizi) mutloq balandligi 250 metrgacha bo'lgan tekislik va notebrisliklarda istidomat qiladi. Salkam chorak qismi (24%) 200-500 m. balandlikka ega tekislik va qirralarga to'g'ri keladi. Demak, yer shari aholisining 80 foizi mutloq balandligi 500 metrgacha bo'lgan hududlarda joylashgan. Shu vaqting o'zida 2000 metrdan baland hududlarga yer shari jami aholisining atigi 10 foizi to'g'ri keladi. Umuman olganda, aholi soni va ulushi balandlik oshgan sari kamayib boradi. Lekin bu qonuniyat qit'asi bilan jami quruqlik yuzasiga xos bo'lgan ko'rsatkichlar bir xil Janubiy Amerikkada o'z ifodasini topmaydi. Bundan tashqari Osiyo qit'asi bilan jami quruqlik yuzasiga xos bo'lgan ko'rsatkichlar bir xil miqdorlar xosligi bilan ajralib turishligini ta'kidlab o'tish lozim.

| Dunyo mintaqalari aholisi (2019) | | | | | I-jadval |
|----------------------------------|-----------------|------------------------------|-------------------|----------------|----------|
| Mintaqalar | Aholisi (kishl) | Jahon aholisidagi ulushi (%) | Villik o'sish (%) | Aholi zichligi | |
| Osiyo | 4 601 371 198 | 59.6 | 0.89 | 148 | |
| Afrika | 1 308 064 95 | 17.0 | 2.52 | 44 | |
| Yevropa | 747 182 751 | 9.7 | 0.10 | 34 | |
| Lotin Amerikasi | 648 120 957 | 8.4 | 0.92 | 32 | |
| Shimoliy Amerika | 366 600 964 | 4.8 | 0.63 | 20 | |
| Okeaniya ¹ | 42 128 035 | 0.5 | 1.34 | 5 | |
| Jahon bo'yicha | 7 713 468 100 | 100 | 1.07 | 59 | |

Manba: <https://www.worldometers.info/world-population> ma'husotlari

Yevropa dunyo qit'alari ichida aholining o'rtacha zichligi yuqori hudud hisoblanadi. Aholi zichligi Yevropaning shaharlarida yuqori bo'lib qishloq hududlaridan keskin farq qiladi. Bu qit'ada aholi umuman yashamaydigan hudud yo'q. Yevropada aholisi nisbatan siyrak joylashgan hududlar Islandiya va Norvegiya davlatlari bo'lsa, aholisi eng zich joylashgan Niderlandiya (Gollandiya) va Belgiya davlatlaridir. Aholi zichligi bo'yicha Malta davlati alohida umaniyatga ega (9-rasm) bo'lib, bu yerda aholi zichligi 1000 kishidan ortadi. Maltada ichishiga yaroqli suv juda tanqis bo'lib, u sotiladi. Toza suvning qimmati hatto vinodan ham yuqori turadi. Yevropada aholi eng zich joylashgan hudud Reyn daryosi vodiysidi. Bu yer juda hosildor lyossimon tupoqlardan tarkib topgan bo'lib dehqonchiilik va chovrachilik bilan shug'llullanish uchun juda qulaydir. Shuningdek, Dunay daryosi vodiysi bo'yab ham aholi zichligi nisbatan yuqoridir. Yevropada urbanizatsiya darajasining yuqoriligi shahar va qishloq hududlari aholisi zichligidan keskin farq etishiga olib kelgan. O'z nuvbatida, qishloq hududlarida ham aholi zichligi o'zarlo farq qiladi. Masalan, Malta qishloq aholisi 1 km^2 hududga 1000 kishidan ortib borganda Yevropaning shimoliy hududlarida aholi siyrak joylashgan. Chunki, bu yerlar iqlimi sovuq bo'lib, qishloq xo'jaligini rivojlantirish

¹ Okeaniya – bunda alohida qit'a sifatida ko'rsatilib, uning tarkibiga Avstraliya Ittifoqi va Okeaniya orollari kirilgan.

uchun unchalik qulay emas. Shunday bo'lsada, Yevropada aholi zichligi 1970-2014-yillarda 94 kishidan 123 kishiga oshgan.

Osiyoda dunyo aholisining eng asosiy qismi yashaydi. Sharqiy Hindiston, Pokiston, Bangladesh kabi davlatlar joylashgan bo'lib ular dunyodagi aholi zichligi bo'yicha eng yuqori o'rinnarni egallaydilar. Osiyo aholisining asosiy qismi Hindi-Xitoy yarimorolida va Indoneziya orollariда joylashgan bo'lib, ularda aholi zichligi 1 km² hududga 400-500 kishiga teng. G'arbiy Osiyodagi Arabiston yarim orolida, Markaziy Osiyoda, ayniqsa, Mo'g'ulistonda aholi siyrak joylashgan bo'lib, 2-3 kishini tashkil etadi.

Osiyoda dunyo qishloq aholisining katta qismi istiqomat etib, ular qishloq xo'jaligi, ayniqsa dehqonchilik uchun qulay yerlarga Xitoy-dagi yirik daryo vodiylari, Gang, Braxmaputra, Mekong, Xuanxe vodiylariga, Koreyaning janubiy qismi, Yaponiya va Yava orollariga joylashganlar. Bu hududlar maydoni 2,5 mln km² bo'lib, ularda taxminan, ikki milliarddan ortiq aholi yashaydi. Aholi zichligi Hind va Ganga vodiylarida, Xuanxe va Yanszi deltalarida juda zich bo'lib 1 km² hududga 1000-1500 kishini tashkil etadi.

Osiyoda aholi doimiy yashamaydigan tog'li hududlar (Tibet, Hindikush, Himolay tog'liklari) va cho'llar, chala cho'llar (Rub-al-Xali, Takla-Makon, Gobi cho'llari) ham mavjuddir. Af'iston, Suriya, Eron, Turkiya davlatlari hududlarida ham aholi juda siyrak joylashgandir. Chunki, bu hududlar tabiiy sharoiti ham dehqonchilik uchun uncha qulay emas. Bu yerlarda asosan aholi ko'chmanchi chovvachilik bilan shug'ullanadilar.

Urbanizatsiya jarayoni rivojanishi. Urbanizatsiya jarayoni shaharlari soni va shaharlardan aholisining miqdori va uluslarning o'sishini, shaharlardan bilan bog'iqlik murakkab tarmoqlar va tizimlarning shakllanishi va rivojanishini anglatadi.

Demak, urbanizatsiya kishilik hayotida shaharlardan ahamiyatining beqiyos oshishimi, jamiyatni aholining mehnat xususiyati, turmush tarzi va madaniyatini ishlab chiqarishni joylashishi bo'yicha shaharlashishni o'zida aks ettiruvchi tarixiy jarayondir. Urbanizatsiya ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

Zamonaviy urbanizatsiya umumijahon jarayoni sifatida ko'philik

mamlakatlarga xos bo'lgan uchta umumiy jihatlar bilan ifodalananadi.

Shulardan **birinchi jihat** shahar aholisining ayniqsa kam rivojlangan mamlakatlarda yuqori sur'attlar bilan o'sishi. Dunyoda 1900-yilda mayjud jami aholisining salkam 14 foizi shaharlarda yashagan, bu ko'rsatkich 1950-yilda 29 foizni, 1990-yilda 45, 2020-yilda esa 57 foizni tashkil etdi (2-jadval).

2-jadval

Urbanizatsiya jarayoni dinamikasi, % hisobida

| T/r | Villardan | Shahar aholisi soni, min. | Shahar aholisi salmog'i |
|-----|----------------|---------------------------|-------------------------|
| 1 | 1800 | 50 | 5,1 |
| 2 | 1850 | 80 | 4,3 |
| 3 | 1900 | 220 | 13,3 |
| 4 | 1950 | 738 | 29,3 |
| 5 | 2000 | 2926 | 47,5 |
| 6 | 2014 | 3912 | 53 |
| 7 | 2020 | 4357 | 57 |
| 8 | 2025 (prognoz) | 5015 | 61 |

Jadval statistik malumotlar asosida tuzildi.

Ikkinechi jihat aholi va xo'jalikning, asosan, katta shaharlarda to'planganligi bilan bog'iqli. Bunday holat, avvalalamber, ishlab chiqarishning xususiyati, uni ilm-fan, ta'lim-tizimi bilan bo'lgan aloqadorligining murakkablashuvi bilan bog'langanligi.

Ma'lunki, katta shaharlardan insonlarning ma'naviy va madaniy talablarini to'laroq qondiradi. Xilma-xil tovarlar va xizmatlar bilan yaxshiroq ta'minlanadi, mayjud axborot mambalariga yo'l ochib beradi. Jahonda XX asr boshida (aholisining soni 100 mingdan ortiq) 360 ta katta shaharlardan mayjud bo'lib, shularga jami aholining atigi 5 foizi to'g'ri kelgan, bunday shaharlarning miqdori 90-yillarning boshida 2,5 mingni tashkil etdi. 2014-yilda esa 4,5 mingdan o'tib ketdi. Ularga tegishli tarzda jami aholining 1/3 va 2/5 qismi tashkil etadi.

Katta shaharlardan ichida aholisining soni 1 milliondan ortiq bo'lgan yirik va juda yirik bo'lgan shaharlarni alohida ajratish qabul qilingan. Shunday shaharlarning soni XX asr boshida 10 ga teng bo'lgan 80-yillarning boshida 200 dan, 2014-yilda esa 450 dan oshib ketdi.

Mazkur shaharlar ichida "super shahar"lar aholisining soni 5 mln kishidan ziyod bo'lib, ularning soni 90-yillarda 30 tani, 2014-yilda esa 55 tani tashkil etdi. Hozirgi kunda ushbu shaharlarda salkam 0,6 mlrd kishi yoki yer shari aholisining 0,9 % dan ortiq qismi istiqomat qilmoqda.

Uchinchi jihat shaharlar hududining keskin kengayib, yoyilib ketishi bilan bog'langan. Zamonaivy urbanizatsiya jarayoni uchun ayrim shaharlar va shaharchalardan shaharlar bilan qishloqlarni o'zida qamrab olgan shaharlar aglomeratsiyalarga megapolislarga o'tish ayniqsa xos bo'lmoqda.

Shaharlar aglomeratsiyalarining o'zagi vazifasini odatda poytaxtlar boshqqa muhim sanot markazlari va yirik dengiz portlari bajarmoqda.

Juda yirik shaharlar aglomeratsiyalari Mexiko, Tokio, Kolkutta, San-Paulu, Nyu-York shaharları atrofida shakllangan, shularning har birida 16 mln dan 30 mln gacha kishi istiqomat qiladi.

Hozirgi vaqtida ikki yoki undan ortiq aglomeratsiyalar hududining qo'shilib ketishi natijasida urbaniyatsiyalashgan rayonlar va zonalar eng muhimni megapolislar vujudga kelmoqda. Shular ichida Tokaydo, Bosvash, Sansan, ChPITS, Yashil banan megalopolislari alohida ahamiyat kasb etadi.

Urbanizatsiyaning umumiyligi ko'rsatkichi bilan mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganlik darajasi va uning tarkibiy tuzilishi orasida ma'lum aloqadorlik mayjud bo'ladi.

Chunonchi, agar urbanizatsiya koeffitsienti:

- ❖ 70 – 75 % va undan ortiq bo'lsa, u holda mamlakat sanot jihatidan yuksak darajada rivojlangan industrial;
- ❖ 50 – 70% bo'lsa milliy iqtisodiyoti industrial-agrар;
- ❖ 30 – 50 % bo'lsa, rivojlanayotgan agrar-industrial;
- ❖ 30 foizdan past bo'lsa, sust rivojlangan agrar mamlakat holatida bo'ladi.

Urbanizatsiya va iqtisodiy rivojlanish o'rasisidagi munosabatlari kompleks bo'lib, iqtisodiy o'sish urbanizatsiyaning yuqori darajalarida natija berishi mumkin, urbanizatsiyaning yuqori darajalari, o'z navbatida, iqtisodiy o'sishni yanada kuchaytiradi. Milliy iqtisodiyotdagi har bir sektor iqtisodiy faoliyati tabiatli urbanizatsiyaga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Masalan, qishloq xo'jalik tashkilotlari turli

urbanistik makon o'chamiga, unumdar ekinlar fermer va ishchilarga yaxshi foyda keltirib, intensiv fermerlik tizimi mahalliy urbanistik markazlarning keskin o'sishiga olib keladi. Madaniy turmush tarzi turlari afzalliklari urbanizatsiya darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, iqtisodiy rivojlanish darajalari va urbanizatsiya darajasi o'rtasida qalin bog'iqlik bor ekan, potensial ta'sir darajasi turli milliy sharoida turli omillar muhim bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bundan tashqari, urbanizatsiya darajasiga ta'sir qiluvchi omillar bog'iqligi muhimligi vaqt o'tishi bilan mamlakatni yanada urbanizatsiyalashgan qilib qo'yadi.

Hozirgi vaqtida urbanizatsiya doinasi rivojlangan mamlakatlarda 78 foizni rivojlanayotgan mamlakatlar 49 foizni tashkil etadi, dunyo bo'yicha bu ko'rsatkich 55 foizza teng (3-jadval). Urbanizatsiya jarayoning o'sish sur'atlari mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik hamda urbanizatsiyalashganlik doirasiga bog'iqliq holda o'zgaradi.

Iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda shahar aholisining ulushi 75-90 foizga, ya'ni yuqori darajaga yetganligi tufayli urbanizatsiyalashish sur'atlari ancha pasaygan, ayrim hollarda yirik shaharlardagi aholi soni kamaymoqda. Shunga qaramasdan urbanizatsiya jarayoni iqtisodiy rivojlangan davlatlarda taraqqiy etisida davom etib, yangi yangi shakllarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda urbanizatsiyalashish jarayoni shahar aholisining nisbatan past ulushta egaligi tufayli har tomonlarda urbanizatsiya jarayoning safat ko'rsatkichlarga mutanosib emas. Shahar aholisi ko'p hollarda qishloqlarda ortiqcha bo'lib qolgan aholi hisobiga o'smoqda. Qashshoq qishloq aholisining katta qismi yirik va katta shaharlarning hududida joylashib kulbasimon urbanizatsiyaning tarqalishiga sabab bo'lmoqda. Shunday urbanizatsiyaning shakllari Mexiko, Manila, Pnompen, Dakka, Kolkutta, Bombey va boshqa poytaxt shaharlar atrofida keng tarqalgan.

Dunyo va yirik regionlarning urbanizatsiya darajasi (2016)

3-jadval

| Nº | Hududlar | Urbanizatsiya (%) |
|----|-----------------------------------|-------------------|
| 1 | Shimoliy Amerika (AQSh va Kanada) | 81 |
| 2 | Lotin Amerikasi | 80 |
| 3 | Yevropa | 74 |
| 4 | Okeaniya | 70 |
| 5 | Osiyo | 48 |
| 6 | Afrika | 41 |
| 7 | Rivojlangan mamlakatlardan | 78 |
| 8 | Rivojlanayotgan mamlakatlardan | 49 |
| 9 | Jahon bo'yicha | 54 |

Manba: Sharipov Sh., Federko V., Safarova N., Rafiqov V. Amaliy geografiya: O'rta ta'ilim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. –T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017. [77-b.]

Umuman urbanizatsiya jarayoni rivojlanayotgan mamlakatlarda boshqarib bo'lmaydigan holda taraqqiy etmoqda hamda demografik iqtisodiy va ekologik muammolarning chuqurlashishiga sabab bo'lmoqda. Atrof muhitning iftoslanishi umumiy hajimi 3/4 qismi to'g'ri keladi. Iqtisodiy rivojlangan davlatlarda atrof muhitini muhofaza qilish bo'yicha tadbirlar hayotga tadbiq etilmoqda, rivojlangan mamlakatlarda esa moddiy mablag'larning yetarli emasligi mazkur muammolarni to'la to'kis hal etishga imkon beryapti. Shahar aholisining soni va ulushi tez o'sadi. O'sayotganligiga qaramasdan jahon aholisining yarmiga yaqin qoloq aholi manzilgohlarida yanashmoqda. Ularning umumiy soni 15-20 mln kishini tashkil etadi. Qishloq aholisi, asosan, guruhlashgan va alohida joylashgan qishloqlar bo'yicha taqsilanganadi. Bunda tarixiy va tabiiy shart-sharoitlardan tashqari iqtisodiy omillar ahamiyati katta bo'lganligini aytib o'tish lozimdir. Aholi taqsilanshining guruhlashgan shakkllari dehqonchilik ayniqsa haydalananadigan va sug'oriladigan dehqonchilik va rivojlangan region mamlakatlarga xosdir. Alohida joylashgan qishloqlar chorvachilik intensiv rivojlangan mamlakatlarda (AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya, Braziliya, Argentina) keng tarqalgan. Aholi joylashishining aromomi shakkllari ham mavjud yaylov chorvachiiigi rivojlangan hududlarning ko'pchiligidagi esa

doimiy aholi manzilgohlari umuman barpo qilinmagan.

Aholini geografik o'rganishda migratsiyaning roli katta. Migratsiya, ya ni aholining ko'chishi tashqi va ichki migratsiyaga ajratiladi. Kelganlar va ketganlarning o'zaro nisbati migratsiya qoldig'i deb atalib, musbat (kelganlar soni ko'p) yoki manfiy (ketganlar ko'p) ko'rsatkichlarga ega.

Hozirgi davrda dunyo miqyosida ro'y berayotgan migratsiya jarayonlari rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlardan o'rtasidagi o'zaro aloqalarda muhim ahamiyatga ega.

Migratsiya jarayoni aholi hududiy harakatining asosiy turi bo'lib, inson bilan tabiat o'rtasidagi aloqadorlik vujudga kelgandan buyon shakllanib, rivojlanib kelmoqda. Aholi migratsiyasi buyuk geografik kashfiyotlar davridan boshlab keng miqyosda amalgalama oshmoqda. Mamlakatlardan aholisining soni va tarkibiga bo'ladigan ta'siri nuqtai nazardan tashqi migratsiyalarning ahamiyati beqiyosdir. Tashqi migratsiya katta hajinga ega mamlakatlarda, uning aholi soni va tarkibiga bo'lgan ta'siri sezilarli oqibatlarga olib kelishi mumkin. AQSh, Kanada, Avstraliya va boshqa qator mamlakatlardan tarixda migratsiya saldosining ahamiyati tabiiy o'sishi, jumladan ustun bo'lgan ayrim davrlar kuzatishganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Hozirgi vaqtida ham mazkur mamlakatlarda migratsiya saldosini aholi sonining o'sishida muhim omil bo'lib hisoblanadi. Isroiil davlatida esa migratsiya saldosini aholi soni o'sishining deyarli 2/3 qismini ta'minlamoqda. Yuqoridaq mamlakatlardan aholining ko'chib kelishi bo'yicha yetakchi hisoblanasa, qator boshqa mamlakatlardan, chunonchi, Irlandiya aholisining ko'chib kelishi bo'yicha dunyoda mashhur bo'lib qolgan. Tashqi migratsiyalar o'zlarining xususiyatlari, sababları, hududiy qamrovı davom etishi bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Migratsiya xususiyatlari to'g'risida so'z yuritganda, avvalam bor, xohishiga ko'ra va majburiy migratsiyalar nazarda tutildi. Tashqi migratsiya, asosan, iqtisodiy sabablar bilan bog'langan. Bunda yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida hamda ishchi kuchini shartnomalar bo'yicha boshqa mamlakatlarga yuborish bilan bog'liq migratsiyalar katta rol o'ynaganligini ta'kidlab o'tish joizdir. Hududiy qamroviga qarab materiklarga va materik ichidagi migratsiyalarni ajratish qabul qilingan.

Hozirgi vaqtida ikkinchi turdagı migratsiyalar asosiy ahamiyat

kasb etadi. Davom etishi bo'yicha doimiy vaqtinchalik va mavsumiy migratsiya turlari mavjud. Sharhnomalar asosida amalga oshirilayotgan migratsiyalar vaqtinchalik migratsiyalar deb ataladi. Doimiy migratsiyalar uy joyi va ish joyining tamomila o'zgarishi bilan bog'liq aholi ko'chishlari bilan bog'liq bo'lib, u migratsiyalar ichida asosiy o'rinn egallaydi. Insoniyat xo'jalik va ijtimoiy-madaniy faoliyatida ro'y berayotgan internatsionallashuv va demokratsiyalashuv jarayonlari, shuningdek, mamlakatlارaro, millatlararo ayrim ziddiyatlar, to'qnashuvlar, favqulodda vaziyatlar va tabiiy ofatlar oqibatida aholi hamda mehnat resurslarining mamlakat ichida mamlakatlарaro keng miqyosda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi ro'y beradi. Bular bir tomonidan, jahon sivilizatsiyasiga va xalqaro mehnat bozorlari, turar joy va ish joy tashlash uchun yaratib bergen huquq va imkoniyatlaridan foydalanganuvchi ko'pchilik migratsiyalaridan iborat bo'lsa, ikkinchi tomonidan, o'z xohishi bilan emas, balki sharoit taqozosi bilan tug'ilib o'sgan joyimi tashlab ketishga maybur bo'lgan qochoqlar hamda zo'raki migrantlardan iboratdir. Ayrim tarixiy yerlarda migrantlar oqimining ko'lami hamda ahvolining murakkabligini juda katta muammolarni yuzaga keltiradi. Bu muammolarni yechish esa keng miqyosda xalqaro hamkorlikni taqozo etadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti mamlakatlар o'rtasidagi mehnat taqsimoti rivojlanishining oliy bosqichi bo'lib, u biror bir mamlakatda muayyan mahsulotni ishlabchiqarishdarbarqaror imkoniyatlarini mavjud bo'lishimi turilcha miqdor va malakaga ega bo'lgan mehnat resurslari bo'lishimi taqozo etadi. Xalqaro mehnat taqsimoti inson faoliyatining turlarga bo'lmishi deb keng ma'noda tushunish bu sohada keyinroq yuz beradigan kooperatsiyalash xalqaro mehnat taqsimotidan kelib chiqqan hamda mamlakatlar o'rtasida o'zları eng yuqori samara bilan ishlab chiqargan mahsulotlarini mutassil ayirboshlashni imkor etmaydi. Ana shunday kooperatsiya ikki ko'rinishda mehnat taqsimoti ga ko'ra ishlab chiqarilgan mahsulotlari xalqaro miqyosda ayirboshlash (xalqaro savdo) yoki mehnat kuchlarining davlatlарaro ko'chib o'tishi ya'ni xalqaro mehnat migratsiyalash shakliida namoyon bo'lishi mumkin.

Aholi va mehnat resurslarining mamlakatlарaro migratsiyalash ischi kuchini qabul qituvchi va uni chetga chiqaruvchi maml-

kalarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotda darajalarida hamda aholining tabiiy o'sish sur'atlarida anchagina tavofutlar mavjud bo'lgan chog'da ro'y beradi. AQSh, Kanada, Avstraliya kabi yuqori dairajada rivojlangan mamlakatlар, G'arbiy Yevropa mamlakatlarning ko'pechiigi shuningdek, neftdan katta daromad olib, iqtisodiyoti tez rivojlanayotgan mamlakatlар (Saudiya Arabiston, Bahrayn, Quvayt, BAA va boshq.) immigratsiyalash geografik markazlari hisoblanadi. U bir davlatning mintaqalarini o'rtasida ro'y beradigan ischi kuchi migratsiyalashda va bir necha mamlakatlarni qamrab oladigan tashqi migratsiyadan iborat. Xalqaro iqtisodiyot fami tashqi migratsiya va uning sabablari bilan shug'ullanadi. Xalqaro migratsiya nuummolarini o'rganishda duch keladigan asosiy tushunchalar quydagilardan iborat:

► *ishchi kuchi migratsiyasi* – mehnatga layoqatli aholining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga, bir yildan ko'proq muddat bilan ko'chib o'tishi hisoblanadi;

► *immigratsiya* – mehnatga layoqatli aholining bir nuummakatga cheitdan kirib kelishi;

► *emmigratsiya* – mehnatga layoqatli aholining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga chiqib ketishi;

► *migratsiya saldosi* – mamlakatda bo'ladigan immigratsiya va emmigratsiya o'rtasidagi farq;

► *aqliy talofat* – yuqori malakali kadrlarning xalqaro migratsiyasi, xususan, aqlli qatlarning rivojlangan hududga ko'chib ketishi oqibatida ko'chib ketilgan hudud uchun vujudga kelgan vaziyat;

► *reemigratsiya* – immigratlarining turg'un turish uchun o'z vitaniga qaytib kelishi;

► *tashqi migratsiya* – bir davlatdan boshqa davlatga migratsion hurakat qilib;

► *ichki migratsiya* – ma'lum davlat doinasiда bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurish va h.k.

Tashqi migratsiyaming asosiy sabablari iqtisodiy qiyinchilik, siyosiy beqarorlik, milliy-diniy nizo va urushlardi. Ichki migratsiyaning sabablari ham shunga o'xshab ketadi va quydagilardan iborat: iqtisodiy qiyinchilik, mavsumiy ish, milliy nizolar, urushlar va boshqalar. Aholining bir davlatdan ikkinchi bir davlatga va bir davlatning ichida bir joydan ikkinchi bir joyga ko'chib yurishini boshqarish

migratsiya oqimi deb ataladi. Migratsiya oqimi mamlakat yoki rayonlar aholisining soniga sezilarli ta'sir etishi mumkin. Insaniyat tarixi davomida juda ko'p ommaviy tashqi va ichki migratsiyalar sodir bo'lgan. Buyuk geografik kashfiyotlardan keyin assosiy migratsiya oqimi Amerika, Avstraliya va boshqa yangi kashf qilingan yerlar tomon bo'lgan.

Xalqaro ishchi kuchi migratsiyasi bundan bir necha yuz yil ilgari paydo bo'lgan va shundan buyon bu borada jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Xalqaro migratsiya muammolari XX asr 60-yillarining oxirida iqtisodiy rivojlanish bilan bog'ilq faol o'rganishni boshladi. Natijada asosan shunday xulosaga keldiki, ishchi kuchining xalqaro harakati ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida iqtisodiy rivojlanishi sur'atlariga ta'sir qiladi, bu harakatning sababi esa turli mamlakatlarda, mehnatga haq to'lash darajasi turlicha ekanligidan iborat.

Neoklassik tarafdarları ishchi kuchini, ayniqsa, yuqori malakali xodimlarni eksport qiluvchi mamlakatda migratsiya mumkinligini e'tirof etishadi. Shu munosabat bilan «aqliy talofat»ga soliq solish va undan keladigan daromadni BMT ixтиyoriga o'tkazib, ulardan rivojlanish maqsadlarida foydalanish g'oyasi keng muhokama etildi. Keyingi yillarda jamlashishga mamlakat iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sıfatida qarashlik ustun kela boshladi. Jamlangan inson potentsiali iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili jamlididan kelib chiqilsa, xalqaro mamlakatlar o'rtaida iqtisodiy rivojlanish hisobasidagi sur'atlar necha xil ekanligining sabablaridan biri deb hisoblasak kerak bo'ladi.

Xalqaro migrantlar asosan 5 toifaga bo'linadi.

1. *Erkin migrantlar* – mamlakaga oshkorva qonuniy kiradigan aholi bo'lib, ular turist, o'qish uchun kelgan talaba va malaka oshirishga borgan ishchilar, yashash uchun kelgan odamlar va boshqalar bo'lishi mumkin.
2. *Sharinoma bo'yicha ishlaydigan xizmatchi migrantlar*. Ko'pincha mamlakatlar chet el ishchi kuchiga muhtojlik sezadi. Bu hollarda ishchi kuchi serob bo'lgan mamlakatlar: masalan, Osiyoning ba'zi mintaqalari, ya'ni Sharqdagi qator mamlakatlar bilan shunday shartnomalar haqida kelishib olishadi.
3. *Yashirincha kelgan* immigrantlar noqonuniy tarzda ish yoki

yushash joyi izlab keladi (13-rasm). Deyarli barcha sanoat rivojlanigan mamlakatlarda yashirin immigrantlar mayjud. Ularning bir qismi ehegara orqali o'tsa, boshqalari viza muddati tugagandan keyin begona mamlakatdan chiqib ketmaydi. Bundaylar, odatda, eng kam ish haqi to'lanadigan ish joylariga yollanadilar.

4. *Boshpana so'ragan shaxslar*. Bunday toifadagi migrantlar soni 80-yillargacha juda oz bo'lib, keyinchalik ancha ko'paydi. 90-yillar oxiriga kelib, 1 mln kishini tashkil etdi. Ular siyosiy sabbablarga ko'ra, iqtisodiy ahvol tufayli boshpana so'raydi.

5. *Qochoqlar* – ma'lum bir joydan noqonuniy va ixтиyorsiz ravishda chiqib ketishiga iqtisodiy (oziq-ovqat va h.k.), ijtimoiy (aholi o'rtasidagi diniy, iraqiy, etnik kamtsitishlar va h.k.), siyosiy (urushlar va qurolli to'qnashuvlar) kabi omillar sabab bo'lishi mumkin. BMT ma'lumotiga ko'ra, dunyoda 50 mln kishidan ko'proqni tushkil etmoqda. Qochoqlarning ko'pchiligi bugungi kunda maxsus lugerlarda istiqomat qiladi. Bu lagerlar BMT yoki xususiy agentliklar homiyligidadir. Ma'lumotlarga qaraganda, ularning ko'pchiligi rivojlangan g'arb mamlakatlaridan boshpana topgan. Umumiy qilib aytganda, migratsiya va boshqa aholi bilan bog'ilq juriyonlarni tartibga solib borish lozim. Aks holda, ularning oqibati du katta-katta sotsial muammolar kelib chiqishi mumkin.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Aholi geografiyasining taddiqot predmeti nima?
2. Aholi geografiyasining boshqa geografik fanlar bilan aloqasini tushuntiring.
3. Aholi geografiyasini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlarni sanab bering.
4. Yer shari aholisi soni va uning o'sishini tushuntiring.
5. Yer shari aholisining vertikal mintaqalar bo'ylab joylashuvini lohlang.
6. Xalqaro migrantlar, asosan, qanday toifalarga bo'linadi?
7. Migratsiya nima?

3-MAVZU. ETNOGEOGRAFIYA VA MADANIYAT

Reja

1. Etnik birliklar va ularning tafsifi.
2. Mintaqalarning etnik tarkibi va xususiyatlari.
3. Yer shari aholisining irqiy tarkibi.
4. Til oilalari va ularning hududiy xususiyatlari.

Maqsad: *talabalarda etnogeografiya va madaniyatning mintaqaviy xususiyatlari haqidagi tushunchalar hossil qilish*

Tayanch so'z va iboralar: *xalq, urug', etnik birliklar; etnik tar-kib.*

Jahon bo'yicha 4 mingdan ortiq xalq bo'lib, ularning kelib chiqishi va tur'lari bilan etnografiya shug'ullanssa, xalqlarning hududiy tarqalishi, shakllanishiga ta'sir etgan geografik omillarni etno-geografiya o'rGANADI.

Kishilarning qadim zamonalarda vujudga kelgan umumiyliklari etnik birliklardir. Etnik birliklarning ibtidoiy jamoa tuzumidan to hozirgi davrlargacha uchraydigan tushunchalari (kategoriyalari) asosan, urug', qabila, elat, millatlardan iboratdir. Kishilarning eng qadimiy etnik birligi – urug' (qavm) kategoriyasidir. Bu kategoriya, asosan, ibtidoiy jamoa tuzumida vujudga kelib, ana shu formatsiyaning asosiy ijtimoiy-iqtisodiy yachevkasi bo'lgan va u insonlarning qon-qardoshligiga asoslangan. Urug'chilik kishilarni xo'jalik va ijtimoiy jihatdan bir-biri bilan bog'lagan. Urug'chilikning asosiy belgilari:

- ❖ Urug' a'zolarining bir-biri bilan qon-qardoshligi;
- ❖ Urug' a'zolari xo'jalik faoliyatining birligi (barcha urug' a'zolarining jamoa bo'lib birgalikda mehnat qilishi);
- ❖ Ijtimoiy hayotning, turmushning va endi vujudga kelayotgan madaniyatning birligi.

Hozirgi davrda urug'chilik faqat Osiyo, Afrika va Amerikaning ayrim tog'li rayonlarda va o'rmonlarda yashaydigan hamda hozirgi zamon sivilizatsiyasidan ajralib, ancha orqada qolgan ayrim mayda xalqlardagina uchraydi. Ammo urug'chilikning ayrim qoldiqlari ba'zan boshqa xalqlarda (masalan, Kavkazdag'i ba'zi xalqlarda, Hindistonda) ham uchrab turadi. Isonlar etnik birligining ikkinchi yuqoriroq bosqichi - qabiladir. Urug'chilarning qabilalarga birlashuvni

ham kishilarning ibtidoiy jamoa tuzumiga xos umumiyligidir.

Dastlabki qabilalarni bir necha urug' (oddatta, juft sondagi urug'-larni) birlashtirar, ular o'zaro dual ekzogamiya (urug'larning birriga qiz berib, qiz olishi) asosida bog'tangan bo'lar edilar. Qabilalar sekin-asta o'zining to'la tuzilishiga ega bo'lib bordilar. Rivojlangan qabilalarning odatda, o'z tili yoki shevasi va alohida hududi bo'lgan, maxsus kengash tomonidan boshqarilgan. Kengash qabila tankibiga kiruvchi barcha urug'larning boshliqlaridan iborat bo'lgan. Urug' boshliqlarining eng keksasi qabila boshlig'i qilib tayinlangan. Eng muhim masalalarni, massalan, urush yoki tinchilik masalalari va hokazomi hal qilish uchun umumqabila yig'ilishlari o'kazilgan. Ayrim xalqlarda hozirda ham ijtimoiy hayotning qabila doirasida tashkil etish haligacha saqlangan. Masalan, Amazoniya, Papua-Yangi Gvineya, Markaziy Afrika va Kanadaning shimalidagi chekka hudojlarda o'ta sodda hayot tarzi sifatida qabilalar mavjud. Urug' va qabila kategoriyalardan keyin elat kategoriysi vujudga kelgan. Elat – urug' va qabila birliklariga nisbatan yuqoriroq bosqichdir. Elat birligi, asosan, feodalizm jamiyatni davrida, ba'zan esa qoldorlik davridayoyq tashkil topa boshlagan. Urug'chilik va qabilachilik kishilarning ibtidoiy jamoaga, ya'nini siftsiz jamiyatga xos umumiyligi bo'lsa, elat sinify jamiyatga xos umumiyligidir. Bu davrda ijtimoiy mehnat taqsimoti (dehqonchilikning chorvachiliyidan ajralishi) va ulardan hunarmandchilikning alohnida bo'lib chiqishi) va u bilan bog'liq geografik (hududi) mehnat taqsimoti vujudga kela boshlaydi. Natijsida mahsulot ayriboshlash munosabatlarning o'ziga xos yangi shakkiali shakllana boshlanadi. Urug'chilik, qabilachilik munosabatlari yangi davrga mos kelmay qoldi. Qon-qarindoshlik aloqalari emas, balki xo'jalik faoliyatining xususiyati savdo yoki boshqa iqtisodiy munosabatlari orqali bir-biri bilan chambarchas bog'langan muayyan hududiy aloqalar umumiylikning mazkur yangi shaklining negizini tashkil eta boshlaydi. Kishilar birligining ana shunday yangi shakli elatdir.

Elat kishilarning millatdan oldingi tarixiy birligidir. Elatlarning o'z nomlari, tili umumiyligining madaniyat va psixik xususiyatlari tarkib topa boradi. Elatlar hududiy umumiylikka ega bo'lib, ma'lum darajada iqtisodiy aloqalar qila boshlaydi. Bu belgilari millatlardagi singari hali yaxshi taraqqiy etgan emas, albatta. Elatlarning tashkil topishida

feodalizm davriga xos jarayon davlatlarning tashkil topishi ham ma'lum rol o'ynagan, ammo ayrim elatlarning hududiy joylashuviga ba'zi hollarda davlatlarning chegaralariga to'g'ri kelavermas edi. Kapitalizmning taraqqiy etishi bilan elatlarning millatlarning vujudga kelishi va tashkil topishida baza bo'lib xizmat qildi. Ammo, bu holda ham chegara to'g'ri kelishi shart emas. Masalan, bitta elat bir necha millatlarning tashkil topishi uchun ba'za bo'lib xizmat qilishi yoki aksincha bir necha elatlarning birlashuvidan bitta millat vujudga kelishi mumkin. Masalan, Rossiyaning Sibir hududlari, Markaziy Amerikada elatlар mayjud.

Millat – etnosning eng yuksak darajasisidir. Millat bo'lishi uchun tili, hududi, umumiqtisodiy faoliyati va milliy ong shakllangan bo'lishi kerak. Millat ma'lum hududda yashovchi odamlarning ijtimoiy-etnik binligi bo'lib, feodalizmdan kapitalizmga o'tish davrida tashkil topa bosshaydi va kishilar umumiyligining o'ziga xos shaklidir. Millat shu bilan farqlanadi, millatlarda hududiy birlik, iqtisodiy va madaniy aloqalar mustahkam o'rinn oladi, yagona milliy til tashkil topadi, milliy ong rivojlangan bo'ladi. Millat kishilarning shunday barqaror jamligiki, bu umumiylilik til, hudud, iqtisodiy hayot umumiyligi hamda ijtimoiy psixologiya ba'zi bir xususiyatlarining kompleksligi bilan bog'langan bo'lib, bu psixologiya ushu xalq madaniyatining o'ziga xos belgilardira mustahkamlangandir va ular bu xalqning madaniyatini boshqqa xalqlar madaniyatidan ajratib turadi. Masalan, yapon millati o'zimning vatanavarlik, mehnatsevarlik, ma'suliyatilik xususiyatlari, milliy mentalitetiga sodiqligi bilan alohida ajralib turadi. Xalq tushunchasi keng ma'noda bo'lib, barcha etnik umumiyliklarining ma'lum hudud (respublika, davlat yoki butun dunyo) aholisiga nisbatan ham ishlataladigan tushuncha hisoblanadi.

Ayrim mamlakat yoki butun jahon aholisining milliy tarkibini aniqlash juda mushkul vazifadir. Turli mamlakatlarda yashovchi xalqlar ro'yxatini tuzish dastlabki bosqichdamoq aholining biror guruhining qandayligini: etnik birlikni, ya'ni alohida xalqni tashkil etadigan yoki xalqning bir qismini (etnografik guruhini) yoki birlikning boshqqa bir ko'rnishini, masalan, davlat siyosiy ko'rinishini tashkil etadi. Ko'p hollarda etnografik guruhlar o'ziga xos madaniy va maishiy elementlar tavofut qilibgina qolmay, balki alohida dialektlarda gaplasib, etnik jihadan o'z-o'zini butunlay boshqacha anglashga ham olib keladi.

Oisman, ancha yaxshi o'rganilgan xalqlarda (bolgarlar, polyaklar va boshqalarda) ayrim guruhlar yaqin o'mishda ham rasmiy statistika mu'lumotlariga ko'ra, alohida xalq sifatida ajralib kelinar edi.

Jahon mamlakatlarda konsolidatsiya (milliy jipslashish) va assosiyatlari (qorishish) jarayonining keng ko'tanga avj olish tufayli o'ziga xos o'tkinchi til va madaniy shaklli, milliy jihatdan o'z-o'zini anglash kabibi yetarli, muhim belgili aholi guruhlari mavjuddir. Binobarin, bunday guruhlardan biriga misol qilib, Boshqirdistonda yashovchilari tatarlarni ko'rsatishimiz mumkin. Abolining bu qismi hozircha tatar xalqini bir bo'lagi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtida butun jahon mamlakattari aholi soni ro'yxatga olindi. Birtoq bunday ro'yxatlarning ko'pchiligi aholining milliy tarkibini o'z oldiga maqsad qilib qo'yaman. Bir qator mamlakatlarda milliy tarkib (yoki til) haqidagi masalaning yo'qligi, aholining etnik jihatdan nisbatan bir xilligiga bog'liqidir. Bunda maskur masala muhum rol o'ynamaydi. Ammo butun dunyo aholisining milliy turkibini bilish mushkul masala. Bu masalaning mushkulligi jahon aholisini etnostatistik jihatdan yetarli o'rganilmaganligidir. Hatto hozirgi aholi ro'yxatlar o'z oldiga vazifa qilib qo'yaman. Bunga birqancha sabablar bor ayrim mamlakatlarda ro'yxatlardan o'tkazishda milliy mansublik etnik jihatdan nisbatan bir xil bo'ladi.

Dunyoning barcha qismlarida milliy jipslashish va qorishish juriyonlari keng ko'landa yoyilganligini e'tiborga olsak, sayyoramiz aholisini milliy tarkibini aniqlashning mushkulligi yanada aniq ko'rindi.

Dunyo bo'yicha etnoslarning hududiy tarkibi va tarqalishini o'rganish hamda tahlil qilib borish orqali ijtimoiy-madaniy hayoddagi xususiyatlar namoyon bo'ladi.

1. Osiyo qit'asida aholining etnik tarkibi juda murakkab. Xususian, unda xanl (1 mlrd 310 mln kishi), hind (280 mln), bengal (235 mln), yapon (130 mln), panjob (120 mln), bixar (115 mln) va yavalik (105 mln) kabi juda ko'p sonli millatlar mayjud. Qit'aming janubisharqidagi aholi (malay, indonez, vet, tay, lao) Kitoy va Hindiston aholisining aralashuvidan shakllangan bo'lsa, g'arbiy qismidagi aholi, asosan, arab va forslardan tashkil topgan. Markaziy, shimal-sharqiy hududlarida esa turkiy xalqlar keng tarqalgan. Rossiyaning sharqidagi aholi turli elatlardan iborat bo'lsa, g'arbiya madaniy

jihatdan yuqori o'rinda turuvchi millatlar istiqomat qiladi.

2. Yevropa qit'asining aholisi genezisiga ko'ra, 3 ta katta guruhga bo'linadi: roman, german va slavyan. Roman guruhidagi millatlar (fransuz, ispan, italyan, rumin, portugal, irland) mintaqaning janubi, qisman markazi va sharqida yashaydi. German guruhi esa kelib chiqishi jihatidan german qabilalari, angl-sakslarga borib taqaladi hamda Markaziy va Shimoliy Yevropada tarqalgan. Slavyan xalqlari, asosan, Sharqiy va Janubiy Yevropada tarkib topgan. Har bir guruh ichidagi millatlarning tili va turmush-tarzi bir-biriga juda yaqin hisoblanadi.

3. Afrika aholisining milliy tarkibi o'ziga xos bo'lib, uzoq davom etgan mustamlakachilik afrikaliklarning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy rivojanishini ancha orqada qoldirdi. Ularning yirik millatlar va elatlarga birlashuviga xalaqit berdi. Qit'ada tuareg, tubu, azande, bantu, gottentot kabi ijtimoiy hayordan ancha orqada qolgan elatlar keng tarqalgan. Shuningdek, Afrika aholisining milliy tarkibi haqida gapirganda, bu yerda yashovchi kelgindi (asosan, Yevropadan) xalqlarni ham e'tiborga olish zarur. Asosan, inglzlar, afrikanejerlar (burlar), fransuzlar, portugallar Afrika aholisining 5 foizini tashkil qiladi. Yevropaliklar mintaqaning eng qulayjoyalriga kelib kelib o'rgashgan. Shu bois, fransuz va italyanlar O'rta dengizbo'yи huddularida ko'p bo'lsa, Janubiy Afrikaning dengiz sohillarida ingliz va golland millatiga mansub aholi anchagini hisoblanadi. Hozirda qit'ada ham maniy hayot nisbatan jonlanib bormoqda. Bunga yevropaliklar bilan mahalliy aholining assimilatsiyasi katta ta'sir ko'rsatmoqda.

4. Amerika aholisining milliy tarkibi bo'yicha hozirda ko'pchilikni (95%) Yevropadan kelganlarning avlodlari va ularning boshqa xalqlar bilan aralashuvidan vujudga kelgan xalqlar qamrab olgan. Biroq uzoq o'mnishda bu hududlarning tub joy aholisini indeyslar tashkil ergan. Yevropaliklar kelgunga qadar maya, astek, ink, kechua va boshqa indeys qabilalari ko'plab yashagan va keyinchalik, ularning katta qismi qirib tashlangan. Hozirda Amerika aholisini ko'pchilik qismi ingliz va ispan tilida, ozroq qismi, portugal va boshqa tillarda so'zlashadi. Bu yerda millatlar, davlatlar chegaralariga qarab, qaysi mamlakatning fuqarosi ekanligiga qarab ataladi. Masalan, AQSh millati – amerikantlar, Kanada millati – kanadaliklar deyiladi. Amerika mamlakatlari aholisi o'z millatlarini davlatlarining nomi

bilan masalan, braziliyaliklar, kubaliklar, peruliklar va boshqalar deb atashadi. Biroq turli xalqlarning aralashishi bir-biridan ancha farq qiladi. Masalan, paragvayliklar, peruliklar, boliviyaliklar, ekvadorliklar, gondurasliklar, salvadorliklar, nikaragualiklar va panamaliklar, asosan, metislardan iborat. Dominikaliklarning ko'pchiligi esa mulatlardir.

Amerikada, shuningdek, asosan, negrlardan iborat bo'lgan millatlar ham bor (gaitifiklar, yamaykaiifiklar va boshqalar). Peru, Boliviya, Ekvador, Meksika aholisining anchagina qismini indeyslar tashkil qiladi.

5. Avstraliya va Okeaniya aholisini etnik tarkibiga ko'ra, mutaxassislar ikkita oblastga bo'lishadi:

1) Avstraliya va Yangi Zelandiya davlatlari. Bu mamlakatlar aholisining milliy tarkibi bir xil bo'lib, avstraliyalik - inglizlardan va zelandiyalik inglizlardan iborat. Avstraliya (aborigen) va Yangi Zelandiyaning tub xalqlari (maorilar) juda kam qolgan.

2) Polineziya, Mejaneziya va Mikroneziya orollaridagi aholi etnik jihatdan qabilia-qabilia bo'lib yashaydi. Ularda konsolidasiya (etnik jinslashish) jarayoni Okeaniyaning ayrim katta orollaridagina boshlangan. Hozirgi paytda elatlar sifatida jipslasha boshlagan xalqlarga samoaliklar, fidjiliklar, gavayiliklar va taitilklarni kiritish mumkin. Odatta, butunlay boshqa tillarda gaplashuvchi bir necha xalq umumiy nom bilan Yangi Gvineya papuaslari deb ataladi. Okeaniyaning boshqa kichik orollarida etnik jarayonlar ham past bosqichdaligini ko'rishimiz mumkin.

Aholining etnik jihatdan kelib chiqishini o'rganish orqali uning sotsial hayotiga ham baho berish mumkin. Masalan, Amerika qit'asining tub joy aholisi Osiyodan Bering bo'g'ozi orqali o'tgan, degan nazariya tarafdarları ko'pchilikni tashkil qiladi. Ularning tuzilishi mongloidlarga juda yaqin. Yapon, koreys va xanlarning genezisining umumiyligi bois turmush tarzi va madaniyatida ham ko'plab uyg'unliklar saqlanib qolgan va h.k.

Lingvistik tarkib. Madaniyatning o'ziga xos geografik ko'rinishi - bu tildir. Til insoniyat madaniyatidagi mavjud aloqa vositasidir. U bir guruh a'zolarini bir-birlari bilan o'zaro cheksiz xabarlashish imkonini beradi. Biroq, u bir til guruhi a'zolarini boshqa til guruhi a'zolari bilan xabarlasha olmasliklariga ham sabab bo'ladi. Bugungi

kunda yer yuzida deyarli 7 mingga yaqin tilda gaplashiladi, lekin ularning 400 ga yaqinidan faol foydalaniadi, xolos. Ma'lumotlarga qaraganda, insoniyat paydo bo'lgandan to hozirgi paytgacha so'zlashihi gan 4 mingga yaqin til o'z davrida yo'qolib ketgan. Bunga esa hukmron jamiyatda ustun bo'lgan sotsial guruhning ta'siri sabab bo'jadi. Xususan, Kavkaz hududlarida aholining katta qismi rus tilini umumiste mol tili sifatida qabul qilganligi bois, mahalliy tillarning ahamiyati pasayib bormoqda. Jumladan, mashhur dog'istonlik shoir Rasul Hamzatov ham avar tilining yo'qolish arafasida turganligini afsus bilan ta'kidab o'tgan edi.

Tillarning xususiyatlari bir guruha mansub etnoslarda bir-biriga yaqin bo'jadi. Chunki ma'lum etnoslar huddiy jihatdan boshqa mintaqalarga borib o'mashgan, lekin so'zlardagida asos birligicha qolib, dialekt o'zgarishga uchragan. Masalan, turkiy xalqlar tilining negizi umumiyo bo'lganligi uchun o'zbek turkmanni, qing'iz qozoqni, yoqut dunganni osongina tushunadi. Bunday holatni inglez, nemis, fransuz, rus tillarida ham ko'rish mumkin bo'lib, ularning barchasi qadimgi lotin tili negizida vujudga kelgan. M., ona so'zini olaylik. Bu so'z ingliz tilida mother (mum), nemis tilida mutter, fransuz tilida mere, rus tilida mat deyiladi. Ma'lum ma'noda uning kelib chiqishini ko'pchilik olimlar Momo Havoga borib taqashadi. Turkiy xalqlarning ko'pchiligidagi ham onani – momo deyiladi va h.k.

Jahon bo'yicha lingvistik guruhlashda ko'plab til oilalari ajratiladi. Tillarni ma'lum bir til oilasiga birlashtirishda uning genezisisi asosiy o'rinn tutadi. Til oilasida umumiyligi bo'lgan bir necha tillar bo'lib, har biri alohida til guruhini taskil etadi. Til guruhlari ham, o'z navbatida, tillarga bo'linib ketadi.

Jahon aholisining eng ko'p, ya'ni 45 foiz aholisi Hindyevropa til oilasida so'zlashadi. Shuningdek, sin-tibet, afrosiyob hamda niger-kordofan oilasi vakillarining ham soni ko'pchilikni taskil etadi.

Tillarning shakllanishi, dastavval, kishilarining yashaydigan hududlaridagi tabiatning xilma-xilfigi asosida tarkib topib borgan. Masalan, faqatgina muzli yerdarda yashaydigan eskimos yoki be-poyon sahroda tarqalgan tuareglarning til boyligi juda kambag'al. Aksinchal, tabiatni turfa xil bo'lgan hind, inglez va xitoylarning tillarida milliondan ortiq so'z mavjud. Shuningdek, ular qulay hududlarda yashashlari bois qadimdan boshqa mintaqalar negizida

ham tildagi so'zlarining miqdori orta borgan. Zero, barcha tillar (arab tilidan tashqari) o'z til boyligini boshqa tillardan o'zlashma so'zlar hisobiga ham boyitib boradi. Bu jarayon ijtimoiy-madaniy aloqalarida umumiylilik vujudga kelgan, iqtisodiy aloqlari yaxshi yo'iga qo'yilgan huddular bo'yicha amalga oshadi. Masalan, arab istilosidan so'ng, aymiqsa, Markaziy Osivo xalqlari hayotidan arabcha so'zlar joy egallay boshladi. Natijada vatan, muallim, kitob, shoir, qalb kabi ko'plab so'zlarining turkiyicha muqobil o'miga arabchasi qo'llanilib, iste'molga singib ketgan. Ayrim davlatlar esa keyinchalik kirib kelgan o'z ona tilisi sifatida iste'molda foydalananadi. Lekin baribir uning aholisini hech kim fransuzlar deb atamaydi.

Afrika, Okeaniya va Amerikaning ayrim kam rivojlangan hududlarida, hatto, har bir qabilaning ham o'z tili bor. Bu orqali esa ular turmush-tarzining yopiqligi, hali ham ibtidoiy ko'rinishda ekanligini ifodalaydi.

Hozirda oltita xalqaro til - inglez, xitoy, ispan, fransuz, arab, rus tillaridan eng ko'p foydalaniadi hamda BMT rasmiy hujatlari shu tillarda olib boriladi. Shuningdek, 200 ga yaqin tillar davlat tili, 4800 ga yaqini mahalliy, qolganlari urug'-qabilalari hisoblanadi. Tillar ning asosiy xususiyatlaridan biri – uning yozma ko'rinishga ega bo'lishidir. Chunki vaqt o'tishi natijasida mazkur tildagi hodisalar bayon qilib qo'yilmasa, og'zaki shevalar o'zgara borgani sayin asos til ham yo'q bo'lib ketishi mumkin. Papua-Yangi Gvineya, Janubiy Sudan yoki kechualar yashaydigan Amazoniyada og'zaki nutqadan foydalansada, ularning grafik ko'rinishi deyarli yo'q. Ko'plari haligacha belgilardan foydalanaadi.

Yozuvlar qadimda insonlarning faoliyatlarini natijasida tarkib topgan. Ilk yozuvlar ierogliflar tariqasida narsalarning rasmi orqali ifodalangan. Sekin-asta o'sha belgi ma'lum narsani bildira borgandan so'ng, tasvirlangan narsaning aynan o'zini yozmay, osonlashtirish uchun ayrim belgilarni tashlab ketishgan. Masalan, Xitoy, Yaponiya, Misr ierogliflari piktografik (rasmi) holatda vujudga kelib, keyin chalik mazkur shakkilar sodalashib yozuv holatiga o'tgan. Shuningdek, ko'pchilik yozuvlar tovushning talaffuz qilinishi va bo'g'in uzunligiga qarab shakllangan. Masalan, arab grafikasida til qonun-qoidalari asosida cho'zib talaffuz qilinadigan jumlalarda

shunga muvofiq tarza talaffuz yozuvda aks etgan va h.k. Demak, yozuvlarning ham kelib chiqishi kishilarning fikrlashi, tabiatdagi hodisalarga munosabati natijasida shakllangan, shu tilining taraqqiy etishiga xizmat qiladi.

Til madaniyatning muhim, ammo ilmiy qoliplarga mos kelmaydigani bir elementidir. U aholining ba'zi bir qismini bog'laydi, ammo boshqa qismalarini ajratadi. U joylardagi o'zgarishlar va rivojlanishlar tezligini, o'zgarmas madaniy ko'rinishlarini ko'rsatadi.

Aholining irqiy tarkibi. Odamlar qadim-qadimdan qon-qarindosh bo'lib yashab kelgan. Ana shunday birliliklarning eng muhimlari dan biri irqiy xususiyatlardir.

Irq - avloddan avlodga o'tuvchi o'xshashashqi (teri, gavda) belgiga ega bo'lган, tarixan shakllangan kishilar guruhi hisoblanadi. Irqlarning paydo bo'iishi va odamlar o'ritasidagi irqiy belgi hamda xususiyatlarning kelib chiqishi o'ziga xos jarayon hisoblanadi. Antropologlarning fikricha, irqlarning shakllanishi quyidagi nazariyalarga monand holda shakllangan:

polisentrik nazariya – dunyoning turli qismalaridagi insonlarning tashqi tuziliishi hudud iqlimiga mos holda shakllanishi, ya'ni barcha irqlar bir-biridan alohida-alohida paydo bo'lган; monosentrik nazariya – odamlarning kelib chiqishi bir hudud bo'lib, keyinchalik dunyoning turli qismalarga tarqalgani hamda joylashgan joyiga mos holda, irqiy belgilari shakllangan, ya'ni avval barcha insonlarning irqiy xususiyatlari bir xil bo'lган va keyinchalik har xilik kasb eta boshlagan.

Irqlar xalqlarning, asosan, tashki ko'rinishiga va undagi farqlarga qarab ajratiladi. Yer shariда uchta katta irq: yevropoid, mongoloid, negroid (hozirgi davrda astroloid tipiga ham alohida irq sifatida yondashilmoxda) hamda ko'plab aralash irqiy formalar ajratilgan. Lekin yer shari aholisining hammasi, ayman, shu irqlar bo'yicha taqsilannagan. Tarixiy davrlar mobaynida katta irqiy vakillarning assimilatsiyasi natijasida oraliq inqlar shakllangan. Shu jihatdan, bu oraliq irqlarning vujudga kelishi qadimiy (negraoid+mongoloid, yevropoid+negroid, yevropoid+mongolid) va yangi (yevropoid+indeys, yevropoid+negroid) o'tish irqlariga mansub hisoblanadi.

Yevropoid irqi. Bu irq vakillari, asosan, Yevropa, Janubiy va

Janubi-g'arbiy Osyo, Shimoliy Afrika, Avstraliya va Amerikaning yevropaliklar ko'plab yashaydigan hududlarida tarqalgan. Yevropoid irqi ichki xususiyatlari va tarqalgan hududidagi tabiiy sharoitining ta'siri natijasida 3 ta guruhga ajratiladi:

❖ Shimoliy yevropoid vakillarning bo'yи novcha, qirraburun, kamtukli, sochi sariq va to'lqinsimon, ko'k ko'zli bo'ladi. Chunki mavjud tabiiy sharoitning xususiyatlari insonlarning morfoloyiyasida assosiy omil vazifasini bajargan. Bu tarmoqqa Skandinavya va Boltiqbo'yи mamlakatlari hamda Islandiya kiradi.

❖ O'rta yevropoid irqi vakillarning yuzlari oq-sariq, sochlari siliq va burunlari nisbatan kattaroq, o'rtacha bo'yli bo'ladi. Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya va Markaziy Yevropa davlatlari, Rossiya va Sharqiy Yevropa mamlakatlari, AQSh, Kanada, Avstraliya, Yangi Zelandiya kabilarning assosiy aholisi shu irqqa mansub.

❖ Janubiy yevropoid vakillarning gavda tuziliishi va tashqi ko'rinishi o'zi tarqalgan hududning iqlimiga mos holda, tanasi nisbatan bug'doyrang, bo'yи baland, sochlari qora va jiggarrang, boshi dumaloq va ko'zi jiggarrang, qora. Bu tipdag'i aholi, asosan, Janubiy Yevropa, Shimoliy Afrika, Janubi-g'arbiy Osyo, Old Osyo, Janubiy Osyo, Lotin Amerikasi mamlakatlariда yashaydi.

Mongoloid irqi. Dunyo aholisining deyarli 1/5 qismini o'z ichiga oladi. Bu irq, asosan, Osyoda vujudga kelgan bo'lib, odamlarning tanasi bug'doyrang, sochlari silliq, bo'yulari past va yanoqlari turtib chiqqan bo'ladi. Mongolid irqi ham ikki guruha bo'linadi, ya'ni Osyo va Amerika mongoloidlari.

❖ Osyo mongoloidlari, asosan, Sharqiy va Janubi-sharqiy Osyo, Uzoq Sharq va Sibirda tarqalgan. Bu irq vakillarning bo'yulari nisbatan past, ko'zleri qisiq, yanoqlar turtib chiqan, o'rta buruni, sochlari silliq va siyrak, tamasi kamtuk hisoblanadi.

❖ Amerika mongoloidlari xalqlarning tarqalish jarayonida Bering bo'g'ozli orqali Osyodan o'tib borib joylashgan bo'lib, Kanadaning shimali va Alyaska, Markaziy Amerika va Amazoniya hududlarida tarqalgan. Tabiiy sharoitga moslashgan holda, Kanada mongoloidlari tarqalgan. Tamasi nisbatan oqish bug'doyrang, ko'zleri qisiq va bo'yи past bo'lsa, janubda yashaydigan mongoloidlar tamasing rangi o'zgarib, qizil tanli indeyslar sifatida shakllangan. Ularning bo'yulari baland, burunlari yapaloq, ko'zleri va jiggarrang, sochlari esa to'lqinsimon.

Negroid irqi. Bu irq vakillarining teri rangi qora, sochlari qora va jingalak, burni keng, lablari qalini. Bu iqlimning issiq va serquyoshligi bilan harakterlanadi. Quyosh nuridan himoyalash uchun tanadan melanin moddasining ko'plab ishlab chiqarilishi natijasida ularning tanasi qora bo'ladi. Shuningdek, issiq havoda kislordining kamiliги bois nafas olish jarayonida burun teshiklari kattalashgan va yapaloq bo'lib tarkib topgan.

Negroid irqi ham ikki tarmoqqa ajratiladi, ya'ni Afrika va Okeaniya tarmoqlari.

❖ Afrika negrlari - Sahroi Kabirdan janubda yashaydi. Bu irq va killarini, ko'pincha, ekvatorial irq vakillari deb ham ataladi. Ularning tanasi qora va yo'g'on, lablari katta va go'shtidor, sochlari dag'al va jingalak bo'ladi.

❖ Okeaniya tarmog'ini alohida Avstroloid irqi sifatida ham ajratildi. Chunki uning shakllanishi negroid bilan aloqador bo'lmagan holda, Janubi-sharqiy Osyo xalqlarining kelib o'mashishi va tabiiy sharoitga moslashishi natijasida tarkib topgan. Ularga aborigen, puas, maori, melonez va boshqalar kiradi.

Xalqlarning bir-biri bilan o'zaro aloqasi natijasida turli irq vakillari o'rtasida assimilatsiya jarayoni sodir bo'lgan. Natijada ikki irq vakilining belgilari bir individda namoyon bo'tib, oraliq irq shakllana borgan. Masalan, yevropoid va negroidlarning chatishishidan Afrikada efiop, Janubiy Osiyoda dravid oraliq irqlari shakllangan, mongoloid va yevropoidlarning qo'shilishidan esa Markaziy Osiyoda turon, G'arbiy Sibirda ural oraliq tiplari tarkib topgan. Negroid va mongoloidlarning assimilatsiyasi esa Madagaskar, Mavrikiy va Chagos arxipelagida namoyon bo'ladi. Oraliq irqlardan Amerika qit'asida sambo (negroid+indeys), metis (yevropoid+indeys), mulat (yevropoid+negroid) kabilalar tarkib topgan.

Demak, jahon bo'yicha eng ko'p irqqa mansublar yevropoid irqi vakillari bo'lsa, eng kam qismi avstroloid irqiga mansub. Shuningdek, oraliq irqlarning ko'payishi natijasida xalqlar o'rtasida madaniy aloqalar kuchayib bormoqda. Bu esa etnik, lingvistik va irqiy tafovutlarning tobora kamayishini vujudga keltirmoqda.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Etnogeografiyaning ijtimoiy geografiyada ahamiyati qanday? ega?
2. Jahon bo'yicha xalqlarning tarqalishi qanday xususiyatlarga ega?
3. Jahon aholisi lingvistik tarkibiga ko'ra qanday guruhanadi?
4. Yer sharida qaysi tillar jahon tillari hisoblanib, eng ko'p toydalaniladi?
5. Irqlarning shakllanishiga qanday omillar ta'sir ko'rsatgan?
6. Oraliq irqlar qanday tarkib topadi?

4-MAVZU. LINGVISTIK GEOGRAFIYA

Reja:

1. Lingvistik geografiyaning paydo bo'lishi.
2. "Areal tilshunoslik" tushunchasi va uning xususiyatlari.
4. Til hodisalarini xaritalash.
5. Madaniy-tarixiy soha: tushunchasi va uni tarqatish tamoyillari.

Maqsad: *talabalarda lingvistik geografiya haqida tushunchalar hosil qilish.*

Tayanch so'z va iboralar: *lingvistik geografiya, tilshunoslik, lingvistik atlas, shevalar; leksik va grammatic xususiyatlar.*

Lingvistik geografiya (lotinchcha lingua - til va geographie so'zlaridan olingan) tilshunoslik fanning har bir alohida til hodisasi tarqalish chegarasini aniqlaydigan sohasi bo'lib, uning ham asosiy tekshirish obyekti dialektologiya singari dialekt hisoblanadi.

Lingvistik geografiya 70-80-yillarda paydo bo'lgan. XIX-asr, individual til hodisalarini chegaralarini o'tasidagi nomuvonfqlik faktlari aniqlangan. Shu munosabat bilan g'oya dialektal chegaralarning yo'qligi, dialektlarning aralash tabiatini va shu sababli dialektlar umuman mavjud emasligi to'g'risida paydo bo'ladi. 1876 -yilda Germaniyada G. Venner nemis tilining lingvistik atlasi tuzish uchun material to'play boshladi, va uning ismi F. Vrede davom ettiradi. 1926 yilda lingvistik geografiya oid ba'zi xaritalar nashr etiladi.

Lingvistik geografiya umumiy tilshunoslikning bir tushunchasi sifatida areal-tipologik metod orqali tillar tipologiyasini o'rganish bilan ham, areal tadqiqot metodi bilan ham ish ko'radi. Lingvogeografiyada dialektlar va shevalar chegarasi butunicha aniqlanadi, ayrim fonetik, leksik va grammatic xususiyatlarning joylashish o'mni belgilanadi.

Lingvogeografiya bilan dialektologiya makon va zamon faktorlariga turlicha munosabatda bo'lsa-da, makon faktori lingvogeografiyada ham dialektologiyada ham bir xil ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, hududiy omil lingvogeografiyaning assosimi taskil etadi. Chunki, lingvogeografiya keng hududga ega bo'ishi va bir vaqtida ko'plab faktlarni qamrab olishi, umumlashtirish hajmining beqiyosligi bilan tasviriy va tahliiy xususiyatga ega bo'lgan tushunchadir.

Dialektologiyaning tekshirish obyekti jonli dialektal nutq, dialektal lug'atlar, imiy asarlar, qaysi davrga yoki qaysi hududa oidigidan qat'i nazar, umuman dialektal tekstlar tadqiqotidan iborat bo'lsa, lingvistik geografiya lingvistik atlaslar, dialektal lug'atlar, imiy tadqiqotlar va ma'lum territoriyagagina oid dialektal tekstlar bilan ish ko'radi.

Dialektologiyada og'zaki nutqni transkripsiyada yozib olish, dialektal tekstlarni izohlash haqida ma'lum dialektal xususiyatlarni o'rganish, dialektal lug'atlar, monografiyalar va dialektal atlaslar tuzish ishi bajariladi. Dialektal atlaslar tuzilishi dialektologiyadan lingvistik geografiyaga o'tish davri hisoblanadi. Shu bilan birga, bu davr o'zining nazariy ahamiyatiga ko'ra lingvistik geografiya taraqqiyotining dastlabki jarayonidir.

Lingvogeografik tekshirishning asosiy davri tuzilgan atlaslar va boshqa lingvogeografik manbalar ustida olib boriladigan tadqiqot davridir. Dialektologiya tadqiqotida to'liq til materialiga, to'liq tekst namunalariiga ega bo'lsa, lingvogeografiya esa, anketlashtirilgan kichik til faktlariga qagina tayananadi xolos.

Ma'lunki, dialektal xususiyatlar asta-sekin iste'moldan chiqib yo'qolib ketadi. Ular haqidagi ma'lumotlar esa, lingvistik atlaslar va yozib olingan tekst namunalarida saqlanib qoladi. Demak, yo'qolib borayotgan lingvistik xususiyatlarni yozib olish dialektologlarning muhim vazifasidir.

Dialektologiya, asosan, dala sharoitida ish ko'radi. Lingvogeografiya dialektologiyaga qaraganda ancha konkret xususiyatga ega. Chunki lingvogeografiya materiallari bilan laboratoriyada va kabinetda shug'ullaniladi. Lingvistik geografiya dialektologiyadan o'sib chiqqandir. Jonli dialektlar qanchalik darajada mavjud bo'lsa, lingvogeografiya dialektologiyaga bilan shunchalik bog'liq bo'ladi.

Dialektlar o'z xususiyatlarini yo'qotib, addabiy tilga singib ketgandan keyin dialektologiyaga dala sharoitida ish ko'rish holatidan mahrum bo'ladi va uning o'mmini lingvogeografik tadqiqot egallaydi. Dialektning lingvogeografik holati uning tashqi ko'rinishi bilan uzviv bog'liq bo'lib, til xususiyatining turli aspektlari bilan belgilanadi. Lingvistik geografiya quyidagi tushuncha va terminlarni o'z ichiga oladi: 1. Lingvistik atlaslar. 2. Mos hodisalar. 3. Areallar. 4. Izglossalar. 5. Tillanshafti. 6. Aralash zonalar. 7. Innovatsiya markazi.

8. Irradiatsiya. 9. Lingvogeografik kartalar. 10. Kartalashtirish va boshqalar.

Lingvistik atlaslar. Maxsus programma-so'roqlik asosida tayorlangan, ma'lum til yoki shevalarga xos xarakterli xususiyatlarning tarqalish chegarasini aks ettiruvchi lingvistik kartalarning albom shaklidagi sistemali to'plami - lingvistik atlas deyijiadi.

XIX-asr oxiridan boshlab dunyoning ko'plab mamlakatlarda dialektologik atlaslar yaratila boshlanadi. Parija 1903-yilda J. Gilleron va E. Edmondlar tomonidan "Fransiyaning lingvistik atlasi" nashr etilgan.

Lingvistik yoki dialektologik atlas - fiktografik yoki umumlash-tiruvchi xarakterdag'i kartalarni umumlashtiruvchi sistemasi bo'lib, uning yig'indisi tilning hududga tarqalish modelini yoki uning biror bo'lagini shakllantiradi.

Lingvistik atlas asosida qilingan xulosalar undagi alohida kartalarning darajasidan va ularning o'zaro uziy bog'lanishidan kelib chiqadi. Lingvistik atlas o'zida ma'lum tilning hamma tushunchasi bo'yicha material mavjud bo'ishi bilan shu tilning nazariy va amaliy fonetikasi, grammatikasi va leksikologiyasi taraqqiyotini chuqur o'rganish uchun imkoniyat yaratadi.

Lingvistik atlas kartalari 2 xil tamoyilga asoslanib tuzilishi mumkin. 1) Dialektologik tamoyil. 2) Umumilingvistik yoki areal lingvistik tamoyil.

Karta tuzishdagi umumilingvistik va dialektologik prinsip hamma atlaslarda barobar saqlanadi, ularning o'zaro munosabati dastlab material tanlashda ham, kartalashtirishni amalga oshirishda ham asosiy o'rinn tutadi. Shunga qaramay, lingvistik va dialektologik atlaslar o'zining ko'philik belgilari bilan bir-biridan farqlanadi. Farqlar dastlab anketalashtirish darajasidan boshlanadi.

Lingvistik atlas uchun material keng ko'lamdagi savollar majmuasi asosida to'plansa, dialektologik atlas materiali uchun ma'lum dialektal xususiyatlarni modellashtiruvchi programma asos bo'ladi. Bunday programming har bir punkti alohida tema uchun mustaqil so'roqlikni tashkil etadi. Masalan: Lingvistik kartaning har bir so'z uchun savolga javob tariqasida tuzilishi uning dialektal ayirmaliklar tarqalishini aniqlaydigan dialektologik kartadan farqini ko'rsatadi.

Anketalashtirish bevosita va bilvosita orqali amalga oshirilishi

mumkin. Anketalashtirish metodikasining bevosita, bilvositaligi, so'roqqa javob olish formasini orqali amalga oshirilishi, illustrasiya qo'llashi, informator tilidan anketalashtirish, yoki adabiy tilidan tarjima qilish kabiitar lingvistik kartani baholashda hisobga olinadi.

Lingvistik atlas asosan 2 xil bo'ladi: 1) Regional atlas. 2) Zonal atlas.

Regional atlasning vazifasi u yoki bu rayondagi shevalalar strukturasing eskliz-sxemasini aniqlash va detallashtirishdan iborat. Moldaviya lingvistik atlasi - regional atlas sanaladi. O'zbekiston hududini o'z ichiga olgan o'zbek shevalari atlasi tuzilsa, u regional atlas bo'ladi. Yirik zonadagi bir til xususiyatini o'zida to'la aks ettir-gan atlas - zonal atlas hisoblanadi. Massalan, Rumini tilning lingvistik atlasi balkan-roman massivining umumzonal atlasidir. O'rta Osiyo zonasini hududidagi o'zbek shevalari materiallarini to'la qamrab olgan o'zbek tili atlasi yaratilsa, u zonal atlas hisoblanadi.

Til materiali tadqiqotida kartalashtirish metodini qo'llash dastlab XIX asriga to'g'ri keladi. 1821 yilda K. de Monbre tomonidan tuzil-gan fransuz shevalari chegaralarini belgilovchi karta Fransiya qirollik jamiyatiga taqdim qilinadi. 1823 yilda D. Mone o'zining lingvistik karta tuzish g'oyasini oldinga suradi. So'ngra Venker va Vredening nemis tili atlasi (1876-1926 yillar), Margburgdag'i nemis dialektologiyasi Markaziy instituti nashr etgan «Nemis leksikologik atlasi», J. Jileron va E. Edmonning 12 jildli «Fransuz tili atlasi» (1903-1912 yillar), Q. Yaberg va Ya. Yudning 8 jildli Italian-shveytsar atlasi (1928-1940 yillar) o'sha davrda tuzilgan.

Rossiyada til hodisalarini geografik asosda o'rganish XIX asrning ikkmichi yarmida (I.I.Sreznev-kiy, keyinchalik A.I.Sobolevskiy) tomonidan) boshlangan.

Rossiyaning lingvistik geografiyasi ustida 1903-yildan boshlab A.A. Shaxmatov tashabbusi bilan tuzilgan. Moskva dialektologik Komissiyasi planli ish olib bora boshlaydi. Bu komissiya 1915 yili «Rus tili Yevropa qismi dialektologik kartalaridan tajriba» (*«Rus dialektologiyasidan ocherklar, ilovasi bilan»*) degan karta nashr ettradi. Bu kartada hozirgi Sharqiy slavyan (rus, ukrain, belorus) tillari va bu tillarning har qaysisining lahjalarga va sheva gruppalariga bo'linishi ko'rsatib berilgan. Mazkur karta rus dialektologiyasi fani tarxi uchun muhim davr bo'ldi.

Lingvistik geografiya metodi bilan tilning istalgan tushunchasini fonetika, (fonologiya), morfologiya, sintaksis, leksika, stilistika kabi aspektlarini tavsif etish mumkin. Lekin atlaslarda tilning hamma hodisasi o'z aksini to'la topa olmaydi. Bu hol atlasing turi va hajmi bilan bog'liq. Lingvistik atlaslar yangi hodisalarni ham, tilda yo'qolib boradigan hodisalarni ham o'zida barobar aks ettirishi lozim. Eski atlaslardan farqli ravishda hozirgi atlaslar til hodisalarini har taraflama o'rganishga bagish-langan.

Mos hodisalar - umumimilliy til strukturasing zvenolari bo'lib, har xil dialektlarda o'zining turli bo'laktari (a'zolari) bilan ishtirok egani holda shevachiliq farqlarini vujudga ketitirdi.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) tushunchasi va uning mohiyati. Bu terminlarning birinchisi lotincha *area* – maydon, kenglik, hudud hamda *lingvistika* – tilshunoslik, ikkinchisi esa *lingvistika* va *geograffya* tarkibiy qismalaridan iborat.

Areal lingvistika (lingvistik geografiya) sheva xususiyatlarining turli hududlarda tarqalishini maxsus belgilari va raqamlar vositasida karta(xarita)da aks ettirish bilan shug'ullanadigan dialektologiyaning bir bo'limidir, boshqacha aytganda, shevalarga yoki qarindosh tillarga xos bo'lgan xususiyatlarining tarqalish chegaralarini xaritada ifodalashdir.

“Areal tilshunoslik” atamasi birinchi bo'lib M.J.Bartoli va J.Vidossi tomonidan kiritilgan bo'lib, uning asosiy tamoyillari 1925-yilda Bartoli tomonidan ishlab chiqilgan.

Lingvistik geografiya shevalarni o'rganishning bir metodi hamdir. Fanda lingvistik geografiya va dialektologiya munosabatlariiga ham e'tibor qaratiladi. Bu ikki hodisaning obyekti bir bo'lsa-da, ularning farqlari ham bor. Dialektologiya shevalarni monografiya, maqola va lug'atlar yaratish orqali o'rgansa va xulosalar chiqarsa, lingvistik geografiya ularni tizimga tushirib, kartalashtirish bilan shug'ullanadi, shuning uchun ham lingvistik geografiyani dialektologiyaming tadqiqot texnikasi deb ham yuritishadi.

Lingvistik geografiya quyidagi tushunchalarga asoslanadi:

Izoglossa. Bu so'z lotincha bo'lib, **izo** – teng, **glossa** – til degan ma'nolarni bildiradi va bir dialekt, lajha doirasidagi yoki qarindosh tillardagi fonetik, leksik va grammatic xususiyatlar mosligi darajasiga ko'ra tarqalishini ko'rsatadigan shartli belgidir. Izoglossalar

vazifasini fonemalar, ularning variatsiyalari, morfemalar, ularning variantlari, grammatic shakllar, leksemalar bajarishi mumkin. Shu tufayli uning *izofonema*, *izomorfema*, *izoleksema* tiplari belgilanadi. Masalan, turli sheva va tillarda tez-tez takrorlanuvchi cho'ziq **o**: unisi izofonema sifatida, **-ə/a** ko'plik affaksi varianti izomorfema sifatida, vazmin ~ *canaka* ~ *salqa*, epidemiyasi ~ *spay* ~ *iran* kabi so'zlar izoleksema sifatida qatnashishi mumkin. Shuningdek, adabiyotlarda izoglossalarning *izofon* (fonetik izoglossa), *izomorf* (morphologik izoglossa), *izoleks* (leksik izoglossa), *izosema* (semantic izoglossa) haqida ham ma'lumotlar beriladi.

Izoglossalar qarindosh yoki qarindosh bo'lmagan tillarga munosabati jihatidan ikki guruhga ajratiladi:

1. O'zaro aloqadagi izoglossalar. Bunday izoglossalar genetik umumiylikka ega bo'lgan tillarga aloqador bo'ladi.

2. Konvergent izoglossalar. Bunday izoglossalar turli sistemadagi tillarning uzoq muddati hududiyo aloqalari (kontakti) natijasi samarasini sifatida yuzaga keladi va har ikki til uchun umumiyo bo'radi. Bunda qarindosh bo'lmagan tillar o'z mustaqilligini saqlaydi.

Areal (area). Izoglossalarning tarqalish hududini bildiradi. Yuqoridaq izoglossa turlarining bir necha hududlarda tarqalishini ko'rsatadi. Masalan, birlamchi cho'ziq unililar Qozog'iston, O'zbekiston, Turkmaniston va boshqa hududlarda tarqalishi maxsus belgilarda kartada aks ettiriladi.

Areal termini biologiya, geografiya, kimyo, antropologiya fanlarida ham qo'llanadi. Biologiyada hayvonlar va o'simliklarning, geografiyada tabiat hodisalarining, kimyoda tabiiy boyliklarning, antropologiyada xalqlar va irrlarning tarqalish hududlari kartalashdiriladi.

Til landshafti. Muayyan hududda til va bir necha shevalardagi izoglossalar va ularning joylashishi (manzara) xususiyatidir. Ular turli ranglar vositasida ko'rsatiladi.

Innovatsiya. U izoglossalarning tarqalish markazini bildiradi. Masalan, labial singarmonizm qadimgi turkiy tilga xos bo'lsa ham, qing'iz tilida mustahkamlari goldi va bu til orqali boshqa til va shevalarga tarqaldi. Demak, labial singarmonizmning innovatsion markazi vazifasini keyingi davrlar uchun qirg'iz tili bajaradi.

Lingvistik karta. Bunday kartalarning xususiy va umumiyo turlari

amalda bor. Aksariyat hollarda lingvistik kartalar kontur kartalarda amalga oshiriladi. Bir izoglossaning tarqalishi ko'rsatilgan karta xususiy lingvistik kartadir. Bir guruh izoglossalar aks ettiligan karta esa umumiy lingvistik karta hisoblanadi. Lingvistik kartada sheva yoki til hodisalarini – izoglossalarni shartli belgilar vositasida ham, bevosita o'zini ham yozish mumkin.

Sheva yoki til hodisalarini kompleks joylashtirgan va ranglar vositasida jilo berilgan kartaning turi *lingvistik yoki dialektologik atlas* deyiladi. Lingvistik atlas umumlashirish xarakteriga ega bolib, u sheva yoki biror tilning tarqalish chegarasini ko'rsatgan rangli kartalar yig'indisidir. Dunyo amaliyotida lingvistik atlasing klassik namunalarini Venker G. Shimoliy va qurakaziy Germanuyanaging dialektologik atlasi. 1881-y. (6 karta), Jiyeron J., Edmon E. Fransiya lingvistik atlasi. 1896 -1908-yillar, Vrede F. Nemis lingvistik atlasi. 1926 - 1932-yillar (6 jild), Yaberga K., Yuda I. Italiya va Janubiy Shvetsariya dialektlari atlasi. 1928-y, kabi olimlar tomonidan yartigan. Lingvistik atlas faqat dialektologik maqsadda emas, balki dunyo tillarining tarqalishini ko'rsatish maqsadida ham yaratiladi.

Til zonasasi va dialektal zona. Til zonasasi o'zaro yaqin tillar (idiomlar) ni yaqinlik darajasi va bir fokus nuqtasiiga ko'ra birlashtiridigan huddur. **Dialektal zona** bir til doirasidagi lajha, dialekt va shevalarning fokus nuqtasiiga ko'ra joylashish hududlaridir. **Fokus nuqtasi** yirik shahar shevasi bo'lib, atrof shevalarga doimiy ravishda o'z ta'sirini o'tkazib turadi va qayta aloqada bo'ladi hamda dialektal zonaning o'ziga xos rivojlanishini ta'minlaydi.

Bunday zonalarni belgilashda davlat chegaralari hisobga olinmaydi, balki o'zbek tili massivi (o'zbek tili tarqalgan hudud) geografik, dialektal farqlanishi, tarixiy-ethnografik xususiyatlari, ma'lumotlari asosida uning shevalari guruhi asosida qurulashdiriladi. Shu asosda A. Jo'rayev o'zbek tilining 11 dialektal zonasini belgilagan (bu haqda "O'zbek tilining dialektal bo'llishi" mavzusida ma'lumot beriladi). Aksariyat hollarda bunday zonalarni belgilashda qarindosh til yoki dialekt masalasi muammo bo'jadi. Axborot tizimlariда ta'kidlanishicha, bunday vaziyatda o'xshashik 92-96% ni tashkil etsa, ularni dialekt deb hisoblash lozim. Til va dialektni farqlashda fanda sotsiolingvistik va struktur me'yorga ko'ra, idiomlar (qarindosh til) mustaqil Sotsiolingvistik me'yorga ko'ra, idiomlar (qarindosh til) mustaqil

til bo'lishi uchun:

- o'z mustaqil yozuv standartiga ega bo'lishi;
- turli sohalarda yozma va og'zaki muloqottining amal qilishi;
- funktsional jihatdan mukammal bo'lishi lozim. Bunda siyosiy va etnik omillar muhim ahamiyatga ega.

Struktur (struktur-lingvistik) me'yorga ko'ra, mustaqil til bo'lishi uchun:

- fonetik va grammatic qonun va qoidalar yagona bo'lishi;
- asosiy lug'at tarkibi idiom a'zolarining barchasiga tushunarli bo'lishi;

- idiom tarkibidagi lajha, dialekt va shevalar barcha uchun tushunishga oson bo'lishi lozim.

Lingvistik karta lingvogeografiq tadqiqotining asosiy nuqtasidir. Sinxropik tadqiqot natijasi hisoblangan lingvistik kartada til tarixining hamma davri o'z aksini topadi.

Lingvistik kartalar 2 xil metodga asoslanib tuziladi. 1) Lingvistik strukturani tadqiq qilish metodi 2) Til landshaftini o'rganish metodi.

Bu hol kartalashtirish metodi bo'yicha va kartalashtirishning asosiy xarakterini hamda lingvistik jihat bilan farqlanadigan kartalarning ikki xil asosiy tiplarining sabab bo'ladi: a) Sintetik karta. Bu karta roman lingvogeografiyasida keng tarqalgan bo'lib, unda har bir punktdagi formalar kartaga bevosita tushiniladi. b) Analitik karta. Bu kartada shartli belgilar sistemasiga, simvollarga tayaniadi va biridran farqlanadigan belgiarning kelib chiqishi taxmin qilinadi. Bu kartalar nemis shevashunosligi maktabiga xosdir.

Agar sintetik karta fopetik traskripsiya yoki tradision orfografiyaga suyanib, faqat yozuv xarakteri bilan farqlansa, analitik kartaning esa grafik tuzilishi har xil bo'lishi mumkin. Yoppasiga anketalashirishda hamda qabul qilingan shartli belgilar hajmining kichikligi bilan bunday karta asosan rangdorlik metodi-yaqollikni saqlagan holda muhim areallarni va o'tuvchi zonalar xarakterini aniq belgilash imkoniyatini yaratadi.

To'plangan materialning xarakteriga qarab kartalar quyidagi ko'rilishlarga ega bo'lishi mumkin: 1) Boshlang'ich yoki tayanch karta, unda tabitsa materiallari ham muhim rol o'ynaydi. 2) Oralq yoki yig'ma karta. Bu kartada bir tripli yoki aralshagan hodisalar yig'ilgan bo'ladi. Masmuni va material joylashtirish prinsipi jihatidan tayanch

karta ish bajarishi jihatidan sintetik yoki analitik bo'lgan holda faqat tematik bo'iishi mumkin.

Kartalashtirish. Lingvistik geografiyaining asosiy vazifasi - til hodisalarining hududga tarqalishini kartalashtirish va tadqiq qilish hamda shundan kelib chiqadigan muammolarni hal qilishdan iborat.

Ma'lumki, jonli tildagi har bir lingvistik hodisa o'zining tarqalish chegarasiga, o'z hududiga ega bo'lad. Masalan, dialektal so'zlar chegarasi ma'lum hudud bilan belgilanadi.

Tovush o'zgarishi bir sheva yoki dialekta xos bo'lsa ham yoki jihatidan chegaralananadi. Shu bilan birga, tildagi ba'zi hodisalarning tarqalish chegarasi keng mashtabga ega bo'lishi ham mumkin. Lekin har bir dialekt biron aniq chegara bilan bir-birdan ajratilmaydi. Bir dialekta xos xususiyat bosqqa bir dialektda uchrashi mumkin. Masalan, qishloq tip shevalarida mayjud bo'lgan ba'zi xususiyatlarni shahar tip shevalarida ham ko'ramiz, yoki j-lovchi shevalarga xos xususiyat y-lovchi shevalarda mavjud bo'лади.

Har bir kartani tuzishda dastlab kartalashtirilgan til hodisasingin tarqalish chegarasi - izoliniyasi aniqlanib chiqilishi kerak. So'nga, har xil sheva va dialektlarda mavjud bo'lgan bir xil til hodisalarini izoglossa sifatida kartalashtiriladi. Ba'zi hududlarda izoglossalarning tarqoq holda uchrashi qachonlardir aholining bir joydan ikkinchijoyga ko'chishining natijasi ekanligidan dalolat beradi. Ayrim dialektlarda leksik izoglossalar yig'indisida noaniqlik uchrasa, ba'zi dialektlarda esa, fopetik izoglossalar ayniqsa, zinch joylashgan bo'лади.

Bu xil izoglossalarning ko'proq hududga tarqalishida qadinda aloqa yo'llari va daryo oqimi katta rol o'yagan. Kartalashtirilgan hudud turli tomonga tarqalgan izoglossalarni o'z ichiga olganda har xil lingvistik hodisalarning tarqalishi ba'zan bir-biriga mos kelmay qolishi mumkin. U holda o'xshash bo'lmagan ayrim gruppera izoglossalar bir-biriga juda yaqin yo'l bilan o'tib, izoglossalar to'dasini, yig'indisini tashkil etgan joytari aniqlash lozim bo'лади.

Lingvistik geografiyaming paydo bo'iishi va rivojlanishi tillardagi dialektal farqlarni xaritalash va dialektologik atlasmarni yaratish bilan bog'iil. Bunday atlaster har xil bo'iishi mumkin: alohida hududlar atlasi, bita til, turdosh tillar guruhlari, turli tizimdagи tillar joylashgan hududlarni qamrab olgan atlalar va boshqalar. Atlasar

kartografik materiallari bilan, til tizimining turli darajalaridagi dialektal xususiyatlar xaritalarida aks etish darajasi, ma'lum bir tilning dialektarini rivojlantrishdagi tarixiy jarayonlar bilan bog'iiligi va aks etishi bilan farq qiladi

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Lingvistik geografiyaning nimani o'rganadi?
2. Mintaqaviy tilshunoslik nimani o'rganadi?
3. "Areal tilshunoslik" tushunchasini izohlangu?
4. Lingvistik geografiya qanday tushunchalarga asoslanadi?

5-MAVZU. DIN GEOGRAFIYASI

Reja:

1. Dinni ijtimoiy hodisa sifatida geografik jihatdan o'rganishning ahamiyati.

2. Din geografiyasining shakllanishi va rivojlanishi. Uni geografiya fanlari tizimida tutgan o'mi.

3. Urug'-qabila dinlar va ularning mazmuni

4. Dirlarning turlari va kelib chiqishining hududiy jihatlari.

Maqsad: *talabalarda dinni ijtimoiy hodisa sifatida geografik jihatdan o'rganishning ahamiyati haqidida tushunchalar hosil qilish Tayanch so'z va iboralar: din, urug'-qabila dinlari, mintaqaviy xususiyatlari, dirlarning turlari*

Din insoniyat ma'naviy hayotining tarkibiy qismidir. O'zbekiston Respublikasida ziyoilolar oldiga ma'naviy barkamol insonni shakllantirish vazifasi qo'yilgan bir paytda din masalasini chetlab o'tish mumkin emas. Mazkur masalani hal etishda ilgarigi dingga agressiv hujum uslubining salohiyatsizligi hammaga ochiq-o'ydin. Lekin keyingi payda paydo bo'lgan diniy bo'lmagan masalalarni diniy deb atash, har qanday, hatto bir-biriga zid bo'lgan, fikrlarni tahsil qilmasdan turib maqtash uslubi ham o'zini oqlamaydi. Demak, ushibu masalaga prinsipial, professional, ilmiy yondashuv darkor. Din e'tiqod hamdir, bu esa har bir kishining shaxsiy ishi.

4-jadval

Dunyodagi dinlar klassifikatsiyasi

| DINLARNING YIRIK TIPLOGIYASI | |
|--------------------------------------|--|
| I. TARIXY-GEOGRAFİK TASNIF | |
| II. ETNIK TASNIF | |
| Orta yer dengizi havzasini dirlari | Rim dirlari, Yunon dirlari |
| Qadimiya Yaqin va Orta Sharq dirlari | Urug'-qabila dinlari Milliy dinlar |
| | Totemizm, Shamanizm, Fetisizm, Magiyalik Yahudiylik, Hinduizm, Konfutsiylik, Sintoizm |

| | | | |
|---|---|---------------|--------------------------------|
| Janubiy Osiyo dirlari | Zardushtiylik, Yahudiylik, Xristianlik, Manikeizm, Islam | Jahon dirlari | Xristian, Islam, Buddizm |
| Sharqiy va Janubi-sharqiy Osiyo dirlari | Veda dirlari, Hinduizm, Hind buddizmi (teravada, maxayana), Jaynizm | III. | SIG'INISHIGA KO'RA TASNIF |

| | | | |
|---|---|-------------|---|
| Amerika hindulari dirlari | Toitek dirlari, Asteklar dirlari, Inklar dirlari, Mayyalar dirlari | monoteistik | Kristian, Hinduizm, Konfutsiylik, Duoizm, Sintoizm, |
| Jadval internet manbasidan olingan (https://uz.atomiyome.com/) qancha-dunyoda-dirlar-asosiy-jahon-dirlari). | | | |

Dunyodagi dinlar klassifikatsiyasi quyidagicha Dirlarning yirik tiplogiyasi ikki qismga ajratiladi tarixiy-geografik va etnik tasnif (4-jadval).

Vijdon erkinligi berilgan bo'lsa-da, shaxsni har qanday missioner lushkilotlar ixtiyoriga ham tashlab qo'yib bo'lmaydi. Ozod jamiyatda har bir inson o'z shaxsiy pozitsiyasini belgilab olishi uchun unga har tomonlama, boy, obyektiv-ilmiy ma'lumot zarur. Bunday ma'lumot ensiklopedik xarakterda bo'lmog'i, birovning g'arazli sharhisiz asl matnlari shaklida bo'lsa, maqsadga muvofiqdir.


Din so'zi arab tilidan olingan bo'lib, uning lug'aviy ma'nosi (ishonch, e'tiqod)dir. Istilohiy ma'nosi lotin tilidagi «religion» so'zi bilan mos keladi.

Din – tabiat, jamiyat, inson va uning ongi, yashashdan maqsadi humda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitidan ushqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, huqiqiy, odil hayot yo'llini ko'rsatadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishni ifoda etadigan maslak, qarash,

ta limotdir. Hozirgi vaqtida jahonda ko'plab dirlar mavjud (4-rasm).

Din muayyan ta'limotlar, his-tuyg'ular, toat-ibodatlar va diniy tashkilotlarning faoliyatları orqali namoyon bo'ladı. U olam, hayot yaratilishini tasavvur qilishning alohida tariqasi, uni idrok etish usuli, olamda insoniyat paydo bo'lgandan to bizgacha o'tgan davrlarni ilohiy tasavvurda aks etishidir. Din komil insanni tarbiyalashda asosiy tarbiyalovchi qudratga ega bo'lgan ma'naviy-axloqiy kuchdir.

Din asli nima ekanligi turlichai izohlansa-da, umumiyluq nuqtai nazarr shuki, din ishommoq tuyg'usidir. Ishommoq tuyg'usi insoniyatning eng teran va ruhiy-ma'naviy ehtiyojlaridandir. Hozirgi kunda din tipologiyasida dirlarning ko'plab tasniflari mayjud.



4-rasm. Dirlarning tarkibiy tuzilishi.

Dunyo aholisining diniy tarkibi juda murakkab va xilma-xildir. Diniy mintaqalar sivilizatsiyalar evolyutsiyasi davomida shakllanib kelgan. Shu nuqtai nazaridan har bir dinni o'z sivilizatsion taraqqiyotidan kelib chiqqan holda tanlagan ramzlar ham bo'lib, u o'sha dinni ifodalab turadi. Masalan, islam dinining ramzi yarim oy va yulduz bo'lsa, xristianlikda xoch (kres) va hokazo. Jahon aholisining diniy tarkibi ham juda xilma-xil. Dirlarning tarqalish hududlari tarixan o'z xususiyatlarga ega. Masalan, xristianlikning dunyo

bo'ylab tarqalishining sababi bu nasroniy davlatlar uyushtirilgan Buyuk geografik kashfiyotlar va o'sha hududlarga uyushtirilgan migrat-siya bo'lsa, Shimoliy Afrika va Osiyoming katta hududi, qisman, Yevropada tarqalgani arablar istilosi va dinni yoyish jarayonlari bilan bog'liq.

Ayrim dirlar esa paydo bo'lgandan beri boshqa etnoslar tomonidan qabul qilinmagan. Masalan, iudaizm (yahudiylik), induizm, sintozizm kabi. Aholi nisbatan siyrak tog', o'rmon ichkarisi va chakalakzorlarda halil ham ibtidoiy dirlar saqlanib qolgan. Ular primitiv (sodda) dirlar deb ataladi. Jumladan: Totemizm dini shunday dirlar qatoriga kiradi. «Totem» so'zi Shimoliy Amerikada yashaydigan Ojibva qabilasi tilida «o'zining urug'i» ma'nosini anglatadi va mohiyatan «odamning hayvonot yoki o'simlikning muayyan turlariga qarindoshlik aloqasi bor», deb e'tiqod qilishlik ehtimol, ma'lum bir jamoaning avvalda asosiy ozuqa manbaini tashkil qilgan hayvon yoki o'simlikka nisbatan e'tibor keyinchalik vujudga kelgan qabilaning diniy tasavvurlarining asosiy shakllaridan biriga aylangan bo'lishi mumkin. Urug'dosh guruuhlar o'zlarini umumiy belgilari va totemlari bo'lgan hayvon yoki o'simlikdan kelib chiqqan, deb bilar edilar. Totemlarga bunday e'tiqod uzoq o'tmishga tegishlidir, ularning mavjud bo'lganligini faqat qadimgi rivoyatlarga tасdiqlaydi. Masalan, hozirgacha Avstraloya aborigenlari orasidan bu xususda afsонolar saqlanib qolgan.

Animizm (lotin tilida «anima» – «ruh», «jon» ma'nolarini angeladi). Animizm – ruhlar mayjudligiga ishonch, tabiat kuchlarini ilohiylashtirish, hayvonot, o'simlik va jonsiz jismarda ruh, ong va tabiiy qudrat borligi haqidagi ta'limoti ilgari suruvchi ilk diniy shakllardan biri (26-rasm). Ilk animistik tasavvurlar qadim o'tmishda, ehtimol, totemistik qarashlar paydo bo'lgunicha, oilaviy jamoalarning shakllangunicha vujudga kelgandir.

Shamanizm («shaman» so'zining tungus tilidagi ma'nesi – «sehrgar»). Sehrgarlik (afsun, magiya) real natijalar olish uchun ilohiy kuchlarga ta'sir etish maqsadida amalga oshiriladigan rituallar – urf-odatlar majmuasidir. U totemizm va animizm bilan bir vaqtida paydo bo'lib, unga ko'ra uming vositasida kishilar o'z *totemlari*, ota-bobolarining nihari bilan xayolan bog'lanishni amalga oshirib kelganlar. Shamanizm qadim o'tmishda paydo bo'lib, minglab yillar davomida saqlanib kelgan va tabiiyki, muntazam rivojlanib borgan. Odatda, afsungarlik urf-odatlar bilan maxsus odamlar - shamanlar,

afsungarlar shug'ullanganlar. Ular orasida, ayniqsa, ayollar ko'po'rinni egallaganlar. Bu shamanlar, afsungarlar jazavali va asabiy kishilar bo'lib, odamlar ularning ruhlar bilan nuloqorda bo'la olishlariga, ularga jamoaning orzu niyatlarini ruhlarga yetkazish, ularning irodasini talqin qilish qobiliyatiga ega ekanligiga chuqur ishonganlar. Shamanlar, odatda, ma'lum harakatlar: ovoz chigarish, ashula aytish, raqsga tushish, sakrash yo'i bilan nog'oralar va qo'ng'iroqlar ovozlari ostida jazavaga tushib, o'zini yo'qotish, jazavaning yuqori nuqtasiqa yetish bilan afsungarlik qilishgan. Tomoshabinlar ham ba'zan o'zlarini yo'qotar darajaga yetib, marosim ishtirokchisiga aylanib qolishlar edi. Marosim oxirida shaman hech narsani eshitmay, ko'rimay qolar, uning ruhlar dunyosi bilan mulqotni xuddi shu holatda amalga oshadi, deb hisoblanardi.

Fetishizm (fransuzcha, fetiche – «but», «sanam», «tumor» ma'nosidagi so'zni anglatadi) – tabiatdagi jonsiz premetlarga sig'inishdir (28-rasm). Unga ko'ra, alohida buyumlar kishini o'z maqsadiga erishtirish, ma'lum voqe-a-hodisalarini o'zgartirish kuchiga ega. Fetish ham ijobji, ham salbiy ta'sir etish kuchiga ega.

Fetishizm yog'och, loy va boshqa materiallardan yasalgan buyumlarning paydo bo'ishi bilan bir paytda shakklangan. Bu but va tumorlarda bamisolji jamoalar g'ayribabiy dunyodan keladigan ilohiy quadratning timsolini ko'rishgan.

Mahalliy dinlarning tarqalish mintaqalari

5-jadval

| № | Mahalliy dinlar | E'tiqod qiluvchilarning asosiy qismi tarqalgan mintaqalar |
|----|------------------------|---|
| 11 | Induizm | Hindiston, Nepal, Shri-Lanka |
| 22 | Sikkizm | Hindiston (Panjob shinati) |
| 33 | Konfutsiylik | Xitoy |
| 44 | Sintoizm | Yaponiya |
| 55 | Iudaizm (yahudiylilik) | Isroil, AQSh |

Manba: Qayumov A., Safarov I., Tillaboeva M., Fedorko V. Juhon iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi: Umumiy o'rta ta'llim makkablarining 9-sinfi uchun darslik.–T.: “O'zbekiston”, 2019. [34-b.]

Jahonda shunday dinlar borki, ularga faqat o'sha din tarixiy o'mi-shida vujudga kelgan etnos e'tiqod qilib, boshqalar ularga ergash-maydi. Bunday dinlar bir nechta davlatda e'tiqod qilinishi mumkin, lekin nechta davlatda bo'lsa ham bu denga faqat o'sha millat vakil-larigina sig'inayotgan bo'ladi va ular mahalliy dinlar deyiladi (5-jadval).

Induizm (hinduizm) juda murakkab dindir. U bir tonondan yirik ijtimoiy tashkilot, ikkinchi tomondan turli dinlar qorishmasidir. Ijtimoiy tashkilot sifatida kastachilik assosiga qurilgan. Ma'lumki, mil. avv. VI asrda Hindistonda buddizm dini vujudga keldi. U braxmanizmdagi bir necha jihatarni qabul qilgan bo'lsa-da, kasta ta'llimotini inkor etdi. O'sha davorda Hindistondagi kasta tuzumini saqlab qolishga, braxmanizm dinini istoh qilib, qayta tiklashga harakat boshlandi. Bu harakat braxmanizm bilan buddizm o'rtasidagi kurashni ifodalovchi hinduizm edi.

Bu din, asosan, Hindistonda tarqalgan bo'lib, mamlakat aholisining 83%, ya'ni 1,137 mlrd kishi shu denga e'tiqod qiladi. Hinduizm e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan jahonda uchinchchi o'rinda turadi. Lekin ko'pchilik davlatlarda boshqa etnoslar tomonidan qabul qilinmagani bois jahon dini hisoblananaydi. Hindlardan iborat yirik jamoalar Bangladesh (12 mln.), Indoneziyada (3,6 mln.), Shri-Lanka (3 mln.), Pokistonda (1,5 mln.), Malayziyada (1 mln.), AQShda (0,5 mln.), Butanda (0,3 mln.) mayjud.

Diniy qorishma sifatida hinduizm *oriylangacha* bo'lgan dinlar, hind-skif jamoalarning ibridoiy diniy tasavvurlarini va qadimgi hind-manzalarning buddizm bilan aralashgan qadimiy urf-odatlari ni o'zida mujassam qilgan.

Shunisi qiziqqli, hinduizm o'zining asosi hisoblanadigan vedizm va braxmanizmdan tashqi ko'rimishda farqlanadi. Unda yangi braxmanizm dinlari, to'g'irog'i, oqimlari mujassamdir. Ularning bar-chasini umumiy jihatlariga qarab bir guruhga jamlash mumkin; tushuncha va qonunlarning asl manbai bo'lgan vedalarning muqaddasligi, guru (pir, ustoz)ning tan olimishi, muqaddas joylarga ziyoratga borish, sanskritting muqaddas til ekanligi, va niyoyat, sigirning muqaddas ekanligi. Bu besh qoida yoki aqida umum tomonidan tan olingan bo'lsa-da, ko'p sonli e'tiqod qiluvchilar orasida o'ziga yarasha farq va o'ziga xoslik kasb etgan. Hatto, diniy ramzlarida ham ilohlarining

nomlari tushirilgan (29-rasm).

Hinduizmda keyingi davrdan tashqari xalq og'zaki ijodi namunalari, jumladan, «Maxabxarata» ham muqaddas yozuvlar qatoriga qo'shilgan. Hinduizmda ham braxmanlar asosiy o'rinni egalaydi. Shuning uchun ham mazkur adabiyotlarning ko'philigi braxmanlar tomonidan yaratilgan. Ular eski aqidalarining zamon talabiga javob bermasligini ko'rib, yangi qonun qoidalarga mos ravishda turli oqimlarni yuzaga keltirdilar. Ular shu yo'l bilan o'z raqiblari hisoblangan buddistlarga qarshi kurash olib bordilar. Hinduizm braxmanizmdan katta farq qiladi. Unda Maxabxarata va boshqa she'riy matnlar qadimgi sanskrit tilidan zamona vihind tiliga tarjima qilinib, muqaddasligi jihatidan asl matni bilan bir xil hisoblanadi. Hinduizm ta'limotiga ko'ra, braxmanlar nafaqt olyi tabaqa vakillaridan, balki oddiy xalq ichidan, hatto ayollardan bo'lishi ham mumkin.

Hinduizmda *trimurti* (uchlik) – Braxma, Vishnu, Shiva xudolari olyi xudolardir (30-rasm). Ular ichidan eng kattasi Braxma – dunyoniyaratgan xudo hisoblanadi. Biroq, hinduizmда faqatgina Vishnu va Shivagagina sig'inadilar. Shunga binoan, hinduizm ikki asosiy oqimnga bo'linadi: Shiva sig'inuvchilar va Vishnuga sig'inuvchilar. Shiva oddiy xalq ommasi – kambag'allarning ilohiyati hisoblanadi. U Rigvedaning birinchi nusxalarida Rudra nomi bilan zikr etilgan. Atxarvavedada Rudraning roli oshib boradi. Yajurvedada Rudra Agni timsolida berilgan. U Ishana, Ishvara, Maxadeva (buyuk xudo) nomlari bilan ham ataladi.

Hindistonda Shivaizmning o'n uchga yaqin asosiy oqimlari mayjud. Shivachilar orasida asosiy oqim sifatida *tridandinalar* (uch tayoqlilar) va *smarilar* (*smriti* so'zidan – *haqqoniy rivovallar*)ni aytilib o'tish mumkin. *Tridandinalarning* markazi Varanasi bo'lib, unda tarkidunyochilikda hayot kechinadilar. *Smarlarning* bir qismi rohiblikda, yana bir qismi – dunyoviyilik holatida yashaydilar. Ushbu oqimlarning har ikkalasi ham faqat braxmanlarnigina o'z saflariga qabul qiladilar. *Dandilar*, ya'ni zohidlar oriyalarga xos bo'lgan paytda oyoqlarining pastki qismidan qon chiqaradilar. O'lganlarni yerga dafn qiladilar yoki muqaddas daryolardan biriga topshiradilar. Hivaizmning katta oqimlaridan yana biri *lingachilar* bo'lib, ular bo'yinlariga *linga* osib yuradilar. Kimdir uni oltin, kumush qutida olib

yuradi. Ibodat vaqtida uni chap qo'llarida tutib turadilar. *Lingachilar* bir necha urug'larga bo'linib, o'zarlo qudashilik qilmaydilar.

Yoglar o'zlarini tarkidunyo qilgan odam sifatida turli ko'yga soladilar. Uzoq vaqt nafas olmay o'zlaridan ketadilar, bu vaqtda ular Shiva bilan yolg'iz qoladilar; omma oldida havoga ko'tariladilar; yana gipnoz usulida o'rgatilgan echki yoki ilon yordamida sadaqa yig'adilar.

Shivaizmning mayda oqimlari *oriyalarga* tegishli bo'lmagan an'analar bilan sug'orilgan. Deylik, hakta oqimi hayvon yoki odamlarni qurban qilishi bilan ajralib turadi. Hozir turli balo-ofatlar paytida qilinadigan bunday qurbanliklar yo yo'q bo'lib ketgan, yoki maxfiy ravishda amalga oshiriladi. Xalq orasida Shivaning 1008 ta nomi bor. Vishnu – hozirgi Hindiston panteonida birinchilik uchun kurasayotgan ikkinchi ilohiyatdir. Rigvedada tabiatga jon ato etuvchi quyosh xudosi Vishnu birinchi darajali ilohiyatdir. Unda Vishnu juda saxiy qilib tasvirlangan. Ibodat paytida uni Savitar, Roxita, Surya, Adita nomlari bilan ham ataydilar. U butun koinotti uch qadamda bosib o'tishi va havoda muallaq yura olishi xususiyati bilan tasviflanadi. Yarim inson, yarim xudo shaklidagi qahramon Krishna Vishnuga qo'shilib ketgan deb tasavvur qilinadi.

Maxabxarata va Ramayana dostonlarida *Avatar*, ya'ni insonning Vishnuga qo'shilib ketishi haqida so'z yuritildi. Vishnu gohida to'rt qo'lli qilib tasvirlanadi. Vishnuning ommaviy ibodat marosimlari ba'zan juda murakkablashib uzoq vaqt davom etadi. U hech qachon inson yoki hayvonnинг qurbanlik qilishni talab qilmagan.

Krishna («gora») o'zining tabiiy kelib chiqishiga ko'ra juda murakkab obraddir. U haqda olov, chaqmoq, momoqaldoiroq, osmon, quyosh bilan bog'tiq afsonalar mayjud. Krishna jangovor, yengilmas qahramon sifatida ta'riffanadi. U urushda ham, sevgida ham yengilmas bahodir, ammo juda ayyor tabiatga ega. Xalq orasida u erotik ilohiyat hisoblanadi. Krishnaga sig'inuvchilar, asosan, Mattra shahri va uning atrofalarida yashaydilar, shuningdek, u Bengaliya va Orissada ham katta shuhratga ega.

Vishnuizm bayramlari turli-tuman: ba'zilari umumiyy, ba'zilari esa tabaqalarga ajratilgan holda o'tkaziladi. Ular asnosida duolar o'qish, ta'zim bajo keltiriladi, ommaviy dimiy marosimlarda qatnashiladi, turli hadiya va qurbanliklar ataladi, shuningdek, ibodatxonasi yaqini-

dagi yoki ichidagi muqaddas hovuzda cho'milish majburiydir. Bu marosimlar ba'zi paytda bir necha kunga ham cho'zilib ketadi. Ularda faqatgina ruhoni rahbarligida hadiyalar (pul, qimmatbaho buyum yoki qimmatli toshlar) xudolarga hamda ruhoniylarga ataladi. Qurbanliklар turli gullar, xushbo'yliklar, ovqatlardan, xudolar nomiga atab ozod qilinadigan yoki so'yiladigan hayvonlardan bo'ladi. Sigir qadimdan hindlar e'tiqodida muqaddas hayvon hisoblangan. Shuning uchun uni qurbanlik qilish yoki boshqa maqsadlarda o'ldirish katta gunoh hisoblangan. Sigiring besh mahsuloti (sut, suzma-tvorog, sariyog', siyrik va tezak)dan tayyorlangan *panchagavyam* hinduiylar e'tiqodida odamlarni va uylarni poklashda alohida kuchga ega. Sigir muqaddas hayvon hisoblanganligi uchun u xudolar bilan bir qatorda ehtirom qilinadi. U, keyinchalik, «kirik butuga aylanib, Shivaning ma'budlik o'rnnini to'ldirdi.

Vishnuizmda ham o'zining muqaddas hayvoni bor. U maymundir. Rigvedada Vrishakani (erkak maymun) timsolda Xanumanning ajodini ko'tish mumkin, degan rivoyat keltiriladi. Shuning uchun maymun Ram («Ramayana» dostonidagi odam-xudo)ning ittifoqchisi maymun-xudo Xanumanning vakili sifatida ulug'lanadi.

Bundan tashqari, ilon, sher, fil, ba'zi quşlilar ham ilohiylashtiriladi. Umuman olganda, hinduizmda deyarli har bir Hindiston hayvoni xudo yoki xudoning hamrohi deb e'tiqod qilinadi.

Hinduizmning aqidaviy, marosimiy va ramziy sohalardagi juda ham murakkab tizimi unga e'tiqod qiluvchilarning turlicha talqinida yana ham murakkablashib ketadi. Garchi, hinduizm ilohiyotchilari tomonidan uni animistik valbutparastlik asoratlaridan tozalab, taraqqiy etgan dinlar qatoriga ko'tarishga harakat qilsalar-da, xalq ommasi doirasida u juda ham sodda, but va ruhlarga sig'inish xususiyatlarini to'la saqlagan holda davom etmoqda.

Iudaizm – dunyoda keng tarqalib ketgan yahudiylarning milliy diniidir. Shu kunda Isroilda 4,7 mln. (aholining 80 %), AQShda 6 mln. (40 % Nyu-Yorkda), Rossiyada 1,5 mln., G'arbiy Yevropa davlatlaridan Fransiyada 0,6 mln., Buyuk Britaniyada 0,4 mln. va boshqa mamlakatlarda yashaydilar.

Yahudiylik miloddan avvalgi 2000-yillarning oxirlarida Falastinda vujudega kelgan, yakkaxudolik g'oyasini targ'ib qilgan dindir. Yahudiylik millat dini bo'lib, faqatgina yahudiy xalqiga xos. *Yahudiy*

so'zining kelib chiqishi haqida turli fikrlar mavjud. Abu Rayhon Beruniy o'zining «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida yozishicha, yahudiylar bu so'zni somiy tillaridagi *hoda* – «tavba qilmoq, tavba qilganlar» so'zidan kelib chiqqan, deb da'vo qilsalar da, aslida bu fikr noto'g'ri, «yahudiy» so'zi Banu Isroil xalqi ustidan hukmronlik qilgan Ya'qub Payg'ambarning o'g'li Yahudo nomiga nisbat berilgan.

Yahudiy xalqining yana bir nomi Banu Isroil bo'lib, *Isroil* – Ya'qub payg'ambarning ikkinchi ismi, *bamu* – «bolaclar» ma'nosini beradi, ya'ni – «Isroil avlodlari». Yahudiy xalqiga nisbatan ishlatalidigan yana bir atama *yevrey* so'zi zamona viy adabiyotlarda «yahudiy» so'zining aynan tarjimasi sifatida ishlataladi. Ammo bu ikki so'zning etimologiyasi turlichay: *yevrey* qadimiy somiy tillardagi *ibriy* so'zining o'zgargan shaklidir. *Ibriy* so'zi (arab. *abara-ya'bura* – «kechib ma'lumki, yahudiy qabilalari Urdun (Iordan) daryosini kechib, hozirgi Falastin hududiga kelganlar. Shuning uchun ularga *ibriyalar* yoki *ibromiyalar* («kechib o'tuvchilar») nomi berilgan. Yahudiylik ta'lomit to'rt asosga tayanadi:

1. *Olamlarni yaratuvchi yagona xudo* – Yahvega imon keltirish. Yahve so'zi «rabbi, parvardigor» ma'nosini bildiradi.

Tavrotning «*Chiqish*» kitobida Xudoning Musoga ayfgan ushbu so'zi keltiriladi: «Yahve – ota-bobolaringiz Ibrohim, Is'hoq, Ya'qublarning parvardigori, u meni sizga yubordi». Mil. avv. VI asr oxirlarida yahudiy ruhoniylari oddiy xalq humratini pasaytirib o'ymasliklari uchun Yahve so'zini ishlatishni man etib, uning o'miga murojaat uchun «Adonay» («Rabb, Xoja») so'zini qo'llasmi buyurganlar. Shundan so'ng faqat ruhoniylargagina ibodat vaqtida Yahve nomini tilga olishlariga ijozat berilgan.

Yahudiylik ta'lomitiga ko'ra, Yahve olamlarni yaratishni yakshanbada boshlab, juma kuni tugatti, shanba kuni esa dam oldi va yahudiylarga ham shu kuni dam olishni buyurdi. Shu sabab yahudiylik dinida shanba kuni ulug' kun hisoblanib, hech bir ishga qo'i urilmaydi.

2. *Yahudiylar yer yuzidagi xalqlarning «eng muntozi»* va u «dunyoda berilajak in'omlarning eng haqslisi» ekanligi. Ular o'zlarini Xudo tomonidan saylangan, muqaddas xalq ekanini, yahudiyning

ruhi Xudoning bir qismi hisoblanishini da'vo qiladilar.

3) *Messiya-xaloskoring kelishi haqida*. Unga ko'ra, oxirzamonda Yahve yahudiylar orasidan bir xaloskorni chiqaradi va u quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) dunyonni isloh qilgan holda qaytadan quradi;

2) butun yahudiylarni *Sinion* atrofida to'playdi; 3) ularning barcha dushmanlarini jazolaydi.

4. *Oxirat kumiga ishonish*. Yahudiylikda oxirat haqidagi tasavvurlar, asosan, Talmudda bayon etilgan. Unga ko'ra, Yahvega chin e'tiqod qilganlar oxiratda mukofotlanadilar. Aksincha, uning qonunlarini buzzganlar shafqatsiz jazo oladilar.

Yahudiylik ta'lomi bo'yicha Muso payg'ambar Tur tog'ida Yahve bilan uchrashganda Yagona Xudo tomonidan 10 ta lavha tushirilgan. Ushbu lavhalarда mazkur din asosini tashkil etgan 10 ta nasihat bor edi. Bu nasihatlar Tavrotning «Ikkinchı qonun» kitobidan o'rin olgan bo'llib, yahudiylar ularga qat'iy rioya qilishlari shart. Ular quyidagilardir:

- ❖ Yahvedan boshqani iloh deb bilmaslik;
 - ❖ but, sanam va rasmlarga sig'innaslik;
 - ❖ bekordan-bekorga xudo nomi bilan qasam ichmaslik;
 - ❖ shamba kunimi hurmat qilish va uni xudo uchun bag'ishlash;
 - ❖ ota-onani humrat qilish;
 - ❖ nohaq odam o'dirmaslik;
 - ❖ zino qilmaslik;
 - ❖ o'g'rilik qilmaslik;
 - ❖ yolg'on guvohlik bermaslik;
- ❖ yaqinlarning narsalariga ko'z olaytirmaslik.
- Tavrot manbalari. Yahudiy dini boshqa dinlar kabi o'zining muqadas yozuvlariga ega. Uning asosan ikkita manbasi bo'llib, biri – mil. av. XIII asrda yashagan va Isroi xalqini Misrdan olib chiqib ketishiga boshchilik qilgan Muso payg'ambarga Tur tog'ida berilgan Tora (Tavrot; Torah of Moses; Totah shebikhtav), ikkinchisi Tavrotidan keyinroq paydo bo'lgan yozma manba Talmuddi. Yahudiylikdagi bu ikki muqaddas sanaladigan manba xristian Bibliyasingning tarkibiy qismalarini (aynan emas) tashkil etadi. Xristianlar va yahudiylar *Bibliya* so'zini turli tushunadilar. Yahudiylar uchun *Ibriy Bibliyasi* (Hebrew Bible) xristianlarning *Qadimiy Ahdi* (Old Testament). Yahudiylar *Bibliya* so'zi ostida ko'pincha o'zlarining *Tanaxlarini*

(Tanakh) tushunadilar. Musoga tegishli bo'lgan besh kitob «Tavrot» deb ataladi va quyidagi kitoblarga bo'linadi: 1) «Borliq» yoki «Ibtido»; 2) «Chiqish»; 3) «Levity»; 4) «Sonlar»; 5) «Ikkinchchi qonun» kabi muqaddas kitoblar (31-rasm).

*Qadimiy Ahdi*ning ichidagi diniy ta'lilot va aqidaga bag'ishlangan eng asosiy va obro'li qismi Tavrotdir. U xristianlik an'anasi ko'ra «Besh kitob», yahudiylar an'anasi ko'ra «Tora» (ta'lilot) hisoblanadi.

Qadimiy Ahddagi «ahd» so'zi xudoning insonlar bilan maxsus aloqasini bildiradi. *Qadimiy Ahd* matni ibriy (eski yahudiy) va oromiy tillarida yozilgan. U qadimgi payg'ambarlarning kitoblari (Ketuvim), Sulaymon payg'ambarlarning matallari (Nevi'im) va (Torah) nomli kitoblardan iborat. Unda «Xudo yarlaqagan» Isroi xalqining tarixi haqida hikoyalar beriladi.

«Ibtido» mil. avv. 1400-yillarda Xudoning buyrug'iga ko'ra, Muso payg'ambar tomonidan yozib olingan. Unda Xudo olamni qay yo'sinda yaratgani, odamzotning gunohga botgani, buning natijasida olamga azob va o'llim kelishi haqida xabar beriladi. Shuningdek, unda dunyodagi xalqlarning vujudga kelishi va jabonga tarqalishi tarixi bayon qilingan. Odam Ato va Momo Havo, Hobil va Qobil, Nuh, Lut, Ibrohim, Is'hoq, Ismoil, Ya'qub, Yusuf, Fir'avn va boshqa shaxslar, To'fon, Bobil minorasi va tillar chatishuvli, Sadom va Hamoraning xorob bo'lishi singari eng qadimiy hodisalar ham *Ibtidodan* o'rin olyan.

«Chiqish» kitobida Muso payg'ambarning tug'ilishi, hayoti, Misr Fir' avni tomonidan qattiq zulmga tortilgan yahudiylarni Yahve amri bilan xalos qilgani, unga Tur tog'ida Yahve tomonidan o'nta "vasiyat" (zapovedning berilishi haqidagi rivoyatlar keladi. Bundan tasliqari yahudiylikning ibodatları, rasm-rusmlarıga taalluqli ko'rsatmalar berilgan.

«Leviti» kitobi turli tuman urf-odat va diniy marosimlarga oid ko'rsatmalarni o'z ichiga olyan. Unda, asosan, qurbanlik haqida so'z yuritilib, Xudo yo'liga qanday hayvonni qurbanlik qilish yoxud, qay tarzda amalga oshirish lozimligi bayon qilingan. Shuningdek, yahudiy xalqiga hayvon va parrandalardan qaysilarining go'shtini yejish mumkin va qaysilarini yejish ta'qiqlangani hamda boshqa turli hayotiy masalalar yuzasidan ko'rsatmalar berilgan.

Konfutsiylik Xitoyda tarqalgan falsafiy-axloqiy qarashlar majmisi.

Bu qarash mil. Avv. VI asrda vujudga kelgan. Konfutsiy komil inson (szyum-szi) haqidagi g'oyani yaratgan faylasufdir (32-rasm). Szyumszi, ya'ni yuksak ma'naviyatlari inson ikki asosiy xususiyatga ega bo'lishi kerak edi: insoniylilik va mas'uliyat (ajdodlar oldidagi qarz)ni his qilish. Komil inson, eng avvalo, ishonchli va fidoiy bo'lishi lozim. U buning uchun timmsiz, o'zini ayamasdan o'z ishonchi, hukmdori, o'z otasi va o'zidan katta barchaga birday xizmat qilishi va doimo kamolot sari intilishi zarur. Konfutsiy hayotni axloq va tartib mezonini boshqaradi va ularni osmon ruhi nazorat qiladi, deb ta'kidlagan.

Qaysidir ma'noda, Xitoyning bugungi kundagi salohiyatga erishishida Konfutsiy qarashlarining o'mi biqqiyosdir. Chunki undagi tartib, kelajakka intilish, burch masalalari tufayli mamlakat tobora jadal rivojlanib bormoqda.

Sintoizm dini Qadimgi Yaponiyada vujudga kelgan (*sinto* – «xudolar yo'lli»). Bu dinning vujudga kelishiga oid aniq ma'lumotlar yo'q.

Biroq, u Yaponiyada Xitoy ta'siridan xoli bir sharoitda paydo bo'gan va rivojlangan. Yaponlar sintoizmning mohiyati va kelib chiqishini bir-biri bilan aralashtirmaslikka harakat qildilar. Sintoizm ular uchun ham tarix, ham an'ana, ham butun hayot demakdir. Sintoizm ta'limotiga ko'ra, *mikado* (imperator) – osmon ruhlarining davomchisidir. Har bir yapon kishisi ikkinchi darajali rublat(*kama*)ning vorisidir. Yaponlar *kamani* ajodolar va qahramonlarning ruhlari deb e'tiqod qildilar. Kudojo'y yapon o'lgandan keyin o'zining ham o'sha *kamardan* biri bo'iishiga ishonadi. Bu din aqidalariga ko'ra, burch-sadoqat-harakat eng asosiy jihatlar hisoblanadi. Shunga ko'ra, yaponlar tartib-intizom va qonun-qoidalarni hamma narsadan ustun qo'yadilar.


Jahon dinlari. Dinlarga e'fiqod qiluvchilarning soni, din tarkibidagi

millat va etnoslarning soni hamda ahamiyati jihatidan jahonda ucta dunyo dinlari ajratilgan (5-rasm). Jumladan:

- ❖ Islam dini: Pyg'ambari Muhammad (s.a.v), muqaddas kitobi – Qur'on;

- ❖ Buddizm dini: Asoschisi: Buddha, muqaddas kitobi – Tiripitaka. Mazkur dinlar agar vujudga kelish nuptai nazaridan tartiblab chiqilsa, eng qadiminiysi – buddizm, undan keyin – xristianlik, eng yoshi – islam dini hisoblanadi.

5-rasm.



Manba: Qayumov A., Safarov I., Tillaboeva M., Fedorko V. Jahon iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi: Ummumiy o'rta ta'lif maktablarining 9-sinf uchun darslik. – T.: "O'zbekiston", 2019. [34-b.]

Buddizm – eng qadimiy jahon dini bo'lib, u mil. avv. VI asrda Hindistonda vujudga kelgan. Bu denga e'tiqod qiluvchilar, asosan, Janubiy, Janubiy-Sharqiy va Sharqiy Osiyo mamlakatlari: Shri Lanka, Hindiston, Nepal, Butan, Xitoy, Singapur, Malayziya, Indoneziya, Mongoliya, Koreya, Vietnam, Yaponiya, Kambodja, Birma, Thailand, Laosda va, qisman, Yevropa va Amerika qit'alari, Rossiya Federasiyasining Tuva, Buryatiya, Kalmikiya respublikalarida istiqomat qildilar.

Hozirgi kunda e'tiqod qiluvchilar soni jihatidan buddizm xristianlik, islam va induizmdan so'ng to'rtinchchi o'rinni egallaydi. Buddizm bundan 2500 yildan avvalroq Hindistonda diniy-falsafiy distarlarning soni, taxminan, 700 mln. atrofida bo'lib, ulardan 1 mln. ga yaqini rohiblardir.

Buddizm turli milliy va dimiy an'analar bilan kelishuvchanligi sababli ko'p millatlar tomonidan keng qabul qilindi. Buddizm hayotning barcha sohalaridagi diniy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy qatlamlariga

kirib bordi.

Buddizmni din yoki falsafa, ideologiya yoki madaniyat qoidalari to‘plami yoxud hayot tarzi, deb baholash mumkin. Ayni kunda bu dinga e’tiqod qilib kelayotgan Sharq mamlakatlari dagi buddizm ta ‘ilmotini o’rganish u yerdagi siyosiy-iqtisidiy, ma’naviy madaniyatni tushumishing asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bu davlatlarda ushbu dinga e’tiqod qiluvchilar nazarida buddizmning qoida va an’abuniga zamirida uning potentsial kuchi yotadi.

Buddizm asoschisining shaxsi. Buddizm tarixi tadqiqotchilar mayjud manbalar asosida bu oqim asoschisi real tarixiy shaxs – Siddharta Gautama, ya’ni Buddadir (33-rasm). Shuningdek, u Shakya-xartxa Gautama, ya’ni Buddadir (33-rasm). Shuningdek, u Shakya-muni, Buddha, Tadxagata, Djina, Bxagavan kabi ismlar bilan zikr etiladi. Bu ismlar ma’nolari quyidagicha: Siddharta – shaxsiy ism, Gautama – urug’ nomi, hakyamuni – «shakya qabilasidan chiqqan donishmand», Buddha – «shunday qilib, shunday ketgan», Djina – «g’olib», Bxagavan – «tantana qiluvchi». Ular ichida eng mashhuri «Budda» bo’lib, shundan ushbu dinga buddizm nomi berilgan.

Bizzacha Buddanining bir necha biografiyalari yetib kelgan: «Mavostu» – milodning II asrida yozilgan, «Lalitavistara» – milodning II-III asrlarida yuzaga kelgan, «Buddhacharita» – buddist faylasuflardan biri Ashvagoshsha tomonidan milodning I-II asrlarida yaratilgan, «Nidanakatxa» – milodning I asrida yozilgan va «Abnixishkramansutra».

Mazkur biografiyalarda Buddanining qaysi yillarda yashaganligi turilcha berilgan. Ularda mil. av. IX-II asrlar oraliq’idagi har xil muddatlar ko’rsatiladi. Rasmiy hisobga ko’ra, Buddha mil. avv. 623-yilda tug’ilib, 544-yilda vafot etgan. Aytish joizki, yuqorida zikr qilingan biografiyalarda Buddanining haqiqiy hayoti bilan uning haqidagi afsonalar o’zaro qorishib ketgan.

Siddharta Shakya qabilasining podshohlaridan biri Shuddox-danuning o’g’li edi. Uning saroyi Ximolay tog’lari etagida Kapilavasti degan shaharda bo’lgan (hozingi Nepal hududida). Onasi – malika Mayya. Podshoh o’g’lini orzu-havaslar og’ushida tarbiyalab, uni hech bir kamchiiksiz katta qiladi. Siddharta ulg’ayib qo’shni hukmdorlardan birinинг qizi Yashadkaraga uylanadi va o’g’il ko’rib,

unga Raxula deb ism qo’yadi.

Hech bir qiyinchilik va kamchilik ko’rnay o’sgan bola Siddharta bir kumi intifoqa bir keksa chol, bir bermor hamda og’ir mashaqyat tortayotgan rohibni uchratadi, bir kishining esa vafotiga guvoh bo’ladi. Bundan qattiq ta’siragan shahzoda insoniyatni qiyinchilik va azobdan qutqarish yo’llarini izlash uchun saroyni tashlab ketadi. Bu vaqtda u 30 yoshda edi. U beshta rohib bilan qishloqma-qishloq kezib yuradi. Shu asnoda Siddharta bir narsaga amin bo’idi: bu yo’uni o’z oldiga qo’ygan maqsad, ya’ni insoniyatni azob-uqbabidan qutqarish sari olib bormaydi va u rohiblar jamoasidan ajraladi.

Birmuncha vaqt changalzor o’rnolarda kezib, xorib charchagach, bir daraxtning tagida dam olish uchun o’tiradi, va o’zicha, to haqiqatni topmaguncha shu yerdan turmaslikka qaror qiladi.

Bu o’tirishning 49 kuni uning qalbidan «Sen haqiqatni topding» degan sado keladi. Shu paytda uning ko’z oldida butun borliq namoyon bo’ladi. U hamma joyda shoshihilish, qayoqqaadir intilishi ko’radi: hech bir joyda osudalik yo’q edi. Hayot niyojasiz uzoqlikni ko’zlab o’tib ketayotgan edi. Inson aqli yetmas bir kuch. *Trishna* – yashash, mayjud bo’lish umidi barchanining tinchini buzar, halok qilar va yana qayta yaratish edi. Mana endi Buddha kimga qarshi kurashish kerakligini angldi. Shu ondan, u Buddha – *murlangan* deb ataldi. Uttagida o’tirigan daraxt esa – nurlangan daraxt (*botra*) nomini oldi.

Budda 40 yil mobaynida Hindistonning turli joylarida bo’ladi, odamlarga o’z g’oyalalarini yetkazadi, singdiradi va 80 yoshida Kushtnagara degan joyda dunyodan o’tadi. Uning jasadi, hind udu-miga ko’ra, kuydirilib, xoki 8 ta buddist jamoalariga bo’lib yuborildi va har bir jamoa uni dafn etgan joyida ibodatxonha (*stupa*) barpo etdi.

So’nggi marta uni xudolar insoniyatni to’g’ri yo’iga boshlashi uchun inson qiyofasida yaratganlar. Bu afsonalarning ba’zilariga ko’ra, yer yuzida Gautamaga qadar 6 ta budda o’tgan. Shuning uchun buddizmning ba’zi muqaddas joylarida 7 ta ibodatxonha barpo etilgan (34-rasm). 7 ta bodxa daraxti o’tkazilgan. Ba’zi afsonalar 24 ta Buddha avlodni o’tgan desa, ba’zilari minglab buddalar o’tgan deb da’vo qiladi.

Lamaizm buddizmning asosiy yo’talishlardan biri bo’lib, u tibet tilida «*lama*» – «eng ulug’» degan ma’noni anglatadi. Mazkur diniy yo’nalish rahbari shu nom bilan – *lama* deb ataladi.

Lamaizm Tibetda VII-XIV asrlarda tibetliklarning qadimiy dini Bon-Po (shamanizmning bir turi) unsurlarini qabul qilgan Maxayana va Tantrizm asosida vujudga kelgan bo'lib, hozirda tibetliklarning asosiy dini hisoblanadi. U bir necha firqa va mazhablarga bo'linadi. Lamaizm XVI asr oxiridan mo'g'ullar, XVI asr boshlariidan Rossiya huddida yashovchi buryatlar, tuvaliklar va qalmiqlar orasida ham tarqaldi.

Xristianlik. Bu din buddizm va islam dirlari qatorida jahonda eng keng tarqalgan dinlardan biri hisoblanadi. Ularning miqdori boshqa dinlarga qaraganda eng ko'p bo'lib, bu ko'rsatkich dunyo aholisining deyarli uchdan birini (deyarli 32 foizini) tashkil etadi.

Xristianlik, asosan, Yevropa, Amerika, Avstraliya qit'alarida hamda qisman Afrika va Osyo qit'alarida tarqalgan.

Xristianlik mildonding boshida Rim imperiyasining sharqiy qismida joylashgan Falastin yerlarida vujudga keldi. Iso Masih (Iisus Kristos), Bibliyaning xabar berishiga ko'ra, xristianlik ta'lilotning asoschisi bo'lib, u Rim imperiyasi tashkil topganining 747-yili Falastining Nazaret qishlog'ida bokira qiz Maryamdan Xudoning amri bilan dunyoga keldi. Shunga ko'ra, unga "Xudoning o'g'i", nisbatini berishdi (35-rasm). Yangi eraning bosqlanishi ham Iso Mastihming dunyoga kelishi bilan bog'liq.

Mildonding boschlarda yahudiylar hokimiyatning uch tabaqasi bilan bog'liq og'ir tushkunlikni boshdan kechirar edilar. Bir tomonidan Rim imperatori va uning joylardagi noiblari, ikkinchi tomonidan Falastin podshohi Irod Antipa, uchinchi tomonдан esa ruhoniylar xalqni turli soliqlar va majburiyatlar bilan ko'mib tashlagan edilar. Xuddi shu davrda yahudiylar o'ritasida kutilayotgan xaloskorning kelishi yaqinlashib qolganligi haqida xabar tarqatuvcilar paydo bo'idi. Ular xalqni kutilayotgan xaloskor kelishiga tayyorlash uchun chiqqan edilar. Shunda Iso Masih yahudiyligini isloh qilish va uni turli xurofotlardan tozalash g'oyasi bilan chiqqib, xristian diniiga asos soldi. Yahudiylar uni va uning izdoshlarini Falastindan quvg'in qildilar. Isoning 33 yoshida fitnachilikda ayblab, qatl etishga hukm qildilar. Isoning tarixiy xususida dimiy va dimiy bo'lmagan manbalar orasida ixtilof mayjud: xristian manbalarida Isoning o'zi xudo bo'la turib, insomiyatning gunohlarini o'ziga olish uchun odam qiyofasida tug'ilgani, uning hayot tarzi, insonlar bilan muloqoti haqidagi

ma'lumotlar qayd etilsa-da, diniy bo'lmagan manbalarda Iso nomi uchramaganligini nazarda tutib, u tarixiy emas, balki afsonaviy shaxs, deb hisoblovchilar ham bor.

Iso nomiga qo'shiluvchi "Masih" so'zi qadimiy yahudiy tili – ivritdagi meshiak so'zidan olingan bo'lib, «silangan» yoki «siylangan» ma'nolarini beradi. Yunon tilida bu so'z «christos» shakliga ega. Bu dinning «xristianlik» yoki «masihiylik» deb atalishi ham shu so'zlar bilan bog'liq. Bundan tashqari xristianlikni Iso Masihning tug'ilgan qishlog'i – «Nazaret» bilan bog'lab, nazroniya deb ham ataganlar. Keyinchalik, bu nom *nazroniya* shaklini olgan.

Iso Masih o'z ta'lilotini o'zining 12 o'quvchisi apostollar – ta'lilotlarini har birlari alohida-alohida tarzda kitob shakligiga keltirdilar. Bu kitoblar Bibliyaning «Yangi Ahd» qismini tashkil etadi handa "Biblya" muqaddas kitob, deya qaraladi (36-rasm).

Xristian dini 1054-yili ixtoftar tufayli katolik va pravoslav, 1526-yilda protestantikkka bo'limib ketdi.

Pravoslav (Ortodox) oqimi. Pravoslav oqimi xristianlikning uch asosiy yo'malishidan biri o'laroq, tarixan uning sharqiy snohobchasi siyatida shakllandı. Bu oqim, asosan, Sharqiy Yevropa, Yaqin Sharq va Bolqon mamlakatlarda tarqalgan. Pravoslav atamasi yunoncha ortodoksiya so'zidan olingen bo'lib, ilk davr xristian yozuvchiları asarlariida uchraydi. Pravoslavyaning kitobiy asoslari Vizantiyada shakllandı, chunki bu yo'nalish u yerdagi hukmron din edi. Muqaddas kitob bo'lmish Injil va muqaddas o'g'italar IV-VIII asrlardagi yetti butxona soborlarining qarorlari, shuningdek, Afanasiy Aleksandriyskiy, Vasilii Velikiy, Grigoriy Bogoslov, Ioann Damaskin, Ioann Zlatoust kabi yirik cherkov xodimlarining asarlari ushbu oqim ta'lilotning asosi deb tan olingen.

Xristianlikning Sharqiy tamog'i bo'lmish pravoslavyaning rivojlaniши jarayonida 15 mustaqil (avtokefal) cherkov: Konstantinopol, Aleksandriya, Antioxiya, Quddus, Gruzin, Serb, Rumın, Bolgar, Kipr, Ellada, Alban, Polyak, Chexiya, Slovakiya, Rus va Amerika cherkovlari vujudga keldi. Bu cherkovlardan eng kattasi Rus pravoslav cherkovi (RPCh, boshqa rasmiy nomi Moskva patriarxati) bo'lib, unga 19 ming cherkov va 127 yeparxiya birlashgan. Bulardan 150 dan ortiq cherkov va 5 yeparxiya chet elda faoliyat olib boradi.

Pravoslav oqimida sirli rasm-rusumlar muhim o'rın egallaydi. Cherkov ta'limotiga ko'ra, bunday paytlarda Xudo tomonidan dindorlarga alohida savoblar nozil bo'ladı.

Katolik oqimi Xristianlikning yirik yo'nalishlaridan biri katolik oqimidir. U Yevropa, Osyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlarda tarqalgan bo'lib, muxlislari taxminan 800 mln kishini tashkil etadi.

Katolitsizm "unumiy, dunyoviy" degan ma'nolarni ifodalaydi. Uning manbai – uncha katta bo'lmanan Rim Xristian jamoasi bo'lib, rivoyatlarga ko'ra uning birinchı Yepiskopi apostol Petr bo'lgan. Katolik diniy ta'limotning asosini Muqaddas kitob va Muqaddas yozuvlar tashkil qiladi. Biroq pravoslav cherkovidan farqli o'laroq katolik cherkovi Muqaddas yozuvlar deb nafaqt avvalgi yetti Butun Olam Xristian Soborlarining qarorlarini, balki hozingacha bo'lib o'igan barcha Soborlar qarorlarini, bundan tashqari Papaming maktublari va qarorlarini ham hisoblaydi. Shuningdek, cho'qintirish marosimi ham muqaddas udum hisoblanadi (37-rasm).

Katolitsizmda Bibliyani sharthash huquqi faqatgina ruboniylargacha beriladi, chunki ular uylanmaslik – *selibat* haqidagi diniy talabga amal qiladilar. Diniy ibodatlar dabdbabli va soxtalashtrilgan ko'rinishga ega, diniy o'qish, duo, ittijolar lotin tilida olib boriladi. Pravoslaviyadagi kabi katolitsizmda ham farishta, ikona, ilohiy kuch, chirimaydigan markum jasadlariga sig'inish oddatlar mavjuddir.

Katolitsizm xristianlikning yo'nalishlaridan biri sitatida uning asosiy aqida va qoidalarini tan oladi, biroq diniy ta'limot, sig'inish va tashkiliy masalalarda bir qator xususiyatlar bilan ajralib turadi.

Katolik cherkovi tashkiloti qat'iy markazlashuv bilan ajralib turadi. Rim papasi bu cherkovning boshlig'i bo'lib, u diniy axloq masalalariga oid qonun-qoidalarni belgilaydi. Uning hokimiyati dun-yoviy soborlar hokimiyatidan yuqori turadi.

Katolik cherkovining markazlashuvi, jumladan, diniy ta'limotni noan'anavyi tahlil qilish (sharhash) huquqida aks etgan dogmatik taraqqiyot tamoyilini keltirib chiqaradi. Masalan, pravoslav cherkovi tomonidan tan olingen diniy ramzda ta'kidlanishicha, Muqaddas Ruh Ota Xudodan kelib chiqadi. Katolik aqdasiga ko'ra esa, Muqaddas Ruh Ota Xudodan va O'g'il Xudodan kelib chiqadi. Cherkovning najot borasidagi roli haqida ham o'ziga xos alohida ta'limot shakllangan. Najotning asosi iymon va xayrli ishlar hisoblanadi. Cherkov, katolik

ta'limotiga ko'ra, xayrli zaruriy ishlar xazinasiga – Iso tomonidan yaratilgan «Xayrli ishlar zaxirasiga» ega.

Cherkov Iso, Bibi Maryam, Muqaddas Ruh nomidan bu xazinani tasarruf qilish, undan muhtojlarga ulashish, ya'ni gunohlarni avf etish, nadomat chekuvchilarga kechirim tufha qilish huquqiga ega. Pul oldidagi xizmatlari uchun gunohlarni kechirish – *indulgensiya* haqidagi ta'limot mana shundan kelib chiqqan.

A'rof haqidagi (do'zax va jannat oralig'idagi mavze) aqida faqat katolik ta'limotida mavjud. Gunohi katta bo'lmanan gunohkorlarning rabi u yerda o'ida kuyadi (ehtimol, bu vijdon va nadomat azobining ramziy in 'ikosidir), keyin jannatga yo'l topadi. Ruuning a'rofda bo'lish muddati xayrli ishlar tufayli qisqartirilishi (ibodat va cherkov foydasiga xayr-ehson qilish bilan) mumkin. Bu ibodat va xayr-elsonlar o'iganlar xotirasiga yaqinlar tomonidan qilinadi.

A'rof haqidagi ta'limot I Asrdayoq paydo bo'lgan edi. Pravoslav va protestant cherkovlari a'rof haqidagi ta'limotni rad etadi.

Bundan tashqari pravoslav dini ta'limotidan farqli o'laroq, katolik yo'nalishida papaning begunohligi haqidagi aqida ham bor. Bu aqida 1870-yildagi birinchi Vatikan soborida qabul qilingan. G'arb cherkovining Bogoroditsaga nisbatan alohida e'tibori 1950-yilda papa Piy XII tomonidan kiritilgan Bibi Maryamning me'roji haqidagi aqidada o'z aksini topdi. Katolik ta'limoti pravoslav ta'limoti kabi yetti asrorni tan oladi, biroq bu asriorlarning talqin qilinishida qarashlar mos kelmaydi. Masalan, *pricheshenie* (tamaddi) qilish qattiq non bilan (pravoslaviyada bo'ktirilgan non bilan) dunyoviy(miryane) larga non va vino bilan, shuningdek, faqat non bilan amalga oshiriladi. Cho'qintirish sirini o'tash paytda suv sepiladi (cho'qintiriluvchiga), muz ostidagi suvga cho'ktirilmaydi.

Protestantizm. Protestantizm tarixi Martin Lyuterdan (1483-1546) boshlanadi. U XVI asrda Yevropada katoliklarga qarshi qaratilgan reformatsiya harakati bilan bog'liq juda ko'p mustaqil cherkovlar va sektalarini o'z ichiga oladi.

Protestantizm ataması «protest» (norozilik) so'zidan kelib chiqqan. Bunday nomni olishiga sabab 1526-yilda Shpeer reyxstagi nemis lyuterchi kryyazlari talabi bilan har bir nemis kryyazi o'zi va fuqarosi uchun xohlagan dinni tanlash huquqiga ega ekanligi to'g'risida qator

qabul qildi. Ammo 1529-yilda II Shpeer reyxstag'i bu qarorni bekor qildi. Bunga qarshi imperiyaning barcha shaharlari va besh knyazlik norozilik (protest) e'lon qildi.

Protestantizmning ilk shakllari: lyuterchilik, tsvinglichilik, kalmik, unitarizm va sotsinchilik, anabaptizm, memnochilik va anglikanchilik edi. Keyinroq, «so'nggi protestantizm» shakllari: baptistlar, metodistlar, kvakerlar, adventistlar, legova shohidlari, mormonlar yoki «*Oxirat avlyolari*», «*Najot armijasi*», «*Xristian fanzi*», pyatidesyatniklar va boshqa diniy oqimlar paydo bo'idi. Bu oqimlarning ko'philigi «diniy uyg'onish», ilk xristianlik va Reformatsiya ideallariga qaytish shiori ostida tashkil topdi. Hozirgi protestantizm dunyoning barcha qit'alarida keng tarqalgan. Protestantizmning jahon markazi AQShda, bu yerda baptist, adventist, legova shohidlari va boshqalarning qarorgohlari joylashgan. Hozirgi protestantizm integratsiya (birflashish)ga intilmoqda, bu 1948-yilda Juhon cherkovlari kengashining tuzilishida o'z ifodasini topdi.

Protestantizm ilohiyoti xristian maskurassing bir ko'rinishi sifatida o'z taraqiqiyotida muayyan bosqichlardan o'tdi. XVI asr ortodoksal ilohiyoti (M.Lyuter, J.Kalvin), XVIII-XIX asplardagi yangi protestantizm yoki liberalizm ilohiyoti (F.Sheermaxer, E.Tryolch, A.Garnak), birinchi jahon urushidan keyin paydo bo'lgan dialektik ilohiyot (K.Bart, P.Tillix, R.Bultman), ikkinchi jahon urushidan so'ng taqalgan radikal yoki «yangi» ilohiyot (D.Bonxeffer va boshqalar) shular jumlasidandir.

Protestantizm xudoning borligi, uning uch qiyofada namoyon bo'lishi, jomning o'lmasligi, jammatva do'zax (katolitsizmdagi a'rofdan tashqari) haqidagi, vahiy va boshqalar to'g'risidagi umumchristian tasavvurlarini e'tirof etadi. Biroq Lyuter katolik cherkovi bilan aloqani uzib, protestant cherkovining assosiy qoidalari ishlab chiqdi va uni himoya qildi. Bu nizomga ko'ra, inson Xudo bilan bevosita muloqot qilishi mumkin. Papaning diniy va dunyoviy hokimiyat, katolik dindorlarining imonni va vijdanni inson bilan Xudo o'rta-dagi vositachi sifatida nazorat qilish haqidagi mulohazalariga Lyutering qarshi chiqishi jamoatchilik tomonidan favqulodda diqqat bilan tinglandi.

Protestantizmning mohiyatiga ko'ra ilohiy lutfu marhamat insongacha cherkovning ishtirokisiz in'om etiladi. Inson najot topishi

uning shaxsiy e'tiqodi va Isoning vositasi orqali ro'y beradi. A'vom ruhoniylardan farq qilamaydi, ruhoniylik hamma dindorlarga bir xilda joriy etiladi.

Protestantlik diniy marosimlarning ko'philigini bekor qildi, faqatgina lyuteranlikda non va vino bilan cho'qintirish saqlanib qoldi. O'iganlarga bag'ishlangan duo o'qish, azz-avliyolarga sig'inish, muqaddas murdalarga, samamlarga topinish bekor qilindi. Ibodat uylari ortiqcha hashamlardan, mehrobardan, samamlar, haykallardan tozalandi, ruhoniylarning uylannmaslik shartlari bekor qilindi. Ibodatlar faqatgina lotin tilida olib borilishi, Bibliyaning faqatgina ruhoniylar tomonidan sharhanishi zaruriqi shartlari inkor etildi. Bibliya milliy tilarga tarjima qilindi, uni sharhlash har bir xudojo'yning eng muhim burchi bo'ib qoldi. Asvor (tainstva)lardan faqat cho'qinish va mansublik (cherkovga) e'tirof etiladi. Ibodat va'zmasihatlar, bigalikdag'i ibodat va suralarmi kuylashdan iborat bo'ldi.

Lyuter tomonidan tuzilgan Reformatsiya bosh taomillari 95 tezis shaklida yozib berilgan. Ular Vittenberg nasroniy cherkovining shimaliy eshiklariga yozib qo'yilgan. Tezislarning bir nusxasida Iso payg'ambar: «Tavba qiling, chunki samoviy shohlik yaqinlashib qoldi», deb jar solganida shuni ta'kidlaydi, imon keltinganlar hayoti boshdan-oyoq to'xtovsiz tavba tazarrudan iborat bo'lmog'i darkor. Tavba-tazarru ruhoniylar (avliyo) oldidagi birgina tazarrudan iborat emas. Birinchi to'rt tezisda Lyuter ta'kidlaydi, haqiqiy tavba uzoq muddatlari jarayondir, birgina xatti-harakat bilan ro'yobga chiqmaydi. Bu bilan u katolitsizmdagi «a'rof» va u bilan bog'liq indulgentsiya masalasini rad etadi. Aytadiki, Papa faqat o'zi belgilagan jazoni olib tashlashi mumkin. Cherkov hech qaysisi samoviy jazodan insonni ozod qila olmaydi. Tavba-tazarru qonunlari tirkilar uchun joriy qilinadi (belgilanadi). «Ruhlar uchun indulgentsiya olgan shaxslarga tavba-tazarru qiliish talab qilinmaydi», degan ta'llimot Iso ta'llimoti emas. Chindan tavba qilgan kishilarning gunohlarini Xudo kechadi va abadiy azobdan ozod qiladi. Gunohkor papa yorlig'isiz ham bunday mag'firatdan umid qilishi mumkin. Bu yerda va keyingi bir qancha tezislarda papaming a'rof ustidan hukmronligi rad etiladi.

Lyuter bir necha tezislarda ta'kidlaydi, chindan tavba qilgan, nadomat chekkan xristian «samoviy jazo joriy etilmaydi».

Lyuterning ta'kidlashicha, cherkovning haqiqiy xazinasi muqaddas Injil va Xudoning marhamatidir. «Xayrli amallar xazinasi»ning mayjudligi kambag 'allar uchun emas, boylar uchun foydalidir, bu xazinalarga papa marhamati bilan emas, o'z amallari bilan erishuvi mumkin. Bu xil vositalar bilan Xudoning mehrini qozonmoqni Lyuter sarob deb ataydi.

Haqiqiy xristian Isoga ergashish istagi bilan yonmog'i zarur. Najot yo'li ruxsatnomma yorlig'ida emas, balki chin yurakdan nadomat chekmoq va tavba qilmoqdadir.

1517-yili 31-oktabrda jamoatchilik hukmiga havola qilingan tezislar shundan iborat. Keyinchalik bu kun protestantlar bayrami bo'lib goldi.

Hozirgi vaqtida xristianlik dini dunyoning har bir qismida mavjud. Xususan, O'zbekiston aholisining ham deyarli 3 foizi xristianlar hisoblanadi.

Islom dini – eng yosh din bo'lib, VII asrda Arabiston yarimorolida vujudga kelgan. Tarafdarlari jahon aholisining 23 % qismini tashkil etadi.

Islom ta'lomi. Islom arabbcha so'z bo'lib, *Allahga o'znitopshirish, itoat etish, taslim bo'lish, bo'yumish* ma'nolarini beradi. Islom dini ta'lomi bo'yicha, Muhammad payg'ambar avvalgi payg'ambarlar (O'rta Yer havzasasi sivilizatsiyasi ichida ma'lum bo'lgan) ishini davom ettirigan, ular dinini qayta tikagan, *qiyomat* oldidan yuborilgan oxirgi payg'ambar (Xotam al-anbiyo) – nabiy va rasul, deb tan olinadi. Muqaddas qadamjo – Makka shahridagi Ka'ba hisoblanadi (38-rasm).

Qur'onikarim – Alloh tarafidan 23 yilga yaqin muddat mobaynida Muhammad payg'ambariga oyatma-oyat, sura-sura tarzida nozil qilingan ilohiy (sakkral) kitobdir. Bu kitob islam dinining muqaddas manbasi hisoblanadi. Islom ilohiyot muktabalaridan biri *ahl as-summa val-jamo'a* ta'lomitiga ko'ra, Qur'on Alloh taoloning so'zi va uning azaliiy ilmidir.

Muqaddas Yozuv ko'p nomlaridan biri bo'lgan «Qur'on» so'zi – arabcha «iqro» (o'qimoq) fe'lidan olingan. Boshqa fikrga binan, u suryoniy tilidagi «kerain», ya'ni «muqaddas yozuv» manosini bildiruvchi so'zdan olingan. Qur'on suralardan iborat. Sura Qur'ondan bir bo'lak bo'lib, eng kami uchta yoki undan ortiq oyat-

larni o'z ichiga oladi. Qur'onda jami 114 ta sura mavjud. Oyatlar soni esa, Qur'on matnlarini taqsimlashning turli yo'llariga ko'ra, 6204 ta, 6232 ta, hatto 6666 tagacha belgilangan. Bu har xilik Qur'on mussalarining bir-biridan farqligi ekanligini emas, balki undagi oyatlarining turli qiro'at maktabalarining (ularning soni 14 dan ortiq) an'analari bo'yicha turlicha taqsimlanganligini bildiradi.

Islom milodiy VII asrning boshchlari Arabiston yarimorolida paydo bo'lgan. Ushbu davrdagi hududning ijtimoiy-iqtisodiy ahvolini ko'rib chiqamiz. Yarimorol aholisining asosiy qismini arablar tashkil etgan. Islom vujudga kelishi arafasida arablar, asosan, chorvachilik bilan shug'ullanar edi. Arabistonning qulay geografik o'mi (hududidan g'arb va sharq davlatlarini bog'lovchi karvon yo'llari o'tgan va uchta qit'an'i tutashitirib turadi) sababli, savdo-sotiqlar shug'ullanigan hujudlarida turlicha bo'lgan. Uning bepoyon cho'llarida yashagan ko'chmanchi arablar chorvachilik bilan shug'ullanigan. Yarimorolning shimaliy qismida Vizantiya va Mesopotamiya kabi qadimgi madaniy markazlarning ta'siri kuchli edi. Karvon yuli o'rgan janubi-g'arbiy qismi (Hijoz)da qadimdan savdo-sotiqlar sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik va, qisman, hunarmandchilik rivojlangan. Milodiy I asrda Arabistonning janubi-g'arbiy qismida shahar-davlatlar vujudga kelgan. IV – VI asrlarda bu yerda Makka, Yasrib, Toif singari yirik shaharlar mavjud edi. Ularda istiqomat qiluvchi arab zodagonlarining daromadini karvon yo'llaridan kelayotgan boj soliqlari va savdosotiqlar tushumlari tashkil etgan. Mintaqadagi iqtisodiy jonlanish natijasida ko'chmanchi chorvador qabilalarda urug'-qabilaviy munosabatlarning yemirilishi va davlat uyushmalarining paydo bo'lish jarayoni kuchaygan.

«Johiliya» so'zi adabiy arab tilida «bilmaslik», ya'ni «Yagona xudo – Allohni tamimaslik» ma'nolarini beradi. Bu istiloh musulmon mualiflari tomonidan Arabiston yarimorolining islamdan oldingi davrtarixiga nisbatan ishlatali boshlandi. Bu bilan yangi davr tarixchilarini qadimgi davrda Ichki Arabiston aholisi orasida «ko'p xudolik» (*al-fasaniya*) hukm surardi, degan fikrga urg'u berishni istaydilar. Ba'zi tadqiqotchilar johiliya davri 100-200 yil davom etgan degan fikmi bildiradilar. Biroq ushbu davning qancha muddat davom etganligini aniqlash birlanchi manbalar, birinchi navbatda, yozma adabiyotning

ozligi, ba'zida butkul yo'qligi tufayli juda mushkul.

Arab yerlari Osiyoning janubi-g'arbidagi yarimorolda joylashgan bo'sib, shimal tomonidan – Shom (Suriya) sahrolari, sharqdan Fors (Arab) ko'rfazi, Unmon dengizi,janub tomonidan Hind okeani va g'arbdan Qizil dengiz bilan chegaralangan. Mana shu bepoyon o'lkaga yerdagi yashagan somiy tillarning binda so'zlashuvchi arablar nomi bilan Arabiston yarim oroli deb atalgan. Zamonaviy tadqiqotlarning ko'rsatishicha,islom paydo bo'lish arafasida yarimorol hududida madaniyat nuqtai nazaridan uch sivilizatsiya mayjud bo'lgan:

1) mustaqil ma'noga ega bo'lgan Janubiy Arabiston (ili – janubiy arab tili);

2) nisbatan chetki ta'sirlardan uzoqroqda joylashgan Ichki Arabiston;

3) Vizantiya va Eron imperiyalari madaniy an'analarini bilan bog'liq Shimoliy arabiston.

Istomning paydo bo'lishi tarqoq arab qabilalari uchun olamshumul voqeaga aylandi. Tariixda birinchi arab davlati – Arab xalifaligi vujudga keldi. Arab istiqlolari oqibatida mazkur uch sivilizatsiyalar vakillari aralashib ketdi. Lekin ularning o'timishdagi nisbiy mustaqil rivojlaniganliklari *arablar nasabi* haqidagi tasavvurda saqlanib qoldi. Unga binoan, arablarning barchalari nasab jihatidan ikki katta avlod va killaridir: *qahromonilar – jamub arablar, admoniyalar – shimal arablaridir*. Manashu ikki avlod barcha arab qabilalari tarqalgan. Lekin, tadqiqotlarning ko'rsatishicha, mazkur tasavvur VII asr oxirlari-VIII asr boshharida Suriya va Iroqda hokimiyat uchun harbiy kurash olib borgan arab qabilalari ittifoqlari (Kalbiylar, Asadiylar va boshqalar) vakillari tomonidan shakllanrilgan. Qadimgi arablar orasida ko'chmanchilik mafkurasi qoldiqlari, qabilaviy tuzum tasavvurlari kuchli bo'lsada, islam dini paydo bo'lishi davrlarida ularning katta qismi (2/3) o'troq holda shahar va qishloqlarda yashaganlar. Islom dini shakllangan va rivojlangan Makka va Yasrib shaharları YaqinSharq sivilizatsiyasi qadimiy markazlaridan nisbatan uzoqroqda joylashgan. Arabiston yarim orolining Makka, Madina, Toif, Xaybar singari bir qancha eng muhim shaharlarini o'z ichiga oлган qismini qadimdan Hijoz deb atalgan. Bu yarim orolning katta qismida islam vujudga kelguniga qadar «*ko'pxudolitlik*» e'tiqodi hukm surardi. Islomgacha Arabistonda turli xil dinalar mavjud edi. Semit qabilalari an'analariga

ko'ra, Quyosh, Oy tabiatning bejilov kuchlari, turli xudolar va ruhlarga sig'inganlar. Har bir qabilaning o'z xudolari, totem yoki fetishlari mayjud bo'lgan. Ular gohida bir-biriga qarama-qarsli edi. Qabilaning diniy tasavvurlari faqat mazkur qabila a'zolarininggina birligini ta'minlagan, umumarab dini esa yo'q edi.

“Payg' ambar dunyoga kelishi arafasida Arabiston yarim orolida tarqoq, qabila tuzumida istiqomat qiladigan xalqlar butparastlik va jaholat botqog'iga botib qolgandilar. Payg' ambar Ibrahim (a.s.) va uning o'g'i Ismoil (a.s.) tiklagan muqaddas Ka'ba but va sanamlarga to'lib bo'lgandi. Qabilalar timmay o'zaro janglar olib borar, ijtimoiy va mulkiy tengsizlik chidab bo'lmash darajada edi. Jaholat shu daram jaga borgandiki, ayrim qabilalarda qiz farzand dunyoga kelsa, uni tiriklayin ko'mib yuborar edilar”. Demak, *Arabistondag'i iqisodiy talabni kuchayiringan va islom shunday mafkura sifatida vujudga kelgan*.

Muhammad payg' ambar arab elatini Yangi diniy mafkura asosida jipslashtirib, markazlashgan davlatga asos solgan. Jamiyatni iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy inqirozdan xalos qilgan. Insomiyat tarixida alohida o'ringa ega islam madaniyatting poydevorini yaratgan.

Islom dini ta'limoti bo'yicha, Muhammad payg' ambar avvalgi payg' ambarlar (O'rta Yer havzasasi sivilizatsiyasi ichida ma'lum bo'lgan) ishini davom ettingan, ular dimini qayta tiklagan, *qiyomat oldidan yuborilgan oxirgi payg' ambar* (Xotam al-anbiyo') – nabiy va rasul deb tan olinadi. Islom dinining qator asosiy tarmoyillarini o'z ichiga oлган «E'tiqod ramz» yaratilgan. But tamoyillar quyidagilardan iborat:

1) *Alloha ishoniш*. Har bir muslimon (arabchada – bo'yin eguvuchi, itoatkor degan ma'nolarni anglatadi) Yagona Allohni tan olishi va uning irodasiga bo'yishni shart;

2) *Allohning farishhtalariga ishoniш*. Muslimmon kishi *farishhtalar* (arabchada – malak, maloika) va yovuz kuchlar (jinlar) mayjudligiga ishonishi lozim. Xudoga eng yaqin bo'lgan farishhtalar zimmasisiga turli vazifalar yuklatilgan bo'sib, *Jabroil* – Allohni hukmni kishilarga yetkazuvchi, *Mitkoil* – koinotni boshqaruuvchi, *Isrofil* – maxsus shoxdan yasalgan karnayni chalib qiyomat kuni haqida xabar beruvchi, *Azroil* – jon oluvchi farishta vazifasini bajaradi. Shuningdek,

o'lganlarni qaborda dastlabki so'roq qiluvchi farishtalar — *Munkar* va *Nakir*, jannatning qo'riqchisi — *Ridvon*, do'zaxning qo'riqchisi

— *Malik* ham Xudonning yaqin yordamchilari vazifasini bajaradilar. Alloh irodasiga bo'ysumishni istamagan yana bir farishta mayjud bo'lib, uning nomi *Shayton*(Iblis)dir. Shayton odamlarni gunohga yetaklaydi. Quadrati Alloh bu farishtani ijlovlab, bo'ysundirib olishga qodir, biroq u ataylab Iblisga erkinlik bergani, bundan maqsad islomga e'tiqod etuvchi muslimmonlarning irodasini, islam diniga bo'lgan muhabbatini va izchilligini sinash hisoblanadi. Bu farishta oxirzamonga qadar erkin bo'ladi;

3) *Allohnинг kitoblariga ishonish*. Muslimmonlar Qur'oni abadiy va odamlar tomonidan yaratilinagan deb hisoblaydilar. Islomda Alloh muqaddas ta'limotini Muhammaddin oldin *Muso* (Moisey) va *Iso* (Isus) larga vahiy qilgan. *Tavrot, Injil va Zabur* (*Psalter*) — qadimgi yahudiy dinining duolar to'plami) kabi muqaddas bitiklar Qur'onidan oldin yuborilgan mambalardir. Shuning uchun ham islam boshaq dinalar ta'limotiga o'xshaydi. Qur'on muqaddas bitiklarning eng so'ngisisidir;

4) *Allohnинг payg' ambarlariga ishonish*. Payg' ambarlar *ihoniy* haqiqatni bandalarga yetkazadilar, ularni va'z, nasixat bilan haq dingga va yaxshi ishlarga chaqiradilar. Qur'onda 25 nafar payg' ambarning ismlari qayd etilgan. Payg' ambarlar ikki turga bo'linadilar; *rasullar va nabiylar*. Alloh alohida kitob va shariat bergen payg' ambarlar «*Rasub*» deb ataladilar. Alloh alohida kitobva shariat ato etmagan, lekin rasulga berilgan kitob va shariat asosida ish qilishga buyurilgan payg' ambarlar «*nabiylar*» deb ataladi. Rasullar nabiylar bo'lishi mumkin, lekin nabiyalar rasul bo'la olmaydilar.

5) *oxirat kuniga ishonish*. Oxiratda (arabchada — oxirgi kun, dunyoning tugash kuni degan ma'nolami anglatadi) Alloh va u xohlanganidan boshqa hechnarsa qolmaydigan kun. Uning qachon bo'lishini faqat Alloh biladi. Oxirat kunda Yerdagi hayot tugaydi. Allohnинг quadrati bilan o'lganlar qayta tirladilar va bir joyda - Mahshar yechida to'planadi;

6) *islom e'tiqodini qabul qiluvchi har bir kishi o'z taqdirining Alloh tomonidan oldindan belgilab qo'yilgani (taqdiri azalga ishonishi lozim*. Qur'onda yozilishicha, «Alloh kimni hidoyat qilishi istasa, uning ko'nglimi islam uchun keng qilib qo'yar. Kimni

udashtirishni istasa, uning ko'nglini «tor va tang qilib qo'yary» 30 –

7)

o'lgandan keyin qayta tirlishga ishonish. Allohnинг irodasi

bilan qaytaturilgan odamlarning «Mahshar yeri»da to'plangan kuni *qiyomat* (arab. — tikka turish, o'midan turish) deb ataladi. Bu kunda har bir inson o'z qilmishiga loyiq mukofot, ajr oladi: kimir do'zahda qynoq azobiga duchor bo'lsa, yana kimdir jannatda rohat-farog' atda yashashga tuyassar bo'ladi. Islomda dimiy e'tiqod, marosim, urf odat, huquq va axloq normalardan tashkil topgan dindorlar uchun oddiy, bajarilishi qulay sharflar to'plami farzlar ishlab chiqilgan. Ularni bajarmaganlar islomdan chiqqan, deb hisoblanadi. Farzlarning eng asosiyisi «islom arkonlar» deb ataladi (40-rasm).

Yer yuzida muslimmonlar soni ortib borayotgani haqida ommaviy uxborot vositalarida bot-bot aytib o'tiladi. Ayniqsa, G'arb matbuoti bu to'g'rida ko'p yozadi.

So'nggi 50 yil ichida Yer yuzidagi muslimmonlarning soni 235 foizga o'sgan. XX asrda Islom dini ergashuvchilari soni bo'yicha Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSh kabi mamlakatlarda ikkinchi o'ringa chiqdi. Ilmiy farazlarga ko'ra, 2030-yilga borib, dunyo aholisining chorak qismi, ya'ni to'rtadan biri yoki 26,4 foizi muslimmonlardan iborat bo'ladi. G'arb mamlakatlarda muslimmonlar soni ortishi kutiliyapti. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar soni bo'yicha Pokiston yetakchiiga aylanishi mumkin. Hozirgi o'sish bo'yicha hisoblanسا, yaqin yigirma yil ichida muslimmonlar soni 2,2 milliard kishiga yetadi.

Muslimmonlar dunyoning 228 ta mamlakatida istiqomat qiladi, 49 ta mamlakatda esa aholining ko'pchilik qismini tashkil etadi. Ular 60 ga yaqin tilda so'zlashadi. Islom diniga e'tiqod qiluvchilar gaplashadigan tillar orasida arab, bengal, panjob, yavan, o'zbek, turk, urdu, fors, pushtun, sindhi va kashmir tillari yetakchilik qiladi. Hududlar bo'yicha diniy amallarda biroz farq bo'lsa-da, farzlar va asosiy diniy aqidalar umumiydir.

Muslimmonlarning asosiy qismi — 85 foizi sunniylik mazhabida, qolgan 13 foizga yaqin muslimon shialik, qolganlari xorijiylik tarafdir.

Islom dini Muhammad payg' ambar va halifatik davrida keng yoyildi. Biroq, ba'zi ixtifoflar tufayli dinda bo'linish yuzaga keldi.

Bunday qarama-qarshiliklarga quyidagi misol qilish mumkin:

1) diniy aqidalarining barqarorligi yoki kam o'zgaruvchanligi sababli ijtimoiy taraqqiyotdan ortda qolish natijasida yuzaga keluvchi ziddiyatlar ta'siri;

2) din va ruhoniylarning ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok etishlari zarurati;

3) diniy ta'lilotning turli millatlar va elatlarning madaniyati, urfatlari va an'analariga moslashishi;

4) diniy ta'lilotga munosabat va uning talqinidagi tafovutlar.

Yuqoridaq kabi ta'sirlar oqibatida har qanday dinda bo'linish (yo'nalish, oqim va mazhablar) vujudga keladi. Lekin dirlarning ijtimoiy hayotdagn o'mni vaahamiyatini undagi bo'linishning qanchalik xilma-xil ekanligidan kelib chiqibbaholash xatodir. Shu orinda e'tiborni quyidagi qaratishimiz lozimki, dindagiqarashlar xilma-xilfigi uning jamiyatdagi ildizini mustahkamlaydi, mayjud muammolarning xal etilishida to'g'ri yo'lni tanlash imkoniyatini kuchaytiradi.

Islomda dastlab *xorijiyalar* (arabchada - chiqish, qarshi turish degan ma'nolarni anglatadi) yo'nalishi vujudga kelgan. Uning a'zolari xalifa Alining Suriya noibim Muoviyaning hokimiyat uchun ochiq kurashiga qarshi murosachiliqi va qat'iyatsizligidan norozi guruhlardan iborat bo'lgan. Ular Alining siyosatiga norozilik bildirib Kufa shahridan Xarura qishlog'iga ketib qolgan. Shuning uchun ba'zi ilk manbalarda yo'nalishni *xaruriyalar* deb ham yuritiladi. Xorijiyalar dastlab siyosiy talablar bilan chiqqanlar. Ayniqsa, muslimmonlarning irqi va ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar tengligini e'tirof etiganlar. Xalifa lavozimiga ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, mas'uliyatni anglagan vadavlatni boshqarish iqtidoriga ega nomzod saylangan. Agar xalifa jamoa manfaatini himoya qilmasa, egallab turgan lavozimidan bo'shatilgan yoki qatl qilingan. Xorijiyalar yo'nalishiha quyidagi asosiy guruhlar mavjud: Xorijiyalar xalifa Ali va boshqa sulolalar vakillariga qarshi murosasiz kurash olib borganlar. Ularning ijtimoiy-siyosiy tuzimga nisbatan murosasizligi, kishilar hayotini normativlashtirish darajasini juda yuqoriligi va uni qat'iy nazorat qilishga intilishi yo'nalish tarafdarlari sonining kamayishiga sabab bo'lgan. Ayni vaqtda xorijiyalar juda kam sonli bo'lib, Shimoliy Afrika va ayrim arab davlatlari – Yaman, Ummonda saqlanib qolgan.

Islom dinidagi yirik yo'nalishlardan biri *shialikdar* (arabchada *shia* – guruh, tarafdarlar degan ma'nolarni anglatadi). U VII asming o'talarida xalifa Ali va uning tarafdarlarini birlashtirgan diniy-siyosiy oqim sifatida Iroqda vujudga kelgan. Shialar, dastlab, siyosiy hokimiyatni Muhammad payg'ambarning avlodlari boshqarishi va hokimiyat otadan farzandga meros sifatida o'tishi kerak degan tatablari biyan chiqqanlar. Shuning uchun shialar Ali va uning avlodlari bosib olganlikda ayblaydilar. Sunniv xalifalar Ali va uning avlodidi bo'lgan o'n ikki imommni qarshi qo'yganlar. Oxirgi (o'n ikkinchi) imom Muhammad *Mahdiy* (Alloh yo'liga yetaklaydigan kishi)yoki yashiringan imom 873-yilda tug'ilgan. U yoshlik chog'ida bedarak yo'qolgan. Diniy ta'lilotda shialar Quroni karim Allohning kalomi ekanligini tan oladilar, lekin xalifa Usmon uni o'z manfaatiga moslashtirib, xalifa Alining hokimiyatni egallashiga oid bitta surani chiqarib tashlagan, deb hisoblaydilar. Shu bilan birga, Qur'onning haqiqiy nusxasini qiyomat kuni o'n ikkinchi imom Yerga olib keishi haqidagi aqida qabul qilingan.

Shialar, sunniylardan farqli o'laroq, Muhammad payg'ambar bilan bog'liq hadislarni tan olmaydilar. Ular halifa Ali va uning avlodlari bilan bog'liq mahsus hadislari to'plamini tuzganlar va u «Axbor» deb nomlanadi. Shu bilan birga, shialar iyymonda beshta aqida (Allohning yagonaligi,adolat,oxirat va o'lgandan keyin qayta tirlish, payg'ambarlik, imomat)ni tan oladilar. Imomat (arab. – boshqarish, rahbarlik) davlatni boshqarish haqida ta'lilot Shialikda diniy ta'lilot bilan birga urf-odat va marosimlarda ham farqdar mayjud. Masalan, ular Makka va Madinadan tashqari Karbalo va Najaf shaharlарini ziyorat qiladilar. Xalifa Alining avlodidi bo'lgan o'n ikki imommning jabrdiyda va dinyo'lida shahid bo'lganlar sifatida qabrlari muqaddaslashtirilgan. Imam Xusaynga motam tutadilar. Bu «shaxsey-vaxsey» marosimi deb ataladi.

Sunniylik ortodoksal (grechkchada - dindor,e'tiqodli, ya'ni biron-bir ta'lilotga, yo'nalishga, dinga og'ishmay amal qituvchi degan ma'nolarni anglatadi) islam yo'nalishidir. Yo'nalish islonning Muhammad payg'ambar davrida vujudga kelgan ta'lilotini tan oladi. Sunnat islonning ikkinchi manbai sifatida qabul qilishga unda an'anaviy diniy marosimlar, maishiy turmush hamda ijtimoiy hayot qoidalariiga

amal qilinadi.

Traditsionalizm

U o'zbektilida ilk islam ta'lomi, Qur'on va sunnalarda qayd etilgan g'oyalarini asl mohiyatini saqlab qolish, zamон, davr o'garishi bilan ayrim islam aqidalarining ham o'zgarishi mumkinligi haqidagi fikrlarni inkor etuvchi ruhoniylar faoliyati bilan bog'liqdir. Traditsionalistlar nuqtai nazaricha, islam dinining aqidalarini, olam haqidagi Alloh ta'limotn abadiy va mutlaqdir. Zamonda va tarixda bo'ladigan har qanday o'zgarish Alloh tomonidan oldindan belgilangan va hukm qilingan bo'lib, barcha narsa va hodisalar uning irodasi bilan sodir bo'ldi va mavjuddir. Traditsionalizm islam dinida hurfikrilik va erkinlik bo'lishiga tish-tirmog'i bilan qarshi chiqadi, islomdag'i o'zgarishlarni tanqid qiladi.

Modernizm, ya'ni islam dimini ijtimoiy taraqqiyot, fan va texnika yutuqlari bilan uyg'unlashtrishga urinish muayyan darajada masifikuraviy yo'nalish yoki ta'lilot mavqeiga egadir. Islam modernizmi asosan XIX asrlarda paydo bo'lgan. U islam dunyo-sining ilg'or fikri ziyyolilari tomonidan yaratilgai. Ular G'arbdan burjua munosabatlarining rivojanishi ijobji samara bergenligi va fan-teknikaning gurkurab rivojamishi olib kelganligini ko'rib, jamiyatlarini ham isloh qilish, shariat qonunlari burjua huquqini tiklashni taklif qildilar. Turkiya XX asrning 20-yillarda Sharq mam-lakatlari orasida birinchisi bo'lib kapitalistik munosabatlar o'matgan. Turkistonda bunday urimishlar jadidlar harakatida ko'zga tashlanadi. Jadidlar islam mistik qarashlar o'miga ilm-fanni rivojlantrish milliy ***taraqqiyot*** uchun qanchalik zarur ekanligini birinchilar qatorida anglab etganlar.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Yer shari aholisining diniy tarkibini tushuntiriting.
2. Jahon dinlari haqida ma'lumot bering.
3. Milliy dinlar deganda qanday dinlarni tushunasiz?
4. Islom dini keng traqalagan hududlarni tushuntiriting.
5. Xristian dinining qanday mazxablari mayjud?
6. Iudaizm va induzm dinlari geografik xususiyatlarini tushuntiriting.
7. Dinlar qanday belgilari asosida tasnif qilinadi?

6-MAVZU. ISTE'MOL GEOGRAFIYASI

Reja:

1. Iste'mol geografiyasining o'rganish obyekti va predmeti
2. Turmush darajasi tushunchasi va ko'rsatkichlari.
3. Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi daromadlari va ularning turllari.
4. Iste'mol budgetlarining mohiyati va turlari.
5. Yashash minimumi va iste'mol savati.
6. BMT tavsiyasiga ko'ra, aholi turmush darajasini o'rganish usullari

Maqsad: *talabalarda iste'mol geografiyasining mintaqaviy xususiyatlari haqida tushunchalar hosil qilish*
Tayanch so'z va iboralar: *iste'mol geografiysi, "xalq farovonligi", "turmush faoliyati xavfsizligi", "turmush tarzi", "mehmat faoliyati sifati", iste'mol savati "turmush sifati".*

Aholi ishlab chiqaruvchikuch bo'lishi bilan birligida, iste'molchi ham hisoblanadi. Moddiy va nomoddiy ne'matlarni ehtiyojlarni qondirish maqsadida olish iste'mol hisoblanib, bu tushuncha ko'proq ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan iqtisodda foydalaniлади. Sotsial va madaniy geografiya nuqtai nazaridan esa iste'mol holati - aholining turmush darajasi hamda xarid qilish qobiliyati orqali tavsiflanadi.

Iste'mol geografiyasi - aholi turmush darajasining hududiy tafovutlari va ularga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, aholi entiyojlarini qondirish uchun mahsulot xarid qilish holatlarining hududiy xusu-siyatlarini o'rganadi.

Aholining farovonlik darajasini ifodalash uchun "turmush darjası", "xalq farovonligi", "turmush faoliyati xavfsizligi", "turmush tarzi", "mehmat faoliyati sifati", "turmush sifati" kabi turli xil tushunchalar qo'llaniladi. Ba'zan turli atamalar bir mazmuni angatsa, boshqa hollarda ular o'rtaсидаги farq muayyan xususiyat kasb etadi, mazmuni sezilarli darajada farq qiladi. Shu bilan birga, mazkur tushunchalarning o'zaro bog'liqligini qayd etish lozim. O'zbekistonda aholining moddiy, ma'naviy, ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish darajasini ifodelaydigan "turmush darjası" atamasini

kengroq qo'llaniladi. Bunday tavsif ko'proq turmush darajasi statistikasini xarakterlaydi. Shu bilan birga, turmush darajasi - ko'plab omillar yig'indisi ta'sirida bo'lgan o'zgaruvchan jarayondir.

Turmush darajasi muntazam o'zgarib turadigan turli ne'matlarga bo'lgan ehtiyojlarining tarkibi va darajasi bilan, boshqa tomondan, ehtiyojini qondirish imkoniyatlari, tovarlar va xizmatlar bozoridagi holat, aholi daromadlari, mehnatkashlarning ish haqi bilan belgilanadi. Ammo ish haqi miqdori ham, turmush darajasi ham ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalari samaradorligining ko'lami, ilmiy-teknik taraqqiyot darajasi, aholining madaniy-ma'rifiy saviyasi va tarkibi, milliy xususiyatlar, siyosiy hokimiyatga bog'iqliq.

Turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar turli-tuman bo'lib, turmush darajasi konsepsiysi bilan uzyiy bog'iqliq. Ko'rsatkichlar alohida belgililar bo'yicha quyidagi turkumlarga ajratiladi: umumiy va xususiy; iqtisodiy va ijtimoiy-demografik; obyektiv va subyektiv; qiymat va natural; miqdor va sifat; iste'mol proportioniyasi va tarkibi ko'rsatkichlar; statistik ko'rsatkichlar va boshqalar.

Turmush darajasi ko'rsatkichlarga 1) milliy daromad; 2) iste'mol fondi (iqtisodiyot tarmoqlarining bevosita iste'molga yo'naltirilgan mahsulotlari); 3) milliy boyiklar iste'mol fondi (to'plangan iste'mol mulkleri - turar joylar, madaniy-maishiy binolar, buyumlar) kabilarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ulushi kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining umumiy darajasini ifodalaydi.

Aholi turmush darajasini ifodalash uchun «aholi farovonligi», «yashash sharoitlari», «turmush tarzi», «turmush sifati» tushunchalari qo'llaniladi. Aholi farovonligi kategoriyasi insonorlar ehtiyojlarining rivojanishimi, hayot faoliyatidagi asosiy muhit: ishda, iste'molda, ijtimoiy - siyosiy hayotda ulami qondirish yo'llari va sharoitlarini o'zida aks ettiradi.

Iqtisodiy adabiyotda yashash sharoitlari deganda aholini yashash faoliyatidagi bevosita obyektiy sharoitlar, bandlik, ish haqi va daromadlar, qo'chish shakllari, uy - joy xarakteri, oilalarining mulkiy ta'minlanganligi, ijtimoiy to'lovlar tizimi va ijtimoiy soha tarmoqlarining rivojanishi tushuniadi.

«Turmush sifati» - tushunchasi bir tomonidan subyektning ijtimoiy

hayotini va insonning ehtiyojlarini tafsiflasa, ikkinchi tomonidan yashash sharoitlari quayliyatlari va holatini tafsiflaydi.

Turmush tarzi, sifati, darajasi va farovonligi o'tasidagi munosabatlarini quyidagicha ifodalash mumkin: «agar turmush darajasi - iste'mol sohasidagi inson faoliyatining sharoit kompleksi va xarakterini aks ettirsa, turmush tarzi - insonning hamma sohadagi faoliyati, turmush sifati - aholi ahvolining uning haqiqiy xarakteristikaga nisbati, aholi farovonligi esa - ushbu tushunchalarning sintezi hisoblanadi». Shunday qilib, aholi farovonligi - bu insonlarning ehtiyojlarini, rivojanishini hayot faoliyatidagi asosiy sohalarga: mehnat, iste'mol, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi sohalarda qo'llanilganda namoyon bo'ladi.

Turmush darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi, belgilovchi omillardan biri aholi daromadlari hisoblanadi. Inson faoliyatidagi daromadlarning rol, iste'mol tarkibi va darajasi bevosita daromadlarning miqdoriga bog'iqligi bilan ifodalananadi. Fuqarolarning, oita a'zolarning, ishchilarning takror ishlab chiqarishi daromadlar darajasiga bog'iqlidir. Mamlakat aholisi oladigan daromadlar quyidagi uchta muhim kategoriyalar bilan tavsiflanishi mumkin: 1) nominal daromadlar; 2) real daromadlar; 3) real foydalanimadigan pirovard daromadlar.

Nominal daromadlar yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot yoki milliy daromadlarning ma'lum bir qismi hisoblanib, aholi qaytdir faoliyati natijasida oladigan daromadlari, davlat transfertlari, ijtimoiy transfertlar (ijtimoiy sug'urta fondidan to'lovlar), tashkilotlar o'tasidagi transfertlar (bir firmaning boshqa firmalardan oladigan dividendlari), notijorat transfertlar (homiylik pul o'tkazmalar) shaklidagi daromadlar tushuniladi. Ular aholining pul, natural va bilvosita daromadlarning yig'indisini tashkil qiladi. Shunday qilib nominal daromadlar tarkibiga quyidagilar kiradi:

A) pul daromadlari - aholining davlat, ijtimoiy tashkilotlardan, xususiy korxonalaridan, fermer xo'jaliklaridan (soliq to'lammasdan) olingan daromadlari. Nominal pul daromadlarning umumiy miqdori hisobot yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasini tomonidan olib boriladigan aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi hisoboti, budjet tekshirishlari asosida aniqlanadi istiqbolga esa - aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi umumlashtirilgan prognoz hisob-kitoblari va eksperimentlarning baholashi asosida aniqlanadi;

B) natural daromadlar, oilavy, fermer xo'jaligidan, turli mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlardan olinadi. Ular Milliy hisoblar tizimi ma'lumotlari asosida ishlab chiqarishing tarmoqlararo balansi, mahsulotlar va xizmatlarni taqsimlash ko'rsatkichlarining proqnoz hisob-kitoblari asosida aniqlanadi.

V) aholini bilvosita daromadlari, aholiga xizmat ko'rsatuvchi ijtimoiy sohadagi tashkilotlar tomonidan bepul foydalanish jarayonida olinadi. Ularning darajasi respublika budgetining hisobot va proqnoz ma'lumotlari asosida hisoblanadi.

Aholi nominal daromadlarning hisob-kitobida shuni nazarda tutish kerakki, aholining bir guruh nominal daromadlari aholini boshqa bir guruhlari hisobiga shakllanadi, chunki ular soliqlar va majburiy to'lovlarini, ijtimoiy sohadagi tashkilotlar, nuassasalar, korxonalar, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan pulli xizmatlar qiyamini to'laydilar.

Aholining real daromadlari nominal daromadlari summasidan aholi tomonidan to'langan soliqlar va boshqa turdag'i majburiy to'lovlarini chiqarib tashlash yo'li orqali aniqlanadi. Bunda hisobot yoki prognoz davridagi narx indeksi hisobga olinadi.

Real foydalamligan (pirovard) daromadlar moddiy ne'matlarni va turli ko'rinishdagi xizmatlarni sotib olishda foydalaniadi. Shunday qilib, real daromadlar hajmiga pul jangarmalari, ijtimoiy tashkilotlarga badallar, shuningdek, aholining davlatga, korxonaga, moliyaviy tizimdan olgan kreditlari bo'yicha qarzdorligi saldosini qisqarishi kirmaydi.

Xususiy ko'rsatkichlardan 1) iste'mol darajasi va usullari; 2) mehnat sharoitlari; 3) turar joy ta'minoti va maishiy quayliklar; 4) ijtimoiy-madaniy xizmat ko'rsatish darajasi; 5) bolalarni tarbiyalash sharoitlari; 6) ijtimoiy ta'minot va boshqalarni keltirib o'tish mumkin. Mazkur ko'rsatkichlar ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'ilq, ammo aholi (mehnatashlar)ning ma'lum guruhlari, hudud va boshqalar bo'yicha aniqlashtirilgan.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar inson va jamiyat hayotining iqtisodiy jihatlarini, ehtiyojini qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodaya yordi. Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti va har bir insomning farovonligi (nominal va haqiqiy daromadlar, ish bilan bandlik va boshqalar) darajasini aks ettiuvchi ko'rsatkichlar iqtisodiy ko'rsatkichlar sira-

siga kiritiladi. Bu ko'rsatkichlar ishchi kuchini (aholini) takror ishlab chiqarish bilan uzyvy bog'ilq bo'lib, uning iqtisodiy asoslarini ochib beradi. Bu, ayniqsa, aholi daromadlari salmog'i va ularni differensiyashda yaqqlorq namoyon bo'ladı.

Ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar aholining yoshi, jinsi, kasbiy-malakaviy tarkibini, ishchi kuchini jismoni takror ishlab chiqarishni ifodalaydi. Ular ijtimoiy ko'rsatkichlarda o'z aksini topadi va ijtimoiy soha, umuman, iqtisodiyot taraqqiyoti bilan mustahkam aloqada. Bu omillar aholishunoslikning tabiy asoslari, ya'ni aholi, uning ayrim guruhlari somining o'zgarishi, umr ko'rish davri haqidagi tasavvur hosil qiladi.

Ko'rsatkichlarning obyektiv va subyektiv turlarga bo'linishi insonlar hayot faoliyatidagi o'zgarishlarni asoslash zarurati bilan izohlanadi. Obyektiv ko'rsatkichlar obyektiv (iqtisodiy, texnik va hokazo) bazaga ega bo'lsa, subyektiv ko'rsatkichlar aholi guruhlari yoki alohida shaxslarning mehnat, oilavy munosabatlar, daromadlar, ish, turmush tarzi va shu kabilardan qoniqlishi bo'yicha hisobga olinadi.

Qiymat va natural ko'rsatkichlar. Qiymat ko'rsatkichlari barcha daromad ko'rsatkichlari va pul ko'rinishidagi boshqa ko'rsatkichlar (tovar aylanishi, xizmatlar, tashishlar, pul jaung'armalari va qo'yilmalari va hokazolarning hajmi) o'z ichiga oladi.

Natural ko'rsatkichlar natural birliklarda (dona, m², m³ va hokazolar) o'chanadigan muayyan moddiy ne'matlar va xizmatlar, oziq-ovqat mahsulotlari, energiya iste'moli, mol-mulk, turar joylar, madaniy-maishiy tovarlar ta'minotining hajmini ifodalaydi. Turmush darajasini ifodalashda miqdor va sifat ko'rsatkichlari muhim ahamiyatga ega. Miqdor ko'rsatkichlari muayyan moddiy ne'matlar va xizmatlar iste'mol hajmini aniqlaydi. Sifat ko'rsatkichlari esa aholi farovonligini sifat jihattan baholash imkonini beradi. Ular moddiy ne'matlar, xizmatlar iste'mol tarkibi, ovqatlanish, ma'lumot, malaka, uzoq muddatga mo'hallangan ijtimoiy-maishiy buyumlar bilan ta'minlanganlik darajasi kabilarni o'z ichiga oladi.

Aholi farovonligi proporsiyasi va taqsimot tarkibining (aholijatlarini, ehtiyojini qondirishning iqtisodiy imkoniyatlarini ifodaya yordi. Jamiyat iqtisodiy taraqqiyoti va har bir insomning farovonligi (nominal va haqiqiy daromadlar, ish bilan bandlik va boshqalar) darajasini aks ettiuvchi ko'rsatkichlari iqtisodiy ko'rsatkichlarni mustaqil ko'rsatkichlar sifatida ajratib ko'rsatish mumkin.

Hozirgi paytda yuzaga kelgan sharoitlarni hisobga olib, bozor iqtisodi sharoitlariga muvofiqlashtirilgan quyidagi yangi ko'rsat-kichlar tizimi taklif etildi:

❖ *umumlashiruvchi ko'rsatkichlar* (ichki yalpi mahsulot, iste'mol fondi, turmush qiymati indeksi va boshqalar);

❖ *aholi daromadlari;*

❖ *aholining pul jamg'armalari;*

❖ *jamg'arilgan mol-mulklar va turar joylar;*

❖ *aholining ijtimoiy tabaqalaniishi;*

❖ *aholining kam ta'minlangan tabaqalari.*

Bu tizim ixcham, hisob yuritish uchun qulay va turmush daramasining asosiy ko'rsatkichlarini aks ettradi.

Shaxsiy tomorqa xo'jaligi shaxsiy va oilaviy daromadlarning shakllanishida muhim rol o'yinaydi.

Jamiyat rivojlanishining murakkab ijtimoiy-iqtisodiy davrida shaxsiy tomorqa xo'jaligi aholining ba'zi guruhlari uchun asosiy daromad manbai bo'lib qoladi. Shuningdek, tomorqada yetishtiniladigan mahsulotlarning ko'payishi mazkur mahsulotning iste'molini ham oshirib beradi.

Masalan, O'zbekistonda 2000-yil aholi jon boshiga bir yilda, o'rtacha 36 kg kartoshka to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yil 56,4 kg ni tashkil etdi (42-rasm). Zero, bu ko'rsatkichning asosiy qismini dehqon va fermer xo'jaliklarda yetishtirilgan mahsulotlar tashkil etsa-da, tomorqadan yetishtirilgan mahsulotning ham hissasi anchagina bo'lib, ayniqsa, malalliy bozorni ta'minlab turadi.

Qolaversa, seleksiya ishlarning jadallashuvni hamda qishloq xo'jaligida foydalananiladigan kimyoiy mahsulotlar sifatining ortishi natijasida, tomorqa xo'jaligidagi ham intensiv xo'jalik tarkib topmoqda. Buni yetishtirilgan mahsulotlar hajmining keskin ko'payayotgani bilan ham izohlash mumkin. Masalan, 2000-yilda aholi jon boshiga, o'rtacha, 42 kg sabzavot-rezavorlar to'g'ri kelgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2016-yil 148,8 kg, 2018-yil esa 153,2 kg ga yetdi.

Oila budjeti. Oila - qarindosh bo'lgan yoki boshqa xususiyatlari bilan bog'langan, birga yashayotgan va birgalikda xo'jalik yuritayotgan shaxslar jamoasidir. Keyingi yillarda oila iqtisodiyotiga qiziqish o'sidi. O'zbekistonda milliy hisob-kitob tizimiga o'tilishi

munosabati bilan uy xo'jaligiga iqtisodiyotning muhim subyektlaridan biri sifatida qaralmoqda. Hozirgi sharoitda uy xo'jaligining umumiylaridan yuzaga keladi. Ularning natijasi o'taroq, aholining iste'mol budietga ega bo'lgan bir yoki bir necha shaxs tomonidan olib boriladi. Oddadta, uy xo'jaligi a'zolar soni bo'yicha oila bilan mos keladi, ammo ba'zi holatlarda bir necha oilalar birgalikda uy xo'jaligi yuritishi mumkin. Xususan, uy xo'jaligi:

- an'anavy uy ishlari yig'indisining umumlashma nomi (balolarga

qarash, ovqat tayyorlash, kir yuvish, uy tozalash, oddiy ta'mirlash ishlari va h.k.);

- oilaming daromad va xarajat-iste'mol tavsiyalarini o'z ichiga oluvchi statistik ijtimoiy-iqtisodiy tushuncha hisoblanadi.

Oila daromadlarning shakllanishi nuqtai nazaridan uy xo'jaligining quyidagi funksiyalari muhim:

1) melmat ishlab chiqarish funksiyasi - yakka tartibdagi mehnat faoliyati, ya'ni uy sharoitida kiyim-bosh, poyabzal tikish, mebel yasash, maishiy xizmat ko'rsatish; agrar faoliyat, ya'ni yer, yer uchastkasingning barcha turlaridan foydalanish; an'anavy uy ishlari - ovqat tayyorlash, bolalarga qarash, kir yuvish, uy tozalash, kiyim, poyabzalni ta'mirlash; yakka tartibdagi oilaving savdo - ilgari to'plangan oilaving mulknii sotish, turli tovarlarni olib-sotish va h.k.

2) iqtisodiy nomehnat funksiyalar - oilaving lizing (uy, dala-hovli, yer, avtomobil, qayiq kabilarni ijara berish va shu kabi); bo'sh turgan pullarga qimmatli qog'ozlar (veksellar, obligatsiyalar, aktisyalar) sotib olish va foydalanish bo'lib, bu uy xo'jaligining umumiy daromadlari asosiy manbai hisoblanadi.

Oila daromadlarning asosiy qismi mehnatda, ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishdan olinadigan daromad, ijtimoiy trasfertlardan yuzaga keladi. Ularning natijasi o'taroq, aholining iste'mol qobiliyati shakllanadi.

Bozor iqtisodiga o'tish yillarida oilalar umumiylaridan yuzaga keladi. Ularning natijasi o'taroq, aholining iste'mol qibiliyati shakllanadi.

Bozor iqtisodiga o'tish yillarida oilalar umumiylaridan yuzaga keladi. Ularning natijasi o'taroq, aholining iste'mol qibiliyati shakllanadi.

- ish haqi daromadlarning asosiy qismini tashkil etadi, ammo uning salmog'i pasaymoqda;
 - Ijtimoiy iste'mol Fondidan to'lovlar barcha daromadlarning, taxminan, 1/6 qismini tashkil etadi va o'sib borishi kuzatmoqda;
 - shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olimadigan daromadlar salmog'i oshib bormoqda, aholi iste'mol muammosini o'z kuchi bilan hal etishga urinayotgan hozirgi murakkab iqtisodiy vaziyatda bu tabiiy holdir;
 - boshqa manbalar salmog'i oshib bormoqda va bu o'sishning davom etishi kutilmoqda;
 - bozor iqtisodiyoti sharoitida ishga layoqatti har bir inson o'z moddiy farovonligi uchun o'zi ma'suldir.
- Oila budjeti asosida oilaning iste'mol daromadi hisoblab chiqiladi, u umumiy daromadlardan farqli o'laroq, o'z mazmun-mohiyati jihatidan oilaning soliq va jamg'armalari chiqarib tashlangandan so'ng qolgan pul xarajatlariga to'g'ri keladi. Uning hajmi, miqdori xarajat turlariga qarab taqsimlanadi.
- Oilaning umumiy daromadlarini tahlil etishda quyidagi ko'rsat-kichlar hisoblab chiqiladi:
- ovqatlanish xarajatlari;
 - nooziq-ovqatlanmi sotib olish xarajatlari;
 - maishiy xizmat, soliq, yig'imlar, to'lovlar xarajatlari;
 - naqd pul, jamg'arma banklariga qo'yilgan jamg'armalar, chorva, parranda va boshqalar tabiiy ko'payishi natijasida jamg'armalarning osishshi.
- Daromadlar darajasini oshirish muammolarini hal etishda iste'mol budjeti asosida aholini minimal daromad bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratish lozim.
- Iste'mol budjeti moddiy va ma'naviy ne'matlar va xizmatlar iste'mol salmog'i va tarkibining qiymati bahosi hamda soliqlardan iborat. Ehtiyojni qondirish darajasiga qarab, moddiy ta'minlanganlik minimumi, rafsiyonal va elitar iste'mol budjetlari mayjud. Ular abholining quyi, o'rta va yuqori (juda yuqori) daromadli guruuhlariga muvofiq hisoblanadi. Shuningdek, haqiqiy va me'yoriy budjetlar ham mayjud, me'yoriy budjetlar daromadlar siyosatining ijtimoiy normativlaridan birdir. Qolaversa, aholi jon boshiga to'g'ri keldigan umumiy daromadlar hudud aholisining kapital holatini namoyon etib turadi.

- ish haqi daromadlarning asosiy qismini tashkil etadi, ammo uning salmog'i pasaymoqda;
- Ijtimoiy iste'mol Fondidan to'lovlar barcha daromadlarning, taxminan, 1/6 qismini tashkil etadi va o'sib borishi kuzatmoqda;
- shaxsiy tomorqa xo'jaligidan olimadigan daromadlar salmog'i oshib bormoqda, aholi iste'mol muammosini o'z kuchi bilan hal etishga urinayotgan hozirgi murakkab iqtisodiy vaziyatda bu tabiiy holdir;
- boshqa manbalar salmog'i oshib bormoqda va bu o'sishning davom etishi kutilmoqda;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida ishga layoqatti har bir inson o'z moddiy farovonligi uchun o'zi ma'suldir.

Jahon miqyosida ham aholining turmush darajasi hamda iste'mol qobiliyatini aniqlash uchun aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadlar miqdoridan foydalaniladi.

Iste'mol budjeti faqat aholi guruhlari uchun emas, balki, mamlakat rayonlari uchun ham belgilanishi mumkin. Bunda hisob-kitobning turli xillaridan foydalaniladi: me'yoriy (tovar va xizmat iste'moli va ularning haqiqiy bahosi normativlari asosida); statistik (aholining ayrim qatlamlari ega bo'lgan real daromadlar darajasida); murakkab (ovqatlanish me'yorlari va amaliy xarajatlar asosida); subyektiv (ekspertlar so'rovi va jamoatchilik fikri asosida); resurs (aholining ma'lum iste'mol minimumini ta'minlash uchun davlatning obyekti imkoniyatlari asosida). Iste'mol budjeti yuzlab tovarlarni (xizmatlarni) o'z ichiga oladi, ammo hisob-kitoblarda, odatda, eng muhimlari (ovqatlanish, kiyim-kechak, poyabzal, sanitariya va gigyena vositalari, dori-darmon, mebel, idish-tovoq, madaniy mollar, uy-joy va maishiy xizmat, transport, aloqa xizmati va sh.k.) e'tiborga olinadi va ular minimum moddiy ta'minlanganlik budgetiga kirtiladi.

Har bir davr bo'yicha aholi va ishchi kuchini takrorishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan moddiy ta'minlanganlik minimumi mavjud. Bu minimum obektiiv miqdor bo'lib, ijtimoiy kuchlarning rivojlanish darajasiga bog'liq. Moddiy ta'minlanganlik minimumi me'yoriy iste'mol budjeti yordamida aniqlanadi. Iste'mol budjeti hisob-kitob tafsifiga ega va ma'lum normativlarga asoslanadi. Me'yoriy budjet moddalalarining asosiy qismi to'g'ridan-to'g'ri hisoblanadi, ya'ni oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari iste'moli me'yori, xizmat ko'rsatish normativi, ularni xarid qilish baholari inobatga olinadi.

Me'yoriy budjetga asoslangan moddiy ta'minlanganlik minimumi ish haqimi differensiatiyalashni prognozlashda (boshqarishda) asosiy elementlardan biri bo'lib xizmat qiladi. Ish haqining eng kam miqdori jamiyatda mayjud resurslarga bog'liq bo'lmasa, moddiy ta'minlanganlik minimumini ta'minlash uchun boshqa manbalardan foydalanimadi (ijtimoiy iste'mol fondi, shaxsiy tomorqa xo'jaligi va shu kabilar).

Aholining iste'mol xususiyatlарини iste'mol xarajatlari orqali tahsil qilish davomida budjetning sarflanish holati namoyon bo'лади. Tabiiyki, eng ko'p xarajat oziq-ovqat va kiyim-kechak mollari uchun sarflanadi. Agar daromadning asosiy qismi alkogol va boshqa spirli

ichimliklar, ko'nglochar bar va tunji klub kabilar uchun sarflanishi esa salbiy holarga ega bo'lib, moddiy resursni foydalilik ko'effitsientini pasaytirgan holda, keyingi iste'mol qobiliyatlarini pasaytiradi.

Jahon fanlari rivojini Forobiy, Beruniy va Ibn Sinosiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Abu Nasr Forobiy (873-950) - muslimmon Sharqida Arastudan keyin «kikkinch usloz» ya'ni "Al-Muallim as-soniy", unvoniga mayassar bo'lgan yirik mutafakkir va alloma. Uning qalaminiga 160 dan ziyod asar mansub bo'lib, ular asosan qadimgi yunon olimlari asarlardagi tabiiy-ilmiy va falsafiy muammolar sharhlash hamda bu sohalarning dolzarb masalalarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Jumladan, "Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi", "Fanlar tasnifi va ta'rifi", "Ideal shahar aholisining maslagi", "Inson a'zolari haqida risola", "Hayvon a'zolari to'g'risida so'z" va boshqa asarlar shular jumlasidandir.

Olam sifat, miqdor, javhar, aksidensiya (muhim bo'lmagan xosa), imkoniyat, zaruriyat va tasodifyat, makon va zamон, harakat va rivojlanish kabi tushunchalarda ifodalananadi. Ullar fazoviy jismalar, aqli mahluq (inson), aqlsiz jonivorlar, o'simliklar, minerallar va to'rtta "unsur-suv, olov, havo va tuproq kabi oltita ko'rinishda o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'gan. Sugrotning shogirdi Aflatun (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o'chnasiz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'aktor, shoir va dramaturg bo'gan, o'z g'oyalaklari dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflatun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shakllidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

Farobiy inson va hayvon tuzilishi organlari, ularning vazifalari,

¹ Qadimgi Yunoniston va Rimda Milet falsafiy maktabi, Eley falsafiy maktabi, Sugrot, Pifagor, Aflatun, Arastu va boshqalarning falsafiy tabiiy — ilmiy ijtimoiy — axloqiy ta'ilimotlari vujudga kelgan va o'rganiladi.

Sugrot (eramizdan oldingi 469-399 yillarda) (asli — Sokrat) — qadimgi Yunon faylasufi. «Afmining ijtimoiy hayotida faol isitirok etgan, yoshlar tarbiyasi bilan shug'ullangan, hurnikeli inson, kambag'aldan chiqqan, tosh yo'nuchching o'g'li, o'ta bilimdon kishi sifatida mashhur bo'gan. Sugrotning shogirdi Aflatun (asli — Platon) jahon falsafasi tarixida o'chnasiz qoldirgan buyuk allomadir. U nafaqat faylasuf olim, balki san'aktor, shoir va dramaturg bo'gan, o'z g'oyalaklari dialoglar tarzida bayon qilgan. Aflatun 428 yil 21 mayda Delos orolida tug'ilgan. O'zidan keyin 35 dan ziyod dialog shakllidagi asarlar yozib qoldirgan. Arastuning u haqdagi fan insonning muayyan ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

bir-biriga o'xshash xossalari o'rganib tirik organizmlar anatomiyasi, fiziologiyasi va psixologiyasi kabi fanlarga oid ilmiy tadbirkotlar olib borgan. Yevropa olimlaridan, shu jumladan rus fiziolog olimlari I.M.Sechenev va I.Pavlovlardan bir necha asrlar ilgari fiziologiya

fanining fundamental asoslarini yaratgan. Mutafakkir o'z asarlari komil inson, fozi fiqaro, odil hukmdor, baxt-saodat, unga erishish yo'llari, davlatning xususiyatlari, ahloqiy va aqliy tarbiya, ijtimoiy istiqbol to 'g'risida ilg'or g'oya-

rivojiga bo'lgan ta'siri sezilarli bo'lgan.

Abu Rayhon Beruniy (973 — 1048) deyarli barcha fan sohalari-yaratgan 152 ta asardan 28 tasi bizgacha yetib kelgan. "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", "Geodeziya", "Masud qonuni", "Minerologiya" va "Saydana" asarlari shular jumlasidadir.

Beruniy o'zining "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida birinchchi bo'lib organik dunyo evolyusion rivojlanishi, odamning paydo bo'llishi, irliyat qonunlari, ong, sezgi, aql, olyig'i, qiyofasi, tabiat va odamlarda o'ziga xosligini, odam rantuproq, suv, havo va Yerga ham bog'liqligini ta'kidlab, geografik aloqadorlik g'oyasini ilgari suradi. Beruniyga ko'ra, inson qiyofasi tabiat ta'sirining natijasidir. Uning ichki qiyofasiga kelsak, uni inson cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har kishi o'z xulq-atvoriining sohibidir.

"Kartografiya" asarida Yer yuzidagi mamlakatlarning bir-biridan qanday vaziyatda ekanini, tog'lar, dengizlar, daryolar yo'naliishlari, karvon yo'llari bilan bog'liq jadval va kartalar yaratilishiga doir bilimlar bayon qilingan.

"Geodeziya" asarida aholi manzilgohlari oraliqlarini aniqlash uchun joylarning chegaralarini belgilash usullari bayon qilingan. Kitobning 3-bobida dunyo geographyasi bayon

Uning tabiatni o'rGANISHDAGI xizmati kattadir. Alloma jismlarning o'zaro tortishuvi, Quyosh va Oyning tutilishi, zarra, inersiya va sun'iy tanlanish, rivojanish anomaliyasi, Yer qa'rida ro'y beradigan geotektonik sijishlar, Yer qiyofasining tadrijiy tarzda o'zgarib tur-

shi, xilma-xil olamlar to 'g'risida ilmiy bashoratlarini ilgari surgan.

Beruniyning asarlarida bilish masalalari muhim maqonga egadir. Bilishga bo'lgan qiziqishning ikkita sababi bor. Birinchidan, bu o'ziga xos lazzatdir. Ikkinchidan, bilishdan maqsad odamlar ehtiyojlarini qondirishdir. Bilish sezgilar yetkazib bergen ma'lumotlardan boshlanadi. Ular bilishning yuqori bosqichi aqliy bilish uchun o'ziga xos ko'makchi va asos bo'lib xizmat qiladi. Bilimning chiniligi kutuv va sinov-tajriba orqali belgilanadi. Ular tuftayli ashylarning muhim jihatlari o'rganiлади, ularning miqdoriy tomonlari aniqlanadi, bilish jarayonining samaradorligi oshib boradi.

Markaziy Osiyo xalqdari fani, madaniyatini dunyoga tanilishida buyuk alloma va mutafakkir, tabib va tabiatshunos olim Abu Ali ibn Sino (980-1037) ning o'rni beqiyos. U Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilib, Hamadon shahrida vafot etgan. Ibn Sinodan qolgan ma'naviy me'ros taxminan 280 nomdan ziyyodroqdir. Ular tibbiyot, falsafa, mantiq, psixologiya, axloq, musiqa, farmakologiya va boshqa sohalarga bag'ishlangan. Olimming «Ash-shifto kitobi» «Tib qonunlari», «Bilimlar kitobi», «Tabiat durdonasi» kabi asarları mashhurdir. Borliqni talqin etishda Ibn Sino Forobiy izidan borib, uni «vvujudi vojib» va «vvujudi mumkin»dan iborat, deb e'tirof etadi. «Vujudi vojib» birinchi sabab vazifasini bajaradi. «Vujudi mumkin» esa uning oqibatidir. Yaratilishi doimiy bo'ganligi uchun yaratilgan «vvujudi mumkin» ham abadiydir. Olimming sababiyatga oid mulohazalari e'tiborga molikdir. Unga ko'ra, sabablar moddiy (muayyan holatni keltirib chiqaruvchi sabab), faol (muayyan holatni o'zgartiruvchi sabab), shakliy (turli xil quvvatlar bilan bog'langan sabab) va tugallovchi (barcha sabablarning pirovard maqsadi) sabablardan iboratdir.

Ibn Sino tarbiya borasida ham muhim asarlar yaratdi. Jumladan, "Tadbir ul-manzil", "Urjuza fitib", "Donishnoma" va boshqa asarlarda ta'lim-tarbiyaga bag'ishlangan alohida boblar mavjud. Tabib bola tarbiyasi sabr bilan yillab davom ettirish zarurligi, bunda atrof-muhitning yetakchi ahamiyat kasb etishini ta'kidlab o'ganlar. Esda saqlang! Ibn Sino: "Nasihat bobida uch mingta so'z yozdim, uch mingtadan uch kalimani tanlab oldim. Bu uchtadan ikkitasini esda saqla va birini umutib yubor: Xudoni va o'lim haqligini yodingda tut, qilgan yaxshiliklaringni unutib yubor".

Ibn Sino 17 yoshidanoq yosh tabib sifatida Somoniylar davlatining boshlig'i Nuh ibn Mansurni davolab, saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Mazkur kutubxona o'sha davrda O'rta va Yaqin Sharqdagi eng katta va boy kutubxonalaridan sanalardi. "Bir necha yil davomida kecha-kunduz timay mutolaa qiliish natijasida Ibn Sino o'z bilim doirasini mislsiz darajada kengaytirdikim, u davrda shu qadar bilimga ega bo'lgan boshqa bir kishini topish mushkul edi".¹

Ibn Sino kasalliklarning kelib chiqishida va ularni davolashda joylarning iqimi, past-balandligi, tupoqlari, suvi, esuvchi shamlari haqidha ham nodir fikrlar yozib qoldirgan. "Men dunyoga Abu Ali ibn Sinodek buyuk insomni taqdim etgan qadimgi o'zbek yeriga ta'zim qilaman", deb yozadi AQSh senatori Edward Kennedy.²

Ibn Sino umrining so'nggi yillarini Gurganch, Ray va Hamadon-

da o'tkazdi. Olim 1037 yilda Isfaxonda vafot etdi. Bilasizmi? Ibn Sino sakkizta doston yozgan. Bular: Yilning to'rt fasli haqida urjuza, Sog'liqni saqlash va gigiena haqida urjuza, Anatomiya haqida urjuza, Gippokrat vasiyatlari haqida urjuza, Tabobat haqida urjuza, Tibbiy nasihatlar haqida urjuza, Axlq haqida urjuza...

Ibn Sino o'zining birinchi uzozi sifatida Ibrohim al-Notiliyi zamondoshi, Ibn Simoning birinchi uzozi bo'lgan.

O'z zamonasining mashhur tabibi va tabiatshunosi Ismoil Jurjoniyning ham jahon fani rivojida turgan o'mi beqiyos. Olim o'zining "Zaxirayyo Xorazmshohiy" (Xorazmshoh xaznasi) asarida Xorazm tabati, Jayhun daryosining suvi, iqimi, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida qimmatli ma'lumotlar qoldirgan 12 asrning oxiri-13 asrning boshlarida Amir Temur amalga oshirgan harbiy yurishlar natijasida o'lka mustaqilligi qo'liga kiritildi. Temur va temuriylar davrida uyg'omish davriming ikkinchi bosqichi boshlandi. Bu ilm-fan va madaniyatning gullab-yashnash bosqichi bo'idi. Ma'naviyatga homiylik harakati avj oldi. Bunga Samar-

qandda Ulug'bek astronomiya maktabining vujudga kelishi, rasa-dxonaning qurilishi, mashhur olimlar Qozizoda Rumiy, al-Koshiy, Ali Qushchi va boshqalarning fandagi jombozligi yaqqol misoldir. Mirzo Ulug'bek (1394 y.22 mart-1449 y.27 oktabr)-O'rta Osiyoda ilm-fan va madaniyatning rivojiga ulkan hissa qo'shgan siyosatida barchamizga yaxshi tanish. Olim geografiya, fizika, matematika, astronomiya, falsafa, mantiq va adabiyot singari fanlarga oid katta ilmiy meros qoldirgan

Ulug'bek 1424-yilda Samarqandda Obirahmat arig'i yonida Mansur Koshiy, Maryam Chalabiyy, G'iyosiddin Jamshid, Abduali Birjandiy va boshqa olimlar bilan birgalikda qurgan rasadxonada sayyoralar sir-asrorlarini o'rgandi. 1018 ta yulduzlarini o'rganib ko'pgina asarlar yaratdi. Mazkur asarlar mazmuni uning "Zijj" jadidi Ko'ragoniy" nomli asarida batafsil ochib berilgan. Asar uning va fotidan keyin do'sti va shogirdi Ali Qushchi tononidan Istanbulga olib ketildi va nashr ettilrildi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Fan geografiyasining obyekti va premetini izohlang?
2. Jahonda fan geografiyasi bilan bog'liq ilmiy ishlar olib borgan olimlar haqida nimalar bilasiz?
3. "O'zbekistonda fan geografiyasi va ilmiy darajali mutaxassislar tayyorlash" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini himoya qilgan olima nomini bilasizmi?
4. Bugungi kunda jahonda yetakchi o'rin egallovchi universitetlar haqida nimalar bilasiz?
5. Jahonda ilk universitetlar qaysi mamlakatlarda tashkil topgan?
6. Markaziy Osiyoda geografiya fanning ravnaq topishida muhim ahamiyat kasb etgan olimlarga misollar keltiring

¹ Тайлим муаммолари журнали маҳсус сони. 2006 йил 1-сон. 68-бет

² Каримов У., Каримова С. Абу Али ибн Сино. Тибий ўтигаар. Т. Мехнат.1991 йил.5-бет.

10-MAVZU. MA'NAVİY MADANIYAT GEOGRAFIYASI

Reja:

1. Jahon madaniyatlarining shakllanishi.
2. Moddiy madaniyat geografiyasi.
3. Ma'naviy madaniyat geografiyasi.

Maqsad: *talabalarda ma'naviy madaniyat geografiyasi haqida tushunchalar hosil qilish*

Tayanch so'z va iboralar: *madaniyat, qadimgi sivilizatsiyasilar, aholining turmush tarzi va an'analarini, moddiy va ma'naviy madaniyat*

Madaniyat tushunchasi (lotincha "madaniyat" - yetishirish, qayta ishlash) insoniyat jamiyatini tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmuini, ularni yaratish va qo'llashusullarini, jamiyatning rivojlanish darajasini tavsifaydi. Insonni o'rabi turgan tabiiy sharoitlar asosan uning madaniyatining o'ziga xos xususiyatlarini, Yer-ning turli mintaqalaridagi xususiyatlarini aniqlaydi. Mamlakatlar o'z xalqlarining rivojlanish tarixi, tabiiy sharoitlari, madaniyatini va iqtisodiy faoliyatning ma'lum bir umumiyligi bilan farq qiladi. Ular dunyoning tarixiy va madaniy mintaqalarini yoki sivilizatsiyasini shakllantiradi. Jahon sivilizatsiyasining eng muhim tarkibiy qismi bu xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatidi.

Madaniyat geografiyasi madaniyatning tarqalishini va uning alohida tarkibiy qismi - aholining turmush tarzi va an'analarini, moddiy va ma'naviy madaniyat elementlarini, oldingi avlodlarning madaniy merosini o'rganadi.

Dastlabki madaniyat markazlari Nil, Dajla va Yefrat vodiylarida paydo bo'lgan. Qadimgi sivilizatsiyasilarining geografik tarqalishi Atlantika okeanidan Tinch okean sohiliga sivilizatsiyasi zonasining shakllanishiha olib keldi. Ushbu sivilizatsiyasi zonasini tashqarisida Markaziy Amerikadagi maya va astek hindu qabilalarining va Janubiy Amerikadagi inklerining bosqqa juda rivojlangan madaniyatları va mustaqil sivilizatsiyasiları paydo bo'idi. Insoniyat tarixi dunyoda yigirmadan ortiq yirik sivilizatsiyasiga ega.

Sariq daryo ichida qadimiy madaniy markaz, Xitoy-Konfutsiy sivilizatsiyasi shakllandi, bu dunyoga kompas, qog'oz, porox, chinni,

birinchi bosma xaritalar va hk.

Konfutsiychilik asoschisi (miloddan avvalgi 551-479) Konfutsiy ta'limotiga ko'ra, Xitoy-Konfutsiy sivilizatsiyasi o'ziga xos bo'lgan inson qobiliyatlarini o'z-o'zini anglashga yo'naltirilganligi bilan ajralib turadi.

Hind sivilizatsiyasi (Hind va Gang havzalari) milodiy 500 yilgacha paydo bo'lgan. Biroq, o'tgan asrda, hozirgi Pokiston hududidagi Hind vodiysida, ming yillar oldin ham paydo bo'lgan Mozenjo-Daro va Karappa shaharlari kashf etildi. Shaharlar shaharsozlikning yorqin namunalari bo'lib kelgan va kanalizatsiya tizimi bugungi kunda ko'plab Osiyo mamlakatlari qaraganda yaxshiroqdirdi.

Qadimgi misrliklar, shumerlар va boshqa xalqlarning qadriyatlarini meros qilib olgan Islom sivilizatsiyasining madaniy merosi boy va xilma-xildir. Uning ichiga saroylar, masjidlar, madrasalar, kulolchilik, kashtachilik, gilam to'qish va badiiy metallga ishllov berish san'ati kiradi. Islomiy Sharq shoirlari va yozuvchilarining (Nizomiy, Firdavsiy, O. Xayyom va boshqalar) jahon madaniyatiga qo'shgan hissasi ma'lum.

Dunyoning turli mintaqalaridagi zamona naviy sivilizatsiyasilar o'z madaniyatini saqlab, uni yangi sharoitlarda rivojlanitmoqda. G'arbiy yosh sivilizatsiyasilariga G'arbiy Yevropa, Lotin Amerikasi va Pravoslav sivilizatsiyasiları kiradi. Ular asosiy qadriyatlar bilan ajralib turadi: liberalizm, inson huquqlari, erkin bozor va boshqalar.

Inson o'ngining noyob yutuqlari G'arbiy Yvropaning falsafa va estetika, san'at va ilm-fan, texnika va iqtisodiyotidir. Madaniy meros G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasiga Rimdagi Kolizey, Afina Akropoli, Parijdagagi Luvr va Londondagi Westminster abbatligi, Hollandiyaning pollari va Rurning sanoat landshaftlari, Darwin, Lamarkning ilmiy g'oyalari, Paganini, Betxovning musicalari, Rubens va Pikassoning asarlari va boshqalar.

G'arbiy Yevropa sivilizatsiyasining yadrosi dunyoga qadimiy madaniyat, Uyg'onish, islohot, ma'rifat va fransuz inqilobi g'oya-larini bergen mamlakatlar bilan mos keladi.

Rossiya, Belorusiya Respublikasi va Ukraina zamona naviy pravoslav sivilizatsiyasining asosidir. Ushbu mamlakatlarning madaniyati G'arbiy Yevropaga yaqin.

Pravoslav dunyosining chegaralari juda xialashgan va slavyan va slavyan bo'lmagan aholining aralash tarkibini aks ettridi. Rossiya va Belorussiya Respublikasi G'arbiy va Sharqiy dunyo o'rtaida o'ziga xos ko'prik bo'lib xizmat qilmoqda (*Beloruslarning hissasi nimada jahon madaniyatiga, san'atiga kiritilgan?*).

Moddiy madaniyat geografiyasi. Xalqlarning moddiy madaniyati mehnat qurollari, uy-joy, kiyim-kechak, oziq-ovqat, insonning moddiy ehtiyojlarini qondirish uchun zatur bo'lgan barcha narsalarni o'z ichiga oladi. Tabiy muhitning o'ziga xos xususiyatlarni inobatga olgan holda, Yerdag'i odam turar-joy binolarni quradi, asosan yashash joyining tabiiy zonasida olinishi munkin bo'lgan mahsulotlarni iste'mol qiladi, iqlim sharoitiga mos ravishda kiyinadi. Xalqlarning moddiy madaniyati inson hayotini tabiiy sharoitlarga moslashish namunasidir.


Uy-joy. Odamlarning tabiiy sharoitlarga moslashish qobiliyati to'g'risida mo'tadir kenglikdagi yog'och uylar tomonidan tasdiqlangan. Kundaliklar orasidagi teshiklar mox bilan qazilgan va sovuqdan ishonchli himoya qiladi. Yaponiyada zilzilalar sababli, yer qobig'ining tebranishlariga chidamli, surma yorug'lilik devor'lari bilan uylar qurilgan.

Issiq cho'i hududlarida harakatsiz aholi tonlari konusimon pesh-toqli dumaloq gumbazli kulbalarda yashaydilar va ko'chmanchilar chodirlarini tikadilar. Malayziya va Indoneziya xalqlari orasida qordan, qoziqdan qurilgan tundra zonasidagi eskimoslarning ajoyib uylari. G'arbing milliy madaniyati va ta'sirini aks ettiruvchi yirik shaharlar-dagi zamonaliviy ko'p qavatlari binolarning me'morchiligi boshqacha.

Kiyim. Odamlarning kiyimlariغا tabiiy muhit ta'sir qiladi. Osiyo va Afrikaning ko'plab mamlakatlaridagi issiq issiqlik zonasida ayollar kiyimlari yengil matoden qilingan yubka va bluza. Arab va Afrika mamlakatlaridagi erkak aholining aksariyati poldan uzun, keng ko'ylik kiyishni afzal ko'rishadi. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda ushbu shartlar uchun qulay tikilmagan shakllar keng tarqalgan. Janubiy va Janubi-Sharqiy Osiyoda ushbu mamlakatlar uchun qulay bo'lgan belbog' ostidagi sariq kiyimlarning tikilmagan shakllari keng tarqalgan. Xaltaga o'xshash kiyim xitoylik va vietnamliklarning zamonaliviy liboslari asosini tashkil etdi. Sovuq issiqlik zonasida tundraning populyatsiyasida kapotli iliq bo'sh uzun ko'ylagi ustunlik qiladi (8-rasm).



Hind sari



Xitoy halati

Arabcha ko'ylik

Eskimoslarning uzum ko'yligi

8-rasm. Kiyim

Turli millatlarning kiyimlari. Kiyim milliy xususiyatlarni, odamlarning xarakterini, temperamentini, uning faoliyat doirasini aks ettridi. Xalqlar kostyuming kesilgan yoki bezakning noyob detailari bilan maxsus versiyasiga xosdir.

Ovqat. Odamlarning oziq-ovqat mahsulotlarning o'ziga xos xususiyatlari odamlarning yashash joylarining tabiiy sharoitlari, qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari, xalqlarning diniy va milliy an'analari bilan chambarchas bog'liqidir. Sabzavotli oziq-ovqat dunyoning deyarli barcha xalqlarida ustunlik qiladi.

Ovqat donalardan tayyorlangan mahsulotlarga asoslangan. Yevropa va Osiyo bu mintaqada juda ko'p miqdorda bug'doy va javdar mahsulotlarini (non, kekler, yormalar, makaron) iste'mol qiladilar.

Misr (yoki makkajo'xori) Amerikada asosiy don ekinlari hisoblanadi va gurnuch Janubiy, Sharqiy va Janubi-Sharqiy Osiyodagi odamlarning ovqatlanishida ustunlik qiladi.

Deyarlihamma joyda, shujumladan Belorussiyada, sabzavotlardan, shuningdek kartoshkadan (mo'tadil iqimi bo'lgan mamlakatlarda), shirin kartoshka va kassadan (tropik mamlakatlarda) taomlar keng tarqalgan.

Ma'naviy madaniyat geografiyasi. Ma'naviy madaniyat (ya'ni insomning ichki, axloqiy dunyosi bilan bog'liq) inson tomonidan ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratadigan qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Bular adabiyot, teatr, tasviri san'at, musiqa, raqs, me'morchilik va boshqalar Qadimgi yunonlar insoniyatning ma'naviy madaniyati xususiyatlari shunday shakllangan: haqiqat - yaxshi - go'zallik.

Ma'naviy madaniyat (ya'ni insomning ichki, axloqiy dunyosi bilan bog'liq) inson tomonidan ma'naviy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratadigan qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Bular adabiyot, teatr, tasviri san'at, musiqa, raqs, me'morchilik va boshqalar Qadimgi yunonlar insoniyatning ma'naviy madaniyati xususiyatlari shunday shakllangan: haqiqat - yaxshi - go'zallik.

Ma'naviy madaniyat, xuddi moddiy madaniyat singari, tabiiy sharoiti, xalqlar tarixi, ularning etnik xususiyatlari va dini bilan chambarchas bog'liqidir.

Biroq, tabiiy muhitning ma'naviy madaniyatga ta'siri moddiyga qaraganda kamroq darajada namoyon bo'radi. Tabiat badiy ijod uchun tasvirlarni taklif qiladi, jismoniylar material beradi, rivojlanishiga yordam beradi yoki to'sqinlik qiladi.

Jahon yozma madaniyatining eng buyuk yodgorliklari bu Muqaddas Kitob va Qur'on - dunyodagi eng yirik ikki din - nasroniylik va islonning yozuvlari.

Yerning turli mintaqalarida turli xil me'moriy uslublar rivojlanib, o'zgargan. Ularning shakllanishiga diniye' tiqodlar, milliy xususiyatlar va atrofdagi tabiat ta'sir ko'rsatdi. Masalan, Evropa me'morchiligidan gotika va barokko uslublari hukmron bo'lib kelgan (4-rasm). Gotik soborlarning binolari nafisligi va yengiligi bilan ajoyib bo'lib, ular tosh dantelli bilan taqqoslanadi. Ularko'pincha yaratuvchilarining diniy g'oyalarini ifoda etadilar. Ispaniyada, Germaniyada,

Fransiyada keng tarqalib ketgan barokko uslubi (italiyalik "borokko" dan - haddan tashqari narsalarga moyil), haykaltaroshlik, Rossiyadagi devorlarga chizilgan rasmlar bilan ajoyib saroylar va cherkovlarning me'morchiligidagi o'zini namoyon qiladi va Belorussiya.

Hindistondagi masjidlar, minoralar arxitekturasi, Birmadagi ko'p qavatlari binolar va ibodatxonalar atrofdagi tabiatni fillar, g'alati o'simliklar tasvirlari bilan aks ettridi.

Dunyoning barcha xalqlarida keng tarqalgan tasviri va dekorativ amaliy san'at - amaliy foydalanish uchun mo'ljallangan badiiy mahlakotlarni yaratish. Osiyo mamlakatlari bunday hunarmandchilikka aymiqsa boy. Yaponiyada chinni rasmlar, Hindistonda metallni ta'qib qilish, Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlariida gilam to'qish keng tarqalgan. Belorussiya badiiy hunarmandchiliği orasida somondan to'qish, to'qish, badiiy keramika ma'lum.

Ma'naviy madaniyat xalqlar tarixini, urf-odatlari va urf-odatlarini, ularning yashash mamlakatlarining tabiatini to'playdi. Turli butun dunyoga tarqalgan o'zaro ta'sirga ega.


(Birlashtgan Millatlar Taskilotining Ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkilotining ixtisoslashtirilgan taskiloti) saytlarni muhofaza qilish bo'yicha konvensiyani qabul qildi.

1975 yilda kuchga kirgan madaniy va tabiiy meros. Konvensiyaning asosiy maqsadi: inson yoki tabiat tomonidan yaratilgan noyobi yoki madaniy yoki ekologik ahamiyatiga ega bo'lgan obyektlarni dunyoga ma'lum qilish. Shunday qilib, ularni tabiiy jarayonlar, masalan, zilzilalar yoki antropogen omillar (qurollo to'qnashuvlar, nazoratsiz turizm) ta'siri ostida halokatdan himoya qilish vazifasi hal qilindi.

Butunjahon merosi saytari insoniyat dahosi durdonalarini, go'zallik va estetik ahamiyatiga ega tabiiy hodisalarini aks ettridi. Ba'zi me'moriy inshootlar va ansambllar Juhon madaniy merosi obyektlari deb e'lon qilindi: Akropol, Atienne va Chartresdagi soborlar, Sankt-Peterburg va Varshevanning butun tarixiy markazlari, Qizil maydon bilan Moskva Kremli. Madaniy meros obyektlari tarkibiga butun shaharlar (Brasiliya, Venetsiya) va me'moriy qo'riqxonalar (masalan, Delfi), shuningdek milliy bog'lar (Buyuk to'siq rif, Yellowston milliy bog'i) kiradi.

II-MAVZU: JINOYATCHILIK GEOGRAFIYASI

Jahon merosi obyektlari hududida joylashgan davlatlar ularni saqlash uchun javobgartirlikni o'z zimmalariga oladilar. YUNESKO, o'z navbatida Jahon merosi jamg' armasidan ustuvor molivyalashtirish va ularni yaxshii holatda saqlash hamda xalqaro turizmni rivojlantrish uchun mablag' ajratadi. Bundan tashqari, YuNESKO Butunjahon merosi obyektlarining xavfsizligi va yaxlitligini kafolatlaydi, obro-sini oshiradi va ularning holatini nazorat qiladi (9-rasm).



9-rasm. YUNESKOning jahon merosi ob'ektlari

Jahon merosi obyektlari soni bo'yicha 10 ta eng yirik davlatlarga quyidagilar kiradi: Italiya (54), Xitoy (53), Ispaniya (47), Germaniya (45), Fransiya (44), Hindiston (37), Meksika (35), Buyuk Britaniya (31), Rossiya (28), AQSh (23). Butunjahon madaniy meros qo'mitasi muntazam ravishda ro'yxtarga kiritish uchun murojaat etuvchilarni ko'rib chiqadi. Masalan, Rossiyadan 25 ga yaqin yangi madaniy va tabiiy joylar taklif qilingan. Belorusiya hududida 4 ta maydon YuNESKO maqomiga ega: Mir va Nesvij qal'alari, "Belovejskaya Pushcha" milliy bog'i, "Struve geodezik yoyi".

Xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyati aks ettiradi. Yerning turli mintaqalari atrof-muhitining xususiyatlari. Bu turli xil xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi, insoniyatning muhim xalqaro siyosiy, iqtisodiy va ekologik muammolarini hal qilishda bir-birini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Jahon madaniyatining noyob obyektlari ularni saqlab qolish va turizmni rivojlantrish uchun YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Jahon madaniyatlarning shakllanishini izohlang?
2. Moddiy madaniyat geografiyasi bu-?
3. Ma'naviy madaniyat geografiyasi tushunchasini izohlang?

Reja:

1. Jinoyatchilik geografiyaning predmeti va vazifalarini izohlang
2. Jinoyatchilikni o'rganish tarixi
3. Kriminologiya haqida tushuncha

Maqsad: talabalarda jinoyatchilik geografiyasi haqida tushunchalar hosil qilish, kriminogen vaziyat.
Tayanch so'z va iboralar: axloq, axloqiy madaniyat, jinoyatchilik geografiyasi, jinoyatlar va jinoyatchilik

Ma'lumki, sotsial geografiya fani rivojlanib borgani sayin unda yangi yosh tarmoqlar ham vujudga kela boshladi. Jinoyatchilik geografiyasi fani ham aymen mana shu yosh fanlar sirasiga kiradi. Jinoyatlar bilan bog'liq vaziyatlar ilgari zamonalardan beri mavjud bo'lsa-da, uni jinoy-hududiy kompleks sifatida o'rganish XX asrdan boshlandi.

Aniqrog'i, XX asrning 20-30-yillariga kelib esa, Yevropada, ayniqsa, Belgiya, Fransiya, Buyuk Britaniyada keng niqyosda inson geografiyasiga bog'liq holda jinoyatchilik holatlari hududiy jihatdan tadqiq etila boshlandi va xaritalari ham yaratildi.

Jinoyatchilik geografiyasi zamonaviy iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fanlari tizimida bevosita ijtimoiy-geografik fanlar turkumiga mansub bo'lib, jinoyatchilikning hududiy masalarini o'rganadi.

Ma'lumki, sotsial geografiya aholining yashash tarzi va sharoiti, urf-oddatlari, dini, dam olishlari, davolanishlari singari bir qancha sotsial hodisa va voqealarni hududiy xususiyatlarini o'rganadi. Bugungi kunda sotsial geografiya fani tez rivojlanib borayotgan fanlar qatoriga kiradi. Bu esa, ushbu fan oldiga jamiyat tomonidan qo'yilayotgan sotsial talablar bilan bog'liq.

Jinoyatchilik geografiyasi – sodir qilgan jinoyatlarda geografik sharoitlarning xilma-xilligi, shuningdek kriminologiya va geografiya fanlari qurrasida o'rganiladi. Jinoyatlarning qay yo'sinda sodir etilishi va sababli kriminologiya fani tomonidan o'rganilsa, jinoyatlarining qanday hududda sodir etilishi, jinoyatchilikka ta'sir etuvchi shart-

sharoitlar va omillar jinoyatchilik geografiyasi tomonidan o'rganiladi.

Ma'lumki, jinoyatlar va jinoyatchilikning biror –bir yagona sababini ko'rsatish noto'g'ri (10-rasm). Jinoyatchilik sababları to'g'risida juda ko'p konsepsiylar ishlab chiqilgan. Jinoyatchilik sabablari to'g'risida 2 yo'nalish farqlanadi (*sotsiologik, biologik*).



10-rasm. jinoyatchilik geografiyasi

Jinoyatchilikning tabiatga bog'liqlik nazariyasi asoschisi Sharl Lui Monteskiy hisoblanadi (11-rasm). Uning "Qonunlar ruhi haqida"gi falsafiy-huquqiy asarida insnonning xulq-atvoriga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar qatorida quyidagi omillarni qayd etadi:

- Mamlakatning iqlimi;
- tuprog'i;
- geografik o'rni;
- maydonining katta kichikligi;
- Xalqning turmush tarzi;
- erkinlik darajasi, dini;
- Urif-odatlari.

Monteskiyning ushbu nazariyasi asosida keyinchalik kriminologiyada jinoyatchilikni tu-shuntirishda ikki yo'nalish vujudga keldi:

- Geografik omil
- Iqlim omili

XIX asming birinchi yarmida belgiyalik olim Adolf Kete statistik ma'lumotlarga asoslangan holda o'zining jinoyatchilik omillari nazariyasini ishlab chiqdi.

A.Kete insonlarning jinoyatga moyilligini 3 omil (yosh, jins, iqlim) bo'yicha o'rganib chiqdi.



11-rasm. Shar
Lui Monteskiy
(1689-1755)

Jinoyatchilikka iqlimning xususan fasllar o'zgarishining ta'sirini aniqlash jaroyonida Kete "Yil fasllari jinoyatchilikka moyillikka sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi", degan fikrga keldi. Aniqlashicha, Yoz faslda shahsga qarshi jinoyatlar ko'proq va o'zgalar mulkiga qarshi jinoyatlar kamroq sodir etiladi, qish faslda esa buning teskarisi kuzatiladi.

Kete jinoyatchilikka moyillikni yosh bilan bog'liqligi to'g'risida bir qancha tadqiqotlar o'tkazgan. Masalan, A.Ketlening fikricha, agar 25 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan million kishida tadqiqot o'tkaza-zilganda, ulardan birinchi guruhdagilar ikki barobar ko'p qotillik sodir etganligi aniqlangan. Kete jinoyatning umumiy shaklini aniqladi:

"*Jinoyatga moyillik balog'at yoshiba eganda tez o'sib boradi, keyin esa maksimal darajaga yetib, umrining oxirigacha pasayadi*".

Chezare Lombrizo –Italiyalik vrach-psixiatr. U o'z faoliyati davomida kriminologiya bilan antropologiya sobassing bir –biri bilan bog'liqlik xususiyatlarini o'rganib, bir qancha insonlarda tajribalar o'tkazadi. Xususan, Lombrizo Italiyada bir qancha qamoqxonlarda ko'plab maxbuslar o'ritasida tekshiruvlar o'tkazadi. Ushbu tekshiruvlar natijasida Lombrizo insnonning tana tuzilishi, miya faoliyati, umuman olganda inson organizmining o'ziga hos tuzilishi uming jinoyatga moyillik hususiyatlarini keltirib chiqaradi degan xulosaga keladi. Buning natijasida "tug'ma jinoyatchi" degan tushuncha o'sha davrda yuzaga kelgan.



12-rasm. Chezare Lombrizo

Lombroso Italiya qamoqxonalarida jiddiy jinoiy huquqbu-

zarliklar sodir etgan ko'plab mahbuslari tekshirindi va ularning de-
yarli yarmida jismoniy anomaliyalar - "stigmata", "tabiiy tug'ilgan
jinoyatichilarning belgilari" ni topdi. Bu belgilari: noto'g'ri shakldagi
bosh suyagi (yuqoriga toraygan yoki pastki qismida, yon tomon-
dan tekislangan), chiqib ketgan quloqlar, nomutanosib uzun qo'llar
(maymunga o'xhash), chiqadigan jag'lar, yuqori darajada rivojlan-
gan qoshlar.

Lambrazoning ayrim farazlari aniq tekshiruvlarga asoslangan
bo'lsa ayrimlari hech qanday ilmiy tekshirishlarsiz ommaga taqdim
etilgan. Shu sabdan uning zamondoshlari orasida ko'plab noro-
ziliklar vujudga kelgan. Lambrazoning yaratgan jinoyatichilikka
irsiy omillarning ta'siri nazariyasiga ko'plab olimlar qarshi chiqish-
gan. Ulardan biri Fran Fon List hisoblanadi. U germaniyalik taniq-
li olim, huquqshumos, kriminalogiyaga oid ko'plab asarlar muallifi
hisoblanadi. Fran fon List Lambrazoning fikrlarini yoqlamagan.
Boshqa bir mashhur kriminolog olim – Ferri jinoyatchi yashay-
digan ijtimoiy muhit bilan bog'liq jinoyatichilarning ijtimoiy omillari
qatoriga quyidagilarni kiritadi: aholi zinchligi, jamoatchilik fikri, ax-
loq din, oiladagi hayot tarzi, maktabdag'i tartib, sanoatning rivo-
jlansh darajasi, alkogolizm, iqtisodiy va siyosiy tuzum, ma'muriy
idoralar, adliya, militsiya va qonunchilik qurilishi.

L.I.Spiridonovning fikricha, jinoyatichilarning alohida sabablari
mavjud emas: ayni bir maxsus hodisalar har xil sharoitda turli ijobjiy
yoki salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Kriminologiyan-
ning vazifasi jamiyatda mavjud noantagonistik ruhdagi qarama-qar-
shiliklar odamlarning ijtimoiy xossalari da namoyon bo'lib, ularning
u yoki bu darajadagi salbiy xulq-atvoriga qanday turki berishini
aniqlashdan iboratdir.

Jinoyatichilik sabablari muammosiga har xil yondashuvlar ilgari
surilishi mumkin. Vazifa har xil omillar yig'indisida har birining
o'rni va rolini aniqlash, ularni izhil bir tizimga solishdan iborat-
dir. Ammo buning uchun, albatta, juda iste'dodli «me'mor» zarur.
Shu bilan birga, ko'rsatilgan omillarning zamon va makonda o'zaro
ta'sirga kirishish, nafaqat barcha jinoyatlarga (umumiy) va muayyan
jinoyatlarga (xususiy) nisbatan, balki jinoyatichilarning muayyan toi-
falariga nishbatan (maxsus) namoyon bo'lish mexanizmini (shakllar-

ini) aniqlashga harakat qilish lozim.

Jinoyatichilikni o'rganish XIX asrning ikkinchi yarmidan bosh-
landi va kriminologiya nomini oldi. Kriminologiya so'zi lotincha
"crimen" – o'zbek tilida "jinoyat" va grekcha "logos"-o'zbekcha
"ta'lilot" so'zlarining birikishidan hosil bo'gan. U o'zbek tiliga
aynan tarjima qilinganda "Jinoyatichilik haqidagi ta'lilot" degan
ma'nioni anglatadi.

O'tgan asrlarda yevropalik olimlar tomonidan jinoyatichilik
geografiyasi keng mashtabda o'rganildi va bu davrni mazkur fan
uchun boy davr deb e'tirof etildi. Mazkur davrda jinoyatlar, ularni
yuzaga keltiruvchi omillar, hududiyl farqlari keng o'rganilib, ush-
bu ma'lumotlar asosida xaritalar ham ishlab chiqildi. Jumladan,
1833-1835-yillarda mazkur yo'naliish Fransiyada A.M. Kettle va A.J.
Gerri tomonidan jinoyatichilarning hududiyl tankibi o'rganildi. Tadqiqot
natijalari asosida 1835-yilda jinoyat holatlari aks ettirilgan xarita
ham ishlab chiqildi. AQSHda esa jinoyatichilik geografiyasi XX as-
rnig oxirida hududlarning kriminogen holatlарini o'rganish davom-
ida yuzaga keldi va bir qator sotsiologlar, siyosatshunoslar, geograf
olimlar tomonidan o'rganildi

Jinoyatichilik geografiyasiga mazmunan yaqin ishlar sobiq Ittifoq
olimlari A.M.Yakovlev, A.I.Koroboev, V.A.Vladimirov, V.V.Luneev,
G.D.Bluvshteyn, N.F.Kuznesova, R.G.Gachechiladze, T.E.Karaev,
E.B.Pinxasova, Yu.V.Golik, Yu.M.Antonyan va boshqalar tomoni-
dan bajarilgan ishlar orqali bilish mumkin. Shuningdek, Gruziyada
A.Gabiani, M.Didebulidze va R.Ye. Gachechiladzelar tomonidan
jinoyatichilik geografiyasi masalalari kompleks tarzda o'rganilgan.

Jinoyatichilik ijtimoiy hodisadir. U jamiyatning rivojlanishi bilan
chambarchas bog'liq. Jinoyatichilik hodisasini ko'pchilik soha va-
killari o'rganishadi. Ushbu hodisaning bevosita "egasi" eng avvalo
huqueq sohasi bo'lib hisoblanadi, shuningdek jamiyatning rivojla-
nishi bilan bog'liq holda jinoyatichilikni ilmiy tadqiq qilish bilan
demograflar, sotsiologlar, filosof va boshqalar shug'ullanadilar. De-
mek, jinoyatichilik hodisasi ko'pchilik fanlar uchun yagona tadqiqot
ob'ekti bo'la oladi.

Bunda har bir soha vakili o'zining tadqiq etadigan, o'rganadigan
tomoniga, ya'ni jihatiga ega. Shular qatorida geografiya, aniqrog'i
iqtisodiy-ijtimoiy geografiya fani ham bor. Geograflar eng avvalo

jinoyatlarni rivojlanishining hududiy masalalarini, jumladan, jinoyatlarni hujudlar, mintaqalar, davlatlar bo'yicha taqsimlanishi, aholi o'ritasida jinoyatchilikning darajasi, rivojlanishi xususiyatlari, jinoyatchilikka ta'sir qiluvchi tabiiy-geografik, demografik, ijtimoiy-iqtisodiy omillarni o'rganadilar.

Jinoyat deb, muayyan jamiyatda o'matilgan qonun, qoidalarga zid faoliyat natijasiga aytiladi. Uni amalga oshirgan shaxs esa jinoyatchi hisoblanadi.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, jinoyatchilik va uni o'rganish bilan bog'iqliq masalalar kishilik jamiyatining uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Juda qadim davrlardayoq kishilarning "nima sababdan jinoyat sodir etadi?", "jinoyat sodir etilishining tub mohiyati nima da?", degan savollar insonlarni qiziqitirib kelgan.

Jinoyatchilik o'zining hududiy "ko'rinishi"ga ham ega. Jumladan, shahar va qishloq, tog'li va tekislik hujudlarda yoki aholi zich va siyrak hujudlarda, aholining muayyan yoshdag'i aholi ko'pto plangan hujudlarda, yirik shaharlar yaqinida, yirik ishlab chiqarish ob'ektlari yaqinida, yirik savdo markazlarida o'ziga hos jinoyat turlari shakllanadi va rivojlanadi.

Aniqlanishicha, yuzaga kelayotgan jinoyatarning 70 foizi shaharda sodir etiladi. Jinoyatchilik holatharining kuchayish sabablarini tahsil qilish natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy vaziyatlarining rivojlanishidagi nomutanosiblik tufayli jamiyatdagi salbiy holatlarining umumiyy sabablarini o'rganishga asoslanadi. Jinoyatning tarkibiga esa ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning hududiy xususiyatlari ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab o'tkazilgan kriminologik tadqiqotlar jinoyatchilik darajasi yuqori bo'igan hujudlarda iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish orasidagi farqning yaqqol namoyonligini tasdiqladi. Shu tariqa, jinoyatchilik geografiyasi fani jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan bog'iqli holda jinoyatarning mintaqaviy xususiyatlari aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish natijasida vujudga keldi va hoziri davrda rivojlangan davlatlarning ko'pchiligidagi ijtimoiy geografiya fanlari blokidagi eng istiqbolli yo'nalishlardan biriga aylannoqda.

Jinoyatchilik geografiyasi ijtimoiy geografiyaning kam o'rganilgan jabhalaridan biridir. Bu boradagi disertasion taddiqotlar, monografiyalar, darslik o'quv qo'llannalar soni juda oz. Bu soha ko'proq

Sobiq Ittifoq olimlari tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Gachechiladzi va Gabiani tomonidan o'rganilgan.

Jinoyatchilik geografiyasing asosiy maqsadi jinoyatlarning qararda va qachon, nima uchun aynan shu joyda sodir yetilayotganini o'rganish bilan tavsiflanaadi. Shu bilan birga jinoyatlarning ayrim hududiy jihatlari, jumladan, tumanlar, viloyatlar, mamlakatlar, yoki jahon mintaqalari bo'yicha shahar va qishloq hujudlar bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlar shu soha vakillari tomonidan ham bajarilgan. Ammo, jinoyatchilik hodisasini muayyan ma'muriy-hududiy birlik miqyosida turlicha tabiy, geografik, demografik, ijtimoiy, iqtisodiy olimlarning ta'siri asosida o'rganilgan kompleks geografik tadqiqotlarni yetarl deb bo'lmaydi. Hozirda ham geograflar tomonidan bu muammoga e'tibor juda sust. "Geokriminogen vaziyat" tushunchasini professor A.Soliev kiritgan bo'lib, u respublikada urganilmagan* yangi yunalishdir. Geokriminogen vaziyat sotsial geografiyaning muxum bir qismi sifatida turli mamlakat yoki mintaqalarda sodir etilayotgan jinoyatlarga ta'sir etuvchi shart-sharoit va omillar, kriminogen vaziyatning hududiy xususiyatlarni urganiadi. Xududiy omillar joyning geografik o'mi, ijtimoiy-iqtisodiy tizimi va ixtisoslashuvni, milliy, sotsial, demografik va ekologik holatlardan kelib chiqadi.

Geokriminologiya jinoyatchilikning hududiy xususiyat-larini o'rganish bilan birga, ayni paytda uning xududlarda yilning turli mavsum va vaqtlarida sodir etilishini, jinoyat sodir etgan shaxslarning sotsial-demografik tarkibi xayda alovida turdag'i jinoyatlarning sharoit va sabablarini ham tadqiq etadi. geokriminogen vaziyatning vujudga kelishida hujudlar aholisining milliy tarkibi katta rol uynaydi.

Geokriminogen vaziyat murakkab bulgan toshkent shaxri va toshkent viloyatining saoatlashgan shaxarlarida g'ayri mahalliy millatlarining ko'pchiligi joylashgan. axolisining milliy tarkibi turlicha bulgan toshkent shaxrida hamda toshkent viloyatining ohmalik, angren, oxangaron, chirchiq, yangiyul, shuningdek sirdaryo, jizzax, fargona, navoiy viloyatlarining markazlari va yirik shaxarlarida ham geokriminogen vaziyat nissbatan salbiy.

Jinoyatchilik mamlakatda ma'lum vaziya mobaynidagi sodir etilgan barcha jinoyalgarlarning markazlari va yirik shaxarlarida ham

dir- Jinoyatchilik - ijtimoiy buzilish, salbiy hodosa bulib, mamlakat yoki mintaqalarda ruy berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy uzarishlar uning holatiga, miqdor hamda sifat kursatgichlariga va hududiy tarkibiga bevosita ta'sir etadi (A.Qayumov, 2006).

O'zbekistonda jinoyatchiliikni geografiyasi bo'yicha tadqiqotlar deyarli amalga oshinilmagan. Mustaqillik davrida bu boradagi ayrim ishlarni ayitish mumkin¹.

Jinoyatlar o'z tabiatiga ko'ra turli-tuman soha vakillari tomonidan ular kelib chiqishi, rivojanishi va ijtimoiy oqibatiga turlarga yoki sinflarga ajratilgan. Bular o'g'rilik, bezorilik, talonchilik, qasddan odam o'ldirish, giyohvandlik, tovlamachalik, uyuşgan jinoyatchilik 2000 yillar holatiga ko'ra respublikamiz miqyosida yiliga o'rtacha 10-16 mingta jinoyat sodir etilgan. Ular viyatlar bo'yicha turlicha taqsimlangan. Viloyatlarning jinoyatlar soniga ko'ra darajasi ularning demografik salohiyati bilan bog'liqligini sezish mumkin. Jami sodir etilgan jinoyatlar orasida o'g'rilik, tovlamachilik jinoyatları ko'proq uchraydi. Shuningdek, jinoyatlar shahar va qishloq hududlarida, aholi zich va aksincha siyrak hududlarida turlichadir. Jinoyatchilik geografiyasining asosiy maqsadi jinoyatlarning qoerda va qachon, nima uchun aynan shu joyda sodir yetilayotganini urganish bilan tavsiflanadi. olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi shaharlarda kishloq joylarga karaganda jinoyat sodir etish 6-7 marta kuproq, chunki, qishloq ijtamoiy muhitida barcha bir-birim taniganligi sababli jinoyat qilish, ug'irlangan narsalarni yashirish yoki soitish kabi hodisalar qiyinroq kechada. shuningdek, qishloqlarda sodir etilgan huquqbazarliklar mahalla jamoasi va atrofdaga kishilarining e'tiboriga, muhokamasiga sabab bo'ladi.

Tadqiqotlar shuni kursatadiki, shahar va qishloqqa xos bulgan jinoyat turlari mavjud. masalan, shahar joylarida asosan maishiy kvartiralarda sodir etiladigan o'g'rilik, bosqinchilik, talonchilik, giyohvandlik vositalarini noqonumiyl saqlash va sotish, qasddan badaniga shikaet yetkazish, qishloqlarda esa asosan ta'qilangan ekinlarni yetishtirish, sotish, mol o'g'irlash ko'p uchraydi.

Respublikamizda jinoyatchiliiking tadrijiy o'zgarishi va uning geografik xususiyatlariga e'tibor qaratilganda o'ziga xos manzara ning guvohi bo'lamiz. Jinoyatchilik bu - mamlakatda ma'lum vaqt mobaynida sodir etilgan barcha jinoyaglar tizmidan iborat o'zgaruvchan sotsial voqeqlikdir.

Jinoyatchilik - ijtimoiy buzilish, salbiy hodosa bulib, mamlakat yoki mintaqalarda ruy berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlar uning holatiga, miqdor hamda sifat ko'rsatgichlariga, hududiy tarkibiga bevosita o'z ta'sirtadi. Ichki ishlarn vaeirigining ma'lumotlari ga ko'ra, 2004 yilda uzbekistonda 79,1 mingdan ortik jinoyatlar ruyxatga olingan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2017 yilda 89,3 tani tashkil etgan.

Ma'yumki, ro'yxta olingan jinoyat- ichki ishlar idoralari tomonidan aniqlangan va rasman hisobga olingan, jinoyatchilik qonunchiligidan nazarda tutilgan ijtimoiy xavfiga ega hatti-harakat sanaladi (o'zbekistonda ijtimoiy rivojanish va turmush darajasi, tahil etilganda, uning ba'zi viloyat va shaharlarda nisbatan yuqoriligin ko'ramiz. Ayniqsa sirdaryo viloyati (5,0) va toshkent shahri da (7,9) ko'rsatkichlar birmuncha yuqori. qoraqalpog'iston respublikasi hamda surxondayo viloyatida esa, ko'rsatkichlar respublika ko'rsatkichlaridan ancha past.

Jinoyatchilik geografiyasida jinoyatlarni sodir etgan shaxslarning qaysi hudud, mintaqqa yoki shahar fuqarosi ekanligini aniqlash ham muhim ahamiyat kasb etadi. jinoyatlarni sodir etgan shaxslar bu ichki ishlar idoralari tomonidan aniqlangan va rasman hisobga olingan va ularga jinoyat ishlari qo'zg'atilgan shaxslardir. jinoyatlarni sodir etgan shaxslarni o'rganishda ularning jins va yosh tarkibini hisobga olish ham niyoyatda muhim masalalardan hisoblanadi.

Jinoyat sodir etgan shaxslarning jins tarkibini tazlishi geokrim-inogen vaziyatini asosan erkaklar uchun xosligini ko'rsatadi. jumladan, statistik ma'lumotlar kursatishicha, respublikada sodir eti layotgan jinoyatlarning 80 foizdan ortiqrog'i erkaklar ga, qolgan qismi xotin - qizlarga tug'ri keladi.

Geokriminogen vaziyatni tahlil etishda jinoyat sodir etgan shaxslarning yosh tarkibini urganish ham muhim ahamiyatga ega. statistik ma'lumotlar tahliliiga kura, har beshta sudlangan shaxslardan

¹ 2006 yili Geografiya fanlari doktori, professor A.S.Soliev rahbarligida A.Qayumov tomonidan "O'zbekistonda jinoyatchiliiking ijtimoiy geografik jihatlar" mavzusida nonzodlik dissertatsiya darajasida o'rganilgan.

birining yoshi 18 - 25 yoki 2- 30 yoshdagilar tashkil etadi; ularning yarmi esa 30 - 50 yosh orasidagilarga to'g'ri keladi. ayni vaqtda 50 va undan yuqori yosha jinoyat sodir etish ancha kam (6 foiz atrofida). umuman, respublika aholisining kriminogen faolligi 18 - 35 yoshdagilarda kuzatiladi. shu bilan birga sudsanganlarning atigi 4 foizidan ortig'rog'i 13 - 17 yoshdagilarga to'g'ri keladi (Qayumov A. O'zbekistonda jinoyatchilikning ijtimoiy geografik jihatlari. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T.2006).

Respublikada ruyxatga olingan jinoyat turlari ichida eng kupperqalgani bu ijtimoiy xavfi katta bulmagan va uncha og'ip bo'lma-gan jinoyatlardir. respublikada ruyxatga olingan jinoyatlarning yar-miga yanini ijtimoiy xavfi katta bulmagan jinoyatlarga tug'ri kela-di. ularga qonunda ozodlikdan mazfum kilishiha nisbatan yengiroq jazzolar nazarda tutilgan jinoyatlar kiradi. tadqiqot shuni ko'rsatadi ki, namangan, fargona, kashqadaryo viloyatlarida va korraqalpog'iston respublikasida jinoyatning bu turi kuproq sodir etilgan. Shu bilan birga jinoyatchilik geografiyasida davlat boshqariluv masalalari, mamlakatlar konstitutsiyalari, ularning tarkibi o'zaro farqlari haqida ham ma'lumotlar beradi.

Jinoyatchilik geografiyası demografiya, sotsiologiya, psixologiya fanlari bilan uyg'unlikda rivojlansa, geokriminologiya fani geografik fan sifatida jinoyatchilikka tabiiy sharoitning ta'sirini ham taddiq etadi hamda aynan geokriminologiya fani boshqa fanlardan farqli ravishda hududlarning kriminologik xususiyatlarni kartalashitirish bilan ham shug'ullanadi. Mamlakatning alohida hududlari o'rasisi-dagi jinoiy vaziyatning miqdor va sifat ko'satkichlariga alohida e'tibor beradi, o'sish tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlaydi, jinoiy vaziyatning kelgusidagi holatini prognozlashtiradi va uni optimal variantlarini ishlab chiqadi. Mazkur tarmoq rivojlanib bor-gani sayin unda yana yangi jinoyatchilik ekologiyasi, jinoyatchilik topografiyasi kabi tarmoqlar ham yuzaga keldi.

Umuman olganda, jinoyatchilik geografiyası ham sotsial geografiyaning bugungi kunda tez rivojl anib borayotgan yo'nalishlaridan biridir. uning nazariy masalalarini tadqiq etish bugungi kunning dolzARB masalalaridan biridir. shu bilan birga, o'zbekistonda jinoyatchilik geografiyası bo'yicha qator muammolar ko'zga tashlanadi, jumladan, mazkur fan yo'naliishi bilan bog'liq yirik majmuaviy

tadqiqot ishlari juda kam. shu boisdan kelgusida ushbhu sohada qator nazariy va amaliy tadqiqotlar amalga oshirish maqsadga muvoqiq.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

- 1.Jinoyatchilik geografiyası bo'yicha qaysi olimlarni bilasiz?
2. Jinoyatlarning o'rganishning geografik jihatlari nimada?
3. Jinoyatchiliikkta ta'sir ko'rsatuvgchi omillarni ko'rsating?
4. Jahondagi qaysi mamlakatlarda jinoyatchilikning sabablari chuqur o'rganilgan?
5. Jinoyatlar geografiyasini tadqiq etishda qanday usullar qo'llaniladi?
6. "Kriminologiya" so'zi qanday ma'noni anglatadi?
7. Vatandoshnimiz Burhoniddin Al-Marg'moniyning qaysi assarida jinoyatchilik masalalari ilgari surilgan?
8. "Geokriminogen vaziyat" tushunchasi qaysi olim tomonidan fanga kiritilgan?
9. "Geokriminogen vaziyat"ga ta'sir etuvchi qanday omillarni bilasiz?
10. "Oltin yarim oy" davlatlariga qaysi davlatlar kiradi?
11. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksiga binoan jinoyat-lar sodir etilishiha ko'ra qanday guruhlarga bo'linadi?
12. Ekologik holatlar bilan bog'liq jinoyatlarni izoblang?
13. XVIII asr mutafakkirlaridan kimlar o'z ijodlarida jinoyatchilik masalasini o'rganishga katta e'tibor qaratishgan?
14. Sobiq Ittifoq olimlaridan jinoyatchilik geografiyası bilan shug'ullangan qaysi olimlarni bilasiz?
15. Iqtisodiyot bilan bog'liq jinoyatlarni izohlang?

12-MAVZU. XULQ-ATVOR GEOGRAFIYASI

Reja

1. Xulq-atvor geografiyasing shakillanishi farq qilishlarini aniqladi. Olim bu haqda "Havolar, suvlar va joylar" nomli asarida shunday degan edi: "Odam organizmining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o'z qonun-qoidalari bilan odam tabiatini o'zgartirishi mumkin". Bundan shuni e'tirof etish mumkiniki, Gippokrat inson organizmiga ijtimoiy muhitning ta'sirini ham yaxshi anglagan.
2. Xulq-atvor geografiyasi
3. Geografiyada xulq-atvor usullaridan foydalanish
4. Bixeviorizm - xulq-atvor geografiyasing negizini
5. Vaqt va makon geografiyasi.

Maqsad: *talabalarga xulq-atvor geografiyasing shakillanishi, boradagi ilmiy izlanishlar, bixeviorizm tushunchasi haqida tushuntirish.*

Tayanch so'z va iboralar: *Xulq-atvor geografiyasi, bixeviorizm, vaqt va makon geografiyasi*

Xulq-atvor geografiyasi – insomning ruhiy xususiyatlari, xarakteri va shu kabi holatlarga atrof-muhitning ta'siri hamda uning hududiy jihatlarini o'rganadigan ijtimoiy geografiyaning bir qismi hisoblanadi.

Bixeviorizm – inson xulq-atvorining xilma-xil jihatlarini o'rganuvchi ilmiy qarashlar majmui bo'lib, kishilarning tabiiy va sotsial muhitga moslashuvi, ularning aqli va xatti-harakatlariiga muhitning ta'sirini o'rganadi.

Insomning ruhiy xususiyatlarga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, iznirob chekish, zavqlanish, kayfiyat va boshqalar kiradi. Aynan, ana shu holatlarga atrof-muhitning ta'siri va uning hududiy jihatlari **xulq-atvor geografiyasi** tomonidan o'rganiladi.

Ta'kidlash joizki, bu boradagi izlanishlar ancha ilgari buyuk muttaffakkir olimlar asarlarida batafsil yoritib berilgan. Jahon tibbiyotida o'chmas iz qoldirgan mashhur yunon olimi Gippokrat (mil. avv. 460-377-yy.) ham inson ruhiyatida tashqi muhit ta'sirini alohida uqtirib o'tgan. Gippokrat tabib va sayyoh edi, ya'ni u ko'p sayohat qilar, turli mamlakatlarda bo'lar ekan, u o'sha yerlardagi odamlarning turmush tarzi va urf-odatlari, davlatlarning iqimi, suvi, havosi va boshqa tabiiy sharoitlarini inson ruhiyatiga ta'sirini ham o'rganagan. Gippokrat har xil geografik sharoitlarda turilcha odamlar ya-

shashlarini ko'rdi, ularning o'z tana tuzilishlari, yurish-turishi bilan farq qilishlarini aniqladi. Olim bu haqda "Havolar, suvlar va joylar"

nomli asarida shunday degan edi: "Odam organizmining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o'z qonun-qoidalari bilan odam tabiatini o'zgartirishi mumkin". Bundan shuni e'tirof etish mumkiniki, Gippokrat inson organizmiga ijtimoiy muhitning ta'sirini ham yaxshi anglagan.

Aholi turmush darajasi – bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojining qondirilishi handa ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Aholining moddiy extiyojolariga oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar-joy, yoqilg'i va uy-ro'zg' or buyumlariga bo'lgan talablarini kiradi. Aholining madaniy-maishiy extiyojolariga insonlarning bilim, malakasini oshirish, maishiy va kommunal xizmat ko'rsatishni yaxshilash kabilarga bo'lgan extiyojlari kiradi.

T. Xyogerstrand zamon va makoni resurs sifatida ham, faoliyatni chekllovchi parameter sifatida ham ko'rib chiqdi. Harakatni talab qiladigan xar qanday xatti-harakat zamon va makon priznasi ifodalangan 1.1.2-rasmda ko'rsatilganidek, zamon va makoni yengib o'tuvchi shaxs yoki insonlar guruhni bilan bog'liq. J. Gold (1990, 234-235 b.) va yana bir ingliz geografi R.J. Jonston (1987, 178b.) xulq-atvor geografiyasing kelib chiqishini Chikagodagi olimlarning izlanishlari bilan bog'laydi. "Insomning xatti-harakatlarni induktiv o'rganish va bo'ljajak modellasshtirish uchun ma'lumot to'plashning daslabki urinishlaridan biri odamlarning tabiiy ofatlarga hususan, toshqinlarga bo'lgan munosabatini o'rganish edi, – deb yozadi Jonston. – Bu izlanishlar 50-yillar oxiri 60-yillar boshida Chikago universitetida amalga oshirildi. Ushbu tadqiqotni Gilbert Uayt boshqardi..."

Xulq-atvor usuli nega ba'zi insonlarga Gavayi yoki Maldiv orollariiga o'xshash tropik orollar yoqsa, boshqa insonlarga tog'lar va yoki qadimiy shaharlar yoqishini tushuntirishda muhim hisoblanadi. J.Gold xulq-atvor geografiyasing qo'llashda qiziq bir misol ketiradi. Unga ko'ra Buyuk Britaniya kompaniyalarining joylashuvini tahlil qilishda korxona menenjerlari ofis uchun yangi joy tanyayotganlarida yashash uchun qulay bo'lishi kerakligi haqidagi o'z rafiqalarining ham fikrlarini inobatga olishlarini ko'rish mumkin.

Shu tariqa, xulq-atvor usuli kompaniya ofislarining joylashuvini tushuntirishda qo'l keladi.

Atrof-muhit o'rasidagi munosabat, odamda ushbu muhit haqidagi quyidagi sxemani taqdim etdi: muhit, atrof muhitning tasviri, xulq-atvor

Vaqt va makon geografiyasi usuli ko'pincha xatti-harakatlar usuli bilan bog'iqliq. Mekansal-vaqtinchalik geografiya alohida tarmoqmi yoki tadqiqot usuli bo'ladimi-yo'qmi farqli fikrlar mavjud. Ikkinchisi fikr foydasiga, mekansal-vaqtinchalik koordinatalar jamiyatni tashkil etishning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa jihatlariga taalluqli ekanligi to'g'risida dalillar keltirilishi mumkin. Biroq, shved geografi Torsten Xoyerstrand va uning Lund universiteti izdoshlari tomonidan taklif qilingan usul shu qadar g'ayrioddiy va shuhrat qozongan

T.Xegerstrand vaqt va makomni ham manba sifatida, ham faoliyat qiladigan har qanday xatti-harakatlar fazo-vaqtinchalik prizma ketadigan odam yoki bir guruhi bilan bog'iqliq. Bu odam qanday qilib oddiy misol: u I davrdan oldin uni tark eta olmaydi va II davrga qaytishi kerak. Ushbu davrlar oralig'ida yozilgan prizma uning rasm juda soddalashtirilgan: geograffar, siz bilganingizdek, xaritada tasvirlangan er yuzining ikki o'chovli maydoni bu erda bitta o'qda ko'rsatilgan, ikkinchi o'qi - vaqt o'qi.

Insomiyat jamiyatni rivojanishi bilan, odamlar kun sayin ortib borayotgan masofani bosib o'tish imkoniyati kengayib borayotganini taxmin qilish oson. Ibtidoiy odamlar piyoda sayohat qilishdi, tuyuoqli hayvonlarning ba'zi turli tanovul qilingach, ularda minish imkoniyati paydo bo'ldi. Albatta, siz o'zingizning qabilangizning avtoturargohida kun bo'yli uxлаshingiz mumkin edi - bu holda odamning haqiqiy kunlik fazoviy-vaqtinchha koordinatlari to'g'ri chiziq shaklida bo'ladı. Biroq, kundalik prizma aniq bir kishining harakatlarni doirasini aniq ko'rsatadi. Agar mamont ovchilar, shubhasiz,

o'z g'orlarida dam olmasalar, bir kun o'nlab kilometrlardan ham ko'proq er yuzida yura olmas edilar. Va zamonaviy odam bir kunda samolyot bilan minglab kilometrlarni bosib o'tishi mumkin.

70-yillarda Xagerstrandning qiziqishlari fazoda ba'zi hodisalarining tarqalishini o'rganishdan diffuziya mexanizmlarini, birinchi navbatda, shaxsiy aloqalarning intensivligi va samaradortligini o'rganishga o'tdi. Ushbu yo'naliish unga "vaqt geografiyasi" deb nom berdi. Tadqiqotlar natijalari ma'lum bir muammoni hal qilish uchun ma'lum bir joyda qancha vaqt sarflash kerakligini ko'rsatdi.

Bu ish katta amaliy qiziqishni inobatga olgan holda, Hegerstrand Shvetsiyada ijtimoiy institutlarning hududiy tashkil etilishini isloh qilish bo'yicha komissiyalar ishida qatnashdi. Ushbu faoliyat natalarini ijobjiy baholab, u shunga qaramay, ijtimoiy-iqtisodiy voqelegi ma'lum bir "maqbul" darajaga olib chiqishga qarshi edi, chunki bu odamning tashabbusini sostiradi va mahalliy o'ziga xoslikni yo'q qiladi. Keyingi asarlarida Xagerstrand yirik shaharlar aholisining kunlik harakatlarini o'rganib chiqdi, markaz ichidagi markaziy-periferik farqlarni o'rganib chiqdi.

Fazo-vaqt geografiyasi yo'naliishi bo'yicha Hagerstrand barcha geografiyanı sintezlashga harakat qildi. Ozining ilmiy avtobiografiyasida u shunday yozadi: "Men ilgari shug'ullangan mavzuning turli shakklarini bitta kontseptsiyada birlashtirishga muvaffaq bo'ldim: aholi punktlari, migratsiya, ijtimoiy aloqalar, tarqalish, hududlarning tuzilishi va texnologiyalarning ta'siri. Bu yerda geografiyada "mint-aqvayi" yondashuvning maqsadi va shakli va insomning tabiatdagi mavqeい haqidagi dastlabki savolimga javob boshslandi. Hagerstrandning asosiy qoidalari quyidagicha umumlashtirilishi mumkin: innovatsiyalarning huddiy tarqalishi ma'lum taqsimot qonunlari-ga ega va modellashtirilishi mumkin; innovatsiyalarning diffuziya-si markaziy-periferik munosabatlarning ijtimoiy ta'sirini (birinchi navbatda, migratsiya) hal qiluvchi omil hisoblanadi; Tarqalish tezligi geometrik masofaga emas, balki u amalga oshiriladigan aloqalar shaharlarning tarjima qilish qobiliyatiga, odamlar o'rasidagi aloqalar qanchalik kuchli va samarali bo'llishiga bog'iqliq.

Insomning mohiyati va jamiyatda tutgan o'mi, o'zini tutishi, ruhiyati fanlar doirasida keng o'rganiladi. Turli ilmiy va dimiy ta'limotlarda bu masalalar turlicha talqin etib kelgingan. Shunday bo'lishi ta-

biyy, chunki inson ijtimoiy-tarixiy va madaniy mayjudot sifatida har bir yangi tarixiy-geografik sharoitda o'zligini teramroq anglashga, yangidan-yangi shart-sharoitlarga chuqurroq moslashishga, insonni mohiyatini ro'yobga chiqarishga intilaveradi.

Suqrotning «O'zligingini bil» degan hikmatli so'zi ham har bir tarixiy davrda yangicha ahamiyat kasb etadi. Zero, insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgan. Ulug' mutasavvuf Abdulkholiq G'ijduwoniy insonni «kichik olam» deb hisoblagan. Yuqoridagi fikrlar kengroq mushohada qilinsa ularning tub mohiyati insomming hulq-atvori, ruhiyat, yurish-turishi bilan ko'proq aloqador ekanligi ko'zga tashlanadi.

Inson - o'zida biologik, ijtimoiy va ruhiy xususiyatlarni mujassamlashtirgan ongli mavjudotdir. Uning biologik xususiyatlariغا ovqattanish, himoyalanish, o'zidan surriyot qoldirish, sharoitga moslashish kabilar xos bo'lsa, sotsial xususiyatlariiga til, muomala, bilim, ong, mahsulot ishlab chiqarish, taqsimlash, iste'mol qilish, boshqarish, o'z-o'zini idora etish, badiiy ijod, axloq, nutq, tafakkur, qadriyatlarni kiritish mumkin.

Inson¹ shu xususiyatlari orqali yaxlit bir tizimni tashkil etadi. U mukammal va murakkab mavjudot sifatida o'z ehtiyojlarini qondiradi va insoniyat davomiyligini ta'minlaydi. Shu bos, insonga xos bo'lgan biologik xususiyatlarni ijtimoiy xususiyatlardan ustun qo'yish yoki ruhiy xususiyatlarni bo'rttirish uning mohiyatini buzib talqin etishga, bir yoqlamalikka olib keladi.

Insomming ruhiy xususiyatlarga ruhiy kechinnalar, hayratlanish, g'am-tashvish, qayg'u, izitirob chekish, zavqlanish, kayfiyat va boshqalar kiradi. Aynan ana shu holatlarga atrof-muhitning ta'siri va uning hududiy jihatlari **xulq-atvor geografiyası** tomonidan o'rGANILADI.

Ta'kidlash joizki, bu boradagi izlanishlar ancha ilgari buyuk mutafakkirlar asarlarida batafsil yoritib berilgan. Jahon tibbiyotida o'chmas iz qoldirgan mashhur yunon olimi Hippokrat (er.av. 460-377) ham inson ruhiyatida tashqi muhit ta'sirini alohida uqtirib

o'tgan. Gippokrat tabib va sayyoh edi, ya'nii u ko'p sayohat qilar, turli mamlakatlarda bo'lar ekan, u o'sha yerlardagi odamlarning turush tarzi va urf-odatlari, davlatlarning iqlimi, suvi, havosi va boshqa tabiiy sharoitlарни inson ruhiyatiga ta'sirini ham o'rgangan. Gippokrat har xil geografik sharoitlarda turilcha odamlar yashashlarini ko'rdi, ularning o'z tana tuzilishlari, yurish-turishi bilan farq qilishlarini aniqladi.

Olim bu haqda "Havolar, suvlar va joylar" nomli asarida shunday degan edi: "Odam organizmining tabiatini tashqi muhit belgilaydi. Jamiyat esa o'z qonun-qoidalari bilan odam tabiatini o'zgartirishi mumkin". Bundan shuni e'tirof etish mumkinki, Gippokrat inson organizmiga ijtimoiy muhitning ta'sirini ham yaxshi anglagan. Jumladan, Beruniy o'zining "Qadimiy xalqlardan qolgan yodgor-diklar" asarida birinchi bo'lib odam rangi, qiyofasi, tabiatni va axloq turilcha bo'llishini ular yashaydigan tuproq, suv, havo va yerga ham bog'liqligini ta'kidlab, geografik aloqadorlik g'oyasini ilgari suradi. Beruniy fikricha, inson ichki va tashqi qiyofasi tabiat ta'sirining natiqasidir. Shu bilan birga uning ichki qiyofasi cheksiz sa'y-harakatlar oqibatida tubdan o'zgartirishi mumkin. Har bir kishi o'z xulq-atvoring sohibi ekanligi olim fikrlarida chuqur mushohada qilingan.

Shuningdek, vatandoshimiz Abu Ali ibn Sino issiq o'lkalar tabiatni va ularning inson jismiga ta'siri haqidagi fikrlarni o'z asarlarida qorantirishi, sochlarning jingalakligi, havoda namlikning ko'p bug'lanishi natijasida keskin kamayib ketishi inson jismining tez qarishiga olib kelishini ta'kidlagan edi. Olim pastlikda joylashgan hududlar aholisining doimiy issiqlik va dimlikda yashashlari, bunday o'lkalarda sho'rhok va botqoqliklarning ko'pligi sababli suvlardan tarkibi ham salbiy xususiyatlarga ega ekanligini batafsil yoritib ber-gan. Bunday hududlar aholisi ruhiyatida jizzakilik, jahddorlik bir-muncha yuqoriiligini ta'kidlab o'tadi (Abu Ali ibn Sino, 1994). V.P.Semyonov-Tyanshanskiy Rossiya antropogeografiyasining eng yirik nomoyondasi sifatida geografiya fani - ko'rish, tasavvur qilish, ko'rish xotirasi orqali egallanadigan fan deb ta'riffaydi. Ko'pgina sohalardagi kabi geografiyada "intuitsiya" muhim o'rin egallaydi. Aynan intuitsiya xuddi san'atdag'i singari geografiya fani ni anqlikka yetaklaydi, deya ta'kidlaydi. Ushbu fikrlar esa hulq-at-

¹ Inson mohiyatini falsifiy jihatdan chuquroq tablli qilishda shaxs, individ individuallik tushunchalarining mohiyatini bilish va ularni bir - biridan farqlash muhindir. Shaxs o'zida sotsial sifatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi.

vor geografiyasining asosiy g'oyalalaridan biridir.

Xulq-atvor geografiyasi bilan bog'liq tadqiqotlar Rossiyada ilk marta 1940-1950 yillarda olib borilgan va bunda aholi migratsiyasi bilan bog'liq ilmiy ishlarda mazkur sohaga doir ma'lumotlarga zarat tug'ildi. Chunonchi,

L.I.Mechnikov insoniyat tarixida turli tabiiy geografik omillar ta'sirini o'rganib, buyuk daryolar sivilizatsiyasi yoki daryo madaniyati konsepsiyasini yaratdi. Ye.F.Zyablovskiy o'z fikrlarida ko'proq xulq-atvor geografiyasi atamasi o'mida urf-odat geografiyasi atamasini qo'llashni lozim deb bilgan. E.G. Milyukov jinoyatchilik bilan bog'liq masalalar ham aynan hulq-atvor geografiyasi tomonidan o'rganilishi zarurligini uqtirib o'igan. B.B.Rodoman, V.I.Kaganskiy singari olmlar "zehn va fe'l-atvor landshaft muhitiga, ayniqsa madaniy landshaftlar bilan aloqador" ligi borasida o'z fikr-mulotashqi muhit bilan o'zaro muvofiqligini ta'kidlab o'tadi.

Ta'kidlash joizki, tuproqning turli, hatto siyosiy-iqtisodiy, ijtimoiy xususiyatlariiga o'z davrida Fridrix fon Ratsel va Vidal de la Blashlar ham e'tibor qaratishgan. Jumladan, Blash: "Inson - tuproqning ishonchli o'quvchisidir. Binobarin uni o'rganish aholining xarakteri, urf-odati kabi holatlarini aniqlashga yordam beradi", de gan edi.

XIX asming oxirlarida Germaniyada F.Ratsel tomonidan antropogeografiyaga asos solindi. Olim g'oyasining negizida geografik determinizm, ya'ni inson, xalqlarning ruxi va jismiga tabiiy muxitning xal qiluvchi ta'sir etish g'oyasi yotgan edi. Mazkur g'oya asosida keyinchalik hulq-atvor geografiyasi shakllandi. F.Ratsel o'z qarashlarida muhitning ijtimoiy hayotimizga ta'sirini to'rt turga ajratadi va bunda tabiiy hamda psixologik ta'sirni alohida ta'kidlab o'tdi.

1960 yillarda hulq-atvor geografiyasi rivojida Karl Zauer, Dj.K. Rayt va U. Kirk singari amerikalik olimlarning xizmatlari katta bo'ldi. Dj.Rayt hududlar - mazkur joyda yashovchi insonlarning mavjud aqliy jihatlariga ham ta'sir etishi borasida o'z fikrini bildigan.

U.Kirk o'z qarashlarida "axloqiy muhit" tushunchasini izohlab o'tadi. Muayyan hududlarda yashayotgan insonlarning madaniyat-

lilik darajasi ularning nigohlarida nomoyonbo'ladi. Xuddi shunday jinoyatchilar qilmishlari ham ularning ko'z qarashlarida, nigohlari da o'z aksini topishi olim tomonidan e'tirof etilgan. Shuningdek, u har bir joy aholisi o'z o'lkasiga nisbatan o'zgacha mehr-muhabbat hissini tuyishi, jumladan tog'li hududlar aholisi ko'proq tog'larga sig'inishi, tog'larga hummat-ehtirom bilan qarashsa, sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi xalqlar ko'proq daryolarni (Nil, Gang va h.) ilohiyashtirishlari haqida o'z ilmiy qarashlarini bildiran. Bizning fikrimizcha, chindan ham joylarning inson ruhiyatiga, axloqiy jihatlariga ta'siri katta. Bu esa o'sha joyda yashovchi kishilar orasida jinoyatchilik yoki axloqiy me'yorlar bilan bog'liq nomutanosibliklarni oldini olishga yordam beradi. Binobarin, ayrim manbalarda xulq-atvor geografiyasi - joyning aqliy suratini anglatuvchi tushuncha sifatida ham qaraladi.

Xulq-atvor geografiyasi borasidagi tadqiqotlarda makon bilan bog'liq ramziy jihatarga alohida e'tibor qaratiladi. Bunda: - joyning (muhit) muhim ramziy belgilari sifatida: qorli, yomg'irli, shamolli, tumanli, shovqimi va boshqa jihatlari muhim o'rinn egalaydi;

- joy tavfsifi mohiyatiga ko'ra (kvintessensiyasi): muqaddas joylar, modalar markazlari, musiqa madaniyati markazlari, qumorbozlik markazlari va h.k.

Aytish o'rinniki, hulq-atvor geografiyasi - sotsial va inson geografiyasi borasidagi tadqiqotlarning noananaviy jihatlarini o'zida jamlaydi. Unda hududlar (makon, manzil) quyidagicha talqin etiladi:

1. Sotsial makon - avvalo, shuni e'tiborga olish lozimki, insonning o'rab turgan tabiiy va madaniy muhit bilan munosabatlарини (anglash va hulq-atvor) namoish qilish xususiyati muayyan xududda sodir bo'ladi. Insonlar istiqomat qiladigan hudud yoki makon - sotsium, jamaa ehtiyoj va zaruratlari natijasida shakllanadi.
 2. Shaxsiy makon - insonlar tanasi atrofidagi boshqa odamlardan ajratib turuvchi chegaraviy ko'rmas hisoblanadi. Xulq-atvor geografiyasidagi insonlar yashash tarzi, yurish-turishi shakllanadigan makonlar, ya'ni hududlar bir necha turlarga ajratiladi:
- Asosiy makon - uy: insonning o'z shaxsiy ehtiyojarini amalga oshiruvchi, hayotiy faoliyk darajasi yuqori bo'ladigan, xavfsizlik

vazifasini o'tovchi hudud;

- Ikkilamchi makon - sotsial hududlar (guruuhlar). Bunda bir xil

o'xshash hodisalar ko'zga tashlanadi, hayotiy faoliylik darajasi ancha past, xulq-atvorida ochiq munosabatlar ko'zga tashlanadi;

- Jamoaviy makon - sotsial huquq va me'yorlar amal qiladigan, yurish-turishda chegaradan chiqmaydigan, istalgan kishi foydalanadigan, vaqtinchalik hudud;

Xulq-atvor geografiyasidagi muhim tushunchalardan biri – bixeviorizm tushunchasi bo'lib, u inson xulq-atvorining xilma-xil jihatlarini o'rganuvchi ilmiy qarashlar majmuidir. Shuningdek, u kishilarning tabiiy va sotsial muhitiga moslashuvi, ularning aqli va qilmishlariga bunday muhitning ta'sirini o'rganadi. Muhit bilan bixeviorizm birgalikda - hulq-atvor geografiyasini mazmun-moniyatini tashkil qiladi.

Inson hulq-atvori, urf-odatlari, yurish-turishi va ruhiy kechimmlari ham hududiy tafovutlarga ega. Chunki, hududlar o'z iqlimi, refezi, suv va tuprog'i, iqtisodiy-ijtimoiy jihatlari bilan o'zaro farqlanadi. Ularning barchasi kishilar hulq-atvorining hududiy tomonlari ni va uning geografik xususiyatlarini izohlab beradi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. Xulq-atvor geografiyasini borasida ilmiy izlanishlar olib borgan xorij olimnlariiga misollar keltirin?
2. Xulq-atvor geografiyasini yana qanday nomlar bilan ataladi?
3. Inson hulq-atvori, urf-odatlari, yurish-turishi va ruhiy kechimmlari hududiy tafovutlarga ega ekanligini izohlab bering?
4. Doimiy tumanli yoki bulutli o'lkalar tabiatni kishilarning hulq-atvoriga va umumiyligi kayfiyatiga qanday ta'sir qiladi, ularning umumiy ruhiyatida qanday o'zgarishlar keltirib chiqarishi mumkin?
5. Beruniy o'zining "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida hulq-atvormavzusining yoritilishini izohlang?
6. Bixeviorizm tushunchasini tushuntirib bering?
7. Xulq-atvor geografiyasini usullarini izohlang?
8. Vaqt va makon geografiyasini usuli izohlang?

13-MAVZU. TURMUSH-TARZI GEOGRAFIYASI

Reja:

1. Aholi turmush tarzi kategoriyasining mazmun-mohiyati qilishning tamoyil va usullari, uni o'rganishning jahon tajribasi haqida tushuntirish.
2. Aholi turmush tarzini ijtimoiy geografik tadqiq qilishning tamoyil va usullari
3. Aholi turmush tarzini geografiyada o'rganish jahon tajribasi

Maqsad: *talabalarga turmush tarzini ijtimoiy geografik tadqiq qilishning tamoyil va usullari, uni o'rganishning jahon tajribasi haqida tushuntirish.*

Tayanch so'z va iboralar: *turmush tarzi, turmush sifati, turmush sharoiti, turmush darqasi, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, hayot tarzi va hayot faoliyati.*

"Turmush tarzi" atamasini ko'pincha falsafa, sotsiologiya va boshqa fan vakillari, jumladan geograflar tomonidan keng qo'llaniladi. U fundamental ijtimoiy-falsafiy tushunchalar qatoriga kiradi va insonlar hayotining eng umumiy xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. Bu murakkab va ko'p qirrali tushunchadir, shuning uchun ham u ilmiy muomala va kundalik muloqotimizda turli ma'noda qo'llaniladi.

Aholining turmush tarzi insonnинг kundalik hayot kechirishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Aholining kundalik hayot tarzi uning yashayotgan tabiiy va texnogen muhiti, xo'jalik urf odatlari, qadriyatlari, an'analari), diniy qadriyatlariiga bog'liqidir.

Tadqiqotchilar tomonidan "turmush tarzi" tushunchasi turlicha ta'riffangan. Xususan, G.Ye. Glezermanning fikriga ko'ra, turmush tarzi jamiyat, millat, ijtimoiy guruh va individualning ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ta'sirida shakllangan hayot tarzi va hayot faoliyatiga oid eng muhim belgilarni ifoda etadi. Bunda muallif o'z tadqiqotida ijtimoiy guruh deganda, asosan, dehqon va ischilar sinflarini nazzarda tutgan.

Taniqli sotsiolog I.V. Bestujev-Lada o'z asarlariда turmush tarzini o'ziga xos bo'lgan inson hayoti, shaxsi, yashash muhiti, oilasi, madaniy qiziqishlari bilan bog'liq ijtimoiy-falsafiy hodisa sifatida ta'riffaydi. Olim turmush tarziga ijtimoiy-siyosiy tuzum ta'siri

börligini ta'kidlaydi, binobarin, ijtimoiy turmush tarzi turlı tuzum-lardagi turmush tarzi ma'naviy va madaniy jihatdan farq qilishini e'tirof etadi. Shuningdek, olim "turmush tarzi" kategoriyasi borasida "yetuk va niroyasiga yetgan tamoyil yoki modelar hanuzzacha kashf etilmagan", degen xulosaga kelgan.

Faylasuf V. Tolstixning fikriga ko'ra, aholi turmush tarzi kishi-larning individual va ruhiy hayotiy faoliyatini ifodalovchi ijtimoiy-falsafiy kategoriyadiri.

P. Umurzoqova turmush tarzi mohiyatini inson faoliyati, tafakkur va fikrashini, kishilar xatti-harakati, odob-ahloqini, har bir shaxs-ning ichki va tashqi qiyofasini ifodalovchi usuli, deb tushunish mun-kiligni ta'kidlaydi. Shuningdek, olma turmush tarzi sermazmung tushuncha bo'lib, har bir insonning moddy, ma'naviy, ijtimoiy va shaxsiy hayoti hamda mehnati, ijtimoiy-siyosiy faoliyati, shaxsning sotsial-huquqiy holati, turmush, hordiq chiqarish, dam olish, odobi va shaxsiy munosabatini ifodalaydi degan munozaralarni ilgari suradi.

Iqtisodchi L. Kapustin turmush tarzinining atributi ijtimoiy-iqtisodiy qimmatga ega bo'lган uy-joy, asbob-uskunalar, yashash sharottlari ekanimi e'tirof etadi va turmush tarzi tushunchasini ijti-moiy-iqtisodiy kategoriya, deb ta'kidlaydi.

T. Abdullaevning ilmiy tadqiqotlarida turmush tarzi insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirish, ularning strukturasi va rivojlanish dinamikasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlari, kundalik hayoti, mehnat faoliyati, oilaviy aloqalar, xulq-atvor me'yorlarini ham o'z ichiga olgan tushuncha sifatida qo'llanilgan.

Z.U. Ismailova, turmush tarzi, tarixiy-falsafiy kategoriya bo'lib, kishilarning o'tmishida, hozirda va kelajakda real amal qiladigan hayotiy faoliyati, deb ta'riffaydi. Turmush tarzi ilmiy kategoriya sifatida jamiyat tarraqiqiyotini har tomonlama va yaxlit ifoda, o'z funksiyalarini bajarish asosida insonlarning qo'p qirrali faoliyatini, barcha yutuqlari va muammolarini qamrab oladi hamda ularning namoyon bo'lishida sharoit yaratishini e'tirof etadi. Olma turmush tarzi tushunchasiga asosan tarixiy jihaddan yondashadi va kishilarning turmush tarzi ko'proq o'tmishdan davom etib kelayotgan urf-odatlar va an'analarni real amal qiladigan hayotiy faoliyat, deb qaraydi. Bizningcha, turmush tarzi faqat madaniy jihatlar doirasida emas, balki ma'naviy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlar doirasida shakllanadi.

N.O'.O'rboev fikriga binoan, turmush tarzi, eng awalo, kishilarning yaxlit hayotiy faoliyati bilan uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladigan murakkab hodisadir. Turmush tarzi nafaqat umumiyy muhibida faoliyat ko'rsatadigan kishilar xulq-atvori dagi rang-baranglikning mohiyatini, uni faol o'zlashtirishning ijtimoiy tabiatini ifodalaydi, shu bilan birga, uni o'zgartirish shakli, usuli, deb ta'kidlaydi.

Tadqiqotchi P.T. Xudayberganova turmush tarzini ma'lum bir ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida shakllangan etnomadaniy xususiyatlarga ega bo'lган kishilarning yashash, turmush kechirish, o'z hayotini o'zi tashkil qilish usuli, deb ta'riffaydi. Bunda tadqiqotchi milliy turmush tarzining etnomadaniy genezisi, sotsiodinamik xususiyatlariga ko'proq e'tibor qaratadi.

Rossiyalik ijtimoiy geograf N.A. Sbitova turmush tarzi - bu asosiy insoniy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan, ma'lum madaniy-tarixiy sharoitida rivojlangan, har kuni takrorlanib boradigan shaxslar faoliyatini tashkil etishning eng tipik tizimi, deb ta'rif beradi. "Turmush tarzi" tushunchasi ta'rifa izchillik, madaniy-tarixiylik, o'ziga xoslik hamda faoliyat va ehtiyojlar bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarini ajratib ko'resatadi.

N.N.Klinsovanning fikricha esa, turmush tarzi kundalik hayotda, mehnatda, ijtimoiy-siyosiy sohada hamda dam olish va madaniy-mehnatda, ijtimoiy-siyosiy sohada hamda dam olish va madaniy-ma'rifiy qadriyatlarni iste'mol qilishda insonlarning hayotiy faoliyatida doimo qo'llaniladigan usullarni ifoda etadi. Mualif turmush tarziga abolining dam olishi, ma'naviy qadriyatlarning sifat jihatlariga ko'proq e'tibor qaratgan. Bu yerda olma turmush tarziga emas, turmush sifati tushunchasiga ko'proq urg'u beradi.

Turli mualliflar tomonidan turmush tarziga berilgan ta'riflarni umumlashtiradican bo'lsak, ularda quyidagi jihatlar borligini ko'ramiz:


- ❖ turmush tarzi aholining yashash sharoitiga moslashishi va uni maqsadli o'zgartirish bilan bog'liq faoliyatidir;
- ❖ turmush tarzi – kishilarning qondirilish usuli;
- ❖ turmush tarzi – odamlarning ijtimoiy-iqtisodiy sohada ishtirok etish shaklidir. Jumladan, turmush tarzining mohiyati va mazmuni namoyon bo'lish shakllari ko'p holatda abolining maishiy kundalik

hayoti, mehnati, sog'ligi, hatto xulq-atvoriga xos bir qancha jihatlarni o'zida ifodelaydi. Muayyan etnos va xalqning turmush tarzi ularning yashash joylari bilan bog'liq holda shakllanib o'zgarib boradi.

Yuqorida keltirilgan "turmush tarzi" tushunchasiga berilgan ta'rifning quyidagicha ta'rifi shakllantirildi:


Turmush tarzi, kompleks ijtimoiy kategoriya bo'lib, aholining mehnat va xo'jalik faoliyati, kundalik turmushidagi xulq-atvori, dam olish usullari, madaniy urf-odat va an'analarining tarixan shakllangan hamda o'zgarib boradigan odatiy holatidir.

Turmush tarzi ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, u bir qator tarkibiy elementlar birikmasini o'z ichiga oladi. Demak, turmush tarzi inson hayotining rang-barangjabnalarini ifoda etuvchi ijtimoiy hodisadir. Shu bois ham, turmush tarzi, bir tomondan, inson hayoti va faoliyatining miqdori va sifat ko'rsatkichlarini ifodalasa, ikkinchi tomondan, xo'jalik va mehnat usullari birligini ifodelaydi (13-rasm). Turmush tarzi strukturasi kishilarning yashash uchun kerakli bo'lgan mablag'ni topish (tirkchilik) usullari, kundalik turmush tarzini tashkilashtirish usullari, dam olishni tashkilashtirish usullari hamda ehtiyojlarini qondirish usullaridan iborat.



13-rasm. Turmush tarzi elementlari

Turmush tarzini, birinchi navbatda, inson yashashi uchun zarur bo'lgan mablag'larga ega bo'lish usullari belgilaydi. Ko'pincha bu mehnat faoliyati orqali amalga oshiriladi. Bugungi kunga kelib, mehnat faoliyati ulkan o'zgarishlarga duch kelmoqda. Xususan, mammalakatimizda 1990-yillarda boshigacha davlat korxonalaridagi ma'lum hozirda boshqa usullar bilan daromad topadigan ijtimoiy guruhlar xo'jaligi muhim daromad manbai bo'lsa, boshqalar uchun kichik chakana savdo bilan shug'ullanish, yollamma ishchi bo'lib ishlash, har xil xizmatlar ko'rsatish va boshqa faoliyat turlari moddiy ta'minotning asosi hisoblanadi. Kichik, o'rta va yirik tadbirkorlik iqisodiy faoliyatning yangi turlariga aylandi, natijsada, ijtimoiy-iqtisodiy hayotda yangi, o'zini-o'zi ish bilan ta'minlash konsepsiysi paydo bo'idi. Shu bilan birga, har xil turdag'i ijtimoiy va xayriya to'lovlar, naraqalar ayrim oilalarning daromadlari tarkibida muhim o'rinn egalaydi. Inson pul ishlasning bir necha usullarini birlashtirishi mumkin, ammo har doim uning turmush tarzini belgilaydigan yetakchisi ajralib turadi (14-rasm).



14-rasm. Turmush tarzi ifoda topadigan harakatlar va ularga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Turmush tarzining ikkinchi muhim sohasi insomning o'zi va uning oila a'zolari uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-joy, davolanish, ta'limga bo'lgan ehtiyojini qondirish bilan bog'liq. Bunda bolalarni tarbiyalashga va oilaviy majburiyatlarni bajarishga qaratilgan reproduktiv xatti-harakatlarning turli shakkllari tabiy ravishda bir-biriga bog'langan. Insontar uy vazifalarini o'z zimmalariga oladilar, ularni oila a'zolari o'rtasida taqsimlaydilar yoki boshqa shaxslar va ixtisoslashgan korxonalar xizmatlaridan foydalananadilar.


Uchinchchi blokda insomning jismoni va ma'naviy quadratini tiklash bilan bog'liq bo'lmagan ko'nglochar tadbirlarni tashkil etish yo'llari aks ettirilgan. Shuningdek, rekreatsion faoliyat, turli xil dam olish, ko'nglochar mashq'ulotlar, sport, turizm turlarini o'z ichiga oladi.

Ma'naviy hayot sohasi ijtimoiy, siyosiy, madaniy, diniy, ekologik faoliyatni birlashtiradi va u insomning ma'naviy va ahloqiy mohiyatini rivoqlantirishdagagi ehtiyojini qondirish bilan bog'liq. Ushbu blok o'zining mehnatini sotish zaturati va moddiy qiziqishlardan holi bo'lgan faoliyatni o'z ichiga oladi. Ma'naviy ehtiyojlar orasida diniy ehtiyojlar muhim o'rnatutadi. San'atsosasidagi havaskor, professional yo'nalishga ega bo'lmagan faoliyat (folklor ansamblarida ishtirok etish, rasm chizish va hokazzolar) ham inson turmush tarzida muhim rol o'ynashi mumkin. Ma'naviy faoliyatning eng keng tarqalgan turlari "madaniy mahsulotlar"ni iste'mol qilish bilan bog'liq – mutolaa qiliish, teatr, konser, kino, ko'rgazmalarga tashrif buyurish va boshqalar. Inson hayotining muayyan bosqichlarida o'qish, kelajakda ishlash uchun bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish usuli sifatida muhim rol o'ynaydi (15-rasm).

Turmush tarzi tushunchasining mazmunini to'laroq idrok etishda u bilan o'zaro bog'liq bo'lgan "turmush daroji", "turmush sifati", "turmush sharoiti" kabi kategoriyalarning mazmunini aniqlab olish zarur.

"Turmush daroji" tushunchasi aholining moddiy ehtiyoj va talablarini qay darajada qondirilganligiga baho berishda qo'llaniladi. U aniq iquisodiy ko'rsatkichlarga ega bo'lib, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromad, oylik ish haqi, pensiya miqdori, kishi boshiga o'rtacha to'g'ri keladigan iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlarning miqdori, kishilarning oziq-ovqat, kiyim-kechak, uy-

joy, sog'liqni saqlash, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining qondirilishi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.



15-rasm. Turmush tarzi va unga turdosh bo'lgan tushunchalarning mazmun-mohiyati

Turmush tarzi va turmush darajasi ajralmas aloqada bo'lib, ijtimoiy borliqning turli jihatlarini hamda sifat va miqdoriy xususiyatlarini aks ettiradi. Turmush daroji turmush tarzining miqdoriy asosidir. Shu bilan birga, turmush tarzining bunday tarkibiy qismini iste'mol sifatida tavsiflashda turmush tarzining sifati tomonini ko'rib chiqish muhimdir.

"Turmush sifati" tushunchasi aholining moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondirilganligi sifati, uning ma'lum namunalarga (standartlarga) mos kelishimi ifodalovchi ijtimoiy kategoriyadir. Turmush sifati bevosita miqdoriy o'lhash imkon bo'lmagan talab va ehtiyojlarining qondirilish darajasini ko'rsatadi. Ovqatlanish, kiyim-kechak, sog'liqni saqlash sifati, uy-joy quayligi, umuman, atrof-muhitning holati, xizmat ko'rsatish sohasi holati, mehnat va dam olishning maznumi, o'zaro muloqot, bilimlar, ijtimoiy sohalardagi ehtiyoj-

larning qondirilishi kabilar turmush sifati ko'rsatkichlari jumlasiga kiradi. "Turmush sifati", aniqroq qilib aytganda, turmush tarzining sifatli tonomi, eng avvalo, "ijtimoiy erkinlik darjasini hamda shaxsning kamol topishi shart-sharoitlarida uning ma'naviy va madaniy boyliklari ifodalaydi.

"Turmush sharoiti" tushunchasi "atrof-muhit" tushunchasiga juda

yaqin agarda, u atrof-muhitni shakllantrish uchun zatur bo'lgan hamohang, element va omillar majmuasi sifatida talqin etilsa va ayni paytda abolinig sog'lom va yaxshi hayot kechirishi uchun zamin yaratadi. Turmush sharoit, tabiiyki, insonlar faoliyatini belgilashda muhim o'rinn tutadi. Turmush sharoiti insonlar hatti-harakatini tartibga solishida ta'sir o'tkazib turadi. Biroq kishilar faoliyatiga ta'sir ko'rsatadigan tabiy va ijtimoiy shart-sharoitlarning barchasini mexanik ravishda turmush sharoiga kiritish muvofiq emas. Chunki turmush sharoiti tushunchasi tizimli xususiyatga ega bo'lgan, tarkibini tugallannagan jihatlar yig'indisidir. Turmush sharoiti butun turmush tarzi insonning kundalik hayotidagi turli maqsadlarga qaratilgan faoliyatini ifodalasa, turmush sharoiti kishilarning yashash muhitining holatini aks ettiradi. O'z navbatida, turmush darjasini deganda, kishilar ehtiyojlarining moddiy jahordan qondirilganlik holati tushunilsa, turmush sifati esa aholi turmushining moddiy va ma'naviy jihatlarini uziy bog'liq ravishda baholanishini, ularning ma'lum standartlarga mos yoki mos emasligini aniqlashni nazarda tutadi.

Turli usubiy darajalarga taalluqli bo'lgan nazariv tuzilmalarni tahsil qilish turmush tarzini geografik tadqiq qilishning istiqbolliyondashuvlarini aniqlashga va uni o'rganishning eng muhim tamoyillarini shakllantirish imkonini beradi. Aholi turmush tarzini geografik o'rganishning bir qancha tamoyillarni keltirib o'tish joiz.

1. *Faoliyat tamoyili*. N.A. Shitova tadqiqot ishida quyidagi jihatlar bilan o'z ifodasini topgan [92, 65-b.]:

- ❖ Faoliyat – bu insonning alohida mayjudot sifatida o'ziga xos xususiyati, o'ziga xos ta'sir qilish yo'li, atrofdagi muhit bilan munosabati bo'lib, unda asosiy e'tibor tashqi buyumlaning manfig'iga qaratiladi;
- ❖ Inson faoliyati doimo predmet bilan bog'liq bo'ladi, ya'ni aniq

bir ob'ektga yo'naltirilgan bo'ladi va sub'ekt-ob'ektlari munosabatlar sifatida o'rtaqa chiqib, unda inson sub'ekt hisoblanadi.

Madaniyat insonning tabiatini o'zgartirishga qaratilgan ob'ektiv faoliyati natijasidir. Uning shaklini esa genetik yo'l bilan yetkazib bo'lmaydi va uni faqat madaniy meroslar jarayoni davomida sub'ektlarning o'zaro hamjihatligi orqali yetkaziladi.

2. *Izchillilik tamoyili*. O'z mohiyatiga ko'ra, turmush tarzi izchil tushuncha hisoblanadi va izchillikning barcha belgilariiga, ya'mi ichki yaxlitligi, tuzilishi, barcha komponentlarning o'zaro bog'liqligi, nisbiy erkinligi, tashqi holatlardan o'zaro bog'liq bo'lgan faoliyatiga egalik qiladi.

Turmush tarzi murakkab tizim hisoblanadi. U quyidagi tizim sifatida, ko'p sonli va xilma-xil o'zaro aloqa, munosabatlarga ega bo'lgan iqtisodiy, maishiy, ma'naviy, rekreatsion va hayotning bosqcha sohalari o'zi ichiga oladi. Har bir tarkibiy qism o'ziga xos muayyan qonunlarga binoan rivojanadi, ammo doimo hayotning umumiy tabiatiga bo'yusunadi.

Turmush tarzi madaniy va tarixiy sharoit mahsuli sanaladi. Ularning davomiyligi va yo'nalishi turmush tarzining asosiy parametrlari hamda tarkibiy elementlari o'zgarishiga olib keladi, ammo tasodifiy tebranish va tartibsizliklar odadida sezilarli iz qoldirmaydi.

Tizimli paradigma, turmush tarzining yaxlit xarakteristikasiga yaqinlashishga imkon beradi, uning tarkibiy qismlarining bo'yusinoshimi belgilaydi va bosqqa tizimlar bilan pog'onasimon aloqalarini aniqlaydi.

3. *Vaqt-makon munosabatlarini hisobga olish tamoyili*. R.Djons-ton filtricha, tabiiy-biologik omillar, inson faoliyatini tufayli turkum xarakterga ega. Vaqtinchalik turkumlar, ular doirasida amalga oshiriladigan yashash joylari bilan chambarchas bog'liq. Hayotiy faoliyatning har qanday tizimi aniq makon-zamon sharoitida rivojanadi. Insonlar keng joylarda ma'lum yo'nalish va bir maronda harakat qilishadi.

Turmush tarzining har xil turlari uchun hayotning zamон-mакон о'лчовлари о'зига хос тарзда шаклланади, шунинг учун турли аҳоли гурунинг xatti-harakatlarini zamон-макон bo'yicha о'рганиш табиийликларига яга етади. Муайян макон-замондаги турмуш тарзини табиийликларига яга етади. Муайян макон-замондаги турмуш тарзини табиийликларига яга етади. Муайян макон-замондаги турмуш тарзини табиийликларига яга етади.

omillarini tushunishga, rivojlanishining umumi daryy xususiyatini ochib berishga imkon beradi.

Hududiy-minraqaviy xususiyatlarni hisobga olish tamoyili N.N. Baranskiy va A.S. Solievning g'oyalariqa muvofiq, ijtimoiy-geografiq tadqiqotlar hududiyligi, aniqligi (manzilliliqi) va globalligi bilan ajralib turad. Bu xususiyatlarning barchasi turmush tarzini tadiq etishiga taalnqidir.

Turmush tarzini tadqiq etish har doim ma'lum darajada hududiy xususiyatga ega bo'lib kelgan. Umumi tipologik xususiyatlar bilan bir qatorda sivilizatsiyalar, mamlakatlar, mintaqalar va mamlakatlarning saqlanib qoladi. Tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit ishilarning turmush tarzini bu tunlay o'zgartiradi va ma'lum bir joyga xos bo'igan shaklini yaratadi.

Turmush tarzini hududiy tashkil qilishni takomillashtirishga qaralalarini, har xil yashash sharoitiga ega hududlarni ajratishni talab qiladi. Bunda tadqiqot ob'ekti kichrayib borgan sari uning ijtimoiy va ekologik jihatlari oshib boradi. Bunday tadqiqotlarda bevosita joylarga, kichik hududlarga "tushib", aholiga va uning yashash sharoti, kundalik turmush hayotini o'rganishga yaqinlashib boriladi. Demak, tadqiqot ob'ekti kattalashib borishida uning iqtisodiy-siyosiy ahamiyati yuqori bo'lsa, hudsoning kichrayib borishida uning ijtimoiy-iqtisodiy, xususan sotsial va ekologik ahamiyati ortib boradi. Hududiy-mintaqaviy xususiyatlar bilan bog'liq muhim jihat - bu tadqiqot doirasi hisoblanadi. Turli miqyosdagi, shu jumladan keng ko'lamli tadqiqotlarning uyg'unligi turmush tarzini o'rganish uchun o'ta zarur.

Turmush tarzini, xususan, aholi ijtimoiy holatini geografik jihatdan hodisa va voqeqliklar umumlashtirilib kartaga tushiriladi. Mazkur usulda voqeal-hodisalar to'g'risidagi barcha birlamchi ma'lumotlar avvalo unda aks ettiriladi, umumlashtiriladi, so'ingra bu ma'lumotlar undan xulosa va natijalar ko'rinishida olimib, amaliyotda qo'llaniladi. Ayniqsa, aholi ijtimoiy holatini tasvirlashda bu usul ma'qul keladi.

Sotsiologik usul. Geografik toifa sifatida turmush tarzi g'oya-sining kiritilishini asoslash va ularni tadqiq qilishda yetarlichcha

uslubiy tushunchalardan foydalanish zarurligini ko'rsatadi. Turmush tarzi tushunchasi, tabiatan fanlararo bo'lib, geografik jihatdan aniq umumiy ilmiy yondashuvlarni sotsiologik va geografik o'rganish usullari bilan birlashtirishni talab qiladi.

Faoliyatning murakkab yaxlit tizimi sifatida turmush tarzini o'rganish, turi fanlarning, avvalambor ijtimoiy fanlarning uslubiy tushun-

chalarini jalb qilishni taqozo etadi. Ijtimoiy fanlar ehtiyojlar, faoliyat mazmuni, insonlar xulq-atvori shakllari, ularning ongi bilan bog'liq masalalarni o'rganadi.

Geografik tahlii turli xil geografik sharoitlarda turmush tarzining xususiyatlarini aniqlashni, turmush tarzi shakllanishining geografik omillarini va uning bo'shlari farqlanishini, hududlarni mintaqalashtirish nuqtai nazaridan, aholining ma'lum imtiyozlarga bo'igan ehtiyojini qondirishni o'z ichiga oladi.

Geografik tadqiqotlar uchun shahar va qishloq joylari; qamrov hajmi, shakllanish tarixi, funksional mansubligi bilan farq qiladigan turar-joylar; aholi yashash joylari dagi turli hududlar yoki mavzelar, turli xil mintaqalarda istiqomat qiluvchi insonlarning xulq-atvori, qadr-qimmati, ehtiyoji, darajasi va turmush tarzidagi tafovutlar to'g'-risida turli ko'lamdag'i ma'lumotlarni to'plash juda muhim sanaladi.

Rasmiy statistika ma'lumotlarni to'plash juda muhim sanaladi. Rasmiy statistika ma'lumotlarni to'plash juda muhim sanaladi. Aniqlash uchun yetaricha imkoniyatga ega bo'lish mumkin, ammosa mintaqalararo farqlarni va turli guruh aholi qatlaming haqiqiy holatini va xulq-atvorining xususiyatlarini ko'rsatib bo'lmaydi. Burada hali ommaviy va muntazam standarlariqilagan bo'lsa-da, sotsiologik tadqiqotlar ancha samaraliroqdir.

Shu bilan birga, bir martalik sotsiologik tadqiqotlar jarayonida olingan ma'lumotlar ham alohida hududlardagi mavjud holatni ishonchliroq tarzda aks ettirishi mumkin. Bunday muammolarini hal qilish uchun ijtimoiy-geografik yondashuvlar va tadqiqot usullari talab qilinadi.

Avvalo, abolining turmush tarzi, sifati va darajasi to'g'risida ma'lumotlar; aholining o'ziga xos xususiyatlari, xulq-atvori, turmushi va yashashi to'g'risida; aholi hayotining muhit va hayotga bo'lgan munosabati to'g'risida ishonchli ma'lumotlarni olish muammolarini hal qilish kerak. Agar birinchi va ikkinchi muammolar bo'yicha

statistik ma'lumotlar ishlatsa, unda uchinchi materiallarni faqat ijtimoiy so'rovlar, qisman esa, turli yozma manbalar va inson faoliyatining boshqa natijalarini o'rganish orqali olish mumkin.

Geografik tadqiqotlarga sotsiologik metodlarni qo'llash ko'pincha hududiy belgilar va so'rovnomalarga geografik yondashuv va tamoyillar kiritilganda yanada sermahsul bo'ladı. Ijtimoiy tadqiqotlarni mintaqaviy darajalarda geografik asosda, to'g'ri tizimda o'tkazish ob'ektiv va yetarli darajada ishonchli ma'lumotlarni taqdim etishi mumkin. Biroq ijtimoiy-geografik monitoringni tizimli taskil etish istiqbollari juda muhim masala va hozirda ularni amalga oshirish mushkul.

Sotsiologik tadqiqotlarni tashkil etish va o'tkazishda muhim masalardan biri ijtimoiy so'rov namunalarini aniqlab olish hisoblanadi. Tujriba shuni ko'ssatadiki, o'z-o'zidan taskil etilgan kichik namunalar o'rganilayotgan jarayonlarning mohiyatini ham yetarlicha ishonchli aks ettradi.

Ijtimoiy tadqiqotlarda keng foydalanaadi gan usullardan biri *anketa-so'rov usuli*dir. Uning afzalligi, eng avvalo, aholining turmush tarzi va yashash sharoiti, infratuzialma ob'ektlari bilan ta'minlanganligi, ekologik holatni aniqroq babolash, umuman olganda statistikkada mavjud bo'lgan ma'lumotlarni olish imkonini beradi. Tadqiqot vazifalari doirasida keng tarqalgan xulq-atvor shakllarini aniqlashni o'z ichiga olganligi sababli, suhbatlar 18 yosh va undan katta bo'lgan shaxslar bilan o'tkaziladi.

Bu usul tanlov shakliida amalg oshirildi. Tanlangan majmua quyidagi o'chovlar, ya'nibzga ma'lum bo'lgan shahar va tumanlarda aholining taqsimlanishi asosida kvota (ulush) usuliga ko'ra: jins va yosh strukturasi, xo'jalik sohalaridagi bandligi, shahar va qishloq aholisining ulushi bo'yicha shakllantiriladi. Qo'yilgan vazifalarga muvofiq, turmush tarzi va uning tarkibiy qismlari to'g'risida ko'p qirrali ma'lumotlarni olish imkonini beradigan anketalar ishlab chiqiladi.

So'rov nomina bir necha usullardan foydalangan holda o'tkaziladi. So'rov faqat kichik respondentlar guruhlari uchun va intervyyu beruvchining huzurida o'tkaziladi, bu esa anketalarini to'ldirish sifati va samaradorligini sezilarli darajada oshirishga yordam beradi. Turli xil shaxslar bilan o'tkazilgan intervyyular materiallarini taqqoslash

xulq-atvordagi eng odatiy tendensiyalarni ilg'ab olishni va ularning xususiyatlarni aniqlash imkonini beradi.

Aholi turmush tarzini o'rganish har doim geografiya sohasiga tegishli bo'lgan bo'lsa-da, jamiyatning ehtiyojlariiga, rivojanish xususiyatlariiga, to'plangan bilimlar darajasiga hamda geograflar oldida turungan aniq vazifalariga qarab yanada kuchayib bordi. Chunki geografiya fani rivoji bilan bog'liq ijobiy silishlar tufayli dunyoning turli mamlakat va mintaqalarida aholi mavzusidagi tadqiqotlarda yana-bog'liq ilmiy izlanishlar borasida ham bir qadam oldinga qo'yilgan qadam edi.

Aholi turmush tarzi to'g'risidagi dastlabki geografik tushunchalar qadimgi Gresiyada shakllangan. Shuningdek, qadimiy davrni qatorda aholining turmush tarzi, aholoqi, urf-odatlari, an'analari, xulq-atvori va mashg'uloti to'g'risida ma'lumotlar to'plandi. O'z davrining mashhur tarixshunoslardan biri Miletlik Gekatey (eramizdan avvalgi V-IV asrlarda yashagan) ushbu davrda mavjud bo'lgan barcha sharhlar yozib qoldirgan.

Eramizdan avvalgi V asrda Gerodot o'zining "Tarix" asarida Ossuriya, Misr, hozirgi Rossiyanning janubiy hududlari, Kavkaz, Urfa-odatlari to'g'risida qiziqarli ma'lumotlarni berdi.

Miloddan avvalgi 460-377 yillarda yashagan Gippokrat esa inson va tabiat o'rtaсидаги munosabatlarni birinchilardan bo'lib aniqladi va geografik determinizmning shakllanishiga hissa qo'shdi. U skif va sarmat qabilalarining kundalik hayoti va marosimlariga oid qiziqarli ma'lumotlar qoldirdi. L.D. Simiskiy o'z tadqiqotlarida Gippokratni birinchi «antropogeograf» deb, alohida ta'kidlab o'tgan.

Bunday muhim ma'lumotlar qadimgi Rim geografi Strabon (eramizdan avvalgi I – eramizning I asri) asarlariida ham ko'zga tashlanadi. Uning mashhur "Geografiya" asarida mamlakatlarning tabiiy sharoitharini o'rganish zarurligi, shuningdek, "...geografiyaning asosiy qismi siyosiy hayot sub'ektlari bilan bog'liq" ekanligini alohida ta'kidlab o'tgan. Strabon mavjud inson qatlamlariga e'tibor beradi va insoniyatni ikki qismiga, ya'ni yunonlar hamda varvarlarga

ajratgan olimlarni qattiq qoralaydi, Hindiston xalqining yetti toifaga bo'lmishi haqida hikoya qiladi. Uning asarlarida turmush tarzining geografik omillari, turli xalqlarning aloqalarini, etnik guruhlarning ajralishi, yashash joylарining xususiyatлari keltirilgan.

Aholining turmush tarzi xaqida tassavvurga ega bo'lgan birinch K. Tatsitning "Germaniya" asari bo'lib, uning tarkibi uch qismga bo'linadi: Germaniyaning chegaralari va uning aholisining kelib chiqishi; mamlakat va aholining ahloliy holati hamda davlat va fuqarolik tuzilmalari; nemislarning alohida qabilalarini tafsiflash.

Buyuk geografik kashfiyotlar davri insoniyating Yer haqidagi g'oyalarini o'zgartirdi va butun geografik ilm-fanning jadal rivojlanishiga olib keldi. Bu esa o'zo'mida ijtimoiy-geografik bilimlarning rivojanishiga ham bevosita ta'sir qilmasdan qolmadi. V.K. Yasunskiy ta'kidlashicha, bu davrda geografiyada, mamlakatshunoslikka doir ababiyotlarda aholi mavzusi ustunlik qildi. Mazkur davrda ko'pgina joylarda aholini tahlli qilishga bag'ishlangan kameral statistika va tijorat geografiyasi keng quloch yozdi. V.K. Yasunskiy iqtisodiy geograf sifatida L. Gvichchardining "Niderlandlar bitkilar" asarini eng yirik iqtisodiy va siyosiy geografik ish sifatida baholaydi. Shuningdek, Gvichchardining zamondoshi fransuz olimi J. Boden esa insonlar xulqi, xarakter xususiyatiga tabiatning ta'sirinigina emas, qolaversa insonning tabiatga ta'sirini ko'rsatishga harakat qiladi.

Mashhur flamand kartografi Avraam Ortelyy dunyoda birinchi bo'lib aholining hayoti va urf-odatlarini aks ettiruvchi tarixiy atlasi nashr etadi.

Inson turmush tarzib bilan bog'liq nazarli masalalar Bernhard Vareniy ishlarida ham yaqqol namoyon bo'ldi. Olim tomonidan ta'kidlab o'tilgan "insoniy" fazilatlar tez-tez geografarni o'ziga qaratib, ijtimoiy-tarixiy jarayonda insonga ko'proq e'tibor qaratildi.

Ilk ijtimoiy geografik tadqiqotlar Rossiya, Germaniya, Fransiyada paydo bo'lib, ular orasida turmush tarzi geografiyasi bilan bog'liq ishlar ham uchraydi. Shuningdek, bir qancha olimlar aholi turmush tarzi bilan bog'liq tadqiqotlar olib bordi. Jumladan, S. Voban insonlarning yashash sharoitiga e'tibor qaratdi va ularni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar berdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, geografik determinizm tamoyillari XVIII asr fransuz geografiyasining yetakchi nazarli g'oyalaridan

biri hisoblanadi. Ijtimoiy masalalarga qiziqish XVIII asrning rus geograflari ishlarida ham yaqqol ko'zga tashlandi. V.N. Tatinev geografiani bloklarga ajratdi va bunda birgina siyosiy geografiani iqtisodiy, sotsial vazifalariga ko'ra o'ziga xos qismlarga ajratdi. Uning ta'rifi ga ko'ra, bu fan ma'lum bir hududdagi shaharlar va qishloqlarda istiqomat qiluvchilarning mehnat ko'nikmalari, hududning xo'jalik ixtisoslashuvida namoyon bo'ladı. Shu tarza u aholining turmush tarzini birinchi o'ringa qo'yди.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya tarixida M.V. Lomonosov tomonidan tuzilgan «Iqtisodiy leksikon» loyihasi barchaga ma'lum bo'lib, unda Rossiya mahsulotlarini ishlab chiqarish va iste'mol qilishning hududiy farqlanishini o'rganish taklif qilindi. XVIII asrning ilmiy ekspeditsiyasi umumiy tabiiy-geografiyaga yo'naltirilgan bo'lishiga qaramasdan, uning ishtiroychilari aholi hayoti bilan bog'liq tabiiy sharoitlarni o'rganishga alohida e'tibor qaratdi.

X.A. Chebotaryov va E.F. Zyablovskiylar fikricha, geografiya "biz yashayotgan Yer va uning aholisini tasvirlaydi". Ular Yerni insoniyat yashaydigan maskan, deb hisoblaydi [92]. Olim K.I. Arsenev hududni rayonlashtirish sxemalarida insonlarning faoliyat turlarini hisobga oladi va shaharlar geografiyasiqa oid tadqiqot ishlarida aholi hayotiga qo'proq e'tibor qaratdi.

Rus olimlari V.P. Androsov va A.P. Zabolotskiy-Desyatovskiy tomonidan aholi hayat faoliyati kompleks tahlli qilingan yirik shaharlar Moskva va Sankt-Peterburg mikrogeografiyasiqa oid tadqiqotlar amalga oshirildi.

XIX asr jamiyat va tabiatning o'zaro ta'sirida inson yetakchi rol o'ynaydi degan tushunchani olib keldi. Buyuk sayohatchi va tabiiy geograf A.Gumboldt tabiat haqidagi bilmlar inson madaniyati bilmlari bilan chambarchas bog'lik ekanligini, u "soft tabiat" faqat xayoliyidir, degan fikri qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, uning taniqli vatandoshi K. Ritter ham jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganishga qiziqadi. Ubirinchi marta barcha mavjud resurslarga jamoatchiliq tomonidan baho berdi va tabiatdan oqilona foydalananish haqidagi g'oyalarni ilgari surdi. Shuningdek, tabiatni insoniyat rivojanishiga ta'sirini tarixiy jihatdan ko'rib chiqdi va insoniyatning tabiatga bog'liqligini nisbye ekranligini ta'kidlab o'tadi. Aytish lozimki, bu bilan uning qarashlari antropotsentrizm g'oyalarini

bilan uyg'unlashadi. U mamlakatda yashaydigan insonlarning ozmi-ko'pmi aqliy va ahloqiy rivojlanishi qulay tabiiy sharoitga, okean farovonligi va tarixiy holatiga bog'iqligini ta'kidlaydi.

AQShda J.P.Marsh, Rossiyada A.I.Voeykov va ularning izdoshlari o'z faoliyatni davomida inson tomonidan tabiatni o'zgartirishi haqidagi fikrlarni rivojlantrib, birinchi marta insonlarni tabiatga ta'sirining ekologik oqibatlariga e'tibor berdilar. Fransiyada A. Gumboldt va K.Ritterning izdoshlari A. Gyuyo va ayniqsa E. Reklyu geografik muhit va unda insonning Yer yuzidagi roli haqida g'oyalari rivojlantirdi. Shuningdek, turmush tarzi geografiyasini nuqtai nazaridan tabiat, inson va uning xususiyatlari haqidagi ma'lumotlarni tahli qilgan E. Reklyuning mintaqaviy geografik qarashlari ham tafsinga loyiq.

Rossiyada XIX asr o'rtalari geografik tadqiqotlar jadalllik bilan rivojlangan davr bo'idi. Rus Geografiya jamiyatining statistika va ethnografiya bo'limlari faoliyatasi asosida etnografik tadqiqotlar rivojlandi. Jumladan, iqtisodiy geografiya bo'yicha birinchi allasning chop etilishi muhim voqeа bo'idi. Uning tarkibida esa jumoyat geografiyasini, aholining ijtimoiy tuzilishi kartalari ham muhim o'rн egalladi.

Rossiyada aholi geografiyasining shakllanishi P.Semenov-Tyan-Shanskiy nomi bilan bog'lik. Geografiya nafaqat Yer yuzasi tabiatini, balki inson faoliyatini ham o'rganishi kerak, degan fikri ta'kidlagan. Muraeven volosti materiallari bo'yicha kompleks ijtimoiy geografik tadqiqotni amalga oshirdi. P.Semenov-Tyan-Shanskiy kichik hudud misolida Rossiyada qishloq aholisining ijtimoiy tabaqalanishini o'rgangan. Uning boschchiligidagi Rus Geografiya jamiyatasi turli ilmiy nashrlarida aholining madaniy xususiyatlari, maishiy va iqtisodiy faoliyati haqida keng qamrovli empirik materiallarni chop etib, butun dunyo bo'yab kompleks geografik-etnografik ekspeditsiyalar o'tkazdi.

Nemis geografi F. Rixtgofen geografik fanlar tizimi tarkibida antropogeografik xususiyatni kuchaytirish maqsadida inson geografiyasini alohida yo'naliш sifatida kiritdi. Taniqli nemis olimi F. Ratsotstal geografiyaning muhim tarixiy shakllaridan biri bo'lgan

koncepsiyanı ilgari surdi. Uning fikriga ko'ra, antropogeografiya aholining joylashuv jarayonlari va hududiy harakatini o'rganadi, uning asosiy vazifasi esa turmush tarzini o'rganish hisoblanadi. F. Ratsel turmush tarzi va uning tarkibiy qismalarining geografik muhit bilan bog'iqligini ko'rsatdi.

Rossiyada XIX asrning oxirida D.N. Anuchin va E.Yu. Petri asarlariida ham antropogeografik qarashlar rivojlandi. Ular antropogeografiyanı inson hamda uning moddiy va nomoddiy madaniyati to'g'risidagi fan sifatida tushungan. XX asr boshida V.P.Semenov-Tyan-Shanskiy rahbarligida Rossiya hudoqlarining ko'p qirrali fundamental tafsifi nashr etildi, unda aholi hayoti, madaniyati va turmush tarzidagi geografik farqlar ko'rib chiqildi.

V.P. Semenov-Tyan-Shanskiy singari olimlar tomonidan shakllandi. Ular "antropogeografiya yoki umumiy inson geografiyasini, inson hayotining tabiiy muhit bilan bo'lgan o'zaro munosabatlарини o'rganadigan geografiyaning sohasи" sifatida e'tirof etganlar.

XX asrning o'rtalariда G'arbda geografiyaning ijtimoiy yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratildi. Ijtimoiy geografiyaning an'anaviy rafiyasi, xulq-atvor geografiyası) yo'nalishlari shiddat bilan rivojlandi. Madaniy va xulq-atvor paradigmalar turmush tarzi geografiyasiga katta ta'sir o'tkazdi.

Madaniyat geografiyasining zamoniyy metodologiyasi, asosan, amerikalik tadqiqotchilar tomonidan yaratildi. Xususan, K.Zauer o'zining madaniy landschaft nazariyasida insonning tabiatdagi faol rolini ta'kidladi. U insoniyatning Yer yuzidagi rivojlanishini turmush tarzi tushunchasi bilan bog'laydi. "Jamiyatning turmush tarzi minimal sarf-xarakatlar bilan ehtiyojlarini maksimal darajada qondirishga intilishdir. Aymen shu orqali atrof-muhitiga moslashish namoyon bo'ladi".

1960-yillarda ingliz-amerikageografiyasidajtimoiysohalarmavqeい yanada oshdi, bu ilm-fanning ijtimoiylashuv, tadqiqotchilarining sotsiologik tadqiqot usullarga e'tiborini alohida bag'ishlashiga, xulq-atvor tendensiyalari ta'sirini yanada kuchayishiga olib kealdi.

Geograflar ob'ektiv va sub'ektiv sabablarni hisobga olgan holda, insonlarning ma'lum bir makondagi o'zaro munosabatlarni tushu-

nishga harakat qildi. Natijada geografiyada xulq-atvor yondashuv shakklandi. Ushbu yondashuv tarafdarları orasıda geograflar G.Uayt, D.Uolpert, R.U.Keytslar o'z mavqeiga ega. Xulq-atvor geografiyasi real hayotni shaxslar nuqtai nazaridan tadqiq etadi, insonlarning yakka, guruh yoki ommaviy xatti-harakatlarini o'rganib, ularning farqlanishini aniqlaydi. Ushbu tadqiqotlar aholi turmush tarzining turli jihatlarini o'rganish bilan shug'ullanadigan mutaxassislar uchun katta qiziqish uyg'oldi. Xulq-atvor geografiyasida eng kuchli nazariy yutuq sifatiida Lund ilmiy maktabi asoschisi shvesiyalik geograf T. Xegerstrand tomonidan ishlab chiqilgan yangiliklar diffuziyasi nazariyasi e'tirof etildi.

XX asrning 70-yillari sobiq Ittifoqda ijtimoiy fanlarning butun majmuasini, shu jumladan ijtimoiy geografiyanı faol rivojantirish davri bo'ldi. Bu davrda V.V. Pokshishhevskiy, A.A. Mins va O.A. Konstantinov singari olimlar o'z ilmiy asarlarida aholining turmush tarzini geografik asosda o'rganish zarurligini ta'kidladilar. Ammo turmush tarzni muammolarining geografik jihatlari ushbu mualiflarning ba'zi asarlarida mayjud bo'lsa ham, mavzuli tadqiqotlar, asosan, falsafa, sotsiologiya, psixologiya fanlari doirasida rivojlandi.

T. V. Raytvyy yangi fanlararo yo'nalishni – sotsiologik geografiyanı aniqlaydi va uni nazariv va uslubiy jihatdan o'rganishga harakat qildi. U aholining turmush tarzini sotsiogeografiya tadqiqotining asosiy ob'ekti sifatida ko'rib chiqishni taklif qildi. Shunday qilib, u Estoniya geografiyasiда turmush tarzini ijtimoiy o'rganish asoschisiga aylandi. 1980-yillarda esa A.I. Alekseevning ishlarida, S.V. Fedulov va I.V.Sharkova dissertatsiya tadiqotlarida aholi turmush tarzini geografi o'rghanishning turli nazariv yondashuvlarini shakklandi.

N.A. Shitova MDH mammakatlarda birinchchi bo'lib, turmush tarzi geografiyasiga bag'ishlangan mavzu bo'yicha doktorlik dissertasiyani yaratdi va uni muvaffaqiyatlari himoya qildi. Uning tadiqotida turmush tarzi geografiyasi ijtimoiy geografiya yo'nalihi sifatida hozirgi bosqichida aholining kundalik turmush tarzini hududlararo farqlarini o'rganadi, deb tavsiylangan. A.D. Chebetkovning nomzodlik dissertatsiyasi Perm o'laki tarkibidagi Komi-Perm muxtor okrugi aholisinинг turmush tarzi va sifatiga bag'ishlangan bo'lib, asosan uning etnik jihatlariga ko'proq e'tibor qaratilgan. Shuningdek, respublikamizda ham turmush tarziga oid bir qancha

tadqiqotlar olib borilgan. Aholining mehnat va hayot faoliyati albatta ma'lum bir tabiiy va ijtimoiy muhit doirasida kechadi. Bu esa har qanday jamiyat sotsial-iqtisodiy tuzilmasining o'zagini, asosini tashkil etadi, ya'ni barcha ijtimoiy, siyosiy-iqtisodiy jarayonlar markazida eng avolo tabarruk Inson turadi.

Hozirgi "murakkab vaziyatda fuqarolar va ularning oila a'zolariga normal turmush sharoiti yaratib berish masalasi muhim ahamiyat kasb etadi". Etnograf olim K.Sh. Shoniyo佐 o'zbeklarning oilaviy turmush tarziga oid masalalarini Koson va Sariosiyo tumanlari maternallari asosida, jumladan, qarluqlar va qang'ililar misolida yoritadi. Muallif o'z tadqiqotida qon-qarindoshlik, oila nikoh munosabatlarining etnouhududiy jihatlarini o'rganish bilan birga, aholi urfatlariga to'xtalib o'tgan.

Qizilqum cho'lining Nurota tumaniga tutash xududlarni, o'tgan asrning boshlarida, ko'chmanchi chorvachiliq bilan shug'ulanuvchi qoraqlapqlar L.S. Tolstova tomonidan o'rganilgan. Shuningdek, mamlakatimizning turli hududlarida yashovchi qoraqlapqlarga bag'ishlangan asarida Qizilqum cho'liida yashayotgan qoraqlapqlarning qozoq urug'laridan farqli va o'xshash tomonlарини hamda ular o'rtasidagi etnomadaniy aloqalar masalalarini tahlil qilgan.

Nurota vohasi aholisi oilaviy hayotidagi jamoa an'analariiga bag'ishlangan tadqiqot ishi 2006 yilda F.S. Tolipov tomonidan bajarildi. F.S. Tolipov o'z tadqiqot ishida Nurota voha aholisi oilaviy turmush tarzida an'anaviy hududiy qo'ni-qo'shnihilik munosabatlarini, ya'ni, jamoani boshqaruva shakli, oilaning turmush tarzi, xo'jalik hayoti umuman, jamoaning oila bilan bog'iqligini yoritishni maqsad qilgan. Shuni alohida ta'kidlash joizki, tadqiqotchi asosan Shimoliy va Janubiy Nurota tog'ları orasıda yashovchi aholining oilaviy turmush tarzida jamoaviy an'analarni ilk marotaba etnologik nuqtai-nazardan o'rgandi.

Nurota vohasida etnomadaniy jarayonlarga bag'ishlangan tadqiqot ishi A.R. Tagaev tomonidan bajarilgan. Ayniqsa, Nurota vohasining janubiy, shimoliy, shimoli-g'arbiy va shimoli-sharqiy hududlari va Qizilqum cho'lining vohaga tutash hududlari turli xo'jalik-madaniy tipdagi xalqlar o'rtasidagi xo'jaliklar etnomadaniy aloqalariga aholida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, XX asrning birinchchi yarmi xronologik doirasida Nurota vohasi va Qizilqum cho'lining unga tutash

mintaqalari aholisining xo'jalik faoliyati va moddiy madaniyati masalalari etnomadaniy jarayonlarni kontekstida tadqiq qilgan.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. "Turmuş darajasi" tushunchasini izohlang?
2. Rossiya antropogeografiya maktabi asoschilarini izohlang?
3. Geografiyadagi madaniy an'analar qaysi amerikalik tadqiqotchilar tomonidan yaratildi?

14-MAVZU. QASHSHOQLIK GEOGRAFIYASI

Reja:

1. Qashshoqlik, kambagallik nima?
2. Mutlaq kambag'allik tushunchasini izohlang?
3. «Qashshoqlik madaniyati» tushunchasini izohlang?

Maqsad: talabalarda qashshoqlik, kambagallik haqida tushunchalar hosil qilish
Tayanch so'z va iboralar: qashshoqlik, kambagallik, nisbatan qashshoqlik, faqirlikning chegarasi, «qashshoqlik madaniyati».

BMT ta'rifiga ko'ra, qashshoqlik – insomning hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va to'yib ovqatlamaslik, sog'lioni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalananishda cheklavlarning mavjudligi, turar joyning yo'qligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytildi.

Boshqacha qilib aytganda, qashshoqlik – bu hayot uchun muhim bo'lgan, eng zarur minimal ehtiyojlarini qondira olmaydigan, ishga layoqatli bo'lib, o'z nasolini davom ettirishi mumkin bo'Imagan shaxs yoki ijtimoiy guruhni iqtissodiy holatining o'ziga xos xususiyatidir.

Turli mamlakatlarda va turli xil tarixiy davrlarda, bu ehtiyojlar turli yo'llar bilan baholanadi.

Mutlaq qashshoqlik, aholining turli guruhlari daromadlarining ma'lum bir minimal qiymatga etib bormaganligi bilan izohlanadi, endi u rasmiy ravishda eng kam ish haqi hisoblanadi.

Nisbatan qashshoqlik, yoki Cobuk Ifrnifok terminologiyasida, ishchilarning nisbiy qashshoqligi – bu shaxsning yoki oilaning daromadi ma'lum bir mamlakating o'rtacha daromadidan yoki xarajatlardan pastroq bo'iishi tushuniladi. Ya'mi, odamlar ocharchilikda qolmaydilar, ammo «o'rtacha pastda» yashaydilar, o'zlarini ko'p narsadan mahrumday his qildilar.

Qashshoqlik darajasi– bu aholi jon boshiga to'g'ri keladigan, xayot kechirish uchun daromadi past bo'lgan, odamlar sonining butun aholiga nissatidir.

Qashshoqliking tubi- bu kabag' al oilalarning xayot kechirish uchun eng kam daromaddan ham pasiga tushib ketish darajasidir.

Faqirlikning chegarasi- kambag' allik chegarasining 50% dan, ya'ni iste'mol minimumidan oshmaydigan jonboshi daromadi.

Kambag' allik esa insoning hayoti davomida tanlov va imkoniyatlarga ega bo'lmaydi, jamiyatda to'laqonli ishtirok etish uchun to'siqlarning mavjudligi, bundan tashqari, oиласини боғиши ва кийинтиши, та'lim олиши юки касалхонада даволанishi, бирор соҳада faoliyat yuritishi юки daromad olishga imkon beradigan mehnat bilan ta'minlash imkoniyatlari yetishmasligi hamda kredit olish imkoniyatining cheklanganligida namoyon bo'ladi. Shuningdek, kambag' allik - bu insonlar, uy xo'jaliklari va jamoalarning ijtimoiy jihatdan chegaralanganligi, xavf-xatarlar oldida chorasiqligi handa nochorligi sanaladi.

Bevosita kambag' allik va qashshoqlik tushunchalariga keladigan bo'lsak, shuni alohida ta'kidash joizki, hozirda jahon bo'ylab kambag' allik yoki qashshoqlik tushunchalarining umumqabul qilingan hamda yagona kelishilgan ta'rif ishab chiqilmagan. Har bir mammalakat o'zi uchun belgilangan kambag' allik mezondan kelib chiqib tasviflaydi.

«Qaerda kishi kambag' allikda yashashga majbur bo'lsa, u yerda inson huquqlari buziladi», - Jozef Vresinski tomonidan aytilgan ushbu so'zlar butun jahon qashshoqlikka qarshi kurashish harakatinning shioriga aylandi. Ushbu harakkatlar natijasida 17 oktyabr BMT Bosn assambleyasining 47/196-soni rezolyutsiyasi (1992 yil 22 dekabr) bilan Xalqaro kambag' allikka barham berish kuni etib belgilandi. 1992 yildan buyon har yili 17 oktyabrt Xalqaro kambag' allikka barham berish kuni sifatida nishonlab kelinadi. 1987 yil aynan shu sanada dunyoning turli manlakatlaridan yuz mingdan ortiq kishi o'zlarining kambag' allikka qarshi ekanliklarini bildirish va inson huquqlariga rioya qilinishini talab etish uchun Parijning Trokadero maydonida to'plangan edi.

Kambag' allik - ma'lum bir individ yoki ijtimoiy guruhning iqtisodiy ahvolini xarakterlovchi tushuncha bo'lib, ular nasl qoldirish, mehnat qilish qobiliyatini saqlab turish va hayot uchun zarur bo'lgan minimal ehtiyojlarini qondira olmaydi. Kambag' allik nisbiy va noaniq

tushuncha bo'lib, ma'lum bir jamiyatdagi turmush darajasining umumiy holatiga bog'liq.

Qashshoqlik turli sabablarga ko'ra vujudga keladi. Ushbu sabablarni quyidagicha guruhlarga bo'lish mumkin:

Iqtisodiy sabab - ishsizlik, iqtisodiy notenglik, shu jumladan, ish haqi va mehnat unumdorligining pastligi, sanoatning raqobatbardosh emasligi.

Ijtimoiy-tibbiy sabab - keksalik, nogironlik, kasallanishning yuqori darajasi.

Demografik sabab - to'liqsiz oila, mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining yuqori soni, aholi sonining iqtisodiy resurslarga nomuvofiq ravishda oshib ketishi.

Ta'lim va kasbiy sabab - ta'limning past darajasi, yetarli darejada professional kasbiy tayyorqaralarning mavjud emasligi.

Siyosiy sabab - harbiy nizolar, majburiy migratsiya jarayolari. Mintaqaviy-geografik sabablar - hududlarning notebris rivojanishi.

Diniy-falsafiy va ruhiy sabab - hayat tarzi sifatida kambag' allikning targ'ib qilinishi.

Ekspertlar tomonidan xalqaro amaliyotda kambag' allikni aniqlashning bir qancha kontseptsiyalardan foydalanimadi. Xususan, ularga misol sifatida quyidagi uch kontseptsiyani ko'rsatish mumkin.

Mutlaq kambag' allik. Insoming turar joy, ichimlik suvi va oziq-ovqat kabi hayotiy jihatdan zarur ehtiyojlarining og'ir darajada yetishmasligini xarakterlaydigan holat. Bu nafaqat past daromad darajasi, balki ijtimoiy tengsizlik, shuningdek, sog'lioni saqlash, sanitariya, axborot, moliyaviy xizmatlar sohasidagi imkoniyatlar cheklanganligining oqibati hisoblanadi. Jahon banki tomonidan mutlaq qashshoqlik chegarasi sifatida kunlik 1,9 AQSh dollari miqdorida daromad belgilangan. Xalqaro statistik ma'lumotlarga qaraganda, hozirda 736 million kishi mutlaq qashshoqlik chegarasida yashaydi. Nisbiy kambag' allik. Ushbu kontseptsiyada nisbiy qashshoqlik choralar niqbay qashshoqlik chegarasini belgilaydi va aholi daromadlarini o'chaydi. Agar aholining real daromadlari o'ssa va ularning taqsimoti o'zgarmasa, nisbiy qashshoqlik darajasi o'zgarmaydi. Umumiy ma'noda, nisbiy qashshoqlik tengsizlik tushunchasining bir qismi hisoblanadi. Nisbiy qashshoqlik choralar qancha odam

mamlakatdag'i o'rtacha daromadning to'ridan bir qismidan kamroq'ini olishini ko'rsatishi mumkin. Bu yondashuv, ayniqsa, notanish jamiatlarda qashshoqlikni aniqlashda yoki farovonlik darajasini baholash murakkab bo'lgan holatlarda foydali. Nisbiy qashshoqlik darajasini aniqlashda birinchi navbatda asosiy ehtiyojlarni qondirish uchun zarur bo'lgan tovarlarni sotib olish qobiliyatiga qaratildi. Bu holda nisbiy qashshoqlikni aniqlashda aholining shaxsiy daromadlari o'rtacha qiymati hisobga olinadi. AQShda nisbiy qashshoqlik chegarasi aholi o'rtacha daromadning 40 foizini, ko'plab Yevropa mamlakatlarida 50 foiz, Skandinaviya davlatlarida 60 foizini tashkil etadi.

Qashshoqlik madaniyati - sotsiologik kontsepsiya bo'lib, unda qashshoqlikka qarshi kurashish dasturlariga qaramasdan, kambag'allikning nima uchun mavjudligi, «otadan bolaga o'tishi»ga tushuntirish beriladi. Kambag'allikning antropologik aspektlari bilan shug'ullangan Oskar Luis qashshoqlikni submаданият deb ataydi. Ya'mi kambag'allik uni doimiy ravishda jonlantirishga intiladigan mexanizmlarni ishlab chiqadi, ayniqsa, bu odamlarning dunyoga bo'lgan qarashlari, oldilariga qo'ygan maqsadlari, bolalarni tarbiyalashning xarakterida ko'rimadi. Uming ta'kidlashicha, kambag'allar jamiyat a'zolari sifatida doimo o'zlariga qashshoqlik yukini olishadi, bu esa avtonom submаданиятning shakllanishiga olib keladi.

Buning sababi shundaki, bolalar shu muhitda o'sadi va shunga mos ravishda ularning xulq-atvorusini shakllantiradi. Natijada ularda qashshoqlik bilan bog'liq kompleks hissiyotlar paydo bo'lib, jamiyatning eng quyi pog'onasidan chiqib keta olmaslik tuyg'usi kelib chiqadi. Luisning yozishicha, qashshoqlik madaniyatiga mansub odamlarda doimiy cheklanish, ojizlik va qaramlik hissi paydo bo'ladı. Ular o'z mamlakatlaridagi musofirlarga o'xshab, mavjud institutlar ularning manfaatini qondirmasligiga ishonadi. Davlat tuzilmalarida nuqtai nazaridan o'zlarining quyi toifada ko'riliши va shaxs sifatida foydasizligi to'g'risidagi tushunchalar keng tarqaladi. Bu fikrlar alohida etnik yoki irqiy guruh bo'Imagan va irqiy diskriminatsiyaga uchramagan Mexiko shahri aholisiga to'g'ri keladi. AQShda esa bu madaniyat afro-amerikaliklar orasida mavjud.

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti oziq-ovqat xvfisizligi va ovqatlanish holati 2018-2019 yilgi Ma'lumotlarga ko'ra dunyoda och odamlar oshib bormoqda bu ko'rsatkich 2019 yil yanvar holatiga ko'ra 851 mln kishiga yetdi. Ya'ni sayyoramizdagi har 9 kishidan biri och hisoblanadi.

O'ган yillarda butun dunyoni qamrab olgan COVID-19 pandemiysi qashshoqlikka qarshi kurashdag'i o'nlab yillik taraqqiyotni orqaga surib yubordi. Jahon bankki ma'lumotlariga qaraganda, koronavirus yuzaga keltirgan inqiroz 88 milliondan 115 milliongacha kishini qashshoqlikka mahkum qildi. Ularning aksariyati qashshoqlik darajasi yuqori bo'lgan Janubiy Osyo va Sahroyi Kabirning janubidagi davlatlarda yashaydi. Bu raqam 2021 yilda 143-163 million kishiga yetishi taxmin qilmoqda. Bu «yangi kambag'allar» pandemiya mayjud muammolarini yanada og'irlashtirigan, hozirda keng qamrovli va doimiy qashshoqlik sharoitlarida yashayotgan 1,3 milliard kishini tashkil etdi. Pandemiya tarqalishimi cheklash maqsadida ko'rilgan choralar ularni kambag'allika olib keldi.

Dunyoda iqtisodiyot, texnologiyalar rivojlangan va ko'plab moliyaviy resurslar mavjudligi sharoitida dunyoda millionlab kishilarning kambag'allik chegarasida yashashiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Qashshoqlik faqatgina iqtisodiy muammo emas, u kishilarni munosib yashash imkoniyatidan mahrum qiladigan asosiy faktorlardan biri hisoblanadi. Qashshoqlik chegarasida yashayotgan kishilar o'zlarining huquqlarini amalga oshirish imkoniyatlaridan mahrum qiladigan va kambag'allik bilan kurashishiga to'sqinlik qiladigan ko'plab muammolar bilan to'qnashadi. Jumladan, xavfli mehnat sharoitlari, sog'lon ovqatning yetishmasligi, odil sudlovga nisbatan noteng huquqlar, siyosiy hayotda ishtirok etish imkoniyatining yo'qligi hamda sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish cheklanganini misol qilib keltirish mumkin.

Jahon banking prognozlariga qaraganda, o'rta daromadli mamlakatlarda qashshoqlik chegarasidan pastda yashovchi kishilar soni 2,3 foizga osishchi taxmin qilmoqda. «Yangi kambag'allar»ning taxminan yarmi Janubiy Osiyoda, uchdan bir qismi Sahroyi Kabirning janubidagi mamlakatlar hududiga to'g'ri keladi. Yaqin Sharq va Shimolidagi Afrika davlatlarida qashshoqlik ko'rsatkichlari Suriya

hamda Yamandagi nizolar tufayli 2015 yildagi 3,8 foizdan 2018 yilda 7,2 foizga yetdi. COVID-19 qashshoqlikni global qisqartirish yo'lidagi eng katta to'siqlardan biriga aylandi.

Nazorat savollari va topshiriqlar:

1. "Qashshoqlik va kambag'allik tushunchalarini izohlang?"
2. Nisbiy kambag'allik tushunchasini izohlang?
3. Qashshoqlik chegarasi deganda nimani tushunasiz?

Antropologiya (yunoncha, antropos — «odam») inson jismi va uning kelib chiqishi, shuningdek, insoniyat irqlarini vujudga kelishi va tarqalishi haqidagi fan;

Aholi – Yer yuzida yoki uning muayyan hududi: qit'a, mamlakat, ma'muriy birlik yoki shahar, qishlog'ida istiqomat qiluvchi insonlar majmui.

Aholi zichligi – muayyan bir hududda aholining joylashuv darajasi bo'lib, abolinинг maydonga nisbatini bildiradi, ya'nin 1 km² hududaga to'g'ri keluvchi aholi soni hisoblanadi.

Aholiga xizmat ko'rsatish sohalari geografiyası – bu iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning o'ziga xos tarmog'i bo'lib, xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar va ularning qondirilishi darajasidagi hududiy tafovutlar va shuningdek, xizmat ko'rsatish sohalarini tabiiy ijtimoiy, iqtisodiy, demografik hamda turlicha aholi joylashuvli shakklarida hududiy tashkil etilishi masalalarini o'rganadi.

Aqliy talofat – yuqori malakali kadrlarning ko'chib ketish jarayoni.

Aholi turmush darajasi – bu ijtimoiy-iqtisodiy kategoriya bo'lib, u kishilarning moddiy va madaniy-maishiy ehtiyojining qondirilishi hamda ijtimoiy turmush sharoitining yaxshilanib borishi kabi tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Bixeviorizm – inson xulq-atvoring xilma-xil jihatlarini o'rganuvchi ilmiy qarashlar majmui bo'lib, kishilarning tabiiy va sotsial muhitga moslashuvi, ularning aqli va xatti-harakatlariga muhitning ta'sirini o'rganadi.

Demografiya (yunoncha, demos — «xalq») aholini takror barpo bo'lishini o'rganadigan fan;

Demografik o'tish – aholi takror barpo bo'lishining bir bosqichdan boshqasiga o'tish jarayoni bo'lib, hozirda olmlar an'anaviy turg'unlik, demografik portlash, depopulatsiya va zamonaivy turg'unlik bosqichlarini ajratishadi.

Dengiz kasalligi – asosan, ilk bor dengizga chiqqan kishilarda kuzatiladijan, ko'ngil aynish va holsizlanish sifatida namoyon bo'ladigan jarayon.

Din (arabcha "Ishonish") - tabiat, jamiyat, inson va uning ongi,

GLOSSARIY:

yashashdan maqsadi hamda taqdiri insoniyatning bevosita qurshab olgan atrof-muhitdan tashqarida bo'lgan, uni yaratgan, ayni zamonda insonlarga to'g'ri, haqiqiy, odil hayot yo'lini ko'satadigan va o'rgatadigan ilohiy qudratga ishonch va ishonishmi ifoda etadigan maslak, qarash, ta'limotdir.

Envayronmentalizm (inglizcha, "environment" – atrof-muhit, tabiat) inson xulq-atvori va dunyoqarashi atrof-muhitning ekologik holatiga qarab shakllanishi haqidagi g'oya.

Ekologiya (yunoncha oykos – "uy", "yashash joyi") insonning atrof - muhit bilan o'zaro munosabatlarni o'rganadigan fan;

Etnografiya (yunoncha, etnos— «qabil», «xalq») qabilia, millat, etnoslarning kelib chiqishi hamda ularning madaniyati va hayot tarzini o'rganadigan fan;

Geografik determinizm (lotincha, ta'sir etmoq) – inson hayotida tabiiy sharoitning ahamiyatini bo'rttirib ko'rsatuvchi g'oya.

Geografik possibilizm (inglizcha, "possible" – imkoniyat) – geografik muhit inson faoliyatini cheklaydigan va o'zgartiradigan, ammo tarixiy, sotsial va boshqa sharoitlarning ahamiyatini (geografik determinizmdan farqli ravishda) aniqlaydigan tushuncha.

Indulgensiya – katolik cherkovida pul, tuxfa evaziga gunohlardan qutulish.

Iste'mol – iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish jarayonida moddiy va ma'naviy ne'matlardan foydalanish, takror ishlab chiqarish jarayonining oxirgi bosqichini ifodalovchi kategoriya.

Iste'mol geografiyasi – aholi turmush darajasining hududiy tafovutlari va ularga ta'sir etuvchi omillar, shuningdek, aholi ehtiyojlarini qondirish uchun mahsulot xarid qilish holattarinining xususiyatlarini o'rganadi.

Jahon dirlari – jahoning ko'pchilik mammakatlarida e'tiqod qilinadigan, ikki va undan ortiq etnoslar tomonidan qabul qilingan din.

Kasbiy xastalik – nomaqbul sharoitda mehnat qiliш va kasbiy faoliyatning zararligi oqibatidagina yoki, asosan, shular ta'sirida paydo bo'ladigan xastalik.

Madaniyat (arabcha, "ma" – joy, "din" – e'tiqod: din shahri, e'tiqod markazi, "iy" – ...ga xos) – kishining jamiyat a'zosi sifatida o'zlashtirgan bilimi, e'tiqodi, san'ati, axloq-odobi, qonun-qoidalarini

va boshqa bir qator qobiliyatlar hamda odatlarning yig'indisini ifodalovchi kategoriya (tushuncha).

Madaniy geografiya – Iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning bir qismi bo'lib, madaniy farqlarning hududiy jihatlarini o'rganuvchi yo'nalish hisoblanadi. Shuningdek, u, eng avvalo, kishilarning hayot tarzi, kashfiyotlari, hudud va ilohiy kuchlarga munosabatlarni o'rganish sifatida tushuniladi.

Migratsiya (lotincha, "migratio" – ko'chish) – kishilarning yashash, ishlash, o'qish maqsadda, ma'nuriy chegaralardan o'tgan holda, bir manzilgohdan ikkinchi manzilgohga doimiy yoki ma'lum muddatga ko'chishi bo'lib, aholining hududlar bo'ylab harakati hisoblanadi.

Milliy dirlar – ma'lum millataga xos bo'lgan, boshqa millat vakilidiniga milliarddan ortiq aholi inson e'tiqod qiladi, lekin ular faqat hindlardan iboratligi, boshqa millat vakillari tomонidan tan olinmagani uchun jahon dirlari qatoriga kirmagan.

Nozogeografiya (yunoncha, nosos – "kasallik", ya'ni inson kasalliklari geografiyasi) – tilbiyot geografiyasining asosiy tarkibiy qismalaridan biri bo'lib, u yer sharida tarqalgan ksalliklar, ularni vujudga keltiruvchi sabab va qonumiylatlarni o'rganadi.

Nozogeografik o'choq – u yoki bu kasallikning vujudga kelgan (vujudga keltingan) joyi bo'lib, u tabiiy geografik nuqtai nazardan yuqumli-parazitar kasalliklarning tabiiy o'choqlari, iqtisodiy-ijtimoiy geografiyada esa ma'lum aholi punkti, sanoat korxonasi va markazlari bo'lishi mumkin.

Nozogeografik areal – muayyan kasallikning bevosita tarqalishi yoki shu kasallik mavjud bo'lgan hudud hisoblanib, u nozogeografik rayon asosini tshkil qiladi.

Nozogeografik majmular – ma'lum tabiiy geografik va ijtimoiy-iqtisodiy, sotsial makonda, ularning ta'siri ostida vujudga keladigan turli xil kasalliklarning hududiy uyg'unligi va birligi.

Rekreatsiya geografiyasi (lotincha rekreatsio — «tiklash») ahollining dam olishimi barcha turlarini o'rganadigan fan va h.k.

Sotsial geografiya – geografiya fanlari tizimidagi aholi va ubilan aloqador barcha ijtimoiy hodisa va jarayonlarning hududiy qonuniylatlarini tadqiq etuvchi mustaqil fan.

Sotsial va madaniy geografiya – aholi bilan bog'liq ijtimoiy jarayon va madaniyatlarning hududiy xususiyatlari hamda unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganuvchi soha.

Sotsiologiya (lotincha sotsialis — «kumumjamiyat») jamiyatning rivojlanish qonunlari, aholi guruhlari o'tasida hayot va mehnat faoliyati jarayonida vujudga keluvchi munosabatlar haqidagi fan;

Savodxonlik darajasi – ma'lum bir mamlakat yoki huddud aholisi tarkibida o'qish va yozishni bilaganlarning ulush ko'rsatkichi. Savodxonlik tushunchasi turli joylarda turlicha belgilanadi. Ayrim manlakatlarda oddiy matnlarni o'qishni bilgan odam savodli hisoblangan bo'lsa, ba'zi yurtlarda o'qish bilan birga yozishni ham bilgan odam savodli hisoblangan. Shuning uchun ham savodxonlik tushunchasi mohiyatini tayin etish masalasi demografik statistika va aholi ro'yxati dasturlariga doir xalqaro yig'ilishlarda bir necha bor ko'rib chiqilgan. UNESCOning 1958-yili Parijda bo'lib o'tgan X sessiyasida barcha mamlakatlarda savodxonlik tushunchasini bixillashtirish maqsadida yozuvni tushunib o'qiy oladigan va o'zining kundalik hayotini yozma ravishda bayon qila biladigan kishilarni savodli hisoblashga kelishilgan. M. Finlandiyada bu ko'rsatkich 99,9 foizni tashkil etsa, Afrikaning ko'plab mamlakatlari 20 foizza ham bormaydi va h.k.

Ta'llim geografiyası – ta'llim jarayonining hududiy xususiyatlari va ularning tarkibiy tuzilishi, shuningdek ihm-fanga geografik omillarning ta'sirini o'rganadigan soha.

Tibbiyot geografiyası – insон salomatligi va turli kasaliklarning vujudga kelishiga ta'sir etuvchi omil va sharoitlar, ularning mamlakat hamda rayonlarda tarqalish qonuniyatları va xususiyatlarini o'rganadigan fan. U tibbiyot va geografiya o'tasida vujudga kelgan qirraviy soha hisoblanadi.

Tibbiyot kartografiyası – kasalliklarning tarqalish areallarini kartaga tushurish, hududlar bo'yicha ularning xususiyatlarini xaritada aks attirish bilan shug'ullanadigan soha.

Tog' kasalligi – yuqorida ko'tarilgan sari kislorodning kamayishi, tabiiy sharoitning o'garishi bilan bog'iqliq kasalliklar.

Urbanizatsiya (lotincha, urbus – "shahar") – shahar aholisining ko'payishi va shaharda xo'jalik mahsulotlari, xizmat ko'rsatish sohalaringin to'planishi hisobiga mamlakat miqyosida shahar roli va

ahamiyatining ortishi hamda shahar turmush-tarzining keng yoyiish jarayoni.

Xulq (xulq-atvor) — axloqshunoslik tushunchalaridan biri. Insomning fe'l-atvori bilan bog'liq axloqiy hodisa bo'lib, kishi fe'lining axloqiylik doirasida namoyon bo'lishi tushumiladi. Insomning axloqiylik doirasidagi xatti-harakatlaridan tashqari odob va axloqni o'z ichiga oladi. Odob inson haqida yoqimli taassurot uyg'otadigan, lekin oila, jamoa, jamiyat va insoniyat hayotida o'zgarish yasaydigan darajada ahamiyat kasb etmaydigan xatti-harakatlardan iborat bo'lsa, axloq — muayyan jamiyat, zamon, insoniyat tarixi uchun ta'sir eta oladigan turli xatti-harakatlar majmui, insoniy kamolot darajasini belgilovchi ma'naviy hodisa. qamrovililik jihatidan ana shu ikki hodisa o'rtasidagi xususiyatlarga ega. U odobdan keng, axloqdan tor ma'noga ega bo'lib, axloq singari jamiyat, zamon, tarix miqyosidagi voqelikka ta'sir ko'rsata olmaydi.

Xulqatvor geografiyası – insomning rubiy xususiyatlari, xarakteri va shu kabi holatarga atrof-muhitning ta'siri hamda uning hududiy jihatlarini o'rganadigan ijtimoiy geografiyaning bir qismi hisoblanadi.

Xizmat – mijozlarning ehtiyojini qondirishga yo'naltirilgan faiyat.

Xizmat ko'rsatish areali – ma'lum turdag'i xizmat ko'rsatishning ta'sir doirasidagi hudud bo'lib, uning holati servisning sifatiga bog'liq.

Yalpi ichki mahsulot – ma'lum vaqt davomida, masalan, bir yilda yaratilgan va bevosita iste'molchiarga borib yetadigan barcha tayyor mahsulot va ko'rsatilgan xizmatlarning bozor narxidagi qiymatidir. Yalpi ichki mahsulot umumlashtiruvchi iqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, u faqat mazkur mamlakat ishlab chiqarish omillardan foydalangan holda mamlakat ichida yaratilgan tovar va xizmatlar jami qiymatining bozor narxlari dagi ifodasini namoyon etadi.

Yalpi milliy mahsulot – mamlakat fuqarolari va milliy korxonalar tomonidan (dunyoning qaysi qismida bo'lishidan qat'iy nazar) yaratilgan mahsulot hamda ko'rsatilgan xizmatlarning umumiyy qiymati.

FOYDALANILGAN ADABIVOTLAR:

Rahbariy adabiyotlar:

- Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahvil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil yakunlari va 2017 yil istiqbollariga bag'ishlangan majlisidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining nutqi. // Xalq so'zi gазетаси. 2017 yil 16 yanvar, №11.
- Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini bиргаликда barpo etamiz. – Т.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
- Mirziyoev Sh.M. Qонун ustuvorligi va inson manfaatlarni ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Т.: O'zbekiston, 2017. - 48 b
- Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizi mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Т.: O'zbekiston, 2017. - 488 b.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralldagi PF-4947-sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanтиrish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. www.lex.uz.
- Asosiy adabiyotlar:

 - Komilova N.Q., Jumaxonov Sh.Z., Mirzaaxmedov X.S, Toshpo'latov A.M. Sotsial va madaniy geografiya //Oliy o'quv yurti talabalari uchun darslik. – Toshkent, 2020. -246 b.
 - Nazarov M., Tojieva Z. Ijtimoiy geografiya. -Т., «Universitet», 2003.
 - Komilova N.Q., Jumaxonov Sh., Rajabov F. Inson geografiyasi. O'quv qo'llamma. Т.: "Universitet", 2018.
 - A.S.Soliev, N.K.Komilova, S.I.Yanchuk, Sh.Z.Jumaxonov, F.T.Rajabov Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Darslik. "NOSHIR", 2019

Internet manbalari

- <http://demography.narod.ru>.
- www.demoscope.ru.
- www.lex.uz
- www.undp.org/popin/popin.html
- <https://www.worldometers.info/world-population>

Qo'shimcha adabiyotlar:

- Джуманова Р.Ф.Ахоли турмуш даражаси: кўрсаткичлари ва уни ошириш йўллари, Иктисол фанлариномзоди илмий дарожасини олиш учун ёзилган диссертация. Т. 2008 й.
- Каримов У., Каримова С. Абу Али ибн Сино. Тиббий ўйтинг. 2019

лар. Т. Мехнат.1991 йил.5-бет.

12. Rachel Pain. Introducing Social Geographies. Routledge. UK/ 2001.ISBN-10: 0340720069 ISBN-13: 978-0340720066

13. Щитова Н.А. География образа жизни: теория и практика регионального исследования. Диссертационная работа. – М., 2005. – 324 с.

14. Susan Smith, Rachel Pain, Sallie Marston, Jon Paul Jones. The Sage Handbook of Social geographies. –London, 2010. -614 p.

15. Christian Sawyer. Human geography crash course. Printed in the United States of America: Green Edition. –2012.

16. Soliev A. Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodlar va amaliyot.-Т.: Kamalak, 2013.

17.Ta'lim muammolini journali maxsus soni. 2006 yil 1-сон, 68-bet

18. Sharipov Sh., Federko V., Safarova N., Rafiqov V. Amaliy geografiya: O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinfi va o'rta maxsus, kasb – hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik. –Т.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2017.

19. Qayumov A. O'zbekistonda jinoyatchiilikning ijtimoiy geografik jihatlari. Nonzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T.2006.

20. Qayumov A., Safarov I., Tillaboeva M., Fedorko V. Jahon iqtisodiy – ijtimoiy geografiyasi: Umumiyo'rta ta'lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.–Т.: "O'zbekiston", 2019.

MUNDARIJA

Annotatsiya

| | |
|--|-----|
| Kirish..... | 3 |
| 1-mavzu. Madaniy geografiyaning obyekti, predmeti va tuzilishi | 4 |
| 2-mavzu. Aholining sotsial rivojlanishi va tuzilishi | 11 |
| 3-mavzu. Etnogeografiya va madaniyat..... | 30 |
| 4-mavzu. Lingvistik geografiya..... | 42 |
| 5-mavzu. Din geografiyasi | 52 |
| 6-mavzu. Iste'mol geografiyasi | 83 |
| 7-mavzu. Aholining tibbiy madaniyati va sog'lom turmush tarzi | 99 |
| 8-Mavzu. Ta'lim geografiyasi | 106 |
| 9-Mavzu. Fan geografiyasi | 113 |
| 10-Mavzu. Ma'naviy madaniyat geografiyasi | 120 |
| 11-Mavzu. Jinoyatchilik geografiyasi | 127 |
| 12-mavzu. Xulq-atrov geografiyasi | 138 |
| 13-Mavzu. Turmush-tarzi geografiyasi | 147 |
| 14-mavzu. Qashshoqlik geografiyasi | 167 |
| Glossary | 173 |
| Foydalananligan adabiyotlar: | 178 |

- 1373 / 14 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA DORTA
MAXSUS TALIM VAZIRLIGI CHIRCHIQ DAVLAT
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

AXBOROT RESURS MARKAZI

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda madaniy geografiyaning nazariy va amaliy asoslari (tushunchalar, qonuniyatlar, fanning zamonaviy muammolarini)ni, jamiyatda qiziqarli sotsial va madaniy jarayonlarning geografik jihatlarini tahlil qilisiga doir bilimlarni shakllantirish.

Fanning vazifasi – talabalarda madaniy geografiyaning fanlar tizimida tutgan o'rmini, madaniy-geografik tadqiqotlarning asosiy yo'naliishlari, madaniy tizimlarni huddidiy tashkil etish bilan bog'iqlig bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdir. Madaniyat so'zining ma'nomaZNUNI quyidagicha tushunish mumkin:

1. Madaniyat – uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida insoniyat tomonidan yaratilgan moddiy va ma'naviy boyliklar, asori-atiqular yig'indisi.
2. Madaniyat – u-yoki bu jamiyatga xos falsafiy qarashlar, ilm, fan, darajasini aks ettiruvchi omillar, ijtimoiy taraqqiyot darajasi.
3. Madaniyat - insonlar hayotida, jamiyat rivojida shakllangan milliy, umuminsoniy qadriyatlardan majmui.
4. Madaniyat - har bir kishining tarbiyalanganligi, insoniylik fazillari va ijodiy faoliyati ifodasidir.

Madaniyat geografiyasi tuzilishi quyidagicha: tarmoq sohalari (etnogeografiya, tilshunoslik geografiyasi, din geo-grafiyasi); kompleks yonalishlar (aholida davlatlar va mintaqalar madaniyati geografiyasi; Sivilizatsiyalar geografiyasi).

Madaniyatni qo'llanilishiga qarab shaxsiy, oilaviy, kasbiy, tabaqaviy, milliy madaniyat, jamiyat madaniyati, umuminsoniy madaniyat kabi shakllarga bo'lib o'rGANISH ham mumkin. Kundalik hayotda "muonala madaniyati", "mehmat madaniyati", "nutq madaniyati", "ishlab chiqarish madaniyati", "xizmat ko'rsatish madaniyati", "dam olish madaniyati", "huquqiy madaniyati" kabi tushunchalar ham qo'llaniladi.

QAYDLAR UCHUN

Komilova Nilufar Karshiboyevna,
Oblaqulov Husan Abdisayit o'g'li

MADANIY GEOGRAFIYA

O'quv qo'llama

Muharrir: X. Tahirov

Texnik muharrir: S. Meliquiziyeva
Musahhih: M. Yunusova
Sahifalovchi: A. Muhammad

Nashr. lits № 2244. 25.08.2020 y.

Boshishga ruxsat etildi 11.01.2022 y.
Bichimi 60x84 1/16. Offset qog'ozzi. "Times New Roman"
garniturasi. Hisob-nashr tabog'i. 9,0.
Adadi 300 dona. Buyurtma № 10.

«ZEBO PRINT» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani, 22-harbiy shaharcha.

